

QOZOQBOY YO'LDOSHEV, BEGALI QOSIMOV,
VALIJON QODIROV, JALOLBEK YO'LDOSHBEKOV

ADABIYOT

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
7-sinfi uchun darslik-majmua



Qayta ishlangan 3-nashri

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT – 2013

UO'K: 821.512.133(075)

KBK 83.3

A-20

A-20 **Adabiyot:** Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
7-sinfi uchun darslik-majmua / Q.Yo'ldoshev, B. Qo-
simov, V. Qodirov, J.Yo'ldoshbekov. – T.: «Sharq»,
2013. – 368 b.

1.1.3. Hammuallif.

ISBN 978-9943-00-951-6

UO'K: 821.512.133(075)

KBK 83.3

*Respublika maqsadli kitob jamg'armasi hisobidan ijara
uchun chop etildi.*

ISBN 978-9943-00-951-6

© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik
kompaniyasi Bosh tahririyati, 2005, 2009, 2013.



BADIIY SO‘Z QUDRATI



lohiy kitoblarda aytilishicha, **so‘z** dunyodagi barcha narsalarning asosidir. Rivoyat qiladilarki, Tangri o‘zining qudrati va jamoliga ko‘zgu bo‘ladigan yaratiq barpo etishni istaydi-yu, kunlarning birida: «Yaral!» (arabchasi «Kun!») – degan **so‘zni** aytadi. Yaratgan amrining ifodasi bo‘lmish ana shu birgina **so‘zning** kuchi bilan o‘n sakkiz ming olam va undagi jamiki narsalar dunyoga keldi. Demak, **so‘z** olam va undagi narsalardan oldin paydo bo‘lgan ekan. So‘zning cheksiz qudratini shundan ham bilsa bo‘ladi. Har qanday inson hayotida juda katta ahamiyat kasb etadigan badiiy adabiyot ana shunday qudratga ega **so‘z** bilan ish ko‘radigan san‘at turidir. Shuning uchun ham badiiy adabiyot **so‘z san‘ati** deb yuritiladi.

Badiiy adabiyot san‘atning murakkab va serqirra turi, insonda yuksak ma‘naviyat shakllantirishning eng ta’sirchan vositasidir. Insondagi ismsiz tuyg‘ular, nozik kechinmalar, ko‘z bilan ko‘rib, quloq bilan eshitib, qo‘l bilan ushlab, til bilan totinib, burun bilan iskab bo‘lmaydigan ruhiy holat jilvalarini faqat so‘z yordamida ifoda etish mumkin. Badiiy adabiyot san‘atning boshqa turlaridan asosiy ish quroli ham, materiali ham so‘z ekanligi bilan ajralib turadi.

San‘atning adabiyotdan boshqa har qanday turi inson hayoti yoki hissiyotining faqat birgina holatini ifoda eta oladi. Badiiy adabiyot esa tasvirlanayotgan narsa yoki kimsa-

ning hozirgi holatini qanchalik ishonarli aks ettirsa, uning o'tmishini ham, kelajagini ham shunchalik ta'sirchan va jonli tasvirlay oladi. Demak, odamda yuksak ma'naviy fazilatlar shakllantirishda ko'rkam (badiiy) adabiyotning imkoniyati benihoya katta. Siz teatr, kino, televideniyeda ham shunday imkoniyatlar bor-ku, deyishingiz mumkin. Unutmangki, har qanday spektakl, kino yoki telefilmlarning negizida ham badiiy so'z turadi.

Ko'rkam adabiyotda aks ettirilgan hayot serqirra ekani-dan tashqari, kishiga qattiq ta'sir ham qiladi. O'zingizga juda yoqqan badiiy asarni o'qigan holatingizni bir eslab ko'ring. Asarda tasvirlangan obrazlarning ham, bu qahramonlar kechirgan tuyg'ularning ham sizga to'g'ridan to'g'ri daxli yo'qligini yaxshi bilasiz. Asardagi voqealar hozir ro'y bermayotganligini ko'rib turibsiz. Lekin siz asardan bosh ko'tara olmaysiz. Asar qahramonlari sizga hech kim bo'lmasalar-da, ular bilan go'yo qarindosh-u taqdirdoshday bo'lib qolasiz. Ularning tuyg'u va kechinmalari siznikiga aylanib ketadi. Kitob qahramonlariga qo'shilib quvonasiz yoki kuyunasiz. Ba'zan hatto yig'laysiz. Nega shunday? San'atning boshqa turlari ham odamga shu xilda ta'sir qilganligini ko'rish mumkin. San'at asarlari ta'sirchanligiga sabab nima ekan?

Mana, siz yettinchi yildirki bir qancha o'quv predmetlari bilan tanishib kelmoqdasiz. Ularning hammasi ham sizga cheksiz olamning biror tarmog'idagi hodisalar haqida ilmiy ma'lumotlar berishga intiladi. Bu o'quv fanlari sizning aqlingizni o'stirishga, tafakkuringizni yangi-yangi axborotlar bilan boyitishga, shu tariqa sizni zamonning talablariga javob bera oladigan, hayotning sinovlariga chidaydigan qilib tayyorlashga xizmat etadi. Siz o'rgangan o'quv predmetlari yordamida dunyoning sirlari haqida bilimga ega bo'lasiz.

Badiiy asarlar ham sizning aqlingizni o'stirishga xizmat qiladi. Lekin ular aqlingizdan ham ko'ra ko'proq hissiyotingizga, tuyg'ularingizga ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida ham bu holat alohida ta'kidlangan. Badiiy asar

yuragingizni bezovta qiladi. Sizni loqaydlikdan xalos etadi. Kitob varaqlari ichida yashayotgan qahramonlarning holatiga befarq bo'lmaydigan odam o'zining atrofidagi tirik kishilarning quvonch-u g'amlariga ham loqayd qarab tura olmaydi. Nima uchun badiiy asarlardagi qahramonlarning tuyg'u-kechinmalari bizga o'tadi, «yuqadi». Biror qiziqarli badiiy asarni o'qigan kitobxon: «Ha, hayotda shunaqasi ham bo'lar ekan-da», – deb qo'ya qolmaydi. U qaysidir qahramonni yaxshi ko'rib qoladi va unga o'xshagisi keladi. Boshqa bir qahramondan esa nafratlanadi hamda unday bo'lmaslikka intiladi. Asar ta'sirida bir muddat o'yg'a cho'madi.

Siz bultur o'rgangan «Materik va okeanlar tabiiy geografiyasi», bu yil o'qiydigan «O'zbekiston tabiiy geografiyasi» singari darsliklarda kecha va kunduz, uning eng go'zal hamda so'lim fursati bo'lmish tong to'g'risida, Quyosh haqida ancha ma'lumot beriladi. Quyosh bo'lmasa, Yerdagi hayot bo'lishi mumkin emasligi ham aytiladi. Bu ma'lumotlar sizning bilimlaringizni ko'paytirishga ta'sir qiladi. Ular tufayli kecha, kunduz, tong va hokazolar borasida oldin bilmagan narsalardan xabardor bo'lasiz. Ayni vaqtda, Sizda tong payti juda go'zal bo'lishi haqida tushuncha ham paydo qilinadi. Lekin bu tushuncha va axborotlar tafakkuringizni o'stirsa ham hissiyot va tuyg'ularingizga deyarli ta'sir qilmaydi. Endi shoir Rauf Parfining «Tong otmoqda...» deb nomlangan she'ridan bir parchani o'qib ko'raylik:

Tong otmoqda. Tong o'qlar otar,
Tong otmoqda, Quyosh – zambarak.
Yaralangan Yer shari yotar
Boshlarida yashil chambarak.

Shoir tong otishi qanday sodir bo'lishini batafsil tasvirlab, nima uchun shunday bo'lganligini ilmiy asosda tushuntirib berayotgani yo'q, balki mavjud hayotiy holatning badiiy manzarasini yaratmoqda. Bu manzarada tabiatshunoslik yoxud geografiya ilmidagi axborotlarda bo'lmagan bir narsa bor: u ham bo'lsa, shoirning tuyg'u va kechinmalari! Shoir tong

otish jarayonini juda go'zal tasvir etadi. O'quvchini ham tongning chindan-da, chiroyli otishiga ishontiradi. Quyoshning zambarak bo'lib, «o'qlar» (nurlar) otishi, o'sha o'qlardan Yerning yaralanishi va bu yaralanish tufayli o'lim emas, balki boshida «yashil chambarak», ya'ni hayot paydo bo'lishi juda ham o'ziga xos, ta'sirchan ifodalangan. Ayni damda, she'rda ma'lum darajada ilmiy axborot ham yo'q emas.

Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan ona yurtimiz Turkistonning ozodligi yo'lida kurashgan kishilarni bolsheviklar qanday shafqatsizlik bilan qirganligi, o'lka nechog'liq oyoqosti etilganligi to'g'risida tarixchi olim shunday yozadi: «Butun Turkiston o'lkasida 1918-yildan 1930-yillargacha davom etgan milliy ozodlik kurashi jarayonida halok bo'lganlarning sonini hech kim bilmaydi. Taxminiy hisob-kitob qilishlaricha, faqat Turkiston o'lkasida halok bo'lganlar soni 800000 dan ortiq... Ko'plab oilalar o'z uy-joylarini tashlab, ...boshqa o'lkalarga bosh olib ketishga majbur bo'ldilar. O'nlab qishloqlar bo'shab, quzg'unlar o'lkasiga aylangan, dalalarni o't-o'lan bosib, ekin ekilmay qolgan»¹.

Xuddi shu hodisa ko'plab turkistonlik vatanparvar adiblar tomonidan turli janrlardagi asarlarda zo'r qayg'u-alam bilan aks ettirilgan. Cho'lponning «Buzilgan o'lkaga» she'ridan olingan quyidagi parchaga quloq tutaylik:

Ko'm-ko'k, go'zal o'tloqlaring bosilg'on,
Ustlarida na poda bor, na yilqi.
Podachilar qaysi dorga osilg'on?
Ot kishnashi, qo'y ma'rashi o'rniga
Oh, yig'i. Bu nega?!

Cho'lponning she'ri ham bolsheviklar qirg'ini, sho'ro mustamlakachilari tomonidan o'lkamizning vayronaga, o'likxonaga aylantirilgani haqida. Lekin bunda bironta raqam, bironta ism, nasab, nom keltirilmaydi. Vayron qilingan shaharlar, egasiz qishloqlar sanalmaydi. Shunday bo'lsa ham o'quvchining qalbida bosqinchiga nafrat uyg'onadi, u millati-

¹ Yurakdagi Buxoro (to'plam). Toshkent. «Sharq», 1998. 55-bet.

miz boshiga ko'p balolar keltirgan yovuzlardan g'azablanadi, o'tmishga beparvo qaramaydigan bo'ladi. Aslida tarixchi olim ham raqamlarni loqaydlik bilan keltirgan emas. Uning ham qalbida nafrat tug'yon urganligi ayon. Lekin ilmda olim xolis bo'lishi shart. Xolis tasvir o'quvchining ongiga ta'sir ko'rsatsa ham, tuyg'ularini junbisha keltiradigan darajada bezovta qilmaydi.

Cho'lponning she'ri esa aynan tuyg'ularga ta'sir ko'rsatish uchun bitilgan. U she'rxonning hissiy dunyosini bezovta qiladi. Chunki shoirning o'zi tuyg'ular girdobida. U xolis emas. Negaki, yomon ko'rmay turib, nafrat qo'zg'ashning, yaxshi ko'rmasdan esa, muhabbat uyg'otishning imkoni yo'q. Demak, olim ilmiy tadqiqotda xolis bo'lishga, tuyg'ularini mumkin qadar jilovlab, kechinmalarini bildirmaslikka urinishi shart bo'lsa, shoir o'z hissiyotini yashirmaydi, uni imkon qadar o'quvchiga «yuqtiradi». Shuning uchun ham badiiy asar ta'sirchan bo'ladi. Uning musiqiy ohangi, so'zlarning mahorat bilan ishlatilishi natijasida paydo bo'lgan sehrli holat o'quvchini o'ziga jalb etadi. Aytilganlardan xulosa qilish mumkinki, inson ilmiy adabiyot orqali dunyoni aql bilan tani-sa, badiiy adabiyot orqali olamni ko'ngil bilan tuyadi. Shu ma'noda adabiyotni hayotning in'ikosi (surati) deyish mumkin. Ammo uning suratga tushirilgan ayni nusxasi emas.

Badiiy adabiyotning ilmdan tub farqi shundaki, u ma'naviy haqiqatlarni aks ettiradi, fan esa ilmiy haqiqatlarni ifoda etadi. Ilmiy haqiqatning haqiqatligi fikr, mantiq orqali bilinsa, ma'naviy haqiqatni his-tuyg'u vositasida tuyish mumkin. Ma'naviy haqiqatlar inson mavjudligining maqsadini belgilab bersa, ilmiy haqiqatlar ana shu maqsadga erishishga xizmat qiladigan vositalarni topib beradi. Bu holat ko'rsatadiki, inson faoliyatida ma'naviyat birlamchi ahamiyatga ega, ammo ilmsiz uni shakllantirish mumkin emas. Chunki ma'naviyatsiz fan bo'lmaganidek, ilmsiz ma'naviyat ham yo'qdir.

Badiiy asarlarning kishida his-tuyg'u uyg'otishi sababi shundaki, har qanday badiiy asar, avvalo, kechinma, hissiyot, munosabatning mahsuli. Adabiyotdan bo'lak o'quv fanlari-

da hissiyot boʻrtib, koʻzga tashlanib turmaydi. Badiiy adabiyotda asosan tuygʻular bilan ish koʻriladi. Hamisha taʼsirlar ogʻushida, munosabatlar va kechinmalar qurshovida boʻlinadi. Chunki yozuvchi oʻz kechinma va hissiyotlarini kitobxondan bekitmaydi, aksincha, unga yuqtirishga intiladi. Mana shuning uchun ham badiiy asar qahramonlari xuddi tirik odamlarday, goʻyo yaqin kishilarday kitobxonni bezovta qiladi, oʻylantiradi.

Asar yozayotgan ijodkor hech qachon xolis turmaydi. Chunki ijod jarayonining oʻzi xolislik, betaraflik holatining buzilishi oqibatidir. Shuning uchun ham ijodkor hamisha tuygʻular ogʻushida boʻladi. Chinakam ijod namunalari ijodkorlarning hissiyotlari ifodasidir. Adib doimo nimanidir yoqalaydi yoki inkor qiladi. Yozuvchining tuygʻulari nechogʻliq kuchli, nigohi oʻtkir, dardlari salmoqli, tili biyron boʻlsa, oʻquvchi uning asarlariga shunchalik qattiq beriladi. Buning ustiga, badiiy asarlarning oʻziga xos musiqiyligi, ohangdorligi, soʻzlarning mahorat ila ishlatilishi tufayli paydo boʻlgan holat, ijodkorning dunyoni tasvirlashdagi oʻziga xosligi kitobxonni rom etadi.

Baʼzilar badiiy asarlarning taʼsirchanligiga sabab sifatida ularda qiziqarli voqealarning tasvirlanganligi deb oʻylashadi. Holbuki, qiziqarli voqealarning oʻzi hali asarning badiiyligini toʻla taʼminlay olmaydi. Axir, har bir odamning boshidan qanchadan qancha qiziq voqealar, sarguzashtlar oʻtgan. Lekin ular qogʻozga tushirilsa, badiiy asar boʻlib qolavermaydiku? Koʻrinadiki, badiiy adabiyotni ilmiy adabiyotdan farqlab turadigan narsa uning qiziq voqealar tasviriga bagʻishlangani emas ekan. Eʼtibor qilgan boʻlsangiz, siz shu vaqtga qadar oʻqigan, yodlagan koʻpgina sheʼrlarda, umuman, hech qanday voqea tasvirlanmaydi ham. Lekin ular sizga taʼsir koʻrsata olgan.

Koʻrkam adabiyotning asosiy belgisi va odamga chuqur taʼsir etishining boisi uning obrazli ekanidir. Agar shunday boʻlsa, badiiy obraz oʻzi nima degan savol tugʻilishi mumkin. Yuqorida aytilganlarga asoslanadigan boʻlsak, qisqagi-

na qilib *ijodkorning fikr, tuygʻu, hissiyot va kechinmalari singdirilgan manzara tasviri badiiy obrazdir* deyish mumkin. Demak, adabiyotga adibning fikriga uning his, tuygʻu va sezimlari ham aralashgani uchun boshqalarga taʼsir qiladi. Biror joyda biror kishi bilan boʻlgan biror voqea shunchaki aytib berilsa, u joʻngina axborot boʻlishi mumkin, lekin adabiyot boʻlolmaydi.

Badiiy obrazga berilgan taʼrifdan ham koʻrinib turibdiki, ijodkor yaratgan asari orqali fikr aytish bilangina kifoyalanmay, oʻz tuygʻu va hissiyotini ham aks ettiradi. Bunga toʻlaroq erishish uchun tasvirni eʼtiborni tortadigan ohangga boʻysundirishga, kishiga taʼsir qiladigan qiziqarli shaklga solishga urinadi. Oddiy axborot berish yoki aytib qoʻya qolish bilan obrazlilikka erishish mumkin emas.

Tasvirning obrazlilikini taʼminlash uchun soʻzning oddiy odamlar nazaridan yashirin imkoniyatlaridan foydalana bilish lozim. Chunonchi, inson hayoti ham ogʻochning umriga oʻxshaydi: avval nozik koʻchat boʻladi, keyin barq urib koʻkaradi, soʻng qiygʻos gulga kiradi, bir payt daraxt yaproqlari toʻkiladi va vaqti kelib qurib qoladi yoʻsinidagi fikr shoir tomonidan:

Umr deganlari oʻtmakda shoshqin,
Tilla barglarini elab yoʻlimga

tarzida ifodalanadi. Umrning oʻtkinchiligi haqida biz avval bildirgan fikrlar toʻgʻri boʻlsa-da, ularda favqulodda oʻziga xoslik yoʻq. Shu bois ular esda qolsa-da, eshituvchiga kuchli taʼsir koʻrsatmaydi. Sheʼriy parchada esa, yorqin, oʻziga xos obrazli ifodalar borki, bular asarning taʼsirchanligini taʼminlagan.


Badiiy adabiyot sanʼatning nihoyatda qadimiy turidir. Insoniyat paydo boʻlgandan buyon badiiy asarlar yaratilib kelinmoqda deb bemalol aytish mumkin. Rivoyat qilishlaricha, dunyodagi birinchi sheʼrni hazrati Odamota (Odam Ato) oʻgʻli Hobilning oʻldirilishi munosabati bilan aytgan ekan.

Insonning hayotiga yozuv kirib kelib, keng yoyilgunga

qadar badiiy asarlar og‘zaki tarzda yaratilgan va iste’dodli kishilar tufayli og‘izdan og‘izga o‘tib kelgan. Yozuv paydo bo‘lgach va savodli kishilar birmuncha ko‘paygach esa, badiiy asarlar turli narsalarga yozila boshlagan va bu bilan insoniyatning yo‘qolmas mulkiga aylangan. Qay tarzda yaratilganligi va kishilik xotirasida qaysi shaklda saqlanib qolganligiga ko‘ra badiiy adabiyotni ikki turga ajratishadi: **og‘zaki** va **yozma** adabiyot. Og‘zaki adabiyot qadimiy, yozma adabiyot esa undan keyinroq paydo bo‘lgan. Siz yozuvning og‘zaki nutqdan keyin paydo bo‘lganini bilasiz. Og‘zaki adabiyot yoki xalq og‘zaki ijodi namunalarining dastlab kim tomonidan yaratilganligi ma’lum bo‘lmaydi. Bu xildagi asarlar og‘izdan og‘izga o‘tib yetib keladi. Badiiy adabiyot ifoda xususiyatiga ko‘ra **lirik**, **epik** va **dramatik** singari turlarga bo‘linadi. Har bir adabiy tur esa, o‘z navbatida muayyan janrlardan tashkil topadi. Bu haqda siz o‘quv yili davomida chuqurroq bilib olasiz.

Odamda ko‘ngil bo‘lganligi uchun ham u hamisha go‘zallikka intilib yashaydi. Mutafakkirlarning: «Dunyoni go‘zallik qutqaradi», – degan gapi, aslida, olamni pokiza ko‘ngil saqlab qolishi mumkin deganidir. Shuning uchun ham san’at odamlar hayotida muhim o‘rin tutadi. Chunki uning yordamida inson ko‘ngli ezgulik va go‘zallikka oshno bo‘ladi.

**Ko‘zim
qarog‘idasan,
Vatan!**





Hamza Hakimzoda Niyoziy

(1889–1929)

*Millatim nasli bashardur, Vatanim kurrai arz,
Ikkisin xizmati farzdur, ikkisindan jon qarz.*

Hamza



Hamza 1889-yilning 6-martida Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. Otasi, o‘zining ta‘biri bilan aytganda, «Buxoroga borib xalq do‘qtiri» bo‘lib qaytganligi uchun shoir nomiga tabibning o‘g‘li ma‘nosida Hakimzoda qo‘shib aytiladi. Niyoziy shoirning adabiy taxallusi. Hamza o‘z tarjimai holida o‘n yoshida «o‘zbekcha, forschaga tom savodli» bo‘lganligini yodga oladi. Ya‘ni bu ikki tilda o‘qib, yozib, fikrlay olish iqtidoriga ega bo‘lgan. Shu boisdan bo‘lsa kerak, Hamza o‘n yoshidan Qo‘qondagi madrasalardan birida o‘qiy boshlaydi. 1908-yilda Namanganga borib, tahsilni davom ettiradi. U yerda Abdulla To‘qmullin degan tatar ma‘rifatchisi bilan tanishadi. Shoir tarjimai holida eslashicha, o‘n yoshlaridan she‘r mashq qila boshlagan. To‘qmullin Hamzaning yuz sahifadan ortiqroq hajmdagi ijod namunalarini ko‘rib, unga har jihatdan yordam va maslahat

beradi. Namanganda Hamzaning tashabbusi bilan arab tili kursi ochiladi. Unda o'n olti kishi ta'lim oladi. Iqtidorli Hamza uch oy ichida bu tilni ma'lum darajada o'zlashtirib, otasiga arabcha xatlar yoza boshlaydi.

1907-yilda hajga ketayotgan otasini kuzatib Qashqargacha borgan Hamza jadidlarning «Vaqt», «Bog'chasaroy» gazetolari bilan ilk bor tanishadi va keyinchalik ularning doimiy o'quvchisiga aylanadi. Bu gazetalar bilan tanishish har narsaga qiziquvchi, ta'sirchan va tinib-tinchimas yosh shoirning dunyoqarashi, hayotga munosabatini o'zgartirib yuboradi. U mamlakatda yuz berayotgan voqealarni, xalqning nochor ahvolini, millatning notovonligini jo'shqin yosh millatparvar nigohi bilan tahlil qila boshlaydi. Turkistonning asorat ostidaligi, xalq orasidagi jaholat, iqtisodning tanazzuldaligi, millat uchun kuyinadigan kishilarning ozligi uni qayg'uga soladi, bezovta qiladi. Ana shu millat qayg'usi, kelajak uchun bezovtalik Hamzani umrining oxirigacha tark etmadi.

Yoshlik yillarini g'animat bilgan serg'ayrat Hamza doimo ilm olish uchun tinimsiz izlanishda bo'ldi. Tahsilni davom ettirish uchun 1909-yilda Buxoroga borib yashadi. 1912-yilda haj amalini o'tash, dunyo ko'rib, kengroq bilim olish istagida Afg'oniston, Hindiston, Turkiya, Saudiya, Rossiya singari mamlakatlarning bir qator shaharlarida bo'lib, Istanbulda o'qish uchun to'xtaydi. Lekin oilaviy sharoit taqozosiga ko'ra uyiga qaytishga majbur bo'ladi.

Xalqni ma'rifatli ko'rishni orzu qilgan, mavjud maorif tizimidan qoniqmagani Hamza bir necha marta turli joylarda bolalar va kattalar uchun maktablar ochadi. U maktablarning yangi pedagogik talablar asosida ish ko'rishiga harakat qilardi. Hamzaning maktablarida savod tez chiqarilgani uchun ham el orasida tez mashhur bo'lib ketdi. Ammo turkistonliklarning chinakam savodli bo'lishini istamagan chor amaldorlari yosh ma'rifatchining maktablarini zo'rlik bilan yopib tashlab, undagi ashyolarni musodara qildilar. Bu haqda shoir 1926-yilning 25-avgustida yozgan tarjimai holida shunday eslaydi: «1914-yillarning oxirlarida Marg'ilonda maktab ochdim.

8 oyga bormay Andreyev ismindagi Skoblev maorif rahbari tomonidan majburiy yopildi. Undan yana Ho‘qand kelib, bir qancha o‘zimga yaqin kishilar to‘plab, ularning yordami bilan yo‘qsul bolalar uchun pulsiz o‘qitish maktabi ochdim. 20–30, keyin 15–16 kishi bir oygina yordam berdilar, o‘zim 4 oycha davom ettirgandan keyin, uyaz¹ nachalnigi tomonidan tintuv bo‘lib, yopildi. Lekin hech bir qanday qog‘ozlarim qo‘liga tushmagani uchun qamalmay qutuldim».

Ko‘rdingizmi, aziz o‘quvchi! Hamza millatdoshlariga ma‘rifat tarqatish uchun vaqtini ham, mablag‘ini ham, jonini ham ayamagan. Ammo millat dushmanlari uning erkin faoliyat ko‘rsatishiga yo‘l bermaganlar. Ma‘rifatchi shoir o‘zi ochgan yangi maktablar uchun yangicha yo‘nalishdagi o‘quv ashyolari kerakligini his etganligi sababli o‘sha yillarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun «Yengil adabiyot», «Qiroat kitobi» singari darslik va majmualar yaratgan. O‘z mablag‘i hisobidan maktab ochib, uni kerakli zamonaviy o‘quv jihozlari bilan ta‘minlab, maosh olmay ishlaganligiga qaramay, Hamza rus amaldorlari tomonidan siquvga olindi. Ammo shoir tanlagan yo‘lidan qaytmadi. Shoir 1915-yilda Marg‘ilonda «G‘ayrat» kutubxonasini ochdi. U kutubxona yordamida kishilarga ma‘rifat tarqatish maqsadida uning qoshida bosmaxona va nashriyot tashkil qilib, matbuot nashrlarini yo‘lga qo‘ymoqchi bo‘ldi.

Uzoqni ko‘ra oladigan iste’dodli Hamza o‘zbek xalqi hayotiga yangicha maktabdan tashqari teatr ham kirib borishi zarurligini angladi. Mutaxassislarning aytishlaricha, Hamza o‘zbeklar orasidan birinchi bo‘lib, 1908-yildayoq sahna asari yaratgan. Shuningdek, uning bir qancha kuylarni notaga solgani, birinchilardan bo‘lib roman va opera yozgani ma‘lumdir. Zamondoshlarining eslashlaricha, Hamza qo‘shiqni o‘rniga qo‘yib kuylagan, ko‘plab milliy va Ovro‘po musiqa asboblarini mahorat bilan chala olgan, o‘zi yozgan qator pyesalarga rejissorlik qilgan, ularda asosiy rollarni o‘ynagan.

¹ Uyaz – ruscha tuman ma‘nosidagi «uyezd» so‘zining buzib aytilishi.

Yangilikka o'ch, tinim bilmas millatparvar shoir qilayotgan ishlar rus bolsheviklari hamda ularning ko'nglini olish uchun o'z millatiga xiyonat qilishga tayyor turadigan manqurt mahalliy ma'murlarga yoqmaydi. Shuning uchun u bir qarasangiz Buxoroda, goh Xorazmda, goh Toshkentda, yana Xorazmda, so'ng Xo'jaylida, undan keyin Qo'qon va nihoyat, 1925-yilning avgustidan ona yurti Farg'onaning Avval qishlog'ida yurishga majbur bo'ladi. E'tibor qilgan bo'lsangiz, Hamza go'yo surgun qilingan odamga o'xshaydi. U hamisha Toshkent, Qo'qon, Samarqand singari madaniy markazlardan yiroqda tutildi. Sho'ro yillarida birorta kitobi nashr etilmadi. Hamma bitganlari yo qo'lyozma holida yoki vaqtli matbuot sahifalarida qolib ketdi. Sho'ro hukumati Hamzani atay eng xavfli joylarga, qaltis ishlarga yuborar edi. Aks holda, Farg'ona vodiysi qishloqlarida kolxoz (kollektiv xo'jalik)lar barpo etish xo'jalik ishlaridan mutlaqo yiroq shoir odamga buyurilmagan bo'lardi. Tinim bilmas shoir 1928-yilda yangi turmushni yo'lga qo'yish uchun Shohimardonga yuborildi. Shu yerda 1929-yilning 18-martida Hamza johil odamlar tomonidan vahshiyona tarzda o'ldirildi.

JONLARNI JONONI VATAN

*(«Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi»ning
uchinchi bo'limidan)*

*Qamchinbeklar osilgan Ho'qandda marsiya edarak aytil-
mish ashulaning ohangida milliy she'rlardir. Teatrlarda xo'r
qilinsa-da, muvofiqdir.*

*Qamchinbegim: «Uv!» dedi, «Yo bir piyola suvu», –
dedi-yo,
Dor tagiga olib borganda ichmay turib «Huv!» – dedi-yo.*

*Ikki misrani bir kishi, ikki misrani ko'p kishi tarafidan
aytilsa, ta'sirsiz qolmasa kerakdir.*

Vatan, vatan der edilar, na der edim bilmay oni¹,
Endi bilsam, vatan erkon² bu tanlarning shirin joni.
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni, Vatan,
Sensan, bale³ bilganlarga jonlarni jononi, Vatan!

Sensan ekan bizlara chin tug‘mish bir munglig‘ ano⁴,
Boqq‘ung tirik bo‘lsak, agar o‘lsak quchog‘ingda yano.
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni, Vatan,
Sensan, bale bilganlarga jonlarni jononi, Vatan!

Ko‘zlarmi ko‘r bo‘lgan uchun hech tanimas bo‘ldik sani,
Og‘rindi ko‘ngling yuzaga og‘lo⁵ siring chiqsin qani?
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni, Vatan,
Sensan, bale bilganlarga jonlarni jononi, Vatan!

Essiz, essiz tug‘gonlaring⁶ ko‘z yumib o‘q otib sani
Bog‘lab qo‘ling, boyonlara⁷ ne oldilar sotib sani?
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni, Vatan,
Sensan, bale bilganlarga jonlarni jononi, Vatan!

San onaizor ekan-da, achingoning bor ekan-da,
O‘lmay laxta qonlar to‘kib, xor bo‘lib yuror ekan-da.
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni, Vatan,
Sensan, bale bilganlarga jonlarni jononi, Vatan!

Biluvchilar qo‘l tutmadi, bizga sani tonutmadi,
Bilmam nelarga aldanub Tangri buyrug‘in tutmadi⁸.
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni, Vatan,
Sensan, bale bilganlarga jonlarni jononi, Vatan!

¹ *Oni* – uni.

² *Erkon* – ekan.

³ *Bale* – ha, to‘g‘ri.

⁴ *Ano* – ona.

⁵ *Og‘lo* – yig‘lab.

⁶ *Tug‘gonlaring* – tuqqanlaring, bolalaring.

⁷ *Boyonlara* – boylarga.

⁸ *Tangri buyrug‘in tutmadi* – Tangrining buyrug‘ini bajarmadi.

Bilimsizlar anglashmadi, ohu voying tinglashmadi,
Bilguvchilar burchi ekan o'ng'aylamoq¹, o'nglashmadi.
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni, Vatan,
Sensan, bale bilganlarga jonlarni jononi, Vatan!

Nihon yig'lab qon yutunur, kechmog'lig'ingni² o'tinur,
Mundin buyon o'g'lonlaring chandon³ tonurg'a tutinur.
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni, Vatan,
Sensan, bale bilganlarga jonlarni jononi, Vatan!



Savol va topshiriqlar:

1. She'r birinchi to'rtligining ilk ikki qatorini qayta o'qing.
Unda «Vatan» so'zining ma'nosini tushunmagan kishi holati qanday ifodalanganini izohlang.
2. Ikkinchi bandda shoir vatanning qanday jihatlariga urg'u berayotganini anglating.
3. Shoir vatanni tanimagan kimsalarni qanday odamga mengzamoqda?
4. Vatandan ko'z yumib, unga o'q otib, uni «boyonlarga» sotgan «tug'gonlar» kimlar va she'rda ularga qanday baho berilgan?
5. She'rning beshinchi bandidagi «onaizor» sifatlashi kimga qaratilgan va nima uchun?
6. Oltinchi to'rtlikda tasvirlangan «biluvchilar» kimlar va shoir ularga qanday ayb qo'ygan?
7. Keyingi baytda tilga olingan «bilimsizlar» kimlar va ularning aybi nimada deb o'ylaysiz?
8. Shoir shu bandda «biluvchilar»ga qanday ayb qo'ygan?
U haqlimi?
9. Shoir o'tinchi ma'nosini chaqing.
10. She'rni yod oling, ifodali o'qing.

¹ O'ng'aylamoq – tuzatmoq, o'nglamoq.

² Kechmog'lig'ingni – kechirmoqligingni.

³ Chandon – juda, yaqindan.

DARDIGA DARMON ISTAMAS

(«Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi»ning
ikkinchi – «Oq gul» bo'limidan)

«Do'st Mavlon-ey» kuyida
(namuna)

*Man bu yonga kelmas erdim,
Yora, kelturding mani-yo!
O'tga solsa kuymas erdim,
Yora, kuydurding mani-yo!
Do'st Mavlon-ey, ko'nghim Olloh sandadir.*

Bizni Turkiston eli dardiga darmon istamas,
Zulmat ichra kechsa umri, mohi tobon¹ istamas,
Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

Ko'nghidur oshuftai² lavhi tarab³, nafs-u havo⁴,
Tilsa zillat xanjari bag'rini Luqmon istamas.
Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

Qo'lidadir domi tama'⁵, ko'zidadur kayfi xumor,
Soch oqarub qaddi xam⁶ bo'lsa pushaymon istamas,
Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

Ilmsizlikda hama kelgan baloni anglayur,
Ittifoq-u g'ayrat aylab lek irfon istamas,
Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

O'zga millat uchsalar hikmat topib suyi samo⁷,
Bizni ellar loaqal yer uzra davron istamas,
Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

¹ *Mohi tobon* – yorug' oy, to'lin oy.

² *Oshufta* – shaydo, oshiq.

³ *Lavhi tarab* – maishat bitigi, shodlik yozuvi.

⁴ *Nafs-u havo* – nafs istagi, kibr, maqtanchoqlik.

⁵ *Domi tama'* – tama tuzog'i.

⁶ *Xam* – egilgan, bukilgan.

⁷ *Suyi samo* – osmon taraflari, osmon tomonlari.

O'zgalar etmoqda har kun bing sanoyi ixtiro¹,
Biz aqalli topmoqqa beranj bir non istamas,
Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

Bu na vahshat, na jaholat er-qiz-u, pir-u juvon,
Domi g'aflatdin xalos o'lmakka imkon istamas,
Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

Ey Nihon, bing² hayf, ey insoniyat, islomiyat,
Millati xor o'lmag'in hech nomusulmon istamas,
Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

1916



Savol va topshiriqlar:

1. She'ning shakliga e'tibor qiling. Uning siz o'qigan avvalgi she'rlardan shaklan farq qiladigan tomonlarini aniqlang.
2. She'rdan shoir holatini ifodalaydigan o'rinlarni toping.
3. She'rda millat qoloqligi sababi ko'rsatilgan o'rinlarni sharhlang.
4. She'rni diqqat bilan o'qib, unda sabab ifodalanayotgani yoki oqibat ko'rsatilayotganini tushuntiring.
5. «*Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida*» misrasining har band so'ngida takrorlanib kelayotgani sababini anglating.
6. She'rni yod oling.

ADABIYOT TARBIYA VOSITASI SIFATIDA

Aziz o'quvchi! Siz asta-sekin badiiy adabiyot sirlaridan voqif bo'lib, uning xazinasidagi nodir asarlar bilan tanishib bormoqdasiz. Badiiy adabiyot arabcha «adab» so'zidan olingan bo'lib, hayotiy voqea-hodisalar, inson turmushi, uning xatti-harakati, o'y-fikrlari, his-tuyg'ularini badiiy obrazlar vositasida aks ettiruvchi san'at ekanligini yaxshi bilasiz. Hayotda badiiy asar o'qimaydigan odamlar kam bo'ladi. Ba'zilar zerikkanda

¹ *Bing sanoyi ixtiro* – ming xil kashfiyotlar yaratish.

² *Bing* – ming.

ko'ngil yozish, charchaganda dam olish uchun kitob varaq-laydilar. Lekin badiiy adabiyot vaqtini mazmunli o'tkazish, ko'ngil ochish uchungina o'qilmaydi. Uning ahamiyati bundan ko'ra ancha katta, vazifasi esa salmoqli. Badiiy adabiyot olamni va odamni anglashning o'ziga xos shaklidir. U orqali siz inson hayotining mazmuni, mohiyati, dunyo voqeliklari va haqiqatini anglab borasiz. Kishi asl adabiyot namunalarini izchil o'qib, uqib borar ekan, o'zining boshqa insonlar bilan, o'rab turgan butun borliq – tabiat va bularning barchasining ijodkori bo'lmish Yaratgan bilan aloqasi, munosabatini tushuna boradi.

Hayot haqiqati tasvirlangan asarlar o'quvchining ruhiy tozarishiga ham xizmat qiladi. Ulardagi yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, muhabbat va nafratning oqibatlarini tasviri gunohdan qo'rqish, yomonlikdan tiyilish, faqat ezgu insoniy maqsadlar yo'lida umr kechirishga undaydi, imon va e'tiqodni mustahkamlaydi.

Shuningdek, kitobxonda badiiy asarlarda tasvirlangan turfa taqdir, turli qismat egalari tasvirlangan obrazlar orqali boshqa-lar shodligidan quvonish, qayg'usiga sherik bo'lish tuyg'ulari shakllanadi. Siz ilgari tanimagan, balki hayotda umuman bo'lmagan qahramonlar eng yaqin kishingiz bo'lib qoladi, ular uchun qayg'urasiz, xavotirlanasiz, ularning yutuqlaridan teringizga sig'may ketasiz, ba'zilarini esa yomon ko'rib qolasiz. Atrofingizdagi odamlarning yurish-turishi, o'y-fikrlari, orzu-intilishlari sizni befarq qoldirmayotganini o'zingiz ham seza borasiz.

Badiiy asar o'qishning yana bir ahamiyati shundaki, u kishida badiiy so'zdan ta'sirlanish tuyg'usini shakllantiradi. So'zni tushunishdan tashqari uni his eta bilgan shaxsning sezimlari noziklashadi, kechinmalari nafis tortadi. Dunyoga jism ko'zi bilangina emas, ko'ngil ko'zi bilan boqish, voqealar va narsalarning zamiridagi haqiqatlarni ko'ra bilish qobiliyati yuzaga keladi.



Saida Zunnunova

(1926–1977)



odira, Uvaysiy, Zulfiyaxonimlar izdoshi boʻlgan, oʻtgan asr oʻrtalarida oʻzining samimiy sheʼrlari, mazmunli hikoya va qissalari, betakror dostonlari bilan adabiy jamoatchilik nazariga tushgan Saida Zunnunova oʻzbek adabiyotida oʻziga xos oʻrniga ega boʻlgan ijodkordir. U asarlarida oʻzbek qizlarining tortinchoq, hayo toʻla sajiyasini, Sharq ayolining andishaga oʻralgan qiyofasini, onalarning cheksiz mehri va uning oʻziga oʻxshash ayollargagina xos boʻlgan matonatni, sadoqatni tarannum etdi.

Saida Zunnunova 1926-yil 15-fevralda Andijon shahrida xizmatchi oilasida dunyoga keldi. Otadan erta yetim qolgan shoir va qarindoshlari qoʻlida ulgʻaydi, kamol topdi. Andijon shahridagi 30-maktabni tugatgach, 1941-yilda Andijon oʻqituvchilar institutiga oʻqishga kirib, uni 1943-yilda tamomladi. Birmuncha muddat maktabda muallimlik qildi, viloyat gazetasi redaksiyasida ishladi. Adabiyotga muhabbat uni Oʻrta Osiyo davlat universiteti (hozirgi Oʻzbekiston Milliy universiteti)ning filologiya fakultetiga yetakladi, bu yerda 1947–1952-yillarda tahsil oldi. Oliy oʻquv yurtini tamomlagach, qizgʻin jurnalistik faoliyatga shoʻngʻidi va badiiy ijodga butun borligʻi bilan berildi. «Gulxan» jurnali, «Oʻzbekiston

madaniyati» gazetasida adabiy xodim, badiiy adabiyot nashriyotida muharrir hamda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi bo'lib ishladi.

Saida Zunnunovaning ilk she'ri – «Salom senga» 1945-yili Andijon viloyatining «Paxta fronti» gazetasida bosilgan. Shundan so'ng bir qator she'rlari gazeta va jurnallar sahifalarida chop etila boshladi. Uning birinchi she'riy to'plami talabalik yillari nashr etilgan. «Saidaning birinchi kitobini o'qib, «Qizingiz yozdi» deb nom qo'yib berganman, – deb yozgan edi akademik shoir G'afur G'ulom. – Xalqimizning Saidaga qilgan yaxshi niyati bekor ketmadi. U xotin-qizlarga xos nazokat, iforli, tatimli lirikasi bilan dillarimizni erkalab, hordiqalarimizni yozib, mehnatga rag'batlarimizni toblantiradigan, idrokimizni go'zalliklar tomon yetaklaydigan fahmli shoiramiz bo'lib yetishdi». Ustozlar ishonchini oqlagan shoiraning birin-ketin «Yangi she'rlar», «Gullar vodiysi», «Qizlarjon», «She'rlar», «Bir yil o'ylari», «Nilufar» she'riy to'plamlari bosmadan chiqdi. Shoira go'zal lirik she'rlar bilan bir vaqtda «Sodiq va Anor», «Xayrixon», «Surat bilan suhbat», «Qo'shnilarim» singari dostonlar ham yaratdi. S. Zunnunova bu she'riy asarlarida inson ruhiy hayotining nozik qirralarini, tuyg'u va kechinmalari, dard-u hasrat va orzu-armonlarini mahorat bilan ifodalay oluvchi shoira sifatida shakllanganini namoyish etadi. «Surat bilan suhbat» dostoni shoira ijodida alohida mavqega ega. Bu asari bilan shoira iymoni butun onalarga, ayollarga madhiya bitadi. Dostonda onaning urush tufayli ota mehridan benasib bo'lgan, ne mashaqqatlar bilan o'stirgan o'g'lining nikoh kechasidan keyingi iztirobli o'y-xotiralari tasvirlanadi. Onaning qalbida ikki qarama-qarshi kechinma – farzandining kamolga yetgani, to'yini ko'rganidan quvonch, shukronalik hamda shu kunlarga yetolmaganlar haqidagi g'am-anduhli xotiralar kurashadi.

Saida Zunnunova o'zbek-xotin qizlari hayotini o'rganish, ular turmushidagi mashaqqatli jihatlar va murakkabliklarga jamoatchilik e'tiborini jalb etish niyatida oila va muhabbat mavzusida bir qancha hikoya va qissalar yozdi. Uning «Gulbahor», «Povest va hikoyalar», «Gulxan», «Do'stlik», «Qanot»,

«Olov», «Ko‘chalar charag‘on», «Bo‘ylaringdan o‘rgilay» singari kitoblari xalqimizning ma‘naviy mulkidan joy olgandir.

Adibaning «Ona», «Ko‘zlar» nomli pyesalari ham bor.

Saida Zunnunova sevimli adibimiz Said Ahmadning turmush o‘rtog‘idir. Said Ahmadning boshiga og‘ir kunlar tushib – tuhmat bilan «xalq dushmani» sifatida qamalganda, Saida opa uning hayotga, ijodga qaytishiga madad bo‘ldi. O‘zining boshiga tushgan og‘ir sinovlarga ham bardosh berdi. Undan ering xalq dushmani, undan voz kech, deb talab qildilar. Bunga rozi bo‘lmagan yosh ayolga do‘q-po‘pisa yog‘dirdilar, qo‘rqitishga urindilar. Ta‘qib etdilar, tazyiq o‘tkazdilar, xo‘rladilar. Bu azoblar bir emas, ikki emas, davomli bo‘ldi. U hammasiga chidadi. To‘g‘ri, halol va pok deb bilgani turmush o‘rtog‘ini kutdi. Sevimli qo‘shiq bo‘lib kuylanayotgan bir she‘ridagi:

Vaslingning umidida dunyodan o‘tib borgum,
Qanoatda Saida filcha bo‘lurmi, hay-hay

satrlari shoiraning o‘sha davrdagi hayotini, ruhiy holatini aks ettirgan bo‘lsa, ajab emas.

Shoira ezgulik, adolat uchun kurashni, halol mehnatni o‘zining hayotiy maslagi deb bilgan. Bu dunyoqarash, e‘tiqod, ko‘ngil aqidasi barcha asarlarining mag‘zini tashkil etadi. Said Ahmad sadoqatli yori haqidagi xotiralaridan birida

Kurashsiz, mehnatsiz shodlik, kulguni
O‘g‘irlik mol deyman, qilaman hazar.
Qalbimning parchasi singmasa agar,
Rozimasman, birov hadya etsa zar

misralarini keltirib: «Bu satrlar Saidaxonning she‘rda chizilgan suratiga o‘xshaydi», – degan edi.

Saida Zunnunova uzoq umr ko‘rmadi. U ayni ijodiy kamolot pallasida – 1977-yilning 20-martida 51 yoshida vafot etdi. Shoira shaxsiga ehtirom sifatida Toshkentdagi ko‘chalardan biri va 224-maktabga, shuningdek, Andijon shahridagi ko‘cha va maktabga hamda Bo‘z tumanidagi akademik litseyga uning nomi berilgan.

Jahon mening bag‘rimdami yo men jahon bag‘rida,
Yuz bahorning yellarimi sochlarimni silagan?!
Ming gulshanning gullaridan rohatbaxsh bu qo‘lchalar
Baxtga ko‘mib yuragimni, yuzlarim erkalagan.

* * *

Yer uzra qo‘ndi oqshom, oy shu‘lasi bir mayin.
Kel, oppog‘im, kel, erkam, men seni allalayin.
Dudog‘ing guldand xushbo‘y, yuzlaring undan xushro‘y,
Kel, oppog‘im, bag‘rimga jajji boshginangni qo‘y.

Tovuq uxlard qo‘noqda, shamol tingan butoqda.
O‘t-o‘lanlar jimgina orom olar o‘tloqda.
Yulduz charaqlayapti, oy ham yaraqlayapti.
Qizcha uxladimi, deb mendan so‘roqlayapti.

Yer uzra qo‘ndi oqshom, oy shu‘lasi bir mayin.
Kel, oppog‘im, kel, erkam, men seni allalayin.



Savol va topshiriqlar:

1. *«Jahon mening bag‘rimdami yo men jahon bag‘rida, Yuz bahorning yellarimi sochlarimni silagan?!»* misralari qanday hayotiy lavhani ko‘z oldingizda gavdalantirayapti? «Jahon» so‘zi orqali ifodalanayotgan kechinmani izohlang.
2. *«Yuz bahorning yellarimi sochlarimni silagan?!»* tasviridagi fikr va ifoda go‘zalligini payqadingizmi? Uni tushuntiring.
3. *«Ming gulshanning gullaridan rohatbaxsh bu qo‘lchalar, Baxtga ko‘mib yuragimni, yuzlarim erkalagan»* satrlarida baxtdan masrur ona hissiyotlariga diqqat qarating.
4. *«Yer uzra qo‘ndi oqshom»* she‘ridagi dastlabki bandning *«oy shu‘lasi bir mayin»* hamda *«men seni allalayin»* tasvirlari o‘rtasidagi aloqadorlikni toping.
5. Bandda qo‘llangan «oqshom», «oy», «oppog‘im» so‘zlari-ning mazmuniy bog‘liqligi orqali yuzaga chiqayotgan badiiyatni sharhlashga urining.

6. Ikkinchi banddagi ona erkalashlarining musiqiyligi, ifoda go‘zalligini yuzaga chiqarayotgan vositalarni aniqlang.
7. Tabiat va inson uyg‘unligini qayd etish orqali ko‘zda tutilgan maqsadni ilg‘ashga urining.
8. She‘r yakuniga yaqin yulduzning charaqlashi, oyning yaraqlayotgani nima uchun ta‘kidlanmoqda? Buning qizaloq uyqu-si, tushlariga ta‘siri bo‘ladi deb o‘ylaysizmi?

* * *

Buvilar duoga qo‘llarin ochib,
«Boshi toshdan bo‘lsin», – der jigarlarin.
Buvalar yelkaga ortib, opichib,
«Boshi toshdan bo‘lsin», – der jigarlarin.
Aziz buvijonlar, aziz buvalar,
Yodingizda bo‘lsin yana bir tilak.
Boshi toshdan bo‘lsin jigarlaringizning,
Ammo tosh bo‘lmasin ko‘ksida yurak.



Savol va topshiriqlar:

1. Buvilarning duoga qo‘l ochishi, bobo (buva)larning nabilarni yelkaga ortib, opichlab yurishi tasviridagi hayotiy haqiqat va badiiy mantiqni sharhlang.
2. «Boshi toshdan bo‘lsin» iborasining ma‘nosi nima? Nima uchun aynan bosh toshdan bo‘lishi kerak?
3. Ushbu she‘rda shoira bildirayotgan tilakning ma‘nosini hayotiy misollar bilan izohlab bering.
4. Buvi va buvalarimizning shu kabi boshqa duolaridan birini eslang. Sizningcha, xuddi shoiraning mazkur she‘ridagi «ammo»si kabi bu duoning yoniga qanday tilakni qo‘yish mumkin?

MENING VATANIM

Yuz yil umr ko‘rsam, yuz yil she‘r yozsam,
Yuz yil ta‘rifingni aytsam muttasil.
Baribir, sevgili yor rasmini
Chizmoqqa munosib rang topolmayin

Chamanda tentirab yurgan rassomday,
Sening tasviringga so‘z axtararman,
So‘zlar sarasidan shu bugungiday.
Yuz yilgi she‘rimni yig‘salar hamki,
Bo‘lmaydi dildagi sevgimday asil,
Ey, mening Vatanim, mening Vatanim!

* * *

Dunyoda ne yaxshi xislatlar bor,
Hammasi, hammasi senda mujassam.
Aziz tuprog‘ingni ko‘zimga surtib,
Bahorda barglarga yuzimni surtib
Insonlik hurmati ichaman qasam:
Senga qurbon bo‘lsa, mayli, jon-tanim.
Sening shoirangman, shu ulug‘ elning
Baxtini ko‘zlovchi bir jigarbandi.
Adolat, erklikni kuylaganim-chun
Quvg‘indi bo‘lmayman keng quchog‘ingdan –
Biz doim birgamiz, mening Vatanim.
To tirik ekanman, mehring, g‘ururing
Mehnatda, rohatda jonim payvandi,
Sen mening sevganim, sen maqtaganim!



Savol va topshiriqlar:

1. «Mening Vatanim» she‘rida *«sevgili yor rasmini Chizmoqqa munosib rang topolmayin Chamanda tentirab yurgan rassomday»* Vatan tasviriga so‘z axtarayotgan shoiraning yurtga muhabbati qay darajada ekanligini siz ham tuydingizmi?
2. *«Yuz yilgi she‘rimni yig‘salar hamki, Bo‘lmaydi dildagi sevgimday asil»* misralarining ma‘nosini sharhlang.
3. Vatan uchun qurbon bo‘lishga shoiraning *«Aziz tuprog‘ingni ko‘zimga surtib, Bahorda barglarga yuzimni surtib Insonlik hurmati»* bilan qasam ichishining sababini qanday tushunasiz?
4. Saida Zunnunovaning o‘zingizga yoqqan she‘rlaridan birini yod oling.



Shuhrat

(1918–1993)



sli ot-u nasabi G‘ulom Aminjon o‘g‘li Alimov bo‘lgan shoir Shuhrat 1918-yilning 19-aprelida Toshkent shahrining Hastimom (Hazrati Imom) mahallasida tug‘ilgan. Bo‘lajak ijodkor oldin mahalladagi otinoyi maktabida, keyin sho‘ro maktabida o‘qidi. Adabiyot o‘qituvchisi Yunus Latifning ta’sirida badiiy adabiyotga mehr qo‘ydi,

she’rlar yoza boshladi.

U 1932–1933-yillarda transport texnikumida, 1934–1936-yillarda O‘rta Osiyo transport injenerlari institutida tahsil ko‘radi. 1936–1940-yillarda Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi Toshkent davlat pedagogika universiteti)da ta’lim oladi.

Shuhratning birinchi she’ri 1935-yilda 17 yoshida e’lon qilindi. Kasbiga ko‘ra transport injeneri bo‘lishiga qaramay, adabiyotga qiziqishi katta bo‘lganligi sababli respublika Yozuvchilar uyushmasiga ishga kirdi. Bu yerda yosh ijodkorning yozuvchi-shoirlarga, adabiy muhitga yaqin bo‘lish istagi amalga oshdi. U 1930-yillarning ikkinchi yarmidan e’tiboran bitgan she’rlariga «Shuhrat» taxallusini qo‘llay

boshladi. O'sha yillarda Shuhratning «Orzu va qasos» dostoni, «Mehrol» nomli ertak-dostoni chop etildi va o'quvchilarning e'tiborini tortdi.

1941-yilda Ikkinchi jahon urushi boshlangach, shoir Shuhrat urushga safarbar qilindi va u yerda 1943-yilda og'ir yarador bo'lgunga qadar janglarda qatnashdi. Shuhrat janggohda ham ijodni to'xtatmadi. Uning o'zi keyinchalik: «Garchand, frontda muntazam ijod etolmagan bo'lsam ham, qachonlardir bu sevimli hunarimga qaytish ishtiyoqi bir lahza ham xayolimdan ketgani yo'q. Ba'zan zavq-shavqimni yoki dushmanga nafratimni qog'ozga tushirib qo'yar edim», – deb yozadi.

Frontdan qaytgach, urush mavzusida «Shinelli yillar daftari» she'rlar turkumini yozdi, «Farzand», «So'lmas chechaklar» kabi dostonlar yaratdi. Ularda urushda qatnashgan odamning tuyg'ulari, urushning vayrongarchiliklariga nisbatan nafrati ta'sirli aks ettiriladi.

Hayotga romantik ko'z bilan qaraydigan, hamisha ezgulikka intilgan Shuhratning ijodida qahramonlik ko'rsatgan odamlarning jasorati tasvirlangan balladalar alohida o'rin tutadi. Shoirning «Ona va farzand», «Jamila», «Raymonda» kabi balladalar markazida bolalar obrazi turadi. Ularda o'zgalarning vatanini bosib olgan kimsalarga qarshi kurashgan qahramon bolalar hayoti tasvirlanadi. Agar birinchi asarida sho'ro yerlarida borgan urush voqeasi aks etgan bo'lsa, «Jamila»da arab qizining fransuz bosqinchilariga qarshi, «Raymonda»da Vyetnamda borayotgan urushga qarshi turgan fransuz qizi jasorati madh etiladi.

Shuhratning «Uch qiz afsonasi», «Guldursun», «Qora va oq aravacha haqida ertak» kabi balladalarida ham turli odamlar tomonidan turli davrlarda ko'rsatilgan qahramonliklar madh etilgan. Siz o'rganadigan «Mardlik afsonasi» balladasi ham ana shu yo'nalishdagi asarlardan bo'lib, juda qadim zamonda yashab o'tgan momomiz To'marisning tengsiz shijoatini tasvirlashga bag'ishlangan.

Urushda sho'ro tuzumi uchun qon to'kkan Shuhrat 1951-

yilda shu hukumat idoralari tomonidan «millatchi» degan tuhmat bilan qamoqqa hukm qilinib, Shimoliy Qozog‘istonga jo‘natiladi. Yozuvchi to‘rt yildan ortiqroq vaqt mobaynida qamoqda g‘oyat og‘ir azoblarni boshidan kechiradi. Shoir Shuhrat qanchalik og‘ir azoblarga solinmasin, hech kimga qarshi ko‘rsatma bermaydi, biror ijodkorga tuhmat qilmaydi. 1955-yilda noto‘g‘ri qamalgan kishi sifatida oqlanib, qamoqdan chiqariladi.

Qamoqdan qaytgach, Shuhrat she‘rlar bilan birgalikda bir qancha nasriy asarlar ham yozdi. U oldin bir qator hikoyalar yaratdi. 1958-yilda birinchi romani «Shinelli yillar»ni yozdi. Unda janggohlardagi urush manzarasi, urush odamlarining qiyofasi chizildi. 1965-yilda adibni elga mashhur qilgan «Oltin zanglamas» romani bosilib chiqdi. Bu asarda sho‘ro tuzumining eng adolatsiz, eng chirkin bosqichi bo‘lmish qatag‘on davri mahorat bilan aks ettirilgan. Adib asarida aks etgan voqealarni o‘z boshidan o‘tkazganligi uchun romanda tasvir tabiiy chiqqan va u ulkan muvaffaqiyat qozongan. «Oltin zanglamas»dagi hayotni men yaxshi bilaman, ular men bilan bo‘lgan, menga uchragan kishilarning hayoti. Men bu hayotning atrofidasam, naq ichida bo‘lganman. Bu mavzuda biron narsa yaratmasam ko‘nglim o‘rniga tushmas edi», – deb yozadi yozuvchining o‘zi.

1968-yilda Shuhratning «Jannat qidirganlar» romani chop etildi. Unda yozuvchi o‘zbek adabiyotida birinchi bo‘lib, chet eldagi o‘zbeklar hayotini aks ettirishga urindi. U davrda chet elga ketib qolgan har qanday odam sotqin, xiyonatchi sifatida qabul qilinar edi. Shuhrat bunday noto‘g‘ri yo‘ldan bormadi. U chet ellik millatdoshlarimizning hayotiy va ishonarli timsollarini yaratdi. Shuning uchun ham sho‘ro tuzumining navbatdagi zug‘umiga yo‘liqdi. Yozuvchining tarixiy mavzudagi «Mashrab» romani vafoti sababli tugallanmay qoldi.

Shuhrat 1993-yilning 20- iyunida uzoq davom etgan og‘ir kasallikdan vafot etdi.

Uzoq-uzoq o'tmishlar tarixin titsam,
Massagetlar shonidan bir qissa bitsam,
Afsona deb, kitobxon, qo'limni tutma!
Shonli uzoq o'tmishdan ko'zing berkitma!
Axir, qancha chuqurdan qaynasa buloq,
Suvi shuncha pok bo'lur, shuncha totliroq!
Ko'hna tarix bu kunga gar bo'lsa ibrat,
Uni eslab turmoqlik kerakdir albat.
Afsonaga o'xshaydi qissaning o'zi,
Ammo unda mavjuddir haqiqat izi.
Haqiqatdan tug'ilar ba'zan afsona!
Ulush qo'shsa ne ajab ertakchi ona.
Baxshi unga bog'lasa qanot va quyruq,
Qalbi bergach ko'ksidan shunday bir buyruq!
Tariximiz ko'p ulkan, keksa, beqiyos,
Har yili yuz dostonga bo'lur bir asos!
Amudan suv ichganmiz, cho'lda mol boqib,
Bobotog'da yurganmiz lolalar taqib...
Ba'zan dushman kelardi tomog'in qoqib,
Jang qilganmiz qirlarda, tunda o't yoqib.
Bir kun yurtga ot soldi bosqinchi Eron,
Kayxusravning niyati: yer-suv, mulk, qiron...
– Bosh eg! – dedi ellarga, – men yashay mag'rur.
Men o'tganda qo'lingni qovushtirib tur!
Menga bo'shat uyingning yumshoq to'rini!
Menga bo'shat yoz chog'i salqin so'rini!
Kabob yasa qo'zining barra go'shtidan,
Xazinamga soliq yig' bog', qir, dashtidan!
Haramimga to'plansin tam-tam go'zallar!
Shavkatimga to'qilsin doston, g'azallar!
...Nayrang bilan Amudan o'tdi ot solib,
Bayrog'ida shum ajal, erksizlik olib.
Tinch bir o'lka oromin yo'qotdi shunda,

Hatto go‘dak ko‘ksiga o‘q otdi shunda!..
El-u yurtni qopladi motam libosi,
Qon yig‘ladi hattoki, ko‘lida g‘ozi.
Qon yig‘ladi el, elat, urug‘ va aymoq,
Qon yig‘ladi dala-tuz, sahro, qir va bog‘.
Qon yig‘ladi beshikda tilsiz norasta,
Qon yig‘ladi chol-kampir, dillari xasta.
Qon yig‘ladi bog‘da gul, qirda chechaklar,
Qon yig‘ladi nomus deb, qiz, kelinchaklar.
Qon yig‘ladi qo‘zi-qo‘y taqir o‘tloqda,
Qon yig‘ladi: – Suv! Suv! – deb dehqon qirg‘oqda.
Shunda chiqdi otilib ona To‘maris,
– O‘lim yovga! – dedi u. – Bukmaymiz hech tiz!
Bizni sahro burguti, lochini derlar,
Bizga aziz, muqaddas bu ona yerlar.
Dushman oti nag‘alin¹ izi tushmasin!
Bog‘imizdan biror qush bevaqt uchmasin!
Uyat bizga – dushmanga bosh egib yashash!
Boqing, dushman mol-mulkni qilur xomtalash!
O‘choqdagi olovim so‘nmasin desang,
Ariqlarda suvlarim tinmasin desang,
Gullarimning shoxlari sinmasin desang,
Bola-chaqam qon yig‘lab qolmasin desang,
Qo‘llaringa yov zanjir solmasin desang,
Ona yurtim daxlsiz, muqaddas desang,
To‘ldi sabr kosasi, yetar, bas desang,
Desang ona elimning aziz tuprog‘i,
Desang bevaqt so‘lmasin hatto yaprog‘i,
Sariq xazon bo‘lmasin yorim jamoli,
Qon hidiga to‘lmasin bahor shamoli,
Bulut ichra tolmasin yorqin quyoshim,
O‘t ichida yonmasin qir, dala-toshim,
Bo‘g‘zimda qolmasin erk to‘la kuyim,

¹ Nag‘al – taqa.

Aylanmasin azaga bazmim va to'yim,
Oyoqosti bo'lmasin ajdodim go'ri,
Podam ichra oralab yurmasin bo'ri,
O'tirmasin yov chiqib uyim to'riga,
Suv sepmasin tandirda qolgan qo'rimga,
Bukilmasin ellikka yetmasdan belim,
Kesilmasin og'zimda bu biyron tilim,
O'yilmasin ko'zlarim, ko'rsin jahonni,
Qullik uchun tutmayman tanda bu jonni
Desang, xalqim, bosh ko'tar, tur, oyoqqa tur!
Dushman kelur bostirib, qarshisiga yur!
Omochni qo'y, qo'lingga qilich, yarog' ol!
Agar qilich topmasang, bolta, o'rog' ol!
Neki bo'lsa ol qo'lga, lekin qurol ol!
Xoh kattasan, xoh kichik, xoh er, xoh ayol!
Oyog'ingga etik kiy, belingni bog'la!
Ona tuproq tuzini, vaqt keldi, oqla!
Xoh otlasan, xoh yayov, anjoming tuzat!
Maydonga chiq, maydonga, mardliging ko'rsat!
«Xo'p bo'ladi!» – dedi el, turdi oyoqqa.
Hatto chollar tayanib hassa-tayoqqa!
Bitta mushtga aylandi yurt, ovul, qishloq,
To'lib ketdi lashkarga qir-u soy, toshloq!
Kiyim-boshi qurama, maqsad bittadir,
Bir og'izdan barchasi xitob etadir:
– Sensan yurtning onasi, onaliging qil!
Sening so'zing biz uchun amri vojib, bil!
O'zing boshla maydonga, boshla, To'maris!
Qolsin bizdan tarixda shonli porloq iz!
Qo'li bog'liq yashashdan o'lim a'lodir,
Bosqinchi yov o'limga mahkum balodir.
O'zing boshla mardona, boshla, To'maris,
Yo o'lamiz, yo yurti shonga ko'mamiz!
«Xo'p! Men rozi! – dedi u, – tinglang alqissa:
Mening uchun qonundir, elim ne desa!»

Boshlab ketdi lashkarni, ostida tulpor,
Xalq ishonchi qalbiga yana kuch to‘plar!
Qilich, qalqon yarashar mag‘rur bastiga,
Uzun sochi olingan qalpoq ostiga.
Baland poshna etigi xipcha oyoqda,
Olov ko‘zi der edi: dushman qayoqda?
Ishonch bilan lashkarni boshlab ketdi u,
Necha qir-u soylardan boshlab o‘tdi u.
Jangga kirdi mardona, iftixor bilan,
Ishonch bilan, o‘ch bilan, nomus-or bilan.
G‘urur bilan, kuch bilan, matonat bilan,
G‘azab bilan, zarb bilan, zo‘r nafrat bilan...
Ming-minglab bosh sapchadek uzilib qoldi,
Ming-ming tana majolsiz cho‘zilib qoldi.
Qonlar qonga qorishdi, o‘lik o‘likka,
Otlar jangga kirardi pishqirib tikka.
Duch kelganni kesadi o‘rog‘-u bolta,
Uzun qilar so‘yillar qo‘l bo‘lsa kalta!
Mundoq boqsa Kayxusrav, qo‘shin holi tang,
Xos askarin tushirib, o‘zi qildi jang.
Amin edi mahorat, kuch, bardoshiga,
Mard To‘maris ot qo‘yib chiqdi qoshiga.
Qilichbozlik boshlandi yakkama-yakka,
Tashlanardi otlari arslondek tikka.
Qalqon to‘sib qolardi qilich zarbini,
Ikki tomon garovga qo‘ygan qalbini.
Qalbinimas, hayoti, erk, iqbolini,
Yurt nomusi, sharafi, istiqbolini!
Ming chirandi Kayxusrav, bo‘lmadi biroq!
Qochib qoldi qo‘shinin tashlab tumtaroq!
Quvib ketdi mardona yovqur To‘maris,
Qorasini yo‘qotmay borar izma-iz.
Shiddatida bor edi yigit viqori,
Yetib borib qilichin tutib yuqori
Yelkasiga tushirdi boshi aralash.

Deya: «O‘zi bo‘lurmi tinch elni talash?!»
 Otdan uchib Kayxusrav mukkalab ketdi,
 Qora qonga belanib yoqasin tutdi.
 Titrar edi maqtanchoq, chiranchoq qalbi,
 Bir-biriga tegmasdi po‘rsildoq labi.
 Uchib ketgan qo‘lidan tilla sop qilich,
 Zarbof to‘ni der edi: «Endi jondan kech!»
 Shafqat tilab boqardi To‘marisga u,
 Tilin o‘nglab ololmas hatto so‘zga u.
 Kalta qildi so‘zini To‘maris esa:
 «Hukm shudir qahramon xalqim ne desa!»
 Bir og‘izdan xalq dedi: «Dushmanga o‘lim!»
 Xalq qalbida nafrati, qahri limmo-lim!
 Shart uzildi murdorning boshi tanidan...
 Bosh dumalab yotardi el oyog‘ida,
 Oltin sirg‘a yiltillab so‘l qulog‘ida!
 Mard To‘maris so‘z olib dedi: «Xaloyiq!
 Yovga bergan zarbingiz maqtovga loyiq!
 Do‘stga bo‘lgan mehrcha yovga qahringiz!
 Endi butun ozoddir qishloq, shahringiz!»
 So‘ngra boqdi dumalab yotgan u boshga:
 «Tiriklikda to‘ymovding sira qon-yoshga,
 Mana endi to‘yib ol, boshing ko‘mib ich,
 Bu gal senga kerakmas qalqon-u qilich!» –
 Deya uzuq boshni u chuqurga otdi,
 Chuqurdagi qonga bosh ko‘milib botdi!
 Xalq olqishlab qizini dedi: «Tashakkur!
 Aqling – daryo, mehring – ko‘l, har bir so‘zing – dur!»
 El tinchidi, o‘lkada ur-sur yo‘qoldi,
 Yovdan faqat tuproqda qonli iz qoldi.
 Tunda yomg‘ir, sel kelib yuvdi uni ham,
 Go‘yo qayta boshidan poklandi olam!
 Tutdi omoch qulog‘in erksevar dehqon,
 Mard To‘maris dovrug‘in el qildi doston.



1. Ballada matnidagi xalq, To‘maris va muallif nutqini ajratib. Asar matni ustida ishlaganda ularni o‘ziga mos ohangda o‘qing.
2. O‘ylab ko‘ring-chi, «*Axir, qancha chuqurdan qaynasa buloq, Suvi shuncha pok bo‘lur, shuncha totliroq!*» misralarining afsonaga qanday daxli bo‘lishi mumkin?
3. Kayxusrav bostirib kelayotgani aniq bo‘lganda massagetlar orasida qanday holat yuz berdi? Sizningcha, bu nimadan dalolat beradi?
4. «*Qon yig‘ladi*» birikmasining to‘qqiz marta takrorlanish sababini izohlang.
5. Balladadagi: «*Bo‘g‘zimda qolmasin erk to‘la kuyim*», «*Oyoqosti bo‘lmasin ajdodim go‘ri*», «*O‘tirmasin yov chiqib uyim to‘riga*» kabi tasvirlarning badiiy va ijtimoiy ma’nosini anglating.
6. Asardagi: «*Kiyim-boshi qurama, maqsad bittadir*» tasvirini tushuntiring.
7. Xalqning: «*Qo‘li bog‘liq yashashdan o‘lim a‘lodir*» tarzidagi xitobiga tayanib, bobolarimiz tabiatini sharhlang.
8. To‘marisning shaxsiyatini, mardligini ko‘rsatuvchi misralarni matndan alohida ajratib o‘qing. Yovqur qabilaboshi-ning shaxsiyatiga baho bering.
9. Siz tarix darsida o‘qigan «*To‘maris*» afsonasi bilan «*Mardlik afsonasi*» balladasi mazmunida qanday farq va o‘xshashliklar bor? Ikki asarni taqqoslab, fikringizni ayting.
10. «*...Yovdan faqat tuproqda qonli iz qoldi. Tunda yomg‘ir, sel kelib yuvdi uni ham! Go‘yo qayta boshidan poklandi olam!*» satrlarini sharhlang.

BALLADA

She'riyatning o'ziga xos janri bo'lgan ballada fransuzcha «balada» so'zidan olingan bo'lib, «raqs qo'shig'i» ma'nosini anglatadi. Hajman u qadar katta bo'lmagan bu xil asarlarda shoir o'z his-tuyg'ularidan tashqari ana shu tuyg'ularga sabab bo'lgan voqealarni ham tasvirlagan.

O'zbek adabiyotida balladalar ko'proq tarixiy-fantastik va qahramonlik yo'nalishlarida bitilib, ularda o'tmishda ko'pchilikning foydasi yo'lida fidoyilik ko'rsatgan kishilarning jasorati tasvirlangan.

Shoir Shuhrat qalamiga mansub Siz tanishib chiqqan «Mardlik afsonasi» balladasi ko'rganingizdek, xalqimizning shonli o'tmishidagi qahramonliklardan birini tasvirlashga bag'ishlangan. Bobolarimiz tarixida bo'lib o'tgan o'sha hayotiy voqea Shuhrat tomonidan boshqacharoq talqin etilgan. «Mardlik afsonasi»da shoir asarda aks etgan voqealarga aralashadi, qahramonlarning xatti-harakatlariga munosabat bildiradi. Shuhrat To'maris va uning o'z qavmiga muhabbatini, ayni vaqtda, Kayxusrav va uning bosqinchi qo'shinlariga nafratini ochiq bayon etadi.

Balladada To'marisning qahramonligiga alohida urg'u beriladi. Yovqur ayolning qonxo'r bosqinchi bilan yakka-ma-yakka olishuvi va zo'ravonlikni kasb qilgan Kayxusravni yenggani ta'sirli ravishda aks ettiriladi. Ballada janrining talabidan kelib chiqib, To'marisning bosqinchi forsni o'z qo'li bilan o'ldirgani alohida tasvir etiladi. Shuningdek, asarda To'maris qanchalik jangovar hukmdor, mohir jangchi bo'lmasin, el-ulusning fikrini tinglaydigan, unga quloq soladigan odam sifatida ko'rsatiladi. Bu hol, obrazning ta'sir kuchini yanada oshirib, unga insoniy joziba baxsh etadi.



Rasul Hamzatov

(1923–2003)



*She'riyat, mazlumga homiylik qilding,
Qaroli bo'lmading zo'ravonlarning.
Olding panohingga notavonlarni,
Zolimlarni esa dushman deb bilding.*



asr jahon she'riyatining yirik vakili Rasul Hamzatov – Dog'istondagi avar elining farzandi. U o'zining yoniq she'riyati bilan kichkinagina xalqini katta olamga tanitdi va mashhur qildi.

R. Hamzatov 1923-yilning 8-sentabrida tug'ildi. O'n uch-o'n to'rt yoshlaridan she'rlar yoza boshlagan. O'n olti yoshida o'z yurtining taniqli shoiri edi. Rasul Hamzatov mustaqil hayotga barcha tog'lik yigitlar singari erta qadam qo'ydi. O'n sakkiz yoshidan o'qituvchi, artist va muxbir sifatida turli jabhalarda mehnat qildi. Shu jarayonda ona xalqining turmush tarzi va o'ziga xos ruhiy dunyosi bilan yaqindan tanishib bordi. Otasi – Dog'istonning mashhur shoiri Hamzat Sadasa uni ijodga jiddiy qarashga, hamisha haqiqatni ta'sirchan yo'sinda kuylashga o'rgatdi. Ra-

sul Hamzatovga Olloh tomonidan berilgan buyuk iste'dod, ajoyib ustozlarning maslahatlari bilan qo'shilgan holda yosh shoirning nomini tez orada butun dunyoga mashhur qildi.

Uning birinchi kitobi 1943-yilda chop etildi. 1945-yilda Moskvadagi Jahon adabiyoti institutida tahsil olishga kirishdi. Iste'dodli shoirning dastlabki yozganlariyoq she'riyat shinavandalarining sevimli asarlariga aylandi. Uni qo'ldan qo'ymaydigan bo'lishdi. Deyarli barcha asarlari yozilishi bilan rus tiliga o'girila boshlandi. Rus tili orqali jahonning turli tillariga tarjima qilindi. Jahonga taniqli shoir 2003-yilning 3-noyabrida dunyodan o'tdi.

R.Hamzatovning «Tog' qo'shig'i», «Mening qalbim tog'larda», «Tog' qizi», «Dog'istonim», «Yuksak yulduzlar», «Tug'ilgan kunim», «Tog'likning vatani», «Ovuldan xat» singari o'nlab she'riy kitoblari, qator poemalari shoirning nomini jahon she'riyatining eng ilg'or vakillari qatoriga olib chiqdi.

Uning she'rlari o'z xalqining milliy odatlarini juda yorqin aks ettirishi bilan, bo'ysunmas, erksevar tog' xalqiga xos ruhiy holatlarni haqqoniy tasvirlashi bilan diqqatga sazovordir.

Rasul Hamzatov o'z millatidan g'ururlanar ekan, uni boshqa millatlarga qarshi qo'ymaydi. Ayni vaqtda jahonni hech narsasi bilan qoyil qoldirmagan, lekin o'ziga xos tarzda yashab, o'ziga xos mehnat qilayotgan avar xalqiga mansub ekanligi bilan iftixor qiladi. O'z sha'ni yo'lida sovuq yiltirayotgan xanjar tig'iga qarshi bora oladigan er yigitlari, go'zal va sadoqatli qizlari uchun faxr tuyg'ularini sevib kuylaydi. Shoir asl tuyg'ularni aks ettirgani sababli ham uning yozgan asarlari she'riyat ixlosmandlarining dilini rom etgan.



1. Rasul Hamzatov hayoti sanalarini sinchiklab o'rganing. Uning dastlabki asarlari chiqqan davrga xos xususiyatlarni aniqlang.
2. Shoirning she'riyatiga xos xususiyatlarni aytib bering. Bu she'rlarning mashhurligi sabablarini izohlang.
3. Shoirning avar xalqi milliy ruhiyati yorqin aks etgan she'rlarining boshqa xalqlar she'rxonlariga ma'qul kelish sababini tushuntirib berishga urinib ko'ring.

ONA TILIM

Ajabo! Tush degan narsa qiziq-da,
O'lib qolganmishman tushda nogahon.
Ko'ksimda qo'rg'oshin, quyosh tig'ida,
Tog'lar orasida yotibman bejon.

Uzoqda sharqirab soylar oqmoqda,
Borliqda bir ajib dilbarlik hokim.
Men esam o'ylayman yotib tuproqda,
Mana shu tuproqqa qo'shilar xokim.

Men o'lib yotibman kimsasiz, unut,
Hech kimsa qayg'urmas va chekmas yohu.
Faqat cho'qqilarda qurqurar burgut.
Faqat vodiylarda ingraydi ohu.

Navqiron yoshimda bo'ldim-ku ado,
Otash yuragimni o'ydi axir o'q.
Na onam, na yorim bermaydi sado,
Do'st tugul, hattoki yig'ichi ham yo'q.

Fig'on otiladi jonsiz bag'rimdan,
(Go'yo fig'on bordek murda dilida.)
Shu payt ikki kishi o'tdi naridan,
Quvnoq suhbat qurib avar tilida.

Men-ku bu dunyodan ko‘z yumdim mangu,
Ular kulib-kulib so‘zlashar borin.
Qandaydir Hasanning turfa ishi-yu,
Qandaydir Alining sho‘x kirdikorin.

Avar so‘zin tinglab kirdi menga jon,
Ohista tirildim va shunda bildim:
Meni tuzatolmas hech dori-darmon,
Jonimga Masihdir shu ona tilim.

Mayli, kim qay tildan zavq-u shavq olsa,
Mening o‘z tilimga ming jonim fido.
Erta ona tilim agar yo‘qolsa,
Men bugun o‘lishga bo‘lurman rizo.

Mayli, qashshoq bo‘lsin, mayli, behasham,
Lekin mening uchun aziz va suyuk.
Jahon minbaridan yangramasa ham
Ona tilim menga muqaddas, buyuk.



Savol va topshiriqlar:

1. Tushdagi o‘lim tasvirida qaysi yurtning manzarasi ko‘rsatilgan deb o‘ylaysiz? Shoir tani qayerda yotibdi, atrofidagi tabiat manzarasi qayerni eslatadi?
2. O‘ylab ko‘ring-chi, nima uchun o‘lib yotgan lirik qahramonga avarcha so‘zlar eshutilgach, tirilib ketdi ekan? She‘rning shu bandlaridagi tag ma‘noni aniqlashga urinib ko‘ring.
3. **«Erta ona tilim agar yo‘qolsa, Men bugun o‘lishga bo‘lurman rizo»** satrlarini izohlab bering.
4. She‘rning so‘nggi bandi mazmunini tushuntiring. Siz o‘zbek tiliga nisbatan R. Hamzatov she‘rining so‘nggi bandidagi e‘tirofni qo‘llay olasizmi?
5. Shoir nima uchun ona tiliga bu qadar katta muhabbat bilan qaraydi, deb o‘ylaysiz? Tilga muhabbat – elga muhabbat, uning tarixiga, ruhiyatiga muhabbat deb hisoblaysizmi?

6. She'ning badiiy xususiyatlari to'g'risida so'zlang. Qanday poetik ko'chimlar ishlatilgan? She'ning ta'sir kuchi nimada deb o'ylaysiz?
7. She'rni yod oling.


KENJA NEVARAM SHAHRIZODGA

Nega yig'layapsan, ayt, qo'zichog'im,
Nima bo'ldi? Yomon tush ko'rdingmi yo?
Otang bor, onang bor – suyangani tog'ing,
Boshingda girgittan tevarak dunyo.
Ota-yu onamdan ayrilib, ne tong,
Ko'p ko'rdim qismatning ozorini qattiq.
Yig'lasam yarashar men yetim – bobong,
Nega sen bunchalar yig'laysan achchiq?
Bilmaysan sen hali xusumat nima,
Aldov, xiyonatdan emas holing tang.
Toza bu ko'nglingda g'am qolmas sira
Allasin aytganda mehribon onang.
Do'stlarni ko'rdim men iymonsiz taqir,
Dushmanlar yo'limni to'sdi g'ov bo'lib.
Sen nega yig'laysan? Yig'lay men, axir,
Ko'nglim yig'ilarga ketdi-ku to'lib.
Sen urush neligin bilmaysan mutlaq,
Yondi olovida barcha tirik jon.
Sening boshing uzra nur sochar har choq
Tinch va osoyishta lojuvard osmon.
Urushdan qaytmadi ikkita akam,
Eslasam, ko'zimdan sizadi namlar.
Haqqim bordir mening tinmay yig'lasam,
Sochim oqartirdi adoqsiz g'amlar.
Bola yig'isida ma'no bor ekan,
Tinglasam, shunday der u mitti yurak:
«Siz ko'rgan azob-ku o'tmishda qolgan,
Men uni ertaga tortishim kerak!»



1. She'ning birinchi bandi mazmunini sharhlang. Boboning nevaraga berayotgan savoli ma'nosini chaqing.
2. Ota-onasidan ayrilgan boboning tuqqanlari yonida bo'la turib yig'layotgan nevarasini tushunmayotgani tasviridagi yumorni his etishga urining.
3. Hayotning ayovsiz sinovlari, g'araz, yomonlik, xiyonat, al-dovlarni ko'raverib bezor bo'lgan boboning tashvishsiz nevara yig'isidan yozg'irishi sababini izohlang.
4. Urushda ikki akasini yo'qotgan shoir iztiroblari ifodasiga to'xtaling.
6. Yig'ining sabablari haqida bobo bergan savollarga nevaraning javobi ma'nosini sharhlang.

O‘ylarimning cheksiz osmoni





Asqad Muxtor

(1920–1997)



Asqad Muxtor zamonaviy o'zbek adabiyotining taniqli namoyandalaridan biri sanaladi. U shoir, nosir, dramaturg, tarjimon, jurnalist hamda jonkuyar tashkilotchi sifatida o'zbek adabiyoti va san'atida yorqin iz qoldirgan siymodir. Adib 1920-yilning 23-dekabrida Farg'ona shahrida Ma'sud temiryo'lchi oilasida tug'ildi. Asqad Muxtorning oilasi asli Tataristondan kelgan bo'lib, farg'onaliklar orasiga singishib ketgan, o'zbekcha urf-odatlarini to'la o'zlashtirgan edi. 1931-yilda bo'lajak adib o'n bir yoshda ekan, otasi vafot etadi. Notinch, o'ta murakkab zamonda moddiy jihatdan nochor oila o'n ikki bolaning uchinchisi bo'lmish Asqadni bolalar uyi – yetimxonaga topshirishga majbur bo'ladi. U shu yerdagi maktabni bitirdi va 1936-yili Toshkentga kelib, jurnalistika kursida o'qidi, gazetada ishladi. Chinakam ijod uchun bilimlari kifoya emasligini tushungan Asqad o'qishni davom ettirishga ahd qiladi va 1938-yili Samarqanddagi O'zbekiston davlat dorilfununiga kiradi. Ikkinchi jahon urushi boshlangach, Samarqand dorilfununi Toshkentdagi O'rta Osiyo davlat dorilfununiga vaqtincha qo'shib yuboriladi.

Shu tariqa o'qishni Samarqandda boshlagan Asqad Muxtor uning filologiya fakultetini Toshkentda tamomlaydi. Uni Andijonga ishga yuboradilar. Uch yil davomida Andijon davlat pedagogika institutida o'zbek adabiyoti kafedrasini mudiri bo'lib ishlaydi.

1945-yilda Asqad Muxtor Toshkentga qaytadi, jurnalistika sohasida faoliyat olib boradi. Poytaxtdagi hayot uning ijodiy imkoniyatlarining ochilishiga turtki beradi. Talabalik yillaridan ijod qila boshlagan yosh adib endi qizg'in ijodiy ishga bel bog'laydi. U avval markaziy gazetalarda bo'lim mudiri, mas'ul kotib, so'ng «Sharq yulduzi», «Guliston» jurnallarida bosh muharrir bo'lib ishladi. O'zbekistondagi birinchi haftalik gazeta – «O'zbekiston adabiyoti va san'ati»ga rahbarlik qildi. Respublika Yozuvchilar uyushmasi kotibi lavozimida ishladi.

Aksar adiblar kabi Asqad Muxtor ham badiiy ijodga she'rlar yozish bilan kirib keldi. U maktabda o'qib yurgan kezlari dayoq she'rlar yoza boshlagan edi. O'smirlar gazetasida dastlabki mashqlari e'lon qilingan yosh shoir katta matbuotda 1938-yili «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» sahifalarida «Bizning avlod» she'ri bilan paydo bo'ldi. Muvaffaqiyatdan ruhlanib, uni qurshab turgan yuksak adabiy muhit ta'sirida katta ishtiyoq bilan ijodga berildi. 1947-yilda bosilgan «Po'lat quyuvchi» poemasi orqali katta ijodkorlar nazariga tushadi va alqovlar eshitadi. Shundan keyin badiiy ijod uning hayot mazmuniga aylandi va har yili yangi kitobi bosmadan chiqib turdi. Asqad Muxtorning shoirlik salohiyati «Hamshaharlarim», «Rahmat, mehribonlarim», «Chin yurakdan», «99 miniatura», «Karvon qo'ng'irog'i», «She'rlar», «Quyosh belanchagi», «Sizga aytar so'zim» singari she'riy kitoblarda yorqin namoyon bo'ldi. Shoir o'z she'rlarida biz yashab turgan dunyo haqiqati, inson umri-ning mazmuni, ezgulik va qabohat kabi azaliy muammolarni yangi davr kishisi nuqtayi nazari bilan yoritishga harakat qiladi. Shuning uchun ham o'z davrida uning nazmini falsafiy xarakterdagi she'riyat deb baholashgan edi.

Asqad Muxtor nasrda ham o'z kuchini sinab ko'rishga ahd

qiladi. 1950-yilda uning «Daryolar tutashgan joyda» nomli birinchi qissasi bosilib chiqadi. 1955-yili nashr etilgan «Opa-singillar» romani bilan o'sha paytda adabiy jamoatchilik va kitobxonlar e'tiborini qozondi. Shundan keyin yaratilgan «Qoraqalpoq qissasi», «Buxoroning jin ko'chalari», «Jar yoqasidagi chaqmoq», «Kumush tola» qissalari, «Tug'ilish», «Davr mening taqdirimda», «Chinor», «Amu» romanlari bilan o'zbek nasri taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi.

She'riyat va nasrda muvaffaqiyat qozongan adib davr voqeliklarini aks ettirishda, inson ko'ngli voqeliklarini tasvirlashda drama janriga murojaat qildi. O'zbek dramaturgiyasi rivojida muayyan mavqega ega bo'lgan «Mardlik cho'qqisi», «Yaxshilikka yaxshilik», «Samandar» kabi pyesalari uzoq yillar teatr sahnalarida davomli namoyish etildi.

Asqad Muxtor jahon adabiyotining eng sara namunalarini xalqimiz ma'naviy mulkiga aylantirishda astoydil mehnat qilgan mohir tarjimonlardan biridir. Antik adabiyotning sara namunasi bo'lmish Sofoklning «Shoh Edip» fojiasini, G'arbning mashhur dramaturglari Shekspir va Shiller tragediyalari, rus mumtoz adiblari Pushkin, Lermontov, Blok, Mayakovskiy asarlarini va boshqalarni mahorat bilan o'zbek tiliga o'girgan. Shuningdek, Asqad Muxtorning juda ko'p asarlari jahonning qator tillariga, jumladan, rus, hind, urdu, vyetnam, xitoy, rumin, ingliz va boshqa tillarga tarjima qilingan. Shunday katta xizmatlari uchun Asqad Muxtor «O'zbekiston xalq yozuvchisi» faxriy unvoni bilan taqdirlangan.

Umrining oxirgi yillarida og'ir kasalligiga qaramay, metin irodali adib ijoddan, izlanishdan to'xtamadi. Xastalikni o'z ustidan g'olib kelishiga yo'l qo'ymadi. Yanada mag'zi bo'liq, mazmuni teran, jozibador she'rlar e'lon qildi. 1994-yili «Insonga qulluq qiladurmen» deb nomlangan to'plamidagi hikoyalar ham o'zining yuksak saviyasi bilan kitobxonlar e'tiborini tortdi. Eng so'nggi kitobi «Uyqu qochganda» (1997) hozirgi hayot, ma'naviyat, madaniyat va badiiy ijod borasidagi mulohazalarini aks ettiradi.

Asqad Muxtor 1997-yilning 17-aprelida Toshkent shahrida vafot etdi.

YULDUZIM

Qishlog‘imiz ko‘hna, bir etagida
Osmonga tutashgan dasht edi.
Polizkapa qurib, kechalar tomda
Yulduz sanab yotish – ajib gasht edi.

Bolalikda, bir kun endi yotsam,
Xayollarim ketib Somon yo‘liga,
Yulduz uchdi! Xuddi mushakday
Yonib yerga tushdi. Jizzax cho‘liga.

Juda yaqin tushdi. Har ehtimolga
Lippaga qistirib gugurtim,
Tomdan tashlab, o‘qariqdan sakrab,
O‘sha yoqqa qarab yugurdim.

Chinakam yulduzni ko‘rmoqchiydim men,
Tikanlarni bosdim, toptadim,
Uzoq tentiradim cho‘l so‘qmoqlarida,
Quvoqlar oralab kezdin... Topmadim.

Topmadim o‘shanda bola baxtimni,
Sirli mo‘jizaga to‘ymadi ko‘zim.
Hali ham izlayman. Bilaman: Yerda,
Shu cho‘llarda mening yulduzim!



Savol va topshiriqlar:

1. Polizkapada yulduz sanab yotgan bolaning sajiyasi (xarakteri) va ichki dunyosi haqida mulohaza yuriting.
2. Geografiyadan olgan bilimlaringizdan kelib chiqib, Somon yo‘li va yerga tushgan yulduz nima ekanligini ayting. Bola nima uchun uni ko‘rmoqchi bo‘ldi?
3. Mo‘jizaga yo‘yilgan yulduz parchasini shoir nega «bola baxtim» deb ta’riflamoqda?
4. **«Hali ham izlayman. Bilaman: Yerda, Shu cho‘llarda mening yulduzim!»** misralari mazmunini tushuntiring.
5. She’rni yod oling.

Ostonamdan taralgan yo‘llar
Eslatadi quyosh nurini.
Uzoq-uzoqlarga ketib, uzayib,
Uzaytadi mening umrimni.

Yurganlarni daryo deydilar,
Daryo – cheksiz umr ertagi.
Bir kun uyda o‘ltirib qolsam,
Hayot go‘yo chetlab o‘tadi.

Ko‘rganing – seniki, der edi bobom,
Ellarni, dillarni kerak ko‘rishim.
Ochilmagan qo‘riq, noma’lum yulduz
Bari-bari – mening ulushim.

Ijod dardi – yo‘l azobidir,
Mayli, bo‘lsin tumanlar quyuq.
Ruhim bilan yo‘lda ekanman,
Umrinning ham nihoyasi yo‘q.



Savol va topshiriqlar:

1. Shoir qanday mantiq asosida yo‘llarni quyosh nurlariga o‘xshatmoqda? Uzoq-uzoqlarga ketgan yo‘llar qanday qilib inson umrini uzaytirishi mumkin?
2. «*Bir kun uyda o‘ltirib qolsam, Hayot go‘yo chetlab o‘tadi*» misralari orqali shoir lirik qahramonining hayotga munosabati to‘g‘risida fikr yuriting.
3. Uchinchi bandda shoir nima uchun ochilmagan qo‘riq, noma’lum yulduzni o‘zining ulushi deb biladi?
4. Oxirgi bandda yo‘l qanday ma’no kasb etayotganiga diqqat qiling. «*Ruhim bilan yo‘lda ekanman*» misrasini qanday tushundingiz?
5. Shoir uchun yo‘l ijod bo‘lsa, boshqa insonlar uchun yo‘l qanday mazmun kasb etishi mumkin? Siz uchun-chi?

TUG‘ILISH

Tong oldidan yomg‘ir sevalab o‘tdi,
Keyin ko‘k ochilib, yog‘di yulduzlar.
Yerdan hovur ko‘tarildi, xuddi
Qimirlagan kabi zimdan ildizlar.

Kingadir muqaddas bir zum yaqinladi,
Qorovul o‘chirdi so‘nggi fonarin.
Iyul quyoshining ilk yolqinlari
Yaproqlarga sachrab yonardi.

Yer yosh: sofflik jimirlatar etin,
Zoriqqan g‘unchalar ochildi bog‘da.
Panjaradan oshib chiqib ketdi
Maysalarda yurgan yashil shabboda.

Eshikdan eshikka yugurib yelardi,
Suyunchi so‘rardi, suyunchi.
U go‘yo taqdirni olddan bilardi,
Go‘yo yo‘q dunyoning g‘ami, kuyunchi.

Iymanibroq turar ota poygakda,
Ko‘ksida yulduzi, bir qo‘li mayib...
Ichkarida esa oppoq choyshabda
Jahonning umidi yotar jilmayib.



Savol va topshiriqlar:

1. Tongdan oldin yog‘gan yomg‘irdan so‘ng osmon ochilib, yulduzlar yog‘ishini qanday tushundingiz? Yomg‘ir sevalashi va yulduz yog‘ishi orqali ifodalanayotgan tasvirga va aloqadorlikka e‘tibor qarating.
2. «*Yerdan hovur ko‘tarildi, xuddi Qimirlagan kabi zimdan ildizlar*» satrlarida ko‘tarilayotgan hovurning yer ostidagi ildizga o‘xshatilishi nechog‘liq hayotiyiligini izohlang.
3. Yaproqlarga sachrab yonayotgan quyosh yolqinlari ifodasi-dagi shoir mahoratini sharhlang.
4. Etning sofflikdan jimirlashini qanday tushunasiz? Shabbodani shoir nima uchun yashil bargda bermoqda?

5. Shabbodaning panjara oshib chiqib ketishi, eshikma-eshik suyunchi so‘rab yugurib-yelishining sababini izohlang, tasvirdagi badiiyatni sharhlang.
6. Oq choyshabda jilmayib yotgan jahonning umidi to‘g‘risidagi mulohazalaringizni bildiring.
7. She‘rni yod oling.

* * *

O‘zinniki emas bu umr,
To‘la menikimas, sezib turibman.
Bir vaqtlar meni deb halok bo‘lgan kimdir,
Men uning uchun ham yashab yuribman.
O‘zinniki emas. O‘rtada baham
Achchiq-chuchugi-yu, guli, mevasi.
Yengil-yelpi o‘tsa umrdan bir dam,
Rozi-rizo bo‘lmas egasi.



Savol va topshiriqlar:

1. Shoirning: **«O‘zinniki emas bu umr, To‘la menikimas, sezib turibman»** tarzidagi iqrori sababini izohlang.
2. Birovning umriga birov sherik bo‘lishi yoki egalik qilishi mumkinmi?
3. **«Bir vaqtlar meni deb halok bo‘lgan kimdir, Men uning uchun ham yashab yuribman»** satrlari mazmunini sharhlang. Nega shunday bo‘lgan deb o‘ylaysiz?
4. O‘z umrining o‘ziniki emasligi shoir zimmasiga qanday mas’uliyat yuklayotganini sharhlang.
5. **«Rozi-rizo bo‘lmas egasi»** misrasida gap kim haqida bora-yotganini aniqlang.
6. She‘rni yod oling.

* * *

Bir tup o‘rik
Yakka o‘sgan ekan:
Yolg‘iz tomoqmasmi – rosa unibdi.
Bodroq-bodroq bo‘lib gullaganida
Ko‘lankasi bilan do‘st tutinibdi.

Soya dam o'ngga-yu, dam chapga o'tib,
Dam cho'zilib yotib,
Dam bo'lib tikka:
– Mendan ham sodiqroq do'st topolmaysan,
Sensiz men ham yo'qman, – derkan o'rikka...

Bir kun qarasa –
Soya yo'q emish.
(Bulut kuni uni izlash – kulgili).
Yomg'ir ham quyibdi – do'sti hamon yo'q...
Yerga yakson bo'pti o'rikning guli.

Eh o'rik! Soya ham do'st bo'ladimi?
Laqqa tushibsana-da lof ursana.
Do'st bo'lsa, har qanday ob-havoda
Yoningda tursana...



Savol va topshiriqlar:

1. She'rni o'qing. Undagi o'rik va soya obrazlari orqali shoir kimni nazarda tutgan?
2. Ko'lankaning o'rik bilan u bodroq-bodroq gullagan paytda do'st tutinganini qanday tushunish mumkin?
3. Soyaning dam o'ng, dam chapga, ham cho'zilib, ham tikka bo'lganligi holatini hayotga bog'lab izohlab bering.
4. Bulutli kunda soya nima uchun yo'qolib qolganligining majoziy ma'nosini tushuntiring.
5. She'r mazmuniga to'g'ri keladigan hadis va maqollardan topib, daftaringizga yozing.

SHE'R VAZNLARI

*Shoirning fikri va ichki kechinmalari ifodasi bo'lib, ma'lum bir tartibga solingan ritmik nutq **she'r** deb ataladi. Ijodkorning qalbiga ma'lum bir voqea-hodisaga nisbatan paydo bo'lgan munosabat ichki kechinma deyiladi va uning o'lchamli nutq holida bayon etilishi natijasida she'r paydo bo'ladi. Adabiyotshunoslik ilmda nutqning bu tarzda*

qolipga, o'lchamga solinishi **vazn** yoki **she'riy tizim** deb ataladi. She'r tizimlari mana shu qolipga solingan nutqqa nimaning asos sifatida olinayotganiga qarab bir-biridan farq qiladi. O'zbek she'riyatida asosan uchta: *barmoq*, *aruz* va *erkin* vaznlar qo'llanib kelingan. O'zbek she'riyatida eng ko'p o'rin egallaydigan **barmoq** deb atalgan she'r tizimida misralardagi bo'g'inlar miqdori asosiy o'lchov hisoblanadi. Barmoq she'r tizimida misralarda bo'g'inlar soni bir xil miqdori takrorlanadi va bir xil guruhlanadi, biroq bo'g'inlarning sifati, ya'ni ochiq-yopiqligi, uzun-qisqaligi muhim emas. O'zbek she'riyatiga arab va fors she'riyatidan kirib kelgan **aruz** deb nomlangan tizimda esa misralardagi hijolarning qat'iy miqdori, qat'iy guruhlanishidan tashqari qat'iy sifati, ya'ni qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziqligi ham muhim ahamiyatga ega. Hozirgi o'zbek she'riyatiga xos vaznlardan yana biri **erkin** she'r tizimi deb ataladi. Erkin vaznda bir o'lchamdan boshqasiga erkin o'tib ketilaveradi. Unda na bo'g'inlar va na turoqlar sonining bir xilligiga rioya qilinadi. Erkin she'rda shoirning badiiy niyati, qanday fikr-u tuyg'uni qay shaklda ifodalash istagi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Barmoq she'r tizimida, yuqorida aytganimizdek, misralardagi bo'g'inlarning miqdori asosiy o'lchov hisoblanadi. Barmoqda ikki xil vazn bor: *sodda vazn*, *qo'shma vazn*. Agar she'rning boshidan oxirigacha misralardagi bo'g'inlar miqdori bir xil bo'lsa, **sodda vazn** deyiladi. Masalan:

Qani, ayt, maqsading nimadir sening?	– 11 bo'g'in
Nega tilkalaysan bag'rimni, ohang?	– 11 bo'g'in
Nechun kerak bo'ldi senga ko'z yoshim,	– 11 bo'g'in
Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am?	– 11 bo'g'in

Misralardagi bo'g'inlar miqdori ikki-uch xil ko'rinishda bo'lsa, **qo'shma vazn** deb ataladi. Qo'shma vaznda bo'g'inlar miqdori bir xil bo'lmagan misralarning muayyan tartibi she'r oxirigacha qat'iy saqlanadi. Masalan, Mirtemirning

Alisherga alla aytib uxlatgan	– 11 bo‘g‘in
Sen – ona.	– 3 bo‘g‘in
Og‘ushida Bobur kamolga yetgan	– 11 bo‘g‘in
Sen – ona.	– 3 bo‘g‘in

misralari bilan boshlanuvchi she‘rida barcha toq misralardagi bo‘g‘inlar miqdori bir xil va barcha juft misralardagi bo‘g‘inlar miqdori boshqacha xil ko‘rinishga ega. E.Vohidovning «Majnuntol» she‘rini ham qo‘shma vaznga misol qilish mumkin:

Qubbon sohilida qomating bukib,	– 11 bo‘g‘in
Oltin barglaringni ko‘l uzra to‘kib,	– 11 bo‘g‘in
Nimalar haqida surasan xayol,	– 11 bo‘g‘in
So‘yla, majnuntol?	– 5 bo‘g‘in

Ko‘rib turganingizdek, mazkur she‘r bandlarining so‘nggi to‘rtinchi misrasi bo‘g‘inlar miqdori yuqoridagi misralardan farq qiladi. Mana shu 11–11–11–5 ko‘rinish to she‘rning oxirigacha davom etadi.

Barmoq she‘r tizimida misralardagi bo‘g‘inlarning muayyan guruhlariga bo‘linishi **turoq** deb ataladi. Bo‘g‘inlarning qanday ko‘rinishda turoqlarga bo‘linishi esa she‘rning o‘ziga xos ritmi, ohangini keltirib chiqaradi.

Solishtiring:

4	5	
Garchi shuncha/ mag‘rur tursa ham		4+5=9
Piyolaga/ egilar choynak.		4+5=9
Shunday ekan/ manmanlik nechun,		4+5=9
Kibr-u havo/ nimaga kerak?		4+5=9

yoki

6	5	
Tuproq ko‘chalardan/ chopgan bolalik,		6+5=11
Yillar changi ichra/ asta yo‘qoldi.		6+5=11
Bolalik ketdi-yu/ sho‘x suhbatlarda		6+5=11
Uni kula-kula/ eslamoq qoldi.		6+5=11

She'rdagi turoqlar, misralar yoki bandlar orasidagi to'xtalish **pauza** deb ataladi. Turoq va misralar orasida, odatda, juda qisqa to'xtalish bo'ladi va u **kichik pauza** deyiladi. Bandlar orasidagi to'xtalish esa nisbatan kattaroq bo'ladi va u **katta pauza** deyiladi. Ba'zan bandlar orasidagi to'xtalishlar miqdori she'rning mazmuni, o'ziga xos ritmiga ko'ra bir-biridan farq qilishi mumkin. Quyidagi misolda birinchi va ikkinchi bandlar orasida juda qisqa to'xtalish bo'ladi va shuning hisobiga ikkinchi va uchinchi bandlar orasida ancha katta pauza qilinadi:

Bas, yetar, cholg'uchi, bas qil sozingni,
Bas, yetar, ko'ksimga urmagil xanjar.
Nahotki dunyoda shuncha g'am bordur,
Agar shul munojot rost bo'lsa, agar.

Agar aldamasa shu sovuq simlar,
Gar shul eshitganim bo'lmasa ro'yo,
Sen beshik emassan, dorsan, tabiat,
Sen ona emassan, jallodsan, dunyo.

She'r vaznlari haqida tushunchaga ega bo'lish she'r o'qish va uni tushunishga yordam beradi.



Mirmuhsin

(1921–2005)



oir va yozuvchi Mirmuhsin Mirsaidov 1921-yilning 3-mayida Toshkent shahrining Qo'rg'on-tegi mahallasida kulol oilasida tug'ildi. O'rta maktabni bitirgach, Toshkent davlat pedagogika institutiga kirib, uni 1942-yilda tugatdi. Bo'lajak yozuvchi o'zini jurnalistika va badiiy ijodga bag'ishladi. 1944–1946-yillarda respublika radioqo'mitasida muharrir, 1947–1961-yillar oralig'ida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi kotibi, 1950-yildan 1960-yilgacha o'n yildan oshiqroq «Sharq yulduzi» jurnali bosh muharriri, 1961–1963-yillarda «Qizil O'zbekiston» gazetasida bo'lim mudiri, 1963–1971-yillarda «Mushtum» jurnali bosh muharriri, 1972-yildan 1981-yilga qadar yana «Sharq yulduzi» jurnali bosh muharriri, 1982–1994-yillarda mashhur «Guliston» jurnali bosh muharriri vazifalarida ishlagan.

Badiiy ijodni shoir sifatida boshlagan Mirmuhsin 1936-yilda «Sheralining mardligi» va «Ovchi bolalar» nomlari bilan she'r va hikoyalar to'plamlarini chiqargan. 1938-yilda «Qamar» nomli ilk dostoni bosilib chiqdi. 1948-yilda «Vafo», 1948-yilda «Qadrdon do'stlar», 1951-yilda «Farg'ona», 1952-

yilda «Vatandoshlar», 1959-yilda «Irmoqlar», 1960-yilda «Qalb va falsafa», 1964-yilda «She'rlar» nomli she'riy kitoblari bosilib chiqqan. Shoir bir qator dostonlar ham yaratgan. Chunonchi, «Usta G'iyos» (1946), «Do'nan», «Yashil qishloq» (1948), «Shiroq» (1969), «Nevara», «Avesto» (1970) singari dostonlarida qahramonlarning ruhiyati turli hayotiy to'qnashuv va kurashlar asosida ko'rsatib berilgan.

Mirmuhsin – o'zbek adabiyotida 1954-yilda yaratilgan «Ziyod va Adiba» ilk she'riy romanining muallifi. Adib bu asarida o'zbek yoshlari dunyoqarashi va ruhiyatida yuz bergan o'zgarishlarni qiziqarli tasvirlashga uringan.

Mirmuhsinning ilk qissasi «Jamila» 1956-yilda e'lon qilingan. Uning 1957-yilda yozilgan «Oq marmar», 1962-yilda bitilgan «Cho'ri», 1964-yilda dunyoga kelgan «Tungi chaqmoqlar» qissalari xalqimiz o'tmishini aks ettirishga bag'ishlangan. Ularda zulm-u zo'ravonlikka qarshi kurashgan shaxslarning o'ziga xos obrazlari yaratilgan. Dunyo miqyosida fikrlashga uringan adib Mirmuhsin chet elliklar hayotini aks ettirishga qaratilgan bir qator asarlar ham yaratdi. Yozuvchining 1960-yilda bosilgan «Chodrali ayol» hikoyalar to'plami va 1979-yilda chop etilgan «Chodrali ayol» qissasi chet ellardagi kishilar hayotini ko'rsatishga bag'ishlangan.

She'riyat hamda kichik nasriy janrlar bo'lmish hikoya va qissachilikda muayyan tajriba orttirgan Mirmuhsin keng qamrovli roman janrida ham qalam tebratdi. 1969-yilda «Chiniqish» va «Umid», 1972-yilda «Degrez o'g'li», 1974-yilda «Me'mor», 1977-yilda «Chotqol yo'lbarsi», 1982-yilda «Ildizlar va yaproqlar», 1986-yilda «Temur Malik», 1995-yilda «Ilon o'chi», 1997-yilda «Turon malikasi» romanlari dunyo yuzini ko'rdi. Ularda turli davrlarda yashab o'tgan turli taqdir egalari bo'lgan kishilarning betakror taqdirlari aks ettirildi.

Mirmuhsin ijodiy umrining barcha davrida ham bolalar uchun asarlar yozgan adibdir. Uning «Sheralining mardligi», «Ovchi bolalar», «luqmon va O'roqboy» singari turli janrlardagi asarlarida bolalarning o'ziga xos hayoti va ruhiy dunyosi tasvirlangan.

Mirmuhsin uzoq ijodiy umridagi xizmatlari uchun 1974-yilda Hamza nomidagi davlat mukofoti, 1981-yilda «O‘zbekiston xalq yozuvchisi», 1998-yilda «El-yurt hurmati» singari yuksak mukofotlar bilan taqdirlangan.

Adib 2005-yil 2- fevralda Toshkent shahrida vafot etdi.

ME’MOR

(Romandan parcha)

Iste’dodli me’mor, buyuk imoratlar qurish va go’zalliklar yaratishdan boshqa narsani o’ylamaydigan ijodkor Najmiddin Buxoriy temuriy hukmdor Shohrux zamonida Hirot shahriga kelib, Boshkentning obodligi yo’lida ulkan ishlar qiladi. Hayotning chigalligi hamda adolatsizlik qurish va yaratishdan o’zgani bilmaydigan oliyjanob me’mor boshiga ko’pgina ko’rguliklar soladi. Uning yolg’iz o’g’li Nizomiddin saltanatga yov bo’lgan guruhlariga qo’shib, Shohruxga suiqasd qilganlardan biri sifatida qo’lga olinib, qatl etiladi. Endi buxoriylarning Hirotida qolishi mumkin emasdi. Quyidagi parchada boshiga ulkan baxtsizlik tushib, ota yurtiga qaytayotgan me’mor Buxoriy kechirgan mushkulliklar tasvir etiladi.

Tong g’ira-shirasida uxlab, hordiq olgan aravakash otlarni sug’orib, aravalarga qo’shdi, yo’lovchilar naridan beri yuz-qo’llarini yuvib, yo’lga tushib ketishdi.

Ko’p o’tmay chinakamiga qum barxanlari boshlandi. Andakkina sovigan qumlar quyosh ko’tarilishi bilan yana qiziy boshladi.

Qum, qum, qum...

Ertasiga ham yana shunday yurish; hamma yoq qum, yo’lning poyoni ko’rinmasdi. Ham tolish, ham diqqatlik...

Indiniga ikkinchi aravada anchadan beri bularga qo’shib yo’lga chiqqanidan pushaymon bo’lib g’ingshib kelayotgan badavlat xonadonning lo’mbillagan o’g’li G’avvos Muhammad arava o’rtasida osmonga qarab yotib olib, oh ura boshladi. Zavrak bilan Zulfiqor avval uning bu qilig’ini yashirib kelishayotgan edi, bir damdan keyin bu holga ko’zi tush-

gan Badia Zulfiqorga: «Nima gap?» – degandek imo qildi. Zulfiqor unga: «Hech gap yo‘q!» – degan ishorani qildi. Lekin aslida G‘avvos Muhammad o‘z yo‘ldoshlarini so‘kib, og‘zidan ko‘pik chiqarib, oh urib yotardi.

– Huv, uyat bo‘ladi! Bu nima qiliq? – dedi Zavrak.

– Sen la‘nati meni yo‘ldan ozdirding, – dedi baqirib G‘avvos, – bo‘lmasa men Hirotidan chiqmagan bo‘lardim! Nega men senlarga qo‘shildim?! Menga nega kerak edi bu azob?! Sen meni chalg‘itding!

– O‘zingiz xohlab keldingiz, Zavrakda ayb yo‘q, – dedi Zulfiqor. – Biz, hatto, sizni hisobga qo‘shmagan edik.

– Siz aralashmang! Siz buxoroliksiz, yurtingizga ket-yapsiz!

– Men bu gapni sizni ranjitish niyatida aytayotganim yo‘q. O‘zingizni qo‘lga oling, yigit kishisiz! Uyat bo‘ladi! Ikkilamchi, bu yengiltakligingizni ustod sezib qolsalar xafa bo‘ladilar! – dedi Zulfiqor.

– Siz menga nasihat qilmang! Men bunaqa qumda yurolmayman! Sizning oshiq-ma’shuqligingiz uchun men qumda sarson bo‘lib o‘lib ketolmayman! Bola-chaqalarim bor!

– Nodon ekansiz! – dedi Zulfiqor oyoqlarini tarvaqaylatib arava o‘rtasida yotgan G‘avvos Muhammad tagidan tizzasini tortib olib. U «oshiq-ma’shuq» so‘zi uchun G‘avvosning lunjiga tushirmoqchi edi, o‘zini tutdi.

– Foydasi yo‘q! – dedi Zavrak Zulfiqorga boshini sarak-sarak qilib. – Bu to‘ng‘izning shunaqaligini bilardim! Ilgari ham bir bor shunaqa qilgan... Savdogarning o‘g‘li-da...

– O‘zing to‘ng‘iz! – baqirdi G‘avvos.

G‘avvos Zulfiqorga ham, Zavrakka ham qaramay, osmonga qarab, og‘zidan ko‘pik chiqarib, oh ura boshladi.

– Voy, voy, o‘laman... qumlaringning ham padariga la‘nat! Meni boshlab olib chiqqanlarning ham padariga la‘nat! To‘xtatinglar!!! Aravalarni to‘xtatinglar! Qaytib ketamiz! Men orqaga qaytib ketaman! Vo-y-oy!

Birinci aravada ketayotgan Badia yana Zulfiqorga qaradi:

– Nima gap? Nima deyapti? – Zulfiqor yelkasini qisdi.

– Aravakashga aytinglar, orqaga qaytib ketamiz! Voy, voy, – dedi yana baqirib G‘avvos Muhammad.

Bu gaplarni eshitgan Badia aravakash Horunbekdan iltimos qilib birinchi aravani to‘xtatdi. U ota-onasiga hech nima demay aravadan yerga tushdi-da, ikkinchi aravaga o‘tdi. Aravalar yana yurishda davom etdi. U Zulfiqorning ro‘parasiga o‘tirib, otga minib borayotgan Zavrakka murojaat etdi.

– Nima gap?

– Ertalabdan beri shu gap, bekam, – dedi Zavrak, – qaytib ketaman, deyapti.

– Vo-oy, vo-o-oy, o‘laman! Qumlaringning padariga la‘nat, o‘laman! Aravalarni qaytaringlar! Hirotga qaytib ketamiz! Vo-o-oy...

– Janob G‘avvos, bu nima qiliq?! – deb Badia og‘zidan ko‘pik chiqarib, aravada chalqancha yotib olgan G‘avvosga tik qaradi.

– Yo‘q, men qaytib ketaman!

– Qaytib ketib bo‘lmaydi, tushuning axir! Biz Jayhunga yaqinlashyapmiz. Juda ko‘p yo‘l yurdik. Xohlamas ekansiz, Maymanada aytishingiz mumkin edi!

– Men bormayman! Qaytib ketamiz, vo-oy...

Badia hayron bo‘lib qoldi. U g‘azablansa-da, o‘zini qo‘lga olib, tishini tishiga qo‘ydi.

– Toza dard ustida chipqon bo‘ldi-yu, Zavrak og‘a, siz tushuntiring, yigit kishi uyalmaydimi?!

– Gap yuqmayapti, bekam!

– Men hech narsani bilmayman! Meni Hirotga qaytarib olib boringlar!

– Nima qilamiz? – Badia Zulfiqorga qaradi.

– Bu hech kimning gapiga quloq solmayapti. Ustodga xabar qilish kerak.

– Ustodning tashvishi o‘ziga yetmaydimi?! – dedi Badia. So‘ng G‘avvosga qarab: – O‘zingizni qo‘lga olishingizni so‘rayman! – dedi ko‘zlarida g‘azab o‘tlari chaqnab. – Yo‘qsa, jazoyingizni beraman! Siz hammani bezor qilyapsiz!

– Bor o‘sha aravangga! Men Buxorosiga bormayman. Men kasalman! Qaytaringlar aravalarni!

Badia Zulfiqorga imo qildi, keyin achchiqlanib buyruq berdi:

– Bu ablalni aravadan otib yuboring! – U shu lahza etigi qo‘njiga qo‘lini tiqib xanjarini oldi. – Aytganimni qilmasangiz, to‘ng‘izni shu yerda o‘ldiraman!

Badianing buyrug‘ini ikki qilish aslo mumkin emasligini biladigan Zulfiqor sapchib o‘rnidan turib, oh-voh qilgan-cha yalpayib yotgan G‘avvosni ko‘tarib qumga otib yubordi. To‘nkadek gurssa qumga tushgan G‘avvos apil-tapil o‘rnidan turib, dod solib arava orqasidan ergasha boshladi. Bu ishdan birinchi aravada ketayotganlar ham xabardor bo‘ldi. Zo‘rg‘a tishini tishiga qo‘yib kelayotgan kishilar indashmadi. Uchala arava ham to‘xtamay ketaverdi.

– Nomard! Qo‘rqoq! – dedi Badia.

G‘avvos Muhammad qumga ag‘anab, oh urib, baqira boshladi. Bir muddatdan keyin talvasaga tushgan G‘avvos olislab ketayotgan aravalar ortidan yugurdi, yaqinlashgach, Badia ko‘zidagi g‘azab, qo‘lidagi yarqirab turgan xanjarni ko‘rib orqaga tislandi. Uning nazarida, Badia uchun bu cho‘li biyobonda G‘avvosga o‘xshaganlarning biqiniga xanjar tiqib ketish hech gap emas edi.

G‘avvos Muhammad birinchi aravadagilarga qarab baqirdi:

– Meni olib ketinglar, do-od, tavba qildim!

Hech kim unga qayrilib qaramadi. U bormi-yo‘qmi, birov parvo qilmadi. Ketayotganlarning ixtiyori Badianing izmida ekaniga tushundi.

– Do-o-od! Meni tashlab ketmanglar!

Badia arava ustida indamay turaverdi. Bir muddatdan so‘ng uning ishorasi bilan Zavrak otdan sakrab tushdi, o‘rniga Zulfiqor otga minib, yo‘lda davom etaverishdi. Qumga sakrab tushgan Zavrak ancha narida sudralib, dod solib kelayotgan G‘avvos Muhammadni uchinchi aravadagi yuklar ustiga chiqarib qo‘ydi-da, o‘zi yana yugurib kelib, ikkinchi ara-

vaga – Badianing yoniga o‘tirdi. Bu holni ko‘rgan Ma’suma beka, Me’mor va Horunbeklar yuragi taskin topib, indamay qo‘ya qolishdi.

– Chiqdimi? – sekin so‘radi Badia.

– Ha, – dedi o‘rnashib olib Zavrak, – asboblar orasiga tiqib qo‘ydim.

– Shuncha yildan buyon men uning bunaqa qiliqlari borligini bilmagan ekanman. U hayvonning o‘zginasi ekan-ku!

– Og‘ir bo‘ling, qattiq gapirmang, bekam! Xanjaringizni ham bekitib qo‘ying! – dedi Zulfiqor. – Bu ham bir tutqanoqdek dard. Qiyinchilikni ko‘rmagan xomsemiz odam-da. Shunaqasi ham bo‘ladi.

– Xo‘p, – dedi Badia Zulfiqor aytganlariga amal qilib.

Uch arava qumliklar oralab oldinga ketaverdi. To kechgacha ular miq etmay borishdi. Otlar ham obdan charchadi...

* * *

Bahri muhitdek¹ behudud qumliklarning to‘q sariq, qo‘ng‘ir «to‘lqin»lari silsilasi ko‘zni olardi. Qum barxanlari uzra jimirlab harorat ko‘tarilar – bu yerda issiqlik juda baland bo‘lishiga qaramay, Me’mor qiynalmay nafas olar edi. «Do‘zax» deb atalmish Qizilqumda ham cho‘ponlar yashardi. Negadir bu yerlarda Me’mor o‘zini bardam seza boshladi. Horunbek ilgari ham bu holatni sezgan edi. U yolg‘iz turgan Me’mor yoniga kelib, havoning issiq bo‘lishiga qaramay, sof ekani, bu yerlarda kishi asabi juda muloyim-u mo‘tadil bo‘lishini aytdi.

– So‘zingiz juda to‘g‘ri, inim, – dedi Me’mor kaftlarini bir-biriga ishqalab, – qumda havo qiziq bo‘lishiga qaramay, nafas olish qulay. Asablar ham yumshab, kishi kayfiyati ko‘tariladi. Ana, rutubatli Hirot orqada qoldi. Keyingi yillar men u yerda o‘zimni juda haqir-u xasta his etardim. Hozir biz o‘sha «rutubat»dan xoli, ta‘qibdan uzoq qum oralig‘idamiz...

...Me’mor G‘avvosning talvasaga tushib, oh-voh urganidan keyin barchaning kayfi buzilib, sukut ichida ke-

¹ Bahri muhit – okean.

layotganlarida, Ma'suma bekaga gap qotib, ko'zlariga juda katta bir binoning shakl-u tarovati ko'rinayotganini, Buxoroga omon-eson yetib borganlaridan so'ng uning tarhini¹ yaxshilab qog'ozga chizajagini aytdi. Bu shunday bir madrasa bo'ladiki, ro'yi zaminda uning tengi topilmaydi. Ba'zida u peshmati yonidan toshqalam-u daftarini olib, aravaning chayqalib, qalqib ketayotganiga qaramay, nimalarnidir chizib-yozib qo'yar edi. Ma'suma beka hamma vaqt uning fikr-u o'ylarini quvvatlashga, diqqat bilan tinglashga o'rganib qolgan, arava ustida ham u Hirotdagidek mehribonlik ko'rgizib, cholining fikr-u niyatini ma'qullardi. Aslida hozir uning yuragiga loyiha sig'armidi, yuragi Hirotida qolib ketayotgan o'g'li Nizomiddinda edi... Tinib-tinchimas bu chol umr bo'yi o'z loyihalarini, chizmalarini Ma'suma bekaga gapirib keldi, aslida u uning loyiha-yu chizmalariga aslo tushunmasdi. Ammo qadrdonining tushunib bo'lmas har bir chizig'-u xatlari ham qadrdon va allaqanday mo'jizaday bo'lib tuyulardi unga. U Me'morning gaplarini e'tiroz bildirmay, sabr-toqat bilan eshitar, bosh qimirlatib tasdiqlardi. «Bir oyog'ing go'rda, bir oyog'ing yerda, qaysar chol, endi senga imorat solishni kim qo'yibdi! O'zingning imorating solinyapti!» – deydigan biron odam yo'q.

Xuftonga yaqin uch arava Jayhun bo'yiga – Karki shahriga yetib keldi. Bu yer – Xuroson bilan Movarounnahr chegarasi. Me'mor karvonsaroyga tushiboq, qizi bilan birga oqshom qorong'isida jimirlab oqayotgan daryo bo'yiga borib, yuz-qo'llarini yuvib, bir-ikki qultum suv ichishdi. Bu suv umr bo'yi ichib katta bo'lgani Zarafshon suvidek totli edi. U daryo bo'yida xufton namozini o'qidi. O'g'lining ruhiga tilovat qilib, ko'zidan yosh to'kib baxshida qildi... Ibodatdan keyin u qizi bilan birga karvonsaroyga kelib, yo'ldoshlariga chehrasi ochilib salom berdi. Bir chekkada g'arib bo'lib o'tirgan G'avvosga ham yaxshi gapirdi, o'zingizni yomon sezmayapsizmi, deb so'radi. Bu tomoni Movarounnahr, qumliklar tugab, dalalar, bog'-u rog'lar, ekinzorlar boshlanishini, daryo-

¹ *Tarh* – reja, chizma.

dan o‘tib Tollimarjonga yetguncha yana ozroq qum borligi, undan u yog‘i yaxshi bo‘lib ketishini aytdi.

– Ko‘nglim behuzur bo‘lib... yo‘ldoshlarimni bezovta qilibman, ustod, meni kechiring, – dedi boshini quyi solib G‘avvos Muhammad.

– Zarari yo‘q, – dedi Me‘mor. – Buni yo‘l mashaqqati deymiz. Buxoroga yetib olsak, dam olamiz, barcha mashaqqatlar unutilib ketadi.

Daryodan ot-u aravalarni o‘tkazadigan sol va ulkan qayiq-lar Xalach shahrida bo‘lganligi tufayli erta tongda uch arava yana daryo yoqalab yura ketdi.

Bir tomon qum, bir tomon suv...

Cholning pinakka ketganini sezib o‘tirgan Ma’suma beka to‘satdan unga murojaat etdi:

– Hoy, otasi, anavi qumlarning oqishini qarang! Suvga o‘xshab oqyapti.

– Ha, ko‘ryapman.

– Anavi yumronga qarang! – dedi Badia jimlikni buzib.

– Ko‘ryapman.

– Nima uchundir ilonlar ko‘rinmayapti, – dedi atrofga alanglab Badia, – yoki Xalach tomonda ilonlar kammikan? Echkemar ham ko‘rinmaydi?

– Huv ana! Qum tepasiga qarang, – dedi otda o‘tirgan Horunbek. – Qumning oqishi, yumronlarning bezovta bo‘lishi – bir nimaning belgisi...

– Nimaning belgisi? – darhol so‘radi Badia.

– Bo‘ron bo‘lishi ehtimol, qizim. Lekin hammasi xudodan... – dedi aravakash. – Ozgina shamolga qum oqsa, orqasidan bo‘ron keladi, derdilar. Bu yerlarda girdibod-u¹ bo‘ron ko‘p bo‘ladi. Tezroq Xalachga yetib olsak yaxshi bo‘lardi. Ot jonivorlar ham rosa tortyapti. Mo‘ljalimda Xalachga kechga yaqin kirib borsak, ehtimol.

– Darvoqe, shamol bo‘lyapti! – dedi Me‘mor soyabon aravaning yonlarini ochib. U terlab-pishib borayotgan otga, orqadagi aravaga, undan keyingi yuk ortilgan uchinchi ara-

¹ *Girdibod* – pastdan yuqoriga tikkalay esadigan quyun, o‘rama.

vaga, uning orqasidan kelayotgan ikki yo'rg'a otga ham ko'z tashlab qo'ydi. Mashaqqatli, issiq yo'l bedov otlarni ham boshqa otlardek, «mo'min» qilib qo'ygan edi. Qurib-qaqshagan tabiat hamma narsani jizg'anak qilib, qovjirata-man, suvsizlikdan qaqrataman, mening qaynoq shamollarim qashqirdan yomon, timdalab-titaman, degandek bo'lardi. Me'mor Horunbekka qaradi. – Huv anavi tomonga qarang, u girdibod emasmi?

– Girdibod! – dedi Horunbek.

Ikki malla ustun falakka bo'y cho'zib buralardi.

– Qiblanomaga¹ qarang, u qaysi tomon?

– Mag'ribi-shimol, – dedi Horunbek belbog'idagi jez qiblanomani kafti ustiga qo'yib. – Bu yo'llarda ko'p yurgan-man. Aksar, mana shu Karki, Xalach, Saqar yo'lida bo'ron bo'lardi. Shu yerlarda bir gap bor. Yumronlarning daryo tomonga yugurishida ham bir gap bor. Ishqilib, o'zi asrasin.

Olisda falakka ustun bo'lib turgan ikki girdibod orqasida yana «ustunlar» paydo bo'ldi. Arava g'ildiraklari ostida shuvullab oqayotgan qumlar qolib, Me'mor olis-olislarda gir aylanib, qum-u yantoqlarni osmonga olib chiqayotgan girdibodlardan nigohini uzmas edi. Besh-olti «minora» falakka bo'y cho'zib, osmonga to'zon purkardi. Ular gala minoralarga o'xshab ketardi. Oldingisi Minorai kalonga o'xshasa, orqadagilari Hirotdagi gala minoraga, ba'zan Mirzo madrasasining ikki «guldasta»siga ham o'xshab ketardi.

Uning ko'z oldiga Nizomiddin keldi – ajdar komiga yanglishib ketgan bolam butun bir saltanatga qarshi tayoq bilan jang qilmoqchi bo'lgan edi. Sen qaltis tashlagan qadamning qurboni bo'lib qora yerda yotibsan! Shu lozimmidi? Bir to'da yigit Mag'ribdan Mashriqqacha yetgan, lak-lak lashkari bo'lgan saltanatni qulata olarmidingiz! Saltanat bilan o'ynashishning oqibati mana shunaqa! Bu ishni biz qil-sak mayli edi: yoshimizni yashab, oshimizni oshaganmiz. Biz hamma qabihliklarni ko'rdik, podshohlarga yaqin yurmoq ajdarga yaqin yurmoqdan xavfli ekanini bilardik. ...Siz, hali

¹ *Qiblanoma* – Kompas.

hech narsani ko‘rmagan g‘o‘r go‘daklar, chalg‘ib ajdar komiga lahm etdek kirib ketdingiz! Polopon vaqtingizdayoq yorug‘ dunyodan ketdingiz! Ana shunga kuyaman!

Ba‘zan shunday uzundan uzun o‘ylar Me‘morni qurshab olsa, u bir muddat nasha elitgan odamday bir nuqtaga tikilganicha xayol surib qolardi. Bunday chog‘larda yonida o‘tirgan xotini-yu qizini ham ko‘rmasdi, u tamoman uzoq-uzoqlarda yurardi. Otasining bunday tushkun paytlarida Badia unga halal bermas, otajon, hadeb bunday uh tortaverish kishini ichdan yemiradi, deya olmasdi.

...Uch arava yonidagi otlar bilan Jayhunning chap yonida qumliklar ichida borardi. Karkidan chiqqandan so‘ng oqshomga qolmay yetib borishlari mumkin bo‘lgan Xalach negadir juda olis bo‘lib ketdi. Olisdagi sarg‘ish chang va girdibodlar karvonga yaqinlashib kela boshladi...

Ko‘p o‘tmay, arava g‘ildiraklari tagidagi qumni uchi-rayotgan shamol endi g‘uvullab bo‘ronga aylanib, aravalarini sariq chang o‘ray boshladi. Otlar ham pishqirib, betoqat bo‘lar, tuyoqlari qumga botib ketardi. Arava soyabonlariga shitirlab urilayotgan qum ichkaridan yomg‘irni eslatardi; qani endi qum bo‘roni emas, shovullab yomg‘ir yog‘sa, deb o‘ylardi Badia.

Horunbek otning jilovini tortib aravani to‘xtatdi, sal ishoraga mahtal bo‘lib turgan ot jonivorlar ham darhol joyida to‘xtadi. Oldingi ot qattiq pishqirdi. Boshqa aravalar ham odatdagidek oldingi aravaga yaqin kelib to‘xtashdi. Yigitlar aravalardan tappa-tappa sakrab tushishdi. Ular g‘uvullab uchayotgan bo‘ron ichida bir-birlarini arang ko‘rishardi. Avvaliga, cholga bir nima bo‘ldi, deb xayol qilgan Zulfiqor bilan Zavrak yugurib kelib ustodga qarashdi, yo‘q, ustod ham, Badia ham, Ma’suma beka ham yaxshi o‘tirishardi. Shogirdlarining bezovta bo‘lganini sezgan Me‘mor... yo‘lning eng mashaqqatli joyi shu, daryodan o‘tgandan keyin, undan u yog‘i – Movarounnahr, «dunyodagi eng go‘zal mamlakat» ekanini aytib, ularga taskin berdi. Shogirdlar cholning dalda berayotganini sezib, ichdan kulib qo‘yishar, chalg‘itayotgan

bo'lsa ham ustozning o'zi bardam ekanidan mamnun edilar. G'avvos Muhammad ham ulardan bir qadamcha narida ustodiga javdirab qarab turardi.

– Nima qilaylik? Shu yerda to'xtaymizmi yoki yuraveramizmi? – Me'mor yo'ldoshlariga murojaat etdi.

– Yurib bo'lmaydi! – dedi bir damlik sukutni buzib Horunbek.

– Daryoga yaqinroq boramizmi? – so'radi Badia qum kirgan ko'zlarini uqalab.

– Bu juda xavfli, – dedi Horunbek.

– Bo'lmasa joyimizda turaveraylik, – dedi Me'mor.

– Otlarni chiqarib, arava g'ildiraklariga mahkam bog'lash kerak. Bo'ronning tezda o'tib ketishiga ko'zim yetmaydi, – dedi Horunbek, – uch-to'rt kunlab bo'lganini ham bilaman! Ishqilib, tez o'tib ketsin.

– Horunbek, girdibodlar uzoqda edi, mana bu tomonga yaqinlashyapti, – dedi Me'mor. – Bu yerdan ham tez o'tib ketadi. Qo'rqmaslik kerak. Lekin otlarning xashaklarini arava tagiga olib kirish lozim! Bo'ron uchirib ketishi turgan gap.

– Oxirgi aravadagi namatlarni olib, g'ildiraklarga yopinglar, – dedi Horunbek, – hammamiz aravalarning tagiga kirishimiz kerak!

G'uvullab uchayotgan bo'ron ichida yigitlar naridan beri xashag-u bedalarni arava tagiga olib kirib, g'ildiraklarga namat yopishdi. Badia bilan Ma'suma beka arava tagiga kirib yashirinishdi. Bir muddatdan keyin Me'mor ham arava tagiga kirdi.

Bo'ron g'uvullab esar, namat-u chodirlarni pirpirak qilib uchirib ketmoqchi bo'lar, aravalarni silkitar, g'ildiraklarga bog'loqliq otlar oyoqlarini kerib, qimir etmay turishardi.

Xalach bo'roni!..

Xurosondan Samarqand-u Buxoroga qatnaydiganlarga bu yerning fe'li juda ma'lum, ammo eng yaqin yo'l shu bo'lganligi tufayli yo Karki, yo Xalachga bormaslik va Jayhundan o'tmaslikning iloji yo'q. Aravalarni tagiga kirib, qum bo'ronidan jon saqlagan Me'mor va Horunbeklar xayolida

uch-to'rtga bo'linib, limillab oqayotgan daryoning narigi tomonidagi Xo'jaabbos shaharchasi va undan Tollimarjonga chiqib olish tashvishi turardi. Lekin kutilmaganda boshlanib qolgan Xalach bo'roni ularni daryo bo'yiga ham yetkazmay, qum ostida taqqa to'xtatdi. Me'mor g'ildirakka yopilgan namat orasidan uzoq-uzoqlarga boqardi; hamma yoq sariq chang, ammo g'arb tomonda falakka ustun bo'lib turgan girdibodlar ancha yaqin kelib qolgan edi. Uning ko'zlariga bu «ustun»lar orasidan moviy gumbazlar ko'rinib ketganday bo'ldi. Falakka bo'y cho'zgan allaqanday buyuk qasr ro'para namoyon bo'lib, Me'morning xayolini olib qochdi. U xayol ichida aravalarni, namatlarni tortqilab, g'uvullayotgan Xalach bo'ronini sezmas, uning ko'z oldida girvat-u¹ bo'ron kashf etgan mislsiz bir qasr turardi. Bu qasr o'zining ulkan ravoq-u «guldasta»lari, gumbaz-u darvozalari bilan Oqsaroydan ham, Bog'i Jahonoro qasridan ham buyuk edi.

Badia chidab turolmay, otasini turtirdi:

- Suv beraymi, ota? Chol o'ziga keldi.
- Yo'q, suv ichmayman! – dedi Me'mor, – buni qara, qizim, meni xayol olibdi; mana shu tomonda bir katta qasr solingan emish...

Me'mor so'zini davom ettirdi:

- Qum tepaliklarini ham tamoman unutibman. Mana shu tomonda juda katta qasr turibdi. Xudoyi taolo mening dilimga yana bir katta qasr bino etishni solyapti. Men bu qasrni aniq ko'rdim. Ha, bu tush emas, shundoq kuppa-kunduzi, uyg'oq turganimda ko'rdim. Bo'lmasa, kelib-kelib shu sahroda qasr ko'ramanmi! Yo tavba!

Badia ham, Ma'suma beka ham, Horunbek ham yarim qorong'i arava tagida Me'morga jim qarashdi.

- Badia qizim, shogirdlarimdan birini chaqirib berolmay-sanmi? Daftarini, toshqalam bilan jozvarini² ham ola kelsin.
- Men chaqiraman, – dedi darhol o'rnidan qo'zgalib Horunbek.

¹ *Girvat* – quyun, o'rama.

² *Jozvar, jazval* – chizg'ich, lineyka.

– Sizga nima bo‘ldi, otasi, – dedi Ma’suma beka, – shundoq paytda daftar-qalam nimasi!

– Xudo dilimga soldi, o’sha buyuk qasrni o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim, onasi, bir amallab chizib olamiz. Yodingda bo‘lsa kerak, «Mirzo» madrasasi ham shundoq bo‘lgan edi. Yoddan ko‘tarilmasligi uchun ba’zi yerlarini qayd qilib qo‘yamiz.

Bo‘ron tinimsiz guvullab turganida yonginadagi arava tagidan chiqib, otlarning tagidan o‘tib, Zulfiqor bilan Zavrak emaklab kirib kelishdi. Ularning orqasidan G‘avvos Muhammad ham kirmoqchi edi, ichkariga sig‘madi. Horunbek bilan G‘avvos aravaning sirtida cho‘kka tushib o‘tirib, boshlarini ichkariga tiqishgan edi. Bu holat Badiada kulgi qo‘zg‘adi: u onasi pinjiga suqilib Zulfiqordan nigoh uzmay, tikilardi. Zulfiqor ustodga yaqin o‘tirib, qo‘ynidan keng va qaliningina daftarini olib, tizzasiga qo‘ydi. Toshqalamni Me’morga uzatdi. Zavrak Me’morning daftar sahifalariga tortayotgan chiziqlaridan, handasaviy o‘lchovlaridan ko‘z uzmasdi.

– Sizlarni bezovta qildim-a?

– Bemalol, ustod.

– Xudo dilimga shu‘la soldi, buni qaranglar, bir yaxshi bino ko‘zimga ko‘rindi. Anavi girvatlar minoralarga o‘xshaydi, uchib borayotgan sariq qum devor-u ravoqlarning o‘zginasi. Keksalik, yana yodimdan ko‘tarilib ketmasin, deb daftarga chiziqlar tortib, belgilab qo‘yishni lozim topdim.

Yarim qorong‘i arava tagida Me’mor qo‘lidagi toshqalam bilan daftar sahifalariga chiziqlar tortar, yozar va yana yangi sahifalarni ochib, chiziqlar chizardi. Shogirdlarning ko‘zi daftarda. Horunbekning nigohi Me’morda, Badia bo‘lsa Zulfiqorga tikilardi. Ma’suma beka aravaning ich-u tashida o‘tirganlarga javdirab, hammaning xatti-harakatini kuzatib o‘tirardi. Mushfiq ona uchun bunda hamma qadrdon edi. U hammadan ko‘ra ham G‘avvos Muhammadning ko‘nglini o‘ksitmaslik maqsadida unga mehribonlik ko‘rsatmoqchi bo‘lardi.

Me’mor daftarga handasaviy chiziqlar chizib, shogirdlariga nimalarnidir tushuntirardi. Uchburchaklar va uni kesib o‘tuvchi to‘g‘ri chiziqlar burchagiga raqamlar qo‘yib

ko'rsatardi. Me'morning hayajonlanib aytayotgan, «mislsiz qasr» tasviri va handasaviy hisoblari shogirdlar nazdida afsonaga o'xshardi. Ustodning ko'p gaplariga ishongilari kelmasa-da, unga itoat va e'tiqod yuzasidan hamma gaplarini ma'qullashardi.

Tashqarida kuchli shamol namat-u chodirlarni tortqilar, G'avvos bilan Horunbek bo'lsa damo-dam uzoqdagi «falak ustunlari»ga qarab qo'yishardi.

Hay, usta, – dedi Ma'suma beka, – shu paytda bu chiziqlaringiz kimning qulog'iga kiradi-a?! Halizamon ustimizdan qum bosib ketadimi... Shogirdlaringizni o'z holiga qo'ying, otlarga qarashsin. Laa havla va laa quvvata!

– Sen duoyingni o'qib, dam solib o'tiraver! – dedi iljayib Me'mor, shogirdlariga ko'z qisib. – Qo'limiz bo'sh, baribir bekor o'tiribmiz. Bu bizning kasbimiz.

– Axir qo'rqib ketyapmiz!

– Kim? Sen o'zingmi yoki Badia hammi?

– Men o'zim, – dedi Ma'suma beka bo'ron tortqilayotgan chodirni mahkam ushlab.

– Qo'rqma! Hammamiz shu yerdamiz. Bo'ron tezda o'tib ketadi, biz Jayhunning narigi tomoniga o'tganimizdan keyin bunaqangi yomon ofatlar bo'lmaydi. U tomon – Movarounnahr, Badia, sen qo'rqmayapsanmi?

– Yo'q, otajon.

– Ana, eshitdingmi, onasi.

– Eshitdim, – dedi Ma'suma beka, – ammo sizlar shatranj o'ynayotgan odamlardek o'zlaringiz bilan o'zlaringiz gaplashib o'tiraverasiz, biz bu gaplaringizga tushunmaymiz. Mundoq tushunadigan gaplardan ham gaplashinglar.

Oradan ko'p o'tmay, allaqanday qudratli bir kuch aravalarga kelib urildi. Otlar kishnadi. Hamma yoqni qorong'ilik bosib, yuzlarga qum urildi. Aravalar ham borib kela boshladi. Birinchi arava tagida o'tirganlar beixtiyor g'ildiraklarga yopishishdi. Qandaydir dahshatli bir qo'l qorong'ilik ichida hamma narsani tortib, osmonga otardi. Bu bir daqiqa ichida paydo bo'lgan yovuz kuch zilzilaga ham o'xshardi, yer ostin-ustun bo'lib ketayotganday, hech narsani ko'rib bo'lmasdi.

Bu girdibod! – dedi og‘zi-burniga qum kirgan Me‘mor, bir daqiqadan keyin jonholatda. – Bir-birlaringizni mahkam ushlanglar!

Me‘mor beixtiyor qizi bilan xotinini ushladi. Zulfiqor bir qo‘li bilan borib-kelib turgan arava g‘ildiragini, bir qo‘li bilan Badiani mahkam ushladi. Zavrak ustodining oyog‘iga yopishdi. Horunbek bilan G‘avvos arava g‘ildiraklariga mahkam yopishgancha ko‘zlarini yumib turaverishdi.

Qorong‘ilik bir necha daqiqa davom etdi. Yuzlarga urilayotgan beto‘xtov qum bo‘roni ko‘z ochirgani qo‘ymasdi. G‘ujanak bo‘lib bir-birlariga yopishib olgan yo‘lovchilar «girdibod» degan gapni eshitishdi-yu, ammo nima bo‘layotganini bosh ko‘tarib ko‘ra olishmadi. Otlarning kishnashi ham to‘xtadi. Ko‘p o‘tmay qorong‘ilik ketib, kun yorishayotganga o‘xshadi. G‘uvullab esayotgan bo‘ronga qaramay, Me‘mor sekin boshini ko‘tardi, girdibod o‘tib ketgan edi.

Hamma sekin bosh ko‘tarib u yoq-bu yoqqa qaradi. Darhaqiqat, chang-to‘zon ancha narilab, Karki tomonga ketardi. Osmon-u falakka bo‘y cho‘zgan girdibod ichida namat-u, chodir-u xashaklar uchib yurardi. Girdibod qayerlarnidir yalab, qayerlargadir qum tepaliklari uyub ketibdi. Ikkinchi arava to‘nkarilib, uchinchi aravani ancha nariga olib borib, g‘ildiraklarining yarmigacha qumga ko‘mib qo‘yibdi. Uning ustida na xashak va na yuklar bor. Birinchi arava g‘ildiraklariga bog‘langan uch ot bor-u, qolgan otlardan darak yo‘q. Yuz qadamcha narida qumga botib yotgan uchinchi aravaning o‘ng tomonida saman yo‘rg‘a qumga botib, chiqa olmay unnalardi. Aravaga qo‘shib bo‘lmaydigan ikki begona otdan tamoman darak yo‘q. Qum bo‘ronining ancha pasaygani, girdibodning bu yerdan o‘tib ketganini ko‘rgan Me‘mor arava tagidan chiqib, atrofga qaradi. Aravalar qup-quruq. Gilam-u sholchalar, qotgan non-u tolqon solingan xaltachalar, kiyim-kechaklargacha olib ketibdi. Olis qum tepaliklari ustida xashak qoldiqlari sochilib yotardi. Qiyshayib yotgan uchinchi aravada faqat dekcha-yu, belkurag-u ketmonlar qolibdi...

Me‘mor arava tagidan chiqib, qumda cho‘qqayib o‘tirgan Ma’suma bekaga yalt etib qaradi:

– Katcha¹ bormi?

– Bor, – dedi xotini, – biri menda.

– Menda ham bor, – dedi Badia

– Xayriyat, – dedi Me'mor... Bu ham xudoning xohishi.

Zulfiqor Shoshiy bilan Zavrak Nishopuriy shu lahza yugurgancha otni qumdan qutqarib olish uchun narida qiyshayib yotgan uchinchi arava yoniga kelishdi. G'avvos orqama-orqa belkurak olib chopib, ot tepasiga bordi. Horunbek ham yugurganicha bir tepalikka chiqib, atrofga alangladi. Yo'qolgan otlarni qidirdi. Hech qayerda jonli narsadan nishon yo'q. To'rt otning salomat qolganiga ham shukur qilishdi.

– Jonimiz omon qoldi, – dedi Me'mor, – bo'lmasa, bu girdibod yomon narsa. U qaroqchilarning badtarini. Jonimiz omon qolganiga shukur qilaylik!

– Girdibodni ko'rar edim-u, ammo mundoq ichiga tushmagan edim, – dedi tepalikdan tushib, ustod yoniga yaqinlashgan Horunbek. – Bizni dabdala qilib ketdi-ya! Endi qolgan otlar bilan tezda Xalachga yetib olmasak, otlar xo'raksiz², suvsiz halok bo'ladi.

– Shunday qilaylik, birodar, – dedi Me'mor, – bu ko'rgulik ham bor ekan. Lekin bu ziyonni qoplaydigan aqchalarimiz bor, biz hammasini to'laymiz.

– Bu xudodan kelgan narsa, ustod, men bu ofat yetkazgan ziyon uchun haq olmayman.

– Hozir mol-jon o'rtada, inim, Buxoroga yetib olaylik, u yog'i bir gap bo'lar.

Uch yigit saman yo'rg'ani qutqarib olib kelishdi.

Shundan so'ng atrofga sochilib, biron narsa ko'rinarmikan, deb qum tepaliklarni, pastliklarni izlashdi. Hech vaqo yo'q. Girdibod qiladigan ishni qilib, oladiganini olib, yana qumliklarga kirib ketgan edi.

– Yigitlar, uzoq-uzoqlarga qaranglar, otlar ko'rinmaydimi? – dedi Horunbek. – Jonivorlar qayoqda qolgan ekan?

– Hech narsa ko'rinmaydi, – dedi Zavrak.

¹ *Katcha* – hamyoncha, yonchiq.

² *Xo'rak* – yegulik, yemish.

Qumda talanib, bor-yo'g'idan ajragan kichik karvon sochilgan narsalarini yig'ib, otlarni aravalarga qo'shishga hozirlik ko'rdi. Tomog'i qaqragan Badia qumlarning qayerigadir ko'milib ketgan mesh-u xumchani qidirardi. Otlar tashna... Lablari lablariga yopishib qolgan Me'mor ham o'z tashnaligini bildirmay, tupuk yutar, ochlikka chidash mumkin, ammo tashnalikka bardosh berish g'oyatda mashaqqat ekanligini dilidan o'tkazardi. Bu holatni sezib turgan G'avvos birinchi arava shotisiga bog'loqliq kattagina chelakni va qumda to'nkarilib yotgan xumchani olib, qum yo'lining o'ng tomoniga – kun chiqish tomonga jo'nadi.

– Daryo ancha olisda. Topa olarmikansiz? – so'radi Horunbek.

– Qiblanomaga qarang, to'g'ri ketyapmanmi?

– To'g'ri ketyapsiz, – Horunbek kaftidagi qiblanomaga qaradi.

– Unda topaman.

– Kechikmang, o'g'lim, biz bunda uzoq turolmaymiz, – dedi Me'mor.

– Xo'p, ustod.

G'avvos Muhammad bir qo'lida chelak, xumchani qo'ltiqlab olganicha qumlar osha yugurib ketdi. U fursatni qo'ldan bermaslik uchun kuchining boricha yugurardi. Hozir yugurish kerakligini, chunki suv bilan yugurib bo'lmasligini bilardi.

– Harqalay u G'avvos! – dedi Zavrak, – suv topib keli-shiga ishonaman. Lekin bu boyvachchaning ro'parasidan biron ilon chiqib qolsa, paqir bilan xumchani tashlab, dod solib qochib kelmog'i ham mumkin.

Badia kulimsiradi:

– Unda o'zingizga navbat keladi!

– Men hoziroq zing'illab ketardim, idish yo'q, bekam.

– Sabr qilib turinglar, – dedi Ma'suma beka, – lekin G'avvos Muhammadni o'ksitadigan gaplarni aytmanglar, u ham birovning nuridiydasi. Har to'kida bir ayb.

Barcha tayyorgarlik ishlariga kirishib, otlarni qo'shib, aravalarga chiqib, G'avvosni kutardi. G'avvosdan esa darak yo'q. Bir damdan so'ng Me'morning toqati toq bo'la boshladi.

– Bu nima ish bo‘ldi?!

– Sabr qiling, ustod.

Bir mahalda uzoqda qora nuqta ko‘rindi. Arava ustida o‘tirgan Zavrak o‘rnidan tik turib G‘avvos kelayotganini aytdi.

Xonumoni talanib, qilichi sinib, qalqoni teshilib, yengilgan sarbozdek xomush tortib o‘tirgan Me‘mor bilan Horunbek jonlandi. Ular miq etishmay, uzoqda terlab-pishib suv olib kelayotgan G‘avvosdan ko‘z uzishmasdi. Hatto aravaga qo‘shilgan otlar ham G‘avvosga tikilishardi. U yetib kelmasdanoq, Horunbek pastga tushib kutib turdi. Terga botib halloslab kelayotgan G‘avvos chelakdagi suvni Horunbekka uzatdi. U halloslaganidan tili gapga kelmasdi.

– Suv loyqaroq.

– E, uka, loyqaroq bo‘lsa ham suv-ku! Omon bo‘l!

– Baraka toping! – dedi Ma’suma beka.

– Ustod, nima deysiz? – Horunbek Me‘morga qaradi.

– Xumchadagidan hammamiz ichaylik. Paqirdagi suvni otlarga oz-oz ichiring, – dedi Me‘mor.

– Ustod, men yana zing‘illab borib kelaveraman! Daryo uzoq emas ekan, ammo yurish qiyin. Daryo negadir loyqa oqyapti...

– Jayhun doimo loyqa oqadi – dedi Me‘mor, – biz shu suv bilan Xalachga yetib olamiz, o‘g‘lim. Bu ishingiz xo‘p yaxshi bo‘ldi.

G‘avvos ustozini andak bo‘lsa ham mamnun qilolganidan quvondi. Aravalar birin-ketin yurib ketgach, Zavrak yoniga o‘tirgan G‘avvos yonidan bir ilon chiqarib, bilintirmay uning tizzasiga qo‘ydi. Tizzasi ustida buralayotgan chipor ilonga ko‘zi tushgan Zavrak kapalagi uchib, dod deb sakrab yerga tushdi.

– Ha, nima gap? – deb Horunbek otning boshini tortdi.

– Nima qildi? – Zulfiqor bilan Badia ham Zavrakka qarashdi.

– Hali bu ishni siz qildingizmi?! – dedi boshi yanchilgan ilonni ko‘rib Zavrak zaharxanda bilan G‘avvos Muhammadga.

– Sizni ilon-u ajdarlardan qo‘rqmaydi, deb eshitgan edim, bahodir Nishopuriy!

– Haligi gapimni eshitgan ekansiz-da. Qanday qilib eshitdingiz? Ancha narilab ketgan edingiz-ku?

– Har kim o‘ziga taalluqli gapni narilasa ham eshitadi. Agar mening ustimdan qo‘rqoq deb yana kulsangiz, endi ajdarni tutib kelaman.

– Ofarin, G‘avvos! – dedi Zavrak yana sakrab aravaga chiqib. Keyin uning yelkasiga qo‘l tashladi. – Qani, menga ayting-chi, qanday qilib, bu yaramasni tutib o‘ldirdingiz?

– Ketayotsam, ro‘paramda turgan ekan, bosh ko‘tarib tilini chiqaraverdi. Yaqinroq borib, xumchaning qorni bilan boshini ezdim-qo‘ydim. Vassalom! Sizning gapingizni eshitganim yo‘q, lekin orqamdan, albatta, bir nima deyishingizni ko‘nglimdan o‘tkazib qo‘ygan edim. Chunki siz gapirmay turolmaydigan odamsiz!

– Zehningizga qoyilman, G‘avvos!

– O‘sha ilonni men ham ko‘ray, – dedi Badia.

– E, qo‘ysang-chi! – dedi Ma’suma beka e’tiroz bildirib. – Ilonni ham o‘ynaydimi odam! Turqi qursin!

...Suv ichgan otlar ancha o‘zlariga kelib, pishqirib yo‘lga tushishdi. Shu tunda ular Xalachga kirib borishdi. Karvonsaroyga tushib, otlarga ham hordiq berib, o‘zlari ham dam olishdi. Ertasiga erta bilan ot-aravalarni sol¹ ustiga chiqarib, daryodan o‘tkazish mashaqqati boshlandi. Ulkan yog‘och sol har aravaotni alohida-alohida qilib, uch bor daryoni kechdi. To‘rtinchi o‘tishda solga Badia, Ma’suma beka, Me’mor va Zulfiqor tushishdi. Daryoning narigi tomoniga o‘tgan ot-aravalar, Xo‘jaabbos manzilgohida to‘xtamay, to‘g‘ri Tollimarjon yoki Fayzobod shaharlariga qarab yurishni ko‘zlab shay turishardi.

Jayhundanda o‘tib, Xo‘jaabbos yo‘liga tushgan uch arava Tollimarjon shahri, qaydasan, deb ketaverdi. Ular endi, garchi yana qumliklar aro borayotgan bo‘lsalar ham, aslida, Mo-varounnahr tuprog‘ida edilar.

¹ Sol – arqon bilan bir-biriga matashtirib bog‘lanib suvga cho‘kmaydigan qilingan moslama. Daryolardan odam va narsalarni o‘tkazishda foydalanilgan.



1. Chidamsiz va injiq G'avvos Muhammadni aravadan uloqtirib yuborish haqida buyruq berganda Badia tabiatidagi qanday jihatlar namoyon bo'ldi deb o'ylaysiz?
2. G'avvos Muhammadning qumli sahroda jazavaga tushib, to'polon qilishi sababini izohlashga urinib ko'ring.
3. Me'morga Amu suvining Zarafshonnikiday totli tuyulgani sababini izohlang.
4. Bo'ron tufayli yuz bergan noxushlik har bir yo'lovchilarda qanday holatni yuzaga keltirganiga diqqat qarating.
5. Bo'ronning dahshatli holatida ham o'z orzu, rejalari haqida tinimsiz o'ylagan Me'morning o'z kasbiga munosabati haqida gapiring.
6. Yozuvchining bo'ronni tasvirlashdagi mahorati aks etgan o'rinlarni topib izohlang.
7. Bo'ronda qolgan yo'lovchilarning har biriga xos jihatlar qanday tasvirlanganiga e'tibor qiling. Ularni o'zaro solishtiring.
8. Dahshatli bo'ron ko'tarilgan paytda butun fikr-u zikri xayolida gavdalanayotgan qasrning tarhini chizishda bo'lgan Me'morning shaxsiyatini izohlang.
9. Zulfiqor va Badia munosabatlari tasviriga e'tibor qiling, ularga tavsif berishga urining.

ROMAN VA UNING TURLARI

Roman nasr yo'lida yozilganligi, hayotni keng qamrovda ko'rsatganligi, sujeti ko'p tarmoqli bo'lganligi, inson taqdiri va ruhiyati tasvirining ko'lamdorligi, shundan kelib chiqqan holda katta hajmga ega bo'lishi bilan hikoya va qissadan ajralib turadi. Roman tasvir qamrovi, tuzilishi va hajmiga ko'ra *dilogiya*, *trilogiya*, *tetralogiya*, *epopeya* ko'rinishlarida bo'lishi mumkin.

Roman-dilogiya – ikki kitobdan iborat bo'lib, inson taqdiri va hayotini ancha keng qamrab oladi. U katta bir davrni o'z ichiga olib, bir qator qahramonlar taqdiri bilan tanishtirishi mumkin. Masalan, M. Ismoilning «Farg'ona tong otgun-

cha», H. Nu'mon va A. Shorahmedovning «Ota», P. Qodirovning «Yulduzli tunlar» va «Avlodlar dovoni» kabi asarlari roman-dilogiyalardir.

Trilogiya – uch kitobdan iborat bo‘lib, jamiyat hayotidagi katta bir davrni qamrab oladi, dilogiyadan ko‘ra ham ko‘proq va kengroq taqdirlar qalamga olinadi, qahramonlar soni ham shunga muvofiq ko‘proq bo‘ladi.

Said Ahmadning «Ufq» asari trilogiya namunasi bo‘lib, «Qirq besh kun», «Hijron kunlarida», «Ufq bo‘ sag‘asida» nomli uchta alohida romandan iborat. Muhammad Alining «Ulug‘ saltanat» trilogiyasi «Jahongir Mirzo», «Umarshayx Mirzo», «Mironshoh Mirzo» nomli romanlardan iborat.

Roman necha kitobdan iborat bo‘lishidan qat’i nazar, ular-da ichki birlik, bog‘lanish bo‘ladi. Agar uch kitob bir-biriga bog‘lanmagan uch davrga, uch xil masalaga va qahramonlarga ega bo‘lsa, bunday asar, tabiiyki, trilogiya bo‘la olmaydi. Bundan tashqari, dilogiya yoki trilogiya qismlarini o‘zaro bog‘laydigan bir insoniy taqdir, barcha kitoblarda ishtirok etadigan bir yoki bir necha qahramonlar guruhi bo‘lishi talab etiladi. «Farg‘ona tong otguncha» dilogiyasida G‘ulomjon, «Ulug‘ saltanat» trilogiyasida Temur obrazlari barcha kitoblarda tasvirlanadi. «Ufq» trilogiyasida ham Ikromjon obrazi barcha kitoblardagi voqealar markazida turadi.

Uchdan ortiq kitobdan iborat bo‘lgan romanlar *tetralogiya* deb ataladi. Lekin bunday roman shakli kam uchraydi.

Romanlar orasida *epopeya* deb atalmish tur ham mavjud. Epopeya asarning necha kitobdan iboratligiga yoki hajmiga bog‘liq emas. Rus adabiyotida A. Serafimovichning «Temir oqim» nomli hajmi bir qissadek keladigan asari epopeya turiga kiradi. Epopeyada jamiyat hayotining muayyan bo‘lagi yaxlit jarayon sifatida ko‘rsatiladi. Bosh qahramon sifatida esa bir-ikki personaj emas, balki biror ijtimoiy qatlam yoki butun xalq ommasi olinadi. «Temir oqim»da shu xususiyat bor. L. Tolstoyning «Urush va tinchlik», M. Sholoxovning «Tinch Don», M. Avezovning «Abay», A. Nurpeisovning «Qon va ter» romanlari epopeya hisoblanadi.



O'lmas Umarbekov

(1934–1994)



aniqli o'zbek yozuvchisi O'lmas Umarbekov 1934-yilning 25-yanvarida Toshkent shahrida tug'ilgan. Millatimiz hayotida chuqur iz qoldirgan jadid Abdulla Avloniy asos solgan 40-maktabda o'qigan. Maktabni oltin medal bilan bitirgan O'lmas o'sha vaqtdagi O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi Milliy universitet)ning

filologiya fakultetiga o'qishga kirgan.

O'zbekiston xalq yozuvchisi (1992), XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga munosib ulush qo'shgan adib O'lmas Umarbekov serqirra iste'dod sohibi edi. Talabalik yillaridayoq xabar, maqola, lavha va ocherklar yozgan bo'lajak adib nafaqat badiiy asarlari, balki ijtimoiy-siyosiy faoliyati bilan ham xalqimiz hayotida muhim iz qoldirgan. Oliy o'quv yurtini tugatmay turib, 1956-yilda Respublika radiosida muharrir sifatida ish boshlagan O'. Umarbekov 1971-yilgacha bo'lgan davr ichida bosh muharrirgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. 1971–1974-yillarda O'zbekiston kompartiyasi Markaziy qo'mitasida sektor mudiri, 1974–1981-yillarda «O'zbekfilm» kinostudiyasi direktori, 1982–1986-yillarda

Madaniyat vazirining birinchi o‘rinbosari, 1987–1989-yillarda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, 1989–1991-yillarda respublika Bosh vazirining o‘rinbosari kabi o‘tamas’ul lavozimlarda mehnat qildi.

Taniqli yozuvchi, davlat va jamoat arbobi O‘lmas Umarbekov uzoq davom etgan og‘ir kasallikdan so‘ng 1994-yilning 10- noyabrida vafot etdi.

O‘. Umarbekov badiiy ijodni hikoyachilikdan boshlagan. Yosh yozuvchining «Xatingni kutaman» (1956) nomli birinchi asariyoq «Yilning eng yaxshi hikoyasi» deb tan olinib, maxsus mukofot bilan siylandi. «Hikoyalar» (1959), «Qishlog‘imiz kishilari» (1960), «Yulduzlar» (1962), «Charos» (1962), «Bolg‘ar qo‘shiqdari» (1966), «Ko‘pri» (1968), «Oltin yaproqlar» (1970), «Qiyomat qar» (1976), «Yer yonganda» (1993) singari o‘ndan ortiq to‘plamda uning yuzlab hikoyalari bosildi.

O‘. Umarbekov insonni anglashga, uning ruhiy dunyosiga kirishga va odamning o‘yu tuyg‘ularini ichdan turib tasvirlashga intilgani bois uning hikoyalarida samimiyat kuchli. U odam, uning o‘ylari, kechinmalari, orzu va armonlari haqida qalam suradi. O‘lmas Umarbekov hikoyalarining qahramonlari – oddiy odamlar. Hikoyalarda yozuvchining sinchkov nigohi, tasvirlanayotgan narsa-yu hodisalarni miridan sirigacha bilishi, kerakli bayon maromi va ifoda ohangini yanglishmay topa olishi sezilib turadi.

O‘lmas Umarbekov mohir qissanavis sifatida ham e’tibor qozongan. Adibning: «Sevgim, sevgilim» (1963), «Kimning tashvishi yo‘q» (1965), «Urush farzandi» (1972), «Damir Usmonovning ikki bahori» (1978), «Cho‘li iroq» (1971), «Yoz yomg‘iri» (1973), «Oq qaldirg‘och» (1974) kabi qissalari milliy nasr rivojida salmoqli o‘rin tutgan asarlardir.

Adibning «Sevgim, sevgilim» qissasi ko‘p bahslarga sabab bo‘lgan. Adolatsiz tuzum mamlakatning eng chekkasida yashayotgan siyosatdan yiroq oddiy kishilar taqdirida ham fojiali iz qoldirishi mumkinligi asarda ta’sirli aks ettiriladi. Siyosiy vaziyat qanday bo‘lsa-da, odam insonlarga bo‘lgan ishonchini yo‘qotmasligi lozimligi, olomonning qutqusiga

uchgan, odamga emas, to‘daga xos tarzda o‘ylay boshlagan kishi o‘ziga ham, o‘zgalarga ham falokatlar yog‘dirishi qis-sada ta’sirchan aks ettirilgan. Shu asardan boshlab milliy adabiyotimizga fojia tasviri qayta kirib keldi.

O‘lmas Umarbekov qissa janrining yangi qirralarini kashf etdi. Jumladan, o‘sha paytgacha qadar o‘zbek adabiyotida de-yarli qo‘l urilmagan detektiv yo‘nalishidagi «Yoz yomg‘iri» qissasi sujet to‘qimasining murakkabligi, voqealar ta’sirining favqulodda keskinligi, ifoda maromining shiddatkorligi bilan e’tiborni tortadi. Yoshgina go‘zal ayolning sirli o‘limi sabab-larini ochish, fojia manbalarini o‘rganish, qotillarni aniqlash barobarida asar qahramonlarining ma’naviy qiyofalari oydin-lasha boradi.

Adibning «Urush farzandi» qissasi ham voqealar rivoji-ni sirliligi, personajlar xatti-harakatlarining kutilmaganli-gi, ayni vaqtda, chuqur hayotiy asoslarga egaligi, tasvirning samimiyligi bilan e’tibor tortadi.

O‘lmas Umarbekov «Odam bo‘lish qiyin» hamda «Fotima va Zuhra» nomli ikki roman ham yaratgan. «Odam bo‘lish qiyin» romanida Gulchehra va Abdulla singari yoshlarning tuyg‘ulari dastlab g‘uborsizligi bilan kishini rom etadi. Ammo hayot shu qadar murakkabki, bir qarashda g‘uborsizday tuyul-gan tuyg‘ularni namoyon etgan odamlar tabiati zahirida no-poklik dog‘lari yashiringan bo‘ladi. Tajribasiz va g‘o‘r ikki yoshning pokiza tuyg‘ulari hayot tashvishlariga qorishib qah-ramonlarni tanazzulga tortib, sevishgan qalblarni fojia sari yetaklaydi. Manfaatni insonlikdan yuqori qo‘yish odamni ma’naviy qabohat sari yetaklashi fojiaiy timsollar misolida yorqin ko‘rsatib beriladi.

Adibning ikkinchi romani «Fotima va Zuhra»da milliy ma’naviyatimizdagi bir kemtiklik sarguzasht yo‘sinida aks ettiriladi. Asarda obro‘-e’tiborli, halol o‘qituvchi Abdullajon-ni oilasi taqdiri misolida ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi omonsiz kurash ko‘rsatib beriladi. Erka o‘g‘il Hamidullaning jinoyatchilar to‘dasiga qo‘shilib qolishi, ko‘knori iste’mol

qilishi, qimor o'yini oqibatida singlisi Fotimani boy berishi ketma-ket fojialarga yo'l ochadi.

«Sud» (1970), «Komissiya» (1971), «Qiyomat qarz» (1974), «Shoshma, quyosh» (1978), «Kuzning birinchi kuni» (1979), «Arizasiga ko'ra» (1981), «Oqar suv» (1982), «Kurort» (1984), «Yer yonganda» (1993) singari dramalari adib O'lmas Umarbekov ijodining yana bir qirrasini namoyon etadi. Shuningdek, O'. Umarbekov «Sevgi afsonasi» (1972), «Changalzor qonuni» (1973), «Ikki soldat haqida qissa» (1973), «Yigit va qiz» (1974), «Yuksak qorliklardagi uchrashuv» (1975), «O'zgalar uchun» (1977) va boshqa bir qator kinossenariylari bilan milliy kinomatografiya taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan ijodkor hamdir. Adib kino-filmlari hamda «Komissiya», «Qiyomat qarz», «Kuzning birinchi kuni», «Arizasiga ko'ra» kabi sahna asarlari tomoshabinlar e'tiborini qozondi va bir qator chet tillarga tarjima qilinib, jahonga yuz tutdi.

QIYOMAT QARZ

(Hikoya)

Sarsonboy ota rayon markaziga kelganda, quyosh yerdan endigina cho'giri¹ tilimidek ko'tarilgan edi. Kim biladi, hali erta bo'lgani uchunmi yo sovuq tushib, bozor-o'char qiladiganlar kamayib qolganidanmi – odam siyrak, bozor kunlari bo'ladigan g'ala-g'ovur, to'polon yo'q. Chol ichida xursand bo'lib qo'ydi: «Ha tuzuk, bu gal kechikmadim. Avji bozor». U shunday deb, otning jilovini tortdi. Quloqlarini osiltirib tin olayotgan to'riq, xuddi shuni kutib turgandek pastga, daryo tomonga yo'rg'aladi. Bu joylarni u egasi kabi yaxshi biladi. Ulg'ayib, ustiga egar urilibdiki, har yakshanba kuni butun Hisorni oshib, shu yerga keladi. Tor taxta ko'prikning yoniga omonatgina qurilgan choyxona etagida to'xtaydi. Daryoning sel yuvib, beso'naqay kengaygan shu yeri urush yillaridan

¹ Cho'giri – Xorazmda yetishtiriladigan qovun turi.

beri – kech kuzdan erta bahorgacha – bozor. Chor atrofdan yigʻilgan yigitlar frontga shu yerdan joʻnashgan.

Sarsonboy ota otini ilgarilari shu ustunlardan biriga bogʻlab qoʻyardi. Oʻzi esa yo bozor aylanardi, yo peshingacha choyxonada oʻtirar edi. Bozor tugagach, peshin nomozini oʻqib uyiga qaytardi. Toʻriq uzoq vaqtgacha bunga koʻnikolmadi, bir-ikki marta, hatto tizginni uzib qochdi, butun bozor ahlini sarson qildi. Bir-ikki marta esa, yarim yoʻlda tixirlik qilib oyogʻini tirab turib oldi, boʻlmadi. Qamchi yedi. Endi koʻnikib qoldi. Sarsonboy ota endi uni bogʻlamaydi ham. Otning oʻzi shunday ustun tagiga kelib, uning tushishini kutadi-da, koʻzlarini yumib keyingi bir oyogʻiga dam berganicha, joyidan qimirlamay turaveradi...

Bu gal ham shunday boʻldi. Sarsonboy ota ustun tagida otdan tushib, choyxonaga kirib ketdi. Toʻriq ogʻir xoʻrsinib, atrofga qaradi. Koʻprik tagida bir targʻil sigir sovuqdan tuklari hurpaygan buzogʻini erinchoqlik bilan yalardi. Toʻriq unga qarab turib, zerikdi. Esnadi-da, koʻzlarini yumdi.

Sarsonboy ota katta koʻzi singan deraza yoniga choʻk-kaladi. Choyxona qurilibdiki, shu joy uniki. Birov oʻtirgan boʻlsa ham, u kelganda boʻshatib beradi. Shu yerdan bozor maydoni yaxshi koʻrinadi, koʻprikdan oʻtayotgan biror odam ham xato ketmaydi, hammasi koʻzdan oʻtadi.

– Ha, Sarsonboy, omonmisan? – dedi choyxonachi choy keltirib qoʻyar ekan. – Yana kelibsan-da?

– Nima senga ogʻirligim tushdimi? – toʻngʻilladi Sarsonboy ota oftob sargʻaytirgan siyrak qoshlarini chimirib.

– Jizillama. Azbaroyi achinganimdan gapiraman. Kutgandan yomon narsa yoʻq.

Sarsonboy ota javob bermadi. Uning bugun goʻyo niyatiga yetadigandek kayfi chogʻ edi, lekin oʻrtogʻining gapi bilan koʻngli buzildi. Bir: «Sening nima ishing bor? Choyingni sotsang-chi!» – demoqchi ham boʻldi, tili bormadi. Madumar akaning gapida jon bor edi. Oʻgʻlidan qoraxat kelganidan keyin bechora oʻn yil kutdi. Xatsiz, xabarsiz xotini farzand dogʻida ado boʻlay dedi. Oʻzi esa, choʻp boʻlib qoldi. Oxiri chidolmay aza ochdi. Ermagi – choyxona.

Madumar akaning bugungi gapida chindan ham jon bor edi. «Azbaroyi achinganimdan gapiraman...» Nahotki, uning ahvoli achinarli bo'lsa?! Sarsonboy ota shunday o'yladi-yu, yuragini nimadir timdalab ketganday bo'ldi. Lablari titrab, tuproqdek soqoli tortildi. Nimadir tomog'iga tiqildi. Bo'shashib ketayotganini sezdi-da, o'shqirdi:

– Ahmoq, kutsam seni kutamanmi?! Senga Azroyildan boshqasi orzumand emas! Qayoqdan mulla bo'lib qoldingki, menga o'rgatasan?

– Jizillama, – iljaydi Madumar aka. – Har bozor basharangni ko'rsam, ko'nglim ayniydigan bo'lib qolibdi. Qir-piringda podangni boqib yuravermaysanmi? Kerak odam o'zi topib oladi seni. Tag'in o'zing bilasan. Menga desa shu yerda yotib ol. Yo'lda yakka-yolg'izsan, tag'in o'lib-netib qolmagin deyma-da, betamiz!

– O'lsam bir musulmon topilar ko'mgani, – dedi o'zini bosib olib Sarsonboy ota. Sendan xudo o'zi saqlasin. Choydan urgan kafandan ham urib qolasan.

– Shunday demaysanmi? Mana, yangi damladim. Ich zaharingga!

Madumar aka yangi damlagan choynakdan choy quyib, o'rtog'iga uzatdi, odam kam bo'lgani uchun o'zi ham yoniga o'tirdi.

– Hech gap eshitmadingmi? – so'radi jiddiy ohangda Sarsonboy ota.

– Eshitsam senga shu zahotiyoy odam yuborardim, eshitmadim...

Oraga jimlik cho'kdi. Madumar aka o'zini noqulay sezib, ichkisi kelmasa ham xo'rillatib bir-ikki choy ho'pladi.

– Zebi qalay? Yuribdimi?

– Tuzuk, – dedi Sarsonboy ota derazaga bir qarab qo'yib. – Bugun zo'rg'a yubordi. Bu yoqqa kelishimni bilib, yarim kechada otni dalaga haydabdi.

– So'kmadingmi? – xavotirlanib so'radi Madumar aka.

– Yo'q, u sho'rlikka ham qiyin. Endi so'kmayman.

– So'kma. Bechoraning sendan boshqa kimi bor?

– So‘kmayman... Lekin... – Sarsonboy ota birdan qiqir-qiqir kulib yubordi.

– Ha? – hayron bo‘ldi Madumar aka.

– So‘kmayman-u, lekin otni haydab nima qiladi? Piyo-da bo‘lsa ham kelishimni biladi-ku? Buning ustiga to‘riq yo‘talimni eshitsa, oldimga yugurib keladi. Shuni biladi, nima qiladi haydab?

– Ha endi achinadi-da, – dedi Madumar aka kulishga harakat qilib.

– Men achinmaymanmi? Men ham achinaman unga. Yolg‘izlik yomon. Buni o‘zing ham bilasan. Lekin nachora? Qiyomat qarz bu. Qarz bilan go‘rga kirmoqchimasman. Tusshunishi kerak-da. Innakeyin...

– Assalomu alaykum-m-m!..

Odamlar kirdi. Gap uzildi. Madumar aka o‘rnidan turdi.

Ko‘p o‘tmay, bozorning odatdagi tashvishi, to‘poloni boshlandi. Bolalarning qiy-chuvi, sigir-buzoqlarning ma‘rashi bilan dallollarning «Bor baraka»si qo‘shilib, yaqindagina osoyishtalik hukm surgan qaqroq daryoga bahor toshqinidek jon kirdi.

Sarsonboy ota yana derazaga tikildi. Ko‘prik o‘tgan-ketganning ko‘pligidan xuddi tuyadek lapanglardi. O‘shanda ham shunday lapanglab turgan edi.

...O‘g‘lini kuzatganda ham, Haydaralini kuzatganda ham...

Lekin unda odamlar bir tomonga qarab yurgan edilar. O‘shalardan ko‘pi shu ko‘prikdan qaytib o‘tmadi, biri o‘ldi, biri bedarak ketdi. O‘g‘lidan yarim yil hech qanday xabar bo‘lmay, birdan qoraxat keldi. O‘shanda u poda bilan Uzulida edi. Qo‘ylarni narigi sohildagi o‘tlari endigina nish urgan yalanglikka haydab, o‘zi nurab-nurab devorlarigina qolgan Toshqal’a tagida o‘tirar edi. Kun tik kelganda tushlik qilmoqchi bo‘lib, xurjundan suzma olganini biladi, qishloq tomonda ayol kishining uvvos solib yig‘lagani eshitildi. Yig‘i tog‘da aks sado berib, shunday qattiq jarangladiki, Sarsonboy ota cho‘chib ketdi. O‘rnidan turib, pastga qaradi. Sochlari to‘zg‘igan bir ayol soy yoqalab, yuzini yumdalab kelardi. Sarsonboy ota avval tanimadi. Pastroq tushdi. Shunda uning

havorang ko‘ylagidan tanidi. Tanidi-yu, yuragi shig‘ etib ketdi.

– Zebi! Men bu yoqdaman. Zebi, hoy! – deganicha pastga otili. – Nega bo‘kirasan?! Nima bo‘ldi? – Sarsonboy ota uni bilaklaridan ushlab tortqiladi.

– G‘ofir... G‘ofirjon... – Zebi xola gapira olmadi, ho‘ngra-ganicha qo‘lidagi qog‘ozni eriga uzatdi.

Sarsonboy kichkina ko‘k qog‘oz parchasini ko‘rib, hammasiga tushundi. Madumar aka ham o‘g‘lidan shunday xat olgan edi... Sarsonboy ota o‘qimadi, qo‘l-oyog‘i muz bo‘lib, turgan joyida qotib qoldi. Xudo unga bir farzand bergan edi, shuni ham ko‘p ko‘rdi.

Haydarali esa, otasidan bir oy keyin jo‘naganicha, bedarak ketdi. O‘g‘lining o‘rtog‘ini o‘zi rayongacha kuzatib bordi. Kuzatadigan uning biron kimsasi ham yo‘q edi.

Jo‘naydigan kuni Haydarali eshak aravaga ortib, ikkita qo‘y olib keldi. Shunda G‘ofirdan qoraxat kelganiga bir yil bo‘lgan edi.

– Amaki, shular sizda tursin, – dedi iymajib. – Dadam qo‘yni yaxshi ko‘rar edilar. Qaytganlarida to‘y-po‘y qilardik... Agar malol kelmasa...

– Xo‘p, bo‘tam, – dedi Sarsonboy ota. – Suruvning ichiga qo‘shib yuboraman. Malol keladigan joyi yo‘q.

Ko‘prik ustida xuddi o‘g‘lini kuzatayotgandek Haydarali bilan xayrlasha turib, butun vujudini titroq bosdi.

– Omon bo‘l, bo‘tam! – dedi-yu yoshlangan ko‘zlarini ko‘rsatmaslik uchun xotini nimalardir solib bergan tugunini yuziga tutib uzatdi. – Xolang berdi, ol.

– Rahmat.

– Imkoni bo‘lsa, G‘ofirjonning mozorini bir ziyorat qilib o‘t. Istalingrad.

Shovqin-suron ichida aytilgan bu gapni Haydarali eshitdi-mi-yo‘qmi, Sarsonboy ota bilmaydi, har holda boshini qimir-latib nimalardir deganini ko‘rdi.

Mana shunga yigirma yildan oshib ketdi. Haydarali na uning o‘g‘lini borib ko‘rdi, na o‘zi biror xabar yubordi. Tashlab

ketgan ikkita qo‘yi qirqtadan oshdi. Boshqa qo‘ylarga aralashib ketmasin, kelib qolsa topish qiyin bo‘ladi, deb Sarsonboy ota hammasining bo‘yniga qizil latta bog‘lab chiqdi. Lekin kelmad. Tirikmi, o‘lganmi – hech kim bilmaydi. Sarsonboy otaning bormagan idorasi, surishtirmagan odami qolmadi. Familiyasi, adresini bilmaganidan keyin topish oson bo‘larmidi?

– Sarsonboy, shu endi, har qayoqqa borib, o‘zingni sarson qilma, – maslahat berdi oshnalaridan biri.

– Shunday jahannamdan omon qaytgan odam ikkita qo‘yini surishtirib kelarmidi?! Xudoga shukur, to‘qchilik. Qo‘y kerak bo‘lsa, bozor to‘la. Sen yaxshisi bozorga bor. Taniysan-ku, tirik bo‘lsa, shu yerda bo‘lsa, ko‘rinish beradi.

Bu gap Sarsonboy otaga ma‘qul tushdi. Shundan beri bitta ham bozorni kanda qilmay qatnaydi. Boshqa kunlari qo‘y boqib, tog‘ma-tog‘, darama-dara yuradi. Horib-charchab, hafta oxiri uyga qaytadi. Rais bir necha marta: «Bo‘ldi endi, ota, shuncha ishladingiz yetar. Endi yoshlar ishlasin!» – dedi, lekin Sarsonboy ota quloq solmadi. Qanday qilib quloq solsin. Haydaralining qo‘ylarini baribir boqish kerak-ku? Yetti yot begona odamning podasini kim boqardi? Boqsa ham qanday boqardi? Lekin qarilik, qarilik ekan... Ilgarilari haftalab oyoqda tursa ham charchamasdi, endi yarim kunda madori quriydi, o‘tirgisi kelib qoladi.

Bir kuni Uzumlining tepasida shunday horib o‘tirgan edi, soydan o‘q ovozi eshitildi. Tag‘in birorta qo‘yni otib qo‘yishmasin, deb pastga tushdi.

Archalarga chirmashib ketgan tokning tagida to‘rt-besh yigit xarsangning ustiga shisha qo‘yib otishardi. Cholni ko‘rib bittasi gap otdi.

– Boboy bu nima, kaklikning hammasini otib, tuzlab qo‘yganmisizlar? Bittayam ko‘rinmaydi-ku?

– Kaklik ovi qishda bo‘ladi-da, bo‘tam. Ov qilgani keluvdinglarmi?

– Ha, bir bosh og‘ib keluvdik. Shu tomonda kaklik bo‘ladi, deyishuvdi.

– Bo‘ladi, ko‘p bo‘ladi, lekin qishda bo‘ladi.

– Boboy! – qichqirdi archa tagida o‘tirgan bir yigit. – Qani bu yoqqa keling. Manavidan bir ichib yuboring biz bilan.

Yigit piyolani to‘latib, aroq uzatdi.

– Ichmayman, bo‘tam – dedi jilmayib Sarsonboy ota. – Hech ichgan emasman.

– Mayli, zo‘rlama otani! – dedi miltiq o‘qalayotganlardan biri.

– Bo‘lmasa, o‘zim oldim, – yigit piyolani sipqarib, yengiga uhladi-da, dedi: – Boboy! Ov bahona bir dam olgani chiquvdik-da, bu yoqqa. Qo‘ydan bittasini soting. Shu yerda u-bu qilib ketaylik.

Sarsonboy ota boshini quyi solib, jim qoldi. Keyin xijolatlik bilan jilmaydi.

– Attang, bo‘tam, sotolmayman-ku. Meniki emas. Qishloqqa o‘tsangiz, har bir xonadondan topishingiz mumkin. Men o‘zim ham beraman. Bular omonat. Bo‘lmasa, qo‘y sizlardan aylansin!..

– Shunday deng?

– Ha, shunday bo‘tam.

– Hozir bittasini o‘zimiz tutib olsak-chi? – yigit iljaydi.

– Unday qilmaysiz. Omonat dedim-ku, bo‘tam.

– Juda ziqna ekansiz-da! – yigit achchiqlandi. – Bitta qo‘y nima, odamdan ham azizmi, Akbar?

– Nima deysan? – dedi yigitlardan biri.

– Yur bittasini tutib ketaylik. Raisga o‘zimiz javob beramiz.

Yigitlar Toshqal’a tomon yo‘l olishdi.

– To‘xtang! – qichqirdi Sarsonboy ota. – Musulmon bolasimisizlar, meniki emas, dedim-ku! Egasi yo‘q bu qo‘ylarning. Urushda bedarak ketgan, yigirma yildan beri boqib yuribman... Insof bormi?

Yigitlar to‘xtab qolishdi, keyin bitta-bitta orqaga qaytishdi.

– Kechiring, ota, bilmadik, – dedi kimdir.

Sarsonboy ota indamadi. Uning rangida qon qolmagan, lablari titrardi.

– Uzr, boboy!

Sarsonboy ota yana churq etmadi. Keyin ohista-ohista qadam tashlab qal'a tomon ketdi.

Shu voqeani Madumar akaga kuyunib aytib berganida, u ancha o'ylanib qoldi. Keyin dedi:

– Xafa bo'lma, bir gap aytaman.

– Xo'sh?

– Shu qo'ylarni kolxozga ber, yaxshisi. O'zingni qiynama. Senda bo'ldi nima-yu, kolxozda bo'ldi nima. Kolxoz yeb ke-tarmidi? Haydaraling kelsa, qaytarib beradi.

Sarsonboy ota javob bermadi.

Mana hozir ham u bozorga tikilib o'tirar ekan, o'rtog'ining shu maslahati xayolidan ko'tarilmas, lekin nima qilishini bilmasdi. Kun tikka kelganda bozorda odam siyraklashdi. Moli sotilmaganlar, tomoshaga chiqqanlar qoldi, xolos.

Sarsonboy otaning ertalabki kayfi chog'ligi yo'qoldi: Haydaraliga o'xshagan birorta odam bu gal ham uchramadi.

«Nahotki, o'lgan bo'lsa? – bu dahshatli fikr cholning xayoliga keldi-yu, qo'rqib ketdi. – Yo'q, shuncha o'lim bo'lishi mumkin emas. Bedarak ketganlarning ko'pi keldi-ku, ajab emas, u ham kelsa. To'y qilmoqchi edi. Bahona bilan men ham to'y ko'rib qolardim. O'zim qilib berardim, to'yini...»

U shunday xayollar bilan yana ancha o'tirdi. Bozor tugadi. Deyarli hamma tarqaldi. Oshxona tomondan palovning hidi kela boshladi. Ammo chol joyidan qimirlamay o'tiraverdi.

– Sarsonboy!

Sarsonboy ota o'ziga kelib, o'girildi. Tepasida Madumar aka turardi.

– Bo'ldi endi. Men aytgan ishni qil. Cho'p bo'lib ketasan-ku, axir bunaqada.

Sarsonboy ota indamadi. Mahsisining qo'njidan bir so'm chiqarib, laganchaga tashladi-da, o'rnidan turdi.

– Ketasanmi? Osh damladim, yeb ket.

– Kelasi gal. – Sarsonboy ota karavotdan tushib, eshikka yo'l oldi. – Xayr!

Eshikka chiqib, nimadir esiga tushdi shekilli, qaytdi.

– Nahotki, sen ham tushunmasang?! O'zim olib qolganman, o'zim, o'z qo'lim bilan qaytarishim kerak...

Madumar aka javob qilmadi. Faqat o'rtog'i chiqib ketganda:

– Zebiga salom aytib qo'y! – deb qo'ya qoldi.

Qirov bosgan to'riq egasini ko'rib, quloqlarini chimirdi. Erkalaniib, boshini bir-ikki siltadi-da, zinaga yaqinlashdi. Sarsonboy ota egarga chaqqon minib, jilovini qo'lga oldi:

– Ketdik.

To'riq tanish yo'ldan ildam yo'rg'alab ketdi. Uning yurishida ham egasining dilidagi kabi bir umid bor edi.



Savol va topshiriqlar:

1. Choyxonaga kelgan Sarsonboy otaning tushkun holati sababini hikoya matnidan topib, izohlang.
2. Hikoyada otning holati tasvirlangan o'rinlarga e'tibor qiling. Bu tasvirlarning asar mohiyatini ochishdagi ahamiyatiga to'xtaling.
3. Choyxonachi bilan Sarsonboy ota munosabatlaridagi sirtqi dag'allik zamiridagi samimiylikni tushuntirishga urining.
4. Hikoyadagi: **«Sarsonboy ota o'qimadi, qo'l-oyog'i muz bo'lib, turgan joyida qotib qoldi. Xudo unga bir farzand bergan edi, shuni ham ko'p ko'rdi»** tasviriga tayanib, otaning o'sha vaziyatdagi ichki dunyosini tavsiflang.
5. Ovchi yigitlar bilan to'qnashuvda ota tabiatining qaysi jihatlari namoyon bo'ldi deb o'ylaysiz?
6. Sarsonboy otaning kampiri uning bozorga qatnashiga nega qarshilik qiladi?
7. Keksaligiga qaramay, Sarsonboy otani birovning qo'yini boqishga majbur qilgan sababni izohlang.



Chingiz Aytmatov

(1928–2008)



YOZUVCHI O‘ZI HAQIDA



izning ovulimizda yetti otasini bilish odatiga qat’iy rioya qilinardi. Shu sababdan o‘zimizdan oldin o‘tgan yetti ajdodimizni bilish muqaddas burch ekanligi bolalikdanoq ongimizga singdirilardi. Odatda ovul qariyalari bu borada o‘g‘il bolalarni: «Qani, ayt-chi, botir, kimlarning avlodidansan? Otang kim? Otangning ota-bobolari kimlar? Nima ish bilan shug‘ullanishgan? Odamlar ular haqida nima deydi?» – kabi savollar bilan sinashardi. Agar bola bu savollarga javob berolmasa, uning ota-onasi qattiq izza qilinardi.

Aytmat bobomni ko‘rmaganman. U 1918–1920-yillarda vafot etgan. Men esa 1928-yil 12-dekabrda tug‘ilganman. Bizning Shakar ovulimiz chekkasidagi Qurqurov daryosi qirg‘og‘ida eski, yerga botib borayotgan tegirmon toshi bor. Yillar o‘tgan sayin u ko‘proq yemirilib, yerga chuqurroq singib bormoqda. Ana shu yerda bobomning tegirmoni bo‘lgan. Bu tegirmon bir yilcha ishlagan, xolos, keyin yonib

ketgan. Shundan keyin inqirozga uchragan bobom 12 yoshli o'g'li To'raqul – mening otam bilan u yerdan ketib, temiryo'l tonnellari qurilishida ishlagan. Shu yerdan mening otam rus bo'xona ma'muriyati yordamida Avliyoota shahridagi rus-tuzem maktabiga o'qishga kirdi. Keyin u ikki marotaba Moskvada o'qidi. Qirg'izistonda rahbarlik lavozimlarida ishladi. Onam – Nagima Hamzayevna Aytmatova o'qimishli, o'z davrining ilg'or ayollaridan bo'lgan. Bu narsa ota-onamga meni rus madaniyati, tili va adabiyotiga oshno qilish imkonini bergan.

Buvim esa har yozda meni toqqa olib ketardi. U ovuldagi eng aqlli va hurmatga sazovor ayollardan edi. U men uchun ertak, doston, qadimiy qo'shiqlarning bitmas-tuganmas xazinasi edi. Ehtimol, o'shanda buvim o'zi sezmaganda holda o'z tilimni sevishga, hurmat qilishga o'rgatgandir. Bunga hech qanday shubham yo'q.

Buvim mening bolaligimni turli ertak, qo'shiq, dostonlar bilan bezagan. U meni turli davralarga, to'y-hashamlarga o'zi bilan birga olib borardi. Menga tez-tez o'zining tushlari haqida gapirib berardi. Bu tushlar shunchalik qiziq ediki, u mudrab uxlab qolgan vaqtida ham men uni uyg'otib, tushning davomini aytib berishini so'rardim.

Buvim ko'p o'tmay vafot etdi. Endi men shaharda, o'z uyimizda yashay boshladim. Keyin maktabga bordim. Ikki yil o'tgach, sevimli ovulimga qaytib bordim. Bu safargi kelishim uzoq va qiyinchilik bilan kechdi. 1937-yil mening otam qatag'on qilindi. Bizning oila ovulga ko'chib keldi. Aynan shu vaqtdan men uchun qiyinchiliklarga to'la asl hayot maktabi boshlandi.

Oilamizda to'rt farzand, men eng kattasi edim. Sharoit og'ir edi, lekin butun Shakar ahli: qo'shnilar ham, ilgari bizga tanish bo'lmagan odamlar ham bizni tashlab qo'yishmadi. Ular imkonlari yetgancha biz bilan non, yoqilg'i, kartoshka va hatto issiq kiyimlarni ham bo'lishardi.

Men juda erta ishlay boshladim: 10 yoshimda dehqon mehnatining barcha zahmatini tatidim. Bir yildan so'ng biz

rayon markaziga – Kirov nomidagi rus qishlog‘iga ko‘chib o‘tdik. Onam hisobchi bo‘lib ishga kirdi. Men rus maktabiga qatnay boshladim. Turmushimiz endi izga tushayotgan kezda urush boshlanib qoldi.

1942-yilda o‘qishni tashlashga to‘g‘ri keldi. Chunki urush vaqti, onamning esa hammamizni o‘qitishga imkoni yo‘q edi. Men yana Shakarga qaytib keldim. Ovul urush mashaqqatlari iskanjasida edi. Boshqa odam topilmagach, o‘z tengqurlarim ichida savodli bo‘lganim uchun meni qishloq kengashiga kotib etib tayinlashdi. O‘shanda 14 yoshda edim. Urush yillari soliq agenti, traktorchilar brigadasi hisobchisi bo‘lib ishladim.

1946-yil 8-sinfni bitirgach, Jambul zoovettexnikumiga¹ o‘qishga kirdim. U yerni bitirgach, a‘lochi o‘quvchi sifatida Qirg‘iziston qishloq xo‘jaligi institutiga o‘qishga qabul qilindim va bu yerni ham a‘lo baholar bilan bitirdim.

Yoshligimda badiiy adabiyotga oshno bo‘lgan edim. Shu sabab 1956-yili Moskvadagi Oliy adabiyot kursiga o‘qishga kirdim.

...Hech kim o‘z-o‘zidan yozuvchi bo‘lib qolmaydi: yillar sabog‘i, qilingan mehnat, badiiy adabiyotga bo‘lgan qiziqish va e‘tiqod orqali bunga erishish mumkin.

Zamonamizning ulug‘ yozuvchisi Chingiz Aytmatov 2008-yil 10-iyunda og‘ir kasallikdan vafot etdi.

OQ KEMA

(Ertakdan so‘ng)

Uning ikki ertagi bo‘lardi. Biri o‘ziniki bo‘lib, uni hech kim bilmasdi. Ikkinchisini esa, bobosi so‘zlab bergandi. Keyin birontasi ham qolmadi. Gap shu xususda. O‘sha yili u yetti yoshga to‘lib, sakkizga qadam qo‘ygandi. Avval portfel sotib olindi. Qop-qora dermantin portfelning ochib yopganda shiqillaydigan qulfi yaltirab turardi. Yonida mayda-chuyda soladigan kissasi ham bor. Kissasi g‘aroyib, ayni paytda oddiy maktab portfeli edi. Hamma narsa ehtimol shundan boshlandi.

¹ Zoovettexnikum – chorvador mutaxassis tayyorlaydigan o‘quv yurti.

Bobosi uni ko‘chma do‘kondan sotib oldi. U o‘sha ko‘chma do‘konni uzoqdan ko‘rib qoldi, mashina ketidan to‘zon ko‘tarib, tog‘dan tushib kelayotgan edi. Shunda u quvonib ketdi, o‘ziga portfel olinishini bilgandek quvonib ketdi. Shu zahotiy oq suvdan sakrab chiqdi, chillakdek oyoqlarini pochalariga tiqdi-yu, suvning sovuqligidan ko‘karib ketgan badanining ho‘li bilan ko‘chma do‘konning kelayotganini birinchi bo‘lib yetkazish uchun so‘qmoqdan uylar tomonga chopib ketdi.

Bola butalar ustidan hatlab, sakrab o‘tish qiyin bo‘lgan xarsangtoshlarni yonlab o‘tib, na o‘siq o‘tlar, na xarsangtoshlar oldida, bular shunchaki narsalar emasligini bilsa-da, bir daqiqa ham to‘xtamay chopib borardi. Ular ranjib qolishi, hatto chalib yiqitishi ham mumkin edi. «Mashina-magazin keldi. Men keyin kelaman», – yo‘l-yo‘lakay u «cho‘kib yotgan tuyaga» gap qotdi. U bag‘rini yerga berib yotgan sarg‘ish bukri toshni shunday deb atardi. Odatda bola o‘z «tuya»sining yonidan uning o‘rkachini silamasdan o‘tmasdi. Xuddi bobosi, dumi cho‘ltoq axta otini shapatilagani kabi u ham ishning ko‘zini biladigan kishilar singari o‘z «tuya»sining yonidan o‘tib borayotib naridan beri, sen sabr qilib turasan endi, mening ishim chiqib qoldi, deb uni shapatilab qo‘yardi. Uning xarsangtoshida «egar» ham tayyor edi. Yana «bo‘ri» degan tosh bor – bo‘riga juda o‘xshash qo‘ng‘ir-oq oralagan, yoldor cho‘ng peshonali. Bola uning oldiga pisib, emaklab borardi-da, mo‘ljalga olardi. Lekin eng sevimli tosh bu suv yuvib ketgan qirg‘oqdagi kattakon xarsang «tank» edi. Qarab tursang, «tank» qirg‘oqdan otilib chiqadi-yu, daryoni shovqin-suronga solib, to‘lqinlantirib, ko‘piklantirib yurib ketadigandek. Tanklar kinolarda axir shunday yuradi-ku, qirg‘oqdan suvga otiladi, ketadi! Bola kinolarni kam ko‘rgan, shuning uchun ham ko‘rganlari yodida qattiq o‘rnashib qolgan. Bobosi ba‘zan uni kino ko‘rsatgani tog‘ ortidagi – qo‘shni daradagi sovxoz naslchilik fermasiga olib borardi. Shu sababli ham qirg‘oqda daryoni har qachon kesib o‘tishga shay turgan «tank» paydo bo‘ldi. Yana boshqa – «yaxshi» va «yomon» toshlar, hatto «ayyor» va «ovsar»lari ham bor.

O‘tlar orasida ham «sevimli», «botir», «hurkak», «yovuz» hamda boshqa har xillari mavjud edi. Chaqirtikanak, masalan, eng birinchi dushman. Bola u bilan kuniga o‘n martalab jang qilgan, chopib tashlagan. Lekin bu jangning oxiri ko‘rinmasdi – chaqirtikan hadeb o‘ saverar, ko‘payaverardi. Mana, shu daladagi pechakgullar, to‘g‘ri, ular ham yovvoyi, shunga qaramay, bular eng aqlli va quvnoq gullardir. Ular ertalab quyoshni hammadan ortiq yayrab qarshi oladi. Boshqa o‘tlarga – tong nima, tun nima baribir. Pechakgullar esa kun ilishi bilan ko‘z ochadi, kulib boqadi. Oldin bir ko‘zini, keyin ikkinchisini ochadi, shundan so‘ng bag‘ridagi barcha gullar birin-ketin ochila boshlaydi. Oq, och ko‘k, binafsha va yana har xil rangda... Agar ularning oldida sukut saqlab o‘tirsang, go‘yo bu gullar uyqudan uyg‘onib allanimalar haqida shivirlayotgandek tuyuladi. Chumolilar ham buni sezadi. Ular ertalabdan pechakgullar huzuriga chopib, quyosh nurlaridan ko‘zlarini qisib, gullarning o‘zaro nimalar haqidadir shivirlashayotganiga quloq soladi. Balki ko‘rgan tushlarini so‘zlashayotgandir?

Kunduzlari, odatda tush vaqtiga borib, bola serpoya shiroljinlar g‘uj bo‘lib o‘sgan tomonga jo‘nashni yaxshi ko‘rardi. Shiroljin baland bo‘yli, gulsiz, lekin xushbo‘y hidli bo‘ladi. Ular yon-veriga boshqa o‘simlikni yo‘latmay to‘da-to‘da bo‘lib, alohida o‘sadi. Shiroljin sadoqatli do‘stdir. Ayniqsa, biror ko‘ngilsizlik yuz berib, pinhona yig‘laging kelganda shiroljin tagidan yaxshi panoh topish mumkin. Ular o‘rmon yoqasidagi qarag‘ayzorlar singari yoqimli hid taratib turadi. Shiroljinlar quchog‘i qaynoq va sokin. Avval ko‘zyoshlari orasidan hech narsani ajrata olmaysan. Keyinchalik esa, bulutlar suzib ketadi va sen o‘ylayotgan narsalar osmonda, ko‘z oldingda aniq namoyon bo‘la boshlaydi. Bulutlar yaxshi biladi: ko‘ngling ancha noxush, qayoqlargadir jo‘nab qolging yoki uchib ketging keladi, toki seni topolmay oh-voh qilishsin: «Eh, bolagina, bedarak ketdi-ya, endi uni qayerdan topamiz», – deb kuyib yurishsin. Bunday bo‘lmasligi uchun – sen yo‘qolib qolmasliging va

jimgina yotib, bulutlardan zavqlanishing uchun sen nimani istasang, bulutlar o'shanga aylanib qoladi. O'sha birgina bulutning o'zidan turli-tuman shakllar yuzaga kela boshlaydi. Faqat bulutlar qanday shaklga kirayotganini ko'rib bilsang bas.

Bola yolg'iz, jo'ralarsiz mana shu sodda, bayov narsalar qurshovida yashardi, avtolavkagina hamma narsani unutishga, ko'ringanda chopishga majbur qila olardi. Shuning uchun ko'chma do'konni ko'rgan zahoti hamma narsani unutib, o'zini o'sha tomonga otardi. Nimasini aytasan, ko'chma do'kon – bu senga allaqanday tosh yoki o'tlar emas. Unda kishining jonidan bo'lak hamma narsa bor!

Bola uyiga yetib kelganida ko'chma do'kon ham orqa tomondan hovliga yaqinlashib qolgan edi. Bola o'z vaqtida yetib kelmaganida ko'chma do'kon kelganini hech kim bilmay qolardi.

Bu payt erkaklardan hech kim yo'q, hammalari ertalaboq tarqab ketishgan, ayollar uy ishlari bilan mashg'ul edi. Bola ochiq turgan eshiklarning oldidan quloqni qomatga keltirib qichqirib o'tdi:

– Keldi! Mashina-magazin keldi!

Ayollar tipirchilab qolishdi. Yashirib qo'ygan pullarini topish uchun yugurib qolishdi, uylaridan otilib chiqqanlaricha bir-birlaridan o'zib ketishdi. Mashina oldiga chopishdi, hatto buvisi uni maqtab qo'ydi:

– Ko'zi o'tkir-da, bizning bolaning!

Bola ko'chma do'konni o'zi boshlab kelganday boshi osmonga yetgan edi. Bu xushxabarni odamlarga o'zi yetkazgani, birga hovlidan chopib chiqqani, eshigi ochiq turgan avto-furgon oldida ular bilan tiqilishib turganidan xursand edi.

Ko'pni ko'rgan kishilar kekxa Mo'minni Mo'min chaqqon deb atashardi. Bu atrofda uni hamma tanirdi, u ham hammani tanirdi, u hammani bilardi. U ochiq ko'ngil, hatto sal-pal biladigan odamiga ham biron yaxshilik qilishga tayyorligi, har kimning xizmatiga hozir-u nozirligi, hammaga sadoqatli va xushmuomalaligi tufayli shunday laqab olgandi. Ammo tillani tekin tarqatishganda hech kim uchun qadri qolmaganidek,

uning jonbozligi qadriga ham hech kim yetmasdi. Uning yoshidagi kishilarga qanday hurmat, izzatda bo'lishmasin, Mo'minga hech kim bunday munosabatda bo'lmasdi. U bilan betakalluf muomala qilishardi.

Bug'u avlodining mashhur oqsoqollaridan birontasining ulug' ma'rakalarida (Mo'min bug'u avlodidan bo'lib, bu bilan g'oyatda faxrlanar va o'z qabiladoshlaridan birontasining ma'rakasidan qolmasdi) unga mol so'ydirishar, martabali mehmonlarni qarshi olib, otdan tushirish, choy uzatish-u o'tin yorib, suv keltirishgacha hamma ishni unga topshiraverishardi. Turli tarafdin son-sanoqsiz mehmonlarni kutib olish lozim bo'lgan bunday katta ma'rakalarda ozmuncha tashvish bo'ladimi? Mo'minga nima xizmat buyurilmasin, u ana-mana deguncha barini saranjom-sarishta qilar, eng muhimi – boshqalardek bo'yin tovlamasdi.

Ba'zida nabirasi bilan uzoqdan kelgan chol choyxonachi yigitga qarashib ketardi. Mo'minning o'rnida boshqa odam bo'lganda bu ishni haqorat deb bilardi, lekin Mo'min parvo ham qilmaydi. Keksa Mo'min chaqqonning mehmonlarga yelib-yugurib xizmat qilishi hech kimni ajablantirmasdi – shuning uchun ham o'z nomi bilan Mo'min chaqqon-da.

Mo'min chol qanday o'tirdim, bilib gapirdimmi, qanday javob qildim, qanday kulimsiradim deb tashvishlanmas, birovlarining oldida obro'si to'kilishidan cho'chimasdi. Mo'min mana shu ma'noda, o'zi sezmagin holda kamdan kam uchraydigan baxtli odam edi...

Faqat bir narsa Mo'minni qattiq xafa qilishi mumkin edi: birontasining ma'rakasini o'tkazish uchun qarindoshlar to'planadigan kengashga uni chaqirishni unutib qo'yishsa... U qattiq ranjir va buni unutilmay azob chekardi, gap – uni chetlab o'tganlarida emas, u kengashda baribir hech nimani hal qilmas, faqat qatnashardi, xolos. Buning boisi qadimiy urf-odatlarining poymol bo'lgani edi.

...Bobosi avtodo'kondan bolaga yangi va yaltiroq portfel olib beradi. Chunki u bu yil kuzda maktabga borishi kerak edi.

...Bola shu ondan portfaldan ajralmay qoldi. Shodligidan terisiga sig'may maqtanib, qorovulxonaning butun hovlisini aylanib chiqdi. Avval buvisiga ko'rsatdi. Mana bobom olib berdi! Keyin Bo'key xolasiga ko'rsatdi. U ham portfelni ko'rib xursand bo'ldi va bolani maqtab qo'ydi.

Bo'key xolaning xushnud damlari kamdan kam bo'lardi. Ko'pincha g'amgin va tajang yurar, jiyaniga e'tibor ham qilmasdi. Uning o'z dardi bor. Buvisi, farzandi bo'lganda butunlay o'zgacha yurardi, derdi. Eri O'rozqul ham, Mo'min bobo ham hozirgiday emas, balki boshqacha odam qiyofasida yurgan bo'lardi. Uning ikkita qizi: Bo'key xola va bolaning onasi bo'lsa-da, baribir cholga og'ir edi; o'z bolang bo'lmasa – bir balo, bolangdan bola bo'lmasa, ming balo. Buvisi shunday deb zorlanadi. Kim bilsin...

Bola Bo'key xolasidan so'ng olgan narsasini ko'rsatish uchun yoshgina Guljamol bilan uning qizchasi oldiga yugurdi. Bu yerdan esa pichan o'rayotgan Seydahmad oldiga tushib ketdi. Jigarrang «tuya» oldidan chopib o'tarkan, uning o'rkachlariga urib qo'yishga ham vaqti bo'lmadi, «egar» yonidan, «bo'ri» va «tank» yonidan o'tib, keyin qirg'oq bo'ylab yugurib borardi. Yopishqoq butazor orasidagi so'q-moq yo'ldan chopib o'tdi. Bugun Seydahmadning yolg'iz o'zi edi. Bobo allaqachon o'zining tegishini (bir yo'la O'rozqulning ham) o'rib qo'ygandi. Pichanni ham allaqachon tashib bo'lishdi – buvisi bilan Bo'key xola tashib turdi, bobosi bosaverdi, u esa bobosiga yordamlashdi. Molxonaning oldiga ikkita g'aram uyishdi. Bobosi ularni shunday ixcham bosdiki, bir tomchi yomg'ir ham o'tmasdi. G'aramlar xuddi taroq bilan tarab qo'ygandek silliq edi. Har yili shu. O'rozqul pichanga qo'lini urmaydi, hammasi qaynotasining bo'ynida – har holda u amaldor. Istasam, – deydi u, – senlarni bir zumda ishdan haydab yuboraman. U bobo bilan Seydahmadga shunday do'q qilardi. Bu ham mastlikning kasofati.

Boboni haydab bo'pti. Unda kim ishlaydi? Bobosiz ishlab ko'rsin-chi! O'rmonda ish oshib-toshib yotibdi, ayniqsa, kuzda. Bobom aytadiki, o'rmon qo'y suruvi emas, tarqalib

ketmaydi, lekin tashvishi oz emas. Tasodifan o't tushsa, tog'-dan sel kelsa bormi, daraxt bir joydan qo'zg'almaydi, turgan joyida nobud bo'laveradi. Kimki daraxtni asrab qololsa, o'sha haqiqiy o'rmonchi bo'la oladi. O'rozqul Seydahmadni haydab bo'пти, unday yuvosh odam bormi? Hech nimaga aralashmaydi, talashib-tortishmaydi. Biroq Seydahmad qanday yuvosh, baquvvat yigit bo'lmasin, yalqov, uyquni yaxshi ko'radi. O'rmonchilikka ham shu vajdan kelib qolgan.

Seydahmad pichan o'rimini ham kechiktirib yubordi. Bobo hatto o'tgan kuni uni koyib berdi. «O'tgan qishda, senga emas, mollarga ichim achidi. Shuning uchun pichan berdim. Agar yana men keksa cholning pichaniga ko'z tikadigan bo'lsang, hoziroq ayta qol, sen uchun ham o'rishga tayyorman».

Gap ta'sir qildi. Seydahmad bugun ertalabdan o'rimga tushib ketdi. Orqadan kelayotgan qadam tovushini eshitib, Seydahmad qayrildi, ko'ylagining yengi bilan yuzini artidi.

– Nimaga kelyapsan? Meni chaqirishyaptimi?

– Yo'q, portfel oldim. Mana. Bobom olib berdi. Men maktabga boraman.

– Shunga shunchalik chopib keldingmi? – Seydahmad xaxolab kuldi. – Mo'min boboning esi kirarli-chiqarli bo'lib qolgan, – u barmog'ini chekkasiga bosib aylantirdi, – sen ham shunaqa chog'i! Qani, qanaqa portfel?

U qulfchasini shaqillatib, portfelni u qo'lidan bu qo'lga oldi-da, kallasini likillatganicha kulimsirab qaytarib berdi.

– To'xta, – xitob qildi u, – sen qaysi maktabga ham borarding? Qayerda senga maktab tayyor turibdi?

– Qayerda bo'lardi, fermada-da.

– Jilisoyga qatnamoqchimisan? – hayratlandi Seydahmad. – Axir u yoqqa tog' osha besh kilometrcha yurish kerak, bundan kam emas.

– Bobom, otda olib borib kelaman, dedi.

– Har kuni u yoqqa borib, bu yoqqa kelarkanmi? Esini yebdi chol. Uning o'zini ham o'qitish kerak. Sen bilan bir partaga o'tiradi, dars tugadimi – qaytaveradi. – Seydahmad

Mo‘min bobo nabirasi bilan bir partada o‘tirishini ko‘z oldiga keltirib qotib-qotib kuldi.

Bola o‘yga tolib jim qoldi.

Seydahmadning yangilikni masxaraomuz qarshi olishi bolaga yoqmasdi. U xo‘mrayib, furajkasining soyabonini manglayi ustiga ko‘tardi va Seydahmad burniga chertmoqchi bo‘lganda boshini burib g‘ijindi:

– Tegishma!

Bola yana chopganicha o‘sha so‘qmoqdan, yana o‘sha toshlar yonidan uyga qaytdi. Toshlar bilan ovunishga hali-beri vaqti yo‘q edi. Portfel jiddiy narsa.

Bola o‘z-o‘zi bilan suhbatlashishni yaxshi ko‘rardi. Lekin bu safar o‘zi emas, portfeliga so‘z qotdi: «Sen uning gapiga ishonma, bobom unaqa emas. Uning sira shumligi yo‘q, shuning uchun ham undan kulishgani-kulishgan. Chunki quvlik-shumlikni bilmaydi. U biz ikkalamizni maktabga olib borib yuradi. Sen hali maktab qayerdaligini bilmaysan-a? U unchalik uzoq emas. Men senga uning qayerda ekanligini ko‘rsataman. Biz unga Qorovultog‘dan durbinda qaraymiz. Men yana senga oq kemani ko‘rsataman. Faqat biz avval molxonaga kirib chiqamiz. U yerda durbinimni yashirib qo‘yganman. Men unda buzoqchamni kuzatib turishim kerak, lekin men, har kuni oq kemani ko‘rishga chopaman. Buzog‘imiz katta bo‘lib qoldi, tortib ketsa to‘xtatolmaysan, sigirni emib qo‘yadigan odat chiqardi. Sigir uning onasi, sutini undan ayarmidi? Tushundingmi? Onalar hech qachon hech nimani ayashmaydi. Mana, Guljamol shunday deydi, uning qizchasi bor... Tezda sigirni sog‘ib bo‘lishadi, keyin biz buzoqni yaylovga haydaymiz. O‘shanda biz Qorovultoqqa chiqamiz-da, tog‘dan turib oq kemani ko‘ramiz. Men axir durbin bilan ham xuddi ana shunday gaplashaman. Endi biz uchtamiz – men, sen va durbin...»

U shu zaylda uyga qaytdi. Portfel bilan gaplashish unga juda yoqib qoldi. U bu suhbatni davom ettirib, o‘zi haqida hali portfeliga noma‘lum bo‘lgan voqealardan so‘zlab bergisi kelib turganda, unga xalaqit berishdi. Yon tomonda ot-

ning do‘pir-do‘piri eshilib qoldi. Qishloq tarafdin bo‘z otliq kelardi. Bu – O‘rozqul.

O‘rozqul xrom etigining uchini uzangiga tirab, egarda mudrab borardi.

Bola qo‘lidagi portfelini silkitib ro‘parasidan chopqillab chiqib qolganda, tasodifan uning otdan uchib ketishiga sal qoldi.

– O‘rozqul amaki, portfelimni ko‘ring! Men maktabga boraman! Mana mening portfelim!

– Obbo falokat-e! – O‘rozqul seskanib jilovini tortarkan, koyiy boshladi.

U bolaga uyqu aralash qizargan, shishgan, shirakayf ko‘zlarini tikdi:

– Nima qilib yuribsan, qayoqdan kelyapsan?

– Uyga ketyapman, portfelimga qarang, uni Seydahmadga ko‘rsatib kelyapman, – dedi bola ming‘irlab.

– Mayli, o‘ynayver, – to‘ng‘illadi O‘rozqul va egarda omonatgina tebranib yo‘lida davom etdi. U o‘z taqdiridan ranjib yurgan, xudo uni farzand dog‘ida kuydirib, boshqalarga saxiylik bilan besh-o‘ntalab bola berib qo‘ygan bir paytda, bu ahmoqona portfel-u, ota-onasi tashlab ketgan, xotiniga jiyan bo‘lmish bu bola bilan qanchalik ishi bor...

Qorovultog‘ cho‘qqisidan hamma yoq yaqqol ko‘rinib turardi. Bola qorni bilan yotib olib durbinni ko‘ziga to‘g‘riladi. Bu o‘tkir dasht durbini edi. Qachonlardir boboga qorovulxonadagi uzoq yillik xizmatlari uchun mukofotga berishgandi. Chol durbinni olib yurishni yoqtirmasdi... Biroq durbin nabirasiga yoqib qoldi.

Bu safar u tog‘ga durbin va portfel bilan birga keldi. Boshda hamma narsa yumaloq oynachada sakrab aralashib ketaveradi, keyin birdan tiniqlik va turg‘unlik kasb etdi. Mana shunisi hammasidan zavqli edi. Bola topilgan fokusni buzib qo‘ymaslik uchun nafasini ichiga yutar, manzaralarni go‘yo o‘zi yaratayotgandek mahliyo boqardi. Keyin u nigohini boshqa nuqtaga tikdi, yana hamma narsa aralashib ketdi, tiniqlik yo‘qoldi. Bola yana okularni¹ aylantirishga tushdi.

¹ Okular – durbin linzasini tutib turadigan qism.

Bu yerdan atrofdagi hamma narsa, hatto osmono‘par yuksak cho‘qqilar ham ko‘rinib turardi. Qorli cho‘qqilar poyidagi o‘rmonzor tog‘lar, pastroqdagi serbarg butazorlar yuqorida, qalin qarag‘ayzorlar bilan burkangan tog‘lar ham ko‘rinib turardi. Kungay tog‘ining pastki tomonlarida o‘tdan bo‘lak hech nima o‘smasdi. Tog‘ning ko‘lga qaragan tomonidan yanada pastroq tushilganda nuqul mayda toshlar ko‘chmasiga duch kelinardi. Bu ko‘chmalar vodiya quyilib tushgan, vodiya esa, ko‘l bilan tutashib ketgandi. Bu atrofda dalalar, bog‘lar, qishloqlar yastanib yotardi... Yam-yashil ekinzorlarning u yer-bu yeri sarg‘ish tus olgan, o‘rim payti yaqinlashyapti. Yo‘llarda zig‘irday ko‘rinayotgan mashinalar xuddi sichqonlardek g‘izillar, ular orqasidan uzun dum – chang-to‘zon ko‘tarilardi. Dalaning arang ko‘z ilg‘ab oladigan uzoq chekkasida, qumloqdan tasma tortgan qirg‘oq ortida ko‘l samoviy rangda tovlanardi. Bu – Issiqko‘l. U yerda suv bilan osmon bir-biriga tutashib turardi.

Bola o‘sha tomonga uzoq qarab turdi. «Oq kema hali ko‘rinmayapti, – dedi u portfelga. – Kel, bir marta maktabimizga qaraylik». Bu yerdan tog‘ning ortidagi qo‘shni pasttekislik ravshan ko‘rinardi. Hatto durbinda uy oldidagi deraza ostida o‘tirib olib, qo‘lda urchuq yigirayotgan kampirgacha kuzatsa bo‘lardi.

Qishloqcha tepalikdan pastga tomon cho‘zilib tushgan edi. Qishloqning eng chekkasida, ko‘rinishdan turarjoyni eslatmaydigan kichkinagina uy turardi. To‘rt yillik maktab mana shu edi. Yuqori sinflarning o‘quvchilari sovxozga, maktab-internatga qatnashardi. Bu yerda esa kichkintoylar o‘qishardi.

U kulrang cherepitsa bilan yopilgan, yolg‘iz trubasi qiyshayib turgan, qo‘lda yasalgan taxta-lavhada: «Maktab» deb qo‘yilgan kichkinagina binoga durbindan uzoq tikilib turdi. U o‘qiy olmasa-da, xuddi shu so‘z yozilganini faraz qiladi. U qo‘lda portfeli bilan bu yerga kelishini va hozir kattakon qulf osig‘liq turgan anavi eshik ostonasidan qanday hatlab o‘tishni tasavvur qilib ko‘rdi.

Bola maktabni tomosha qilib bo‘lgach, durbinni yana ko‘lga to‘g‘riladi. Lekin u yerda hamma narsa ilgarigidek edi. Oq kema hali ko‘ringanicha yo‘q. Bola teskari o‘girildi-da, durbinni bir chetga qo‘yib, pastga, tog‘ tubiga qaray boshladi. Pastda, shundoq tog‘ning tagida cho‘zinchoq pastqamlik bo‘ylab jo‘shqin daryo kumushdek tovlanib oqardi. Qirg‘oqdan daryo bo‘ylab yo‘l ketgan va u daryo bilan birga qoya burilishida ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. Ro‘paradagi qirg‘oq jarlik va o‘rmonzor edi.

Bola ularga, bostirmalarga, qorovulxona hovlisidagi qurilishlarga masxaraomuz qarab chiqdi. Ular yuqoridan kichkina va omonat ko‘rinardi. Qorovulxonadan nariroqda, qirg‘oq bo‘yida, u o‘zining tanish toshlarini topdi. «Tuya», «bo‘ri», «egar», «tank» – hammasi joyida, ularning hammasini birinchi marta durbinda mana shu yerdan, Qorovultog‘dan turib kuzatgan, o‘shanda ularga ot qo‘ygandi-da.

Bola miyig‘ida kulib o‘rnidan turdi va uylar tomonga tosh yumalatdi. Tosh shu yerning o‘zida, tog‘ning usti-dayoq qolaqoldi. Bola yana joyiga o‘tirdi-da, durbindan qorovulxonaga qaray boshladi. Avval linzaning kattasidan kichigi tomonga tutib qaray boshladi – uylar uzoq-uzoqlarga siljib, o‘yinchoq qutichalarga aylanib qoldi. Xarsanglar kichkina toshchalar holiga keldi. Daryoning qirg‘oqqa yaqin yerdagi sayoz joyida bobosi qilgan ko‘lob esa, kulgili, chumchuqning inicha kelardi. Bola bosh chayqab kulimsiradi-da, durbinni tez aylantirib okularni to‘g‘rilay boshladi. Uning ulkan shaklga kengaygan suyukli xarsangtoshlari durbinning oynalariga manglayini tirab turganday tuyuldi. «Tuya», «bo‘ri», «egar», «tank», kemptik yoriqlari, yon-veridagi sarg‘aygan otquloqlari bilan juda haybatli va eng muhimi, ular haqiqatan ham bola atagan narsalarga juda o‘xshardi.

Xarsangtoshlar ortidagi sayozlikdan bolaning cho‘milishi uchun bobo ko‘lob qilgandi. Durbindan qirg‘oqdagi mana shu joy yaqqol ko‘rinib turardi. Shitob bilan oqqan suv bu yerdan, keng toshloq sayozlikdan qiyalab ko‘pirib o‘tardi-da, yana shiddatli oqimga qo‘shilib ketardi. Sayozlikdagi suv tizzadan

kelar, lekin oqimi shunchalik kuchli ediki, bolalarni daryoga oqizib ketishi hech gap emasdi. Oqim surib ketmasligi uchun bola qirg'oq bo'yidagi tolni ushlab olardi. Tol butalari ayni qirg'oqning chekkasidan o'sib chiqqan bo'lib, bir shoxi yerda, bir shoxi naq suvga botib turadi. Buning nimasi cho'milish? Bog'lab qo'yilgan otdan farqi yo'q. Buning ustiga yana qancha dilsiyohlik, so'kish eshitishlar! Buvisi bobosiga uqtirardi: «Daryoga oqib ketsa o'zidan ko'rsin, qo'limni cho'zmayman. Endi shunisi yetmay turgan edi. O'z ota-onasi tashlab ketdi. Menga boshqa tashvishlar ham yetib ortadi, majolim yo'q».

Unga nima deb bo'ladi? Kampir bir hisobda to'g'ri gapirayotir. Lekin bolaga ham rahming keladi-da: daryo yonginasida, naq eshigining ostida. Kampir qancha qo'rqitmasin, bola baribir suvga tushaveradi. Mana shundan keyin Mo'min chol bola bexatar cho'milsin, deb sayozlikda toshlardan ko'lob qilishga qaror qildi.

Mo'min chol oqim yumalatib ketmasligi uchun qanchadan qancha katta toshlarni ko'tarib keldi. Ularni qorniga qo'yib tashidi, toshlar orasidan suvning bermalol o'tib turishini hisobga olgan holda ularni suvning ichida tik turib, shunday taxlab terdiki, suv haqiqatdan ham bermalol oqadigan bo'ldi. Siyrak soqolli qotma chol ho'l ishtonlari badaniga yopishgan holda kun bo'yi shu to'siq bilan ovora bo'ldi. Kechqurun esa yo'taldi, belini ololmay qoldi.

Nima bo'lmasin, sayozlikda ajoyib ko'lob paydo bo'ldi. Endi bola hech qo'rqmasdan cho'milardi. Shoxchadan ushlaganicha qirg'oqdan pastga tushar va oqimga o'zini otardi, otganda ham hamisha suvga ko'zini ochgan bo'yi tushardi. Shuning uchun ko'zini ochiq tutardiki, baliqlar ochiq ko'z bilan yuradi-da. Uning g'alati orzusi bor: u baliqqa aylanib qolishni va uzoq-uzoqlarga suzib ketishni xayol qilardi.

Bola hozir durbindan ko'lobga qarab turib, ko'ylak-ishtonini yechib, qip-yalang'och junjikib suvga tushishini tasavvur qildi. Tog' daryolarining suvi hamisha sovuq,

entiktiradi, lekin keyin ko'nikib qolasan. Tolning shoxchasini ushlab, oqimga yuzi bilan otilishni ko'z oldiga keltirdi. Boshi uzra suv shovullaganicha qo'shilib ketadi, qorni ostidan, yelkalari ustidan suv qaynab oqib o'tadi. Suv ostida tashqaridagi hamma tovushlar tinib, quloqlarda faqat suvning shildirashi qoladi. U ko'zlarini katta-katta ochib, suv ostida nimaiki ko'rinsa, jon-jahdi bilan tikiladi. Ko'zlari sanchib ketadi, og'riydi, lekin u mag'rur jilmayadi, hatto suvda turib tilini ko'rsatadi. Bilib qo'ysin, hech qayerda ham cho'kmaydi va hech qayerda hech nimadan qo'rqmaydi. Keyin u qo'lidagi shoxchalarni qo'yib yuboradi, toki u oyoqlari bilan to'siqdagi toshlarga tiralib qolmagunga qadar suv uni surib ketaveradi. Shu yerda nafasi ham qaytadi. U suvdan sapchib turadida, qirg'oqqa chiqadi va tol shoxchasi tomon chopqillab ketadi. Bu takrorlanaveradi. U bobosi yasagan ko'lobda kuniga yuz marta cho'milishga ham tayyor. Xullas, baliqqa aylanmaguncha cho'milaveradi. Qanday bo'lmasin uning baliqqa aylanishi shart...

Quyosh ko'l tomonga og'a boshladi. Havo unchalik is-siq emasdi. Sharq tarafdagi qiyaliklarga birinchi, kalta soyalar tushdi. Quyosh endi tobora pastga, tog'lar poyiga cho'zilaverdi. Odatda, kunning ayni shu mahalida Issiqko'lda oq kema ko'rinardi.

Bola durbinni ko'zga tashlanib turgan o'sha eng uzoqdagi joyga burdi va nafasini yutib kutib turdi.

Ana u! Hamma narsa birdan unutildi: u yerda, oldinda, Issiqko'lning ko'm-ko'k sathida oppoq kema paydo bo'ldi. Mana qalqib chiqdi. Ana u! Trubalari qator tizilgan, o'zi kuchli va chiroyli. U xuddi ip tortib qo'ygandek to'g'ri va bir tekis suzib borardi. Bola shosha-pisha durbin oynalarini ko'ylagining etaklari bilan artdi-da, yana okularni to'g'rilay boshladi. Kemaning ko'rinishi yanada tiniqroq bo'la boshladi. Endi uning to'lqinlararo qanday chayqalib, quyrug'i ortidan qanday oppoq ko'pikli iz qoldirib ketayotganligini ilg'asa bo'lardi. Bola oq kemadan ko'z uzmay unga zavq bilan tikilardi. Bolaning ixtiyorida bo'lganda edi, undagi odamlarni

ko‘rish mumkin bo‘lishi uchun oq kemani yaqinroq suzib kelishiga yolvorib ko‘ndirgan bo‘lardi. Lekin kema bulardan bexabar edi. U o‘z yo‘lidan... ohista va ulug‘vor suzib borardi.

Kemaning suzib borishi uzoq vaqt ko‘rinib turdi, bola ham uzoq vaqt baliqqa aylanib, daryo bo‘ylab unga – oq kemaga qarab suzib ketishi haqida xayol surib qoldi...

Bola bir kun Qorovultog‘dan turib ko‘m-ko‘k Issiqko‘lda oq kemani birinchi marta ko‘rib qolganida uning go‘zalligidan yuragi gupurib, darhol otasini – issiqko‘llik matrosni – xuddi shu oq kemada suzayotir degan qarorga kelgandi. Bola o‘zi bunga ishonar, chunki shunday bo‘lishini juda-juda istardi.

U na otasini, na onasini eslay olardi. Bola ularni biron marta ham ko‘rmagan. Ularning hech biri uni biron marta ham yo‘qlab kelmagan. Lekin bola bilardi: otasi Issiqko‘lda matros, onasi esa, otasidan ajralishgandan so‘ng, o‘g‘lini boboga qoldirib, o‘zi shaharga ketgan. Ketgan-u, shu bo‘yi g‘oyib bo‘lgan. Tog‘ ortidagi, ko‘l ortidagi, yana tag‘in, tog‘ ortidagi uzoq shaharga ketgan.

Kema sekin uzoqlashib borardi. Trubasidan tutun burq-sitib, ko‘lning ko‘m-ko‘k silliq sathida suzib borayotgan bu oppoq va uzun kema, baliqqa aylangan bolaning o‘zi tomon suzib kelayotganini bilmasdi. U shunday baliqqa aylanib qo-lishni orzu qilardiki, baliqning hamma joyi – tanasi, dumi, suzgich qanotlari, tangachalari unga o‘tsa-yu, faqat ingichka bo‘yinli, shalpangquloqli, tiralgan burunli boshi o‘zida qolsa bas. Ko‘zlari ham o‘ziga qolsin. Lekin xuddi hozirgiday emas, chin baliqday ko‘radigan bo‘lishsin.

Bolaning kipriklari xuddi buzoqnikiga o‘xshash uzun-uzun bo‘lib, hamisha o‘zidan o‘zi nimagadir pirpirab turadi. Guljamol qizimning ham kipriklari shunday bo‘lgandami, qanday chiroyli bo‘lardi! – deydi. Chiroyli bo‘lishning nima keragi bor? Shaxsan unga chiroyli ko‘zlarning keragi yo‘q, unga suv ostida ko‘ra oladigan ko‘zlar kerak.

Bobo yasagan ko‘lobga kelganda, u baliqqa aylanadi. Bir qarabsizki, u baliq-da. So‘ngra ko‘lobdan daryoga, naq pishqirib shiddat bilan oqayotgan daryoga sakrab va oqim

bo‘ylab suv ostiga sho‘ng‘ib ketardi. Keyin ham shu tarzda sakrab-sakrab atrofga nazar tashlab boradi, qizig‘i yo‘q joylarda, faqat suv ostida suzadi. Qorovulxona yonidan suzib o‘tayotganda esa, suvdan sakrab chiqib, suzgich qanotlarini bobosiga silkitadi: «Xayr, bobo, men tezda qaytaman». Bobo shunda hayratdan dovdirab nima qilishini bilmay qolarmidi? Buvi, Bo‘key xola, Guljamol qizchasi bilan hammasi og‘zini ochib qolarmidi? Qayerda kim ko‘ribdi – kallasi odam-u, tanasi baliqni? Bola esa ularga suzgich qanotlarini silkitib qo‘yardi: «Xayr, men Issiqko‘lga, oq kemaga suzib boraman. U yerda mening matros dadam bor». O‘zi esa suzib ketaveradi. Osmo ko‘prikning sim arqoni ostidan, keyin to‘qaylar yonidan, so‘ng gumburlab turgan daradan o‘tib, to‘g‘ri Issiqko‘lga suzib boradi.

Issiqko‘l deganlari – bu butun bir dengiz. U Issiqko‘l to‘lqinlarida suzib yuradi, to‘lqindan to‘lqinga ko‘chadi va shunda oq kemaning qarshisidan chiqib qoladi. «Salom, oq kema, bu menman! – deydi u. – Durbindan har doim senga qaragan menman». Kemadagi odamlar hayratdan yoqa ushlab, mo‘jizani ko‘rgani yugurishadi. Shunda u o‘zining matros otasiga so‘z qotadi. «Salom, dada, men sizning o‘g‘lingizman. Men sizning oldingizga suzib keldim». «Sen qanaqa o‘g‘ilsan? Sen yarim baliq, yarim odamsan-ku!» «Siz meni o‘z oldingizga, kemaga chiqarib oling, men shunda sizning o‘g‘lingiz bo‘lib qolaman». «Voy, tavba. Qani, ko‘raylik-chi». Otasi to‘r tashlab uni suvdan palubaga tortib oladi. Shunda u o‘z asliga qaytadi. Keyin-chi, keyin...

Keyin oq paroxod o‘z yo‘lida suzib ketaveradi. Bola otasiga hamma narsa haqida, butun hayoti davomida nimaiki bilgan bo‘lsa, hikoya qilib beradi. O‘zi yashab turgan tog‘lar haqida, o‘sha xarsangtoshlar haqida, daryo va noyob o‘rmon haqida, baliqlarday ko‘zi ochiq suzishni o‘rgangan yeri – bobosining ko‘lobi haqida so‘zlaydi.

Oq kema uzoqlashib ketdi. Uning trubasini durbinda ham ko‘rish mumkin bo‘lmay qoldi. Hademay u ko‘zdan yo‘qoladi. Endi bolaga otasining kemada suzishi haqidagi o‘ylariga

nuqta qo'yish payti keldi. Hammasi yaxshi boshlangan edi, mana, oxiri uncha xush kelmadi.

Oq kema ko'zga elas-elas ilashuvchi bir nuqtaga aylanib, tobora uzoqlashib boradi. Quyosh suvga bosh qo'ydi. Ko'l yuzasidagi ko'zni qamashtiruvchi olovli binafsharang yog'du durbindan ko'rinib turadi.

Kema ko'zdan g'oyib bo'ldi. Shunday qilib, oq kema haqidagi ertak ham tugadi.

* * *

Bobosi bolaga qirg'izlar uchun muqaddas hisoblangan Shoxdor ona bug'u haqidagi ertakni aytib beradi. Bolaning qalbida pokiza, oliyjanob va mehribon bug'uga nisbatan cheksiz muhabbat paydo bo'ladi. Quyida shu ertakning bayoni beriladi.

...Bu juda qadimda bo'lib o'tgan. Bir qirg'iz qabilasi ulkan va muzday daryo bo'yida yashardi. U bu yerlardan uzoqda, Sibirdan boshlanadi. U yerlarga otda uch yil-u uch oyda yetib borish mumkin. Bu daryoni hozir Yenisey deyishadi, ilgarilari Enasoy deb yuritishgan. U haqda shunday qo'shiq ham to'qishgan:

Sendan ulkan daryo bormi, Enasoy,
Senday aziz tuproq bormi, Enasoy,
Sendan chuqur dard ham bormi, Enasoy,
Sendan ozod quchoq bormi, Enasoy.

Sendan ulkan daryo yo'qdir, Enasoy,
Sendan aziz tuproq yo'qdir, Enasoy,
Sendan chuqur dard ham yo'qdir, Enasoy,
Sendan ozod quchoq yo'qdir, Enasoy.

Enasoy bo'yida turli elatlar yashashardi. Ular g'oyat og'ir hayot kechirishardi, chunki ular bir-biriga doimo adovat ko'zi bilan qarar edilar. Qirg'iz qabilasini dushmanlar turli tomondan qurshab olgandi. Goh ular, goh bular hujum qilishar, goho qirg'izlarning o'zi ham boshqalarga cho-

vut solib, mollarini haydab ketishar, uylariga o't qo'yishar, odamlarini o'ldirishardi. Odamning odamga ichi achimasdi. Odam odamni g'ajirdi. Shu darajaga borildiki, hech kimning dehqonchilik qilgisi, mol boqqisi, ov qilgisi kelmay qoldi. Qaroqchilik bilan kun kechirish oson tuyulardi: qo'qqisdan bosasan, o'ldirasan, olasan-ketasan. Bir qotillikka qasdma-qasd o'n qotillik bilan javob berishga harakat qilishardi. Shu zaylda kun o'tgan sayin ko'proq qon to'kildirdi. Dushmanga qiron keltirib, o'zga qabilaning so'nggi odamigacha, qonini oqizgan, mol-u mulkini qo'lga kiritgan odam eng aqlli va uddaburon sanalardi.

O'rmonda bir g'aroyib qush paydo bo'lib qoldi. Inson ovozigacha o'xshash ayanchli ovoz bilan tundan tonggacha sayrar va yig'lar, shoxdan shoxga sakrar va so'yilardi: «Katta baxtsizlik bo'ladi! Katta baxtsizlik bo'ladi!» Shunday bo'ldi ham. O'sha qora kun keldi.

O'sha kuni qirg'iz qabilasi Enasoy bo'yida o'zining buyuk oqsoqolidan judo bo'ldi. Botir Qulchi ko'p yillar yo'lboshchilik qildi, ko'pgina yurishlarda, jang-jadallarda qatnashdi. Janglarda omon qoldi, lekin ajali yetdi. Qabiladoshlar ikki kun g'am-alamda o'rtandilar, uchinchi kuni esa, botirning jasadini yerga topshirgani yig'ildilar. Eski odatga ko'ra buyuk oqsoqolni Enasoyning o'nqir-cho'nqir qirg'og'i bo'ylab so'nggi yo'lga kuzatish kerak edi, toki marhumning ruhi Enasoy daryosi bilan yuksaklikda judolashsin, qalbi Enasoy haqidagi qo'shiqni so'nggi bor kuylasin.

...Botirning jasadini dafn etishga olib o'tishganda har bir oila o'z ostonasi oldida u bilan vidolashdi, oq motam yalovini egib, uv tortib yig'lashadi, keyin boshqalar bilan birga qo'shilib yana oq motam yalovlarini egiltirgan holda, aytib yig'lashayotgan kelgusi o'tov tomon ilgarilab borishadi va shu zaylda so'nggi manzil – qabristongacha yetib borishlik uchun motam kunlarida barcha qabiladoshlar o'tovlarini daryo yoqasiga qator tikishdi.

O'sha kuni hamma tayyorgarlik ko'rib bo'linganda, quyosh uyqudan bosh ko'targandi. Uchiga otning dumi bog'langan

tug‘ va botirning urush aslahalari – nayza va qalqoni olib chiqildi. Uning oti dafn yopinchiqlari bilan burkalgan edi. Karnaychilar jangovar kuy chalishga, barabanchilar barabanga tayoqni jon-jahdlari bilan urishga shay edilarki, toki o‘rmon larzaga kelsin, qushlar bulut yanglig‘ osmonga ko‘tarilib, shovqin-suron va nola solsinlar. Yirtqich hayvonlar bo‘kirib-hayqirib chakalakzorlarga chopib qolsin, maysalar yerga qapishib ketsin, sadolar jaranglab tog‘lar larzaga keltirilsin. Motamsaro ayollar sochlarini yoyib botir Qulchiga aza ochishga shay turishardi. Yigitlar zabardast yelkalarida botirning katta og‘ir jasadini bezovta qilmay ko‘tarish uchun tiz cho‘kkan edilar. Hamma narsa botirni oxirgi yo‘lga kuzatib qo‘yishga tayyor edi. O‘rmon etagida esa to‘qqizta biya, to‘qqizta ho‘kiz, to‘qqizta to‘qqizlik qo‘y qurbonlik uchun hozirlab qo‘yilgan edi.

Shunda kutilmagan hodisa ro‘y berdi. Enasoyliklar birlariga qanchalik dushman bo‘lmasin, oqsoqollarning dafn marosimi kunlarida bir-biri bilan urush qilishni rasm qilmagan edilar. Mana hozir esa bir to‘da dushman g‘am-anduhga botgan qirg‘oqdagilarni tong chog‘i to‘rt tomondan sezdirmay o‘rab kelib, pistirmalardan barobariga otilib chiqib, hamlaga o‘tdilarki, oqibatda hech kim otga ham minolmadi, qo‘liga qurol ham ololmadi. Shu tariqa ko‘z ko‘rmagan qirg‘in boshlandi. Hammani bir chekkadan o‘ldira boshlashdi. Hammani bir boshdan qilich damidan o‘tkazishdi, toki bu yovuzlikni eslab hech kim yodga olmasin, qasoskor qolmasin, vaqt esa o‘tmish izlarini qumlar bilan ko‘mib tashlasin.

Insonni tug‘ish va o‘stirish qanchalar qiyin, o‘ldirish esa oson. Ba‘zi birovlar o‘z qoniga botib qiymalanib yotishar, birovlar esa qilich va nayzadan qutulib qolmoq uchun o‘zini daryoga otar, Enasoy to‘lqinlari orasida cho‘kib ketardi. Daryo yoqalab jarliklar-u, tikka kesib tushgan qirg‘oqlar bo‘ylab butun bir chaqirim yo‘lda olovga qoplangan qirg‘iz o‘tovlari lovullab yonardi. Hech kim qochib qutula olmadi, hech kim omon qolmadi. Hammasi o‘ldirildi va kuydirildi. O‘lib yotganlarning jasadini qirg‘oqdan Enasoyga uloqtirdilar.

Dushmanlar: «Endi bu yerlar bizniki! Endi bu oʻrmonlar bizniki! Endi bu mollar bizniki!» deb quvonishardi. Ular boy oʻlja bilan qaytishar ekan, oʻrmondan ikki bola – bir oʻgʻil va bir qizning qanday chiqib kelganini payqashmadi. Bu oʻzboshimcha va shoʻx bolalar ota-onalaridan yashirincha ertalaboq yaqin oʻrmonga qoʻlsavat uchun poʻstloq shilgani ketishgandi. Ular oʻynab yurishib, oʻrmonning ancha ichkarisiga kirib ketishganini sezmay qolishdi. Jang suronini eshitib orqaga otilgan goʻdaklar na otasini, na onasini, na akasini, na opasini tirik topa oldilar. Ular boʻzlab kul tepadan kul tepaga chopishar, lekin bironta tirik jonni topib boʻlmasdi. Bir zum ichida yetim boʻlib qolishdi.

Bolalar tuyoqlar ostidan koʻtarilgan changni koʻrib, oʻsha tomonga yugurishdi. Ular qonxoʻr dushman izidan yigʻlab, qichqirib chopishardi. Faqat bolagina shunday soddadil boʻladi. Jallodlardan yashirinish oʻrniga ularga yetib olishga shoshiladi. Har nima boʻlsa ham yolgʻiz qolishmasa, bu vayronadan, laʼnati joydan nari ketishsa bas. Bir-birining qoʻlidan ushlab olishgan bola va qizcha ketayotganlar orqasidan quvib yetishsa, ularni oʻzlari bilan birga olib ketishlarini yolvorib soʻrashardi.

Bolalar jon-jahdi bilan uzoq chopishdi. Lekin baribir yetib olisholmadi. Keyin esa, yiqilib qolishdi. Atrofga boqishga, qimirlashga qoʻrqishardi. Shu zaylda bir-birining pinjiga kirib, koʻzlari yumilganini bilmay qolishdi.

Tun bexatar oʻtdi. Hayvon ularga tegmadi, oʻrmon maxluqlari koʻtarib ketmadi. Ular uygʻonishganda tong otgandi. Quyosh nur sohib, qushlar sayrardi. Bolalar oʻrinlaridan turib yana yoʻlga tushishdi.

Yoʻl yura-yura uchinchi kuni bir togʻ tepasida toʻxtashdi. Pastga qarashsa, keng, yam-yashil maysazorda katta tantana boʻlayotibdi. Bu yerda tikilgan oʻtovlarning, gurullab yonayotgan gulxanlarning, gulxan atrofida oʻtirganlarning son-sanogʻi yoʻq. Qizlar hayinchak uchib, polvonlar xuddi burgutday gir aylanib, bir-birini irgʻitib otishyapti. Dushmanlar oʻzlarining gʻalabasini nishonlashardi.

Bola bilan qiz yaqin borishni ham, bormaslikni ham bilmay tog' tepasida turishardi. Lekin go'sht qovurdoq, non, sarimsoqning yoqimli hidi ufurib turgan gulxan atrofida paydo bo'lib qolishni istashardi. Bolalar chidab turisha olmadi, tog'dan tusha boshlashdi. Tantana egalari ularni to'da bo'lib o'rab olishdi.

– Kimsanlar? Qayoqdan?

– Biz ochmiz, – javob berdi bola bilan qizcha, – bizga yeydigan bir nima bersangiz.

Ular bolalarni tilidan kim ekanligini darrov payqab qolishdi. Baqirib, chaqirib shovqin solishdi. Tugatilgan dushman oilasining omon qolgan a'zolarini hozir o'ldirish kerakmi? – deb bahsga tushib ketishdi. Ular bahslashib turganda rahmdilgina bir ayol bolalarga jindek pishgan ot go'shti uzatdi. Bolalarni xon huzuriga sudrab borishar ekan, ular qo'llaridagi ovqatni yutoqib yeyaverishdi. Ostonada oybolta ushlab turgan yasovullar ularni xonning baland qizil o'toviga olib kelishdi. Butun qarorgoh bo'ylab esa, allaqayoqdan paydo bo'lib qolgan qirg'iz zotlari haqidagi tashvishli xabar tarqaldi. Bu nimadan darak berishi mumkin? Hamma o'yin va tantanani tark etib, ur-to'polon bilan xonning o'tovi tomon chopib ketdi. Bu payt xon mashhur lashkarboshilari bilan qorday oppoq namat to'rida savlat to'kib o'tirardi. U asal qo'shilgan qimizni simirib, maqtov qo'shiqlarini sel bo'lib tinglab o'tirardi. Xon odamlar nima uchun to'planishganini bilgach, g'azabdan quturib ketdi: «Meni bezovta qilishga qanday jur'at etdilaring? Biz axir qirg'iz zotini butunlay qirib tashlamagan edikmi? Men senlarni Enasoyning abadiy hukmroni qilib qo'ymadimmi? Namuncha o'pkalaringni qo'ltiqlab yugurib kelmasanglar, qo'rzoqlar? Qaranglar, oldilaringda kim turibdi! Ey, cho'tir yuzli Baymoq kampir!» – qichqirdi xon. Kampir olomon orasidan ajralib chiqqanda dedi: «Mana bularni o'rmonga olib borib shunday qilginki, shu bilan qirg'iz zoti tugasin, xayolda ham qolmasin, nomi abadiy o'chsin».

Cho'tir Baymoq kampir jimgina itoat etib, bola bilan qizni qo'lidan ushladi-da, olib ketdi. Ular o'rmon oralab uzoq

yurgach, Enasoy qirg'og'idagi baland jarlikka yetib kelishdi. Cho'tir Baymoq kampir bolalarni shu yerda to'xtatib, ularni jar yoqasiga olib keldi. So'ng ularni jarlikka itarib yuborishdan oldin shunday dedi:

– O, muazzam Enasoy daryosi! Agar yuz yillik qarag'ayni tashlasa, uni cho'pday oqizib ketasan. Kel endi, ikki qum zarrasi – ikki inson bolasini bag'ringga olgin. Ularga yer yuzida joy yo'q. Senga men aytib turishim kerakmi, Enasoy? Agar yulduzlar odamga aylanib qolsa bormi, osmon ularga torlik qilib qoladi. Senga men aytib turishim kerakmi, Enasoy? Ol, bu bolalarni, uloqtirib ket. Qo'y, ular bu manfur dunyoni go'daklikda, toza qalb bilan, bolalik hayosi bilan, yovuz niyat va yovuz ishlar qilib o'z nomiga isnod keltirishga ulgurmasdanoq, tark etishsin, toki insonga azob-uqubatni ko'rish va boshqalarning ham g'am-alamiga sababchi bo'lish nasib etmasin. Ol bularni, ola qol bularni, qudratli Enasoy...

Bolalar zor qaqshab, ho'ngrab yig'lardi. Tik qirg'oqdan pastga qarash qanchalik dahshatli ekanini ko'rib turgan bolalarning qulog'iga kampirning so'zi kirmasdi. Pastda quturgan to'lqinlar sapchiydi.

– Quchoqlashinglar, bolalar, oxirgi marta xayrlashib olinglar, – dedi Cho'tir Baymoq. O'zi esa ularni jarga irg'itish qulay bo'lsin uchun yenglarini shimardi. Keyin shunday dedi:

– Endi meni kechiringlar, bolalar. Peshonangizga yozgani shu ekan. Bu ishni hozir o'z ixtiyorim bilan qilmayotgan bo'lsam ham, lekin sizlarning baxtingizga...

U gapini tugatmagan ham ediki, yonginasidan bir ovoz keldi.

– To'xta, dono, oqila kampir. Gunohsiz bolalarni juvon-marg qilma.

Cho'tir Baymoq kampir qayrilib qaradi-yu hayratda qoldi: Qarshisida g'aroyib Ona bug'u turardi. Uning yirik-yirik ko'zlari ta'nali va g'amgin boqardi. U sutdek oq, qorni bo'taloqning yungidek qo'ng'ir yung bilan qoplangan. Shoxlari bo'lsa, serbutoq, go'yo kuzgi daraxtning bir shoxi. Yelini emizikli ayolning ko'kragidek top-toza va silliq.

– Kimsan? Nega odamga o‘xshab gapiryapsan? – so‘radi cho‘tir Baymoq kampir.

– Men Ona bug‘uman, – javob berdi u. – Shuning uchun odamga o‘xshab gapirdimki, bo‘lmasa sen tushunmaysan, quloq ham solmaysan.

– Nima istaysan, Ona bug‘u?

– Qo‘yib yubor bolalarni, donolarning donosi. Sendan iltimos qilaman, ularni menga ber.

– Nima qilasan ularni?

– Odamlar mening ikki egizimni, ikki bug‘u bolasini o‘ldirishdi. Men o‘zimga bola izlab yuribman.

– Sen bularni boqmoqchimisani?

– Ha, donolarning dono ayoli.

– Sen yaxshilab o‘ylab ko‘rdingmi, Ona bug‘u? – Masxaraomuz kuldi Cho‘tir Baymoq kampir. – Bular axir odam bolasi-ku. Bular katta bo‘lishadi, keyin sening bolalaringni o‘ldirishadi.

– Ular katta bo‘lishsa, mening bolalarimni o‘ldirishmaydi, – javob qildi unga bug‘ular onasi. – Men ularga ona bo‘laman, ular esa mening bolalarim. Axir, ular o‘z akaukalarini o‘ldirisharmidi?

– Eh, Ona bug‘u, sen odamlarni bilmaysan, – bosh tebratdi Cho‘tir Baymoq kampir, – ular hayvonlargagina emas, hatto o‘z-o‘zlariga ham rahm-shafqat qilishmaydi. Bu yetimchalarni senga berardim, shunda mening so‘zlarim qanchalik rostligiga o‘zing guvoh bo‘larding, lekin odamlar baribir qo‘lingdan tortib olib, bu bolalarni o‘ldirishadi. Buncha g‘amning senga nima keragi bor?

– Men bolalarni uzoq o‘lkalarga olib ketaman, u yerdan bolalarni hech kim qidirib topolmaydi. Bolalarga rahm qil, donolarning donosi, ozod qil ularni. Men ularga sadoqatli ona bo‘layin. Yelinlarim to‘lib turibdi, sutim bolalarni orziqib kutyapti. U bolalarga intizor.

– Ha, mayli, unday bo‘ladigan bo‘lsa, – dedi oxiri Cho‘tir Baymoq kampir o‘ylab turib, – bularni tezroq olib jo‘na. Yetimlarni o‘zingning uzoq yurtingga olib ket. Agar ular uzoq

yo‘l yurib toliqib halok bo‘lsa yoki duch kelgan qaroqchilar o‘ldirib ketsa yoki bu odam bolalari sening yaxshiligingga yomonlik bilan javob qaytarishsa, o‘zingdan ko‘r.

Ona bug‘u Cho‘tir Baymoq kampirga minnatdorchilik bildirdi. Bola bilan qizga esa:

– Endi men sizlarning onalaringman, sizlar esa mening bolalarimsizlar, – dedi. – Sizlarni uzoq yurtga, qorli tog‘ va daraxtzorlar qo‘yniga joylashgan iliqlik dengiz – Issiqko‘lga olib ketaman.

Bola va qizcha shodlanib, Shoxdor ona bug‘u ortidan chopqillab ketishdi. Lekin asta-sekin charchab, holdan toyishdi, yo‘l esa olis – dunyoning bu chetidan u chetiga cho‘zilgan. Ona bug‘u bolalarni o‘z suti bilan boqib, kechalari bag‘riga bosib isitmaganda ular hech qayerga yetisholmasdi. Ular uzoq yurishdi. Ona yurt bo‘lmish Enasoy tobora ortga chekinib borar, lekin yangi vatan bo‘lmish Issiqko‘lga hali juda uzoq edi. Yo‘l yurishdi, yo‘l yurishsa ham mo‘l yurishdi. Yoz-u qish, ko‘klam-u kuz, yana yoz-u qish, yana bahor-u, yana yoz va kuz qalin o‘rmonlardan, jazirama cho‘llardan, ko‘chma qumli sahrolardan, baland tog‘lardan va hayqirib oqqan daryolardan ne mashaqqatlar bilan o‘tishdi. Ularning izidan bo‘rilar galasi quvdi. Shoxdor ona bug‘u esa bolalarni ustiga mindirib yovuz yirtqichlardan qutqarib ketdi. Ularning izidan tushgan otliq ovchilar o‘q uzib, qichqirishardi: «Bug‘u odam bolasini o‘g‘irlab ketyapti! Ushla! Tut!» va ketma-ket o‘qlar uzishardi. Shoxdor ona bug‘u bolalarni opichib, g‘izillab uchayotgan o‘qlarga, chaqirilmagan qutqaruvchilarga yetkazmay borardi.

Oxiri Shoxdor ona bug‘u o‘z bolalarini Issiqko‘lga yetkazib keldi. Chor atrof qorli tog‘lar bilan qoplangan, tog‘lar o‘rtasida ko‘m-ko‘k o‘rmon, ko‘z ilg‘agan hamma joyda dengiz chayqalib shovullab turardi. Ko‘m-ko‘k suv yuzida oppoq to‘lqinlar yugurar, shamol ularni uzoqlardan haydab kelib, yana yiroqlarga haydab ketardi.

– Mana shu yangi vataningiz bo‘ladi, – dedi Shoxdor ona bug‘u. – Mana shu yerda yashaysizlar, yer haydaysizlar, baliq tutasizlar, mol-u hol qilasizlar. Ming yillar tinch-totuv

yashanglar. Ha, sizlarning avlodingiz yashaydi, ko‘payadi. Sizlar keltirgan tilni avlodlar unutishmaydi. Ularga o‘z ona tillarida so‘zlash va kuylash yoqimli bo‘ladi. Insonlar qanday yashashi lozim bo‘lsa, shunday yashanglar.

Mana shunday qilib, bola va qizcha mangu jannatmakon Issiqko‘lda o‘zlariga yangi makon topdilar.

Vaqt tez o‘tib boraverdi. Bola baquvvat yigit bo‘ldi, qiz bo‘yga yetdi. Shunda ular er-xotin bo‘ldilar. Shoxdor ona bug‘u esa Issiqko‘lni tark etmasdan, yaqin-o‘rtadagi o‘rmonda yashay boshladi.

Bir kuni tong mahali Issiqko‘l qo‘qqisidan notinchlanib, shovullay boshladi. Qizni to‘lg‘oq tutib, azoblanmoqda edi. Er esa cho‘chib ketdi. Qoya ustiga chopib chiqdi-da, ovozi-ning boricha chaqira boshladi:

– Qaydasan, Shoxdor ona bug‘u? Issiqko‘l qanday shovqin solyapti, eshityapsanmi? Qizing tug‘yapti, tezroq kel, Shoxdor ona bug‘u, bizga yordam ber...

Shoxdor ona bug‘u yetib keldi. U shoxlarida beshik keltirdi. Beshik oppoq qayindan yasalgan bo‘lib, bandida kumush qo‘ng‘iroqcha jaranglab turardi. Shoxdor ona bug‘u yetib keldi, shu payt qizning ham ko‘zi yoridi.

– Bu beshik sizlarning to‘ng‘ichlaringiz uchun, – dedi Shoxdor ona bug‘u. – Hali ko‘p farzand ko‘rasizlar. Yetti o‘g‘il, yetti qiz!

Ota-ona xursand bo‘lishdi. To‘ng‘ich farzandlarini Shoxdor ona bug‘u sharafiga – Bug‘uboy deb atashdi. Bug‘uboy o‘sib ulg‘aydi, qipchoqlar avlodidan bo‘lgan go‘zal qizga uylandi, shu bilan uning avlodi ko‘paya boshladi. Bug‘uboy avlodlari Issiqko‘lda ko‘p va qudratli bo‘lib qoldi. Bu avlod Shoxdor ona bug‘uni muqaddas deb bilishardi. Bug‘uboy avlodlarining o‘tovida eshik tepasiga bug‘u shoxi osib qo‘yilar, bu esa, uzoq-uzoqlardan ham o‘tovning bug‘uboylar avlodiga mansub ekanligidan darak berib turardi. Bosqinchi dushmanlarni daf etganda yoki poyga musobaqalarida bug‘uboy avlodlarini «Bug‘u!» degan birgina laqabning o‘zidan ham anglab olishar, ular esa har doim g‘olib chiqishardi. O‘sha kezlar

Issiqko‘l o‘rmonlarida oppoq shoxdor bug‘ular bo‘lardi, go‘zallikda hatto ko‘kdagi yulduzlar ham ularga rashk qilardi. Ular Shoxdor ona bug‘uning bolalari edi. Ularga hech kim tegmasdi, hech kim hurkitmasdi.

Bug‘uboy avlodlari bug‘uga duch kelgan joyda otdan tushib, unga yo‘l berishardi. Oshiqlar suygan qizlarini suluvlikda go‘zal oq bug‘uga qiyos qilishardi...

Bug‘uboy avlodining oshib-toshib ketgan mashhur bir boyi o‘lgunga qadar shu odat saqlanib qoldi. Uning ming-minglab qo‘ylari bo‘lib, mollariga qaraydigan qancha-qancha cho‘ponlar ham izmida edi. O‘g‘illari unga katta ma‘raka qilishdi. Ular bu ma‘rakaga yer yuzining hamma mashhur kishilarini chaqirishdi. Mehmonlar uchun Issiqko‘l qirg‘og‘iga bir ming bir yuzta o‘tov tikdilar. Qancha mol so‘yildi, qancha qimiz ichildi, qancha noz-ne‘matlar berildi, sanog‘iga yetib bo‘lmasdi. Boyning o‘g‘illari gerdayib yurishardi. Axir, otadan bitmas-tuganmas meros qolganligini, farzandlar otani hurmatlab, uning xotirasini qanday e‘zozlashlarini odamlar ko‘rib qo‘yishsin-da...

Dovrug‘ solgan ma‘raka ko‘p kunlik bayramday o‘tdi. Boyning maqtanchoq o‘g‘illari boshqalarni lol qoldirishni, shuhratlari olamga yoyilishini orzu qilishdi. Yana buning ustiga mangu uyquga ketgan shavkatli otalari Shoxdor ona bug‘u avlodidan ekanligini hamma bilishi uchun qabriga bug‘u shoxini o‘rnatishni o‘ylab topishdi.

Aytilgan so‘z – otilgan o‘q. Ovchilarni yo‘llashdi. Ovchilar bug‘u otib, shoxini tanasidan ajratishdi. Bug‘u shoxlarining tepaga taranib turishi ko‘kda parvoz qilayotgan burgutning qanotlariga o‘xshardi. Bug‘u shoxlari o‘g‘illarga yoqib tushdi: ularning har biri o‘n sakkiz butoqqa ega bo‘lingan, demak, o‘n sakkiz yoshda ekan. Yaxshi. Ular shoxni qabr ustiga o‘rnatish uchun ustalarga farmon berishdi.

Hamma balo shundan boshlandi. Shoxdor ona bug‘u avlodlarining boshiga katta baxtsizlik tushdi. Deyarli har bir kishi o‘rmonlarda oq bug‘ularni ovlashga tushib ketdi. Bug‘uboy avlodidan bo‘lgan har bir kishi o‘z ajdodlari

qabriga bug‘u shoxi o‘rnatishni burch deb bilar edi. Bu ish endi marhumlar xotirasiga bo‘lgan muqaddas vazifa, alohida hurmatga aylandi. Kimki bug‘u shoxlarini topolmas ekan, endi uni odam o‘rnida sanamay qo‘yishdi. Bug‘u shoxlari bilan savdo qilish, ularni oldindan g‘amlab qo‘yish odat tusiga kirib qoldi. Shoxdor ona bug‘u avlodlari orasida shunday kishilar paydo bo‘ldiki, ular bug‘u shoxlaridan o‘lja yig‘ishni, pullashni hunar qilib oldilar.

Issiqko‘l o‘rmonlarida bug‘ularga qirg‘in keldi. Ularga shafqatsiz bo‘lishdi. Bug‘ular qadam yetmagan joylarga qochishdi, lekin u yerda ham qo‘yishmadi. Ovchilar tozilarni qo‘yib pistirma tomon haydasha, o‘zlari esa pistirmalardan bekinib yotib, yaqinlashgan bug‘ularni bexato otib olishardi. Bug‘ularni to‘da-to‘dasi bilan qirishdi. Shox butoqlari eng ko‘p bo‘lgan bug‘uni kim otarga garov bog‘lashardi.

Bug‘ular g‘oyib bo‘lishdi. Tog‘larni tark etishdi.

Shoxdor ona bug‘uga nima bo‘ldi?

U odamlardan ranjidi, juda qattiq ranjidi. Aytishlaricha, son-sanoqsiz o‘qlar va tozilar dastidan bug‘ularga kun qolmagan, ularning eng so‘nggi avlodi barmoq bilan sanarli darajada oz qolgan chog‘da Shoxdor ona bug‘u eng baland cho‘qqiga ko‘tarilib, Issiqko‘l bilan vidolashibdi va so‘nggi bolalarini ulkan dovon ortiga, boshqa yurtlarga, boshqa tog‘larga boshlab ketibdi.

Shoxdor ona bug‘u ketishi oldidan, bundan buyon bu yerlarga aslo qadam bosmayman, debdi...

* * *

Hammaga ezgulik qiluvchi Shoxdor ona bug‘u haqidagi ertakni aytib, bolaning qalbida cheksiz hayajon uyg‘otgan oliyjanob Mo‘min chol O‘rozqulning zug‘umi va baxtsiz qizining iltijosi tufayli o‘z qo‘li bilan bug‘u so‘yishga majbur bo‘ladi. Bu ko‘ngilsiz hodisaga tasodifan guvoh bo‘lib qolgan ko‘ngli toza bola olamdan, odamlardan butunlay bezadi. Ulardan uzoqroqqa ketgisi keladi.

...Chol bolaga qandaydir begonaday, g'ayritabiyy va yovvoyi qarash qildi. Uning yuzlari qizarib ketgandi, u nabirasini ko'rib yana ham qizarib ketdi. Qizillik nim pushti rangga kirdi va shu zahotiy oq boboning yuzlari oqara boshladi. Chol shoshilib o'rnidan turdi.

– Iye, senmi? – dedi u bo'g'iq ovoz bilan nabirasini bag'riga bosib. – Iye, senmi? – bundan boshqa biron so'z ayta olmadi. Undagi to'liqlanish bolaga o'tgandi.

– Tobingiz qochdimi, bobo? – tashvishlanib so'radi bola.

– Yo'q-yo'q, o'zim shunday, – ming'illadi Mo'min. – Sen bor, o'ynab kel. Men bu yerda o't yoqyapman, bu ham-madan...

U nabirasini deyarli itarib yuborib go'yo butun olamdan yuz o'girganday, yana o'choqqa qarab o'girilib oldi. U tiz cho'kkancha, go'yo faqat o't bilan bandday biron yoqqa burilib qaramasdi. Chol nabirasining tarvuzi qo'ltig'idan tushgancha, hovlida o'tin yorayotgan Seydahmad tomon yo'l olganini ham ko'rmadi.

Bola bobosiga nima bo'lganini, umuman hovlida nima bo'layotganini tushunmasdi. U saroyga yaqinlashgandagina yungi yerga qaratib yoyilgan teri ustiga yangi so'yilgan molning uyib qo'yilgan go'shtiga ko'zi tushdi. Teri chekkalaridan hamon xira qon tomchilari sizib tushayotgan edi. Sal nariroqda it ichak-chavoqlarni irillagancha silkilab tortardi.

Bola devor tagidagi shoxli bug'u kallasini ko'rib esankirab qoldi. Kesilgan kalla qop-qora qon tomchilarini oqizib changda yumalab yotardi. Bu – yo'lda yotgan egri-bugri daraxtni eslatardi. Kalla yonida tizzadan qirqilgan to'rtta tuy oq yotardi. Bola bu dahshatli manzarani ko'rib cho'chib ketdi. U o'z ko'zlariga ishonmasdi. Uning oldida Shoxdor ona bug'uning kallasi yotardi. U bu yerdan qochib ketishni istardi, lekin oyoqlari unga itoat etmasdi. U kalla-pocha qilingan oq bug'uning qarshisida turardi. Kechagina Shoxdor ona bug'u bo'lib yurgan, unga oqko'ngillik bilan suqlanib qaragan, xayolan gapirishgan va shoxida qo'ng'iroqcha taqilgan beshik keltirishni iltijo qilib so'ragani o'sha bug'u edi.

Bola ketmoqchi edi, lekin u toshdek qotib, bu voqeaning qanday va nega sodir bo'lganini tushuna olmay turardi. Go'sht bo'layotgan qora barvasta kishi uyulib turgan go'shtning ichidan buyrak oldi-da, uni pichoqning uchiga sanchib bolaga uzatdi.

– Ma, bola, kabob qil, lazzatli bo'ladi, – dedi u.

Bola qimirlamay turardi.

– Ol, – buyruq qildi O'rozqul.

Bola beixtiyor qo'lini cho'zdi, so'ng muzdek qo'lida Shoxdor ona bug'uning hali ham issig'i ketmagan yumshoq buyragini g'ijimlagancha ushlab turdi. Shu payt O'rozqul oq bug'uning kallasini shoxidan ushlab ko'tarib ko'rdi.

– Eh, og'irligini qarang-a, – u kallani tebratib, og'irligini salmoqlab ko'rdi, – bitta shoxning o'zi qancha keladi-ya. U kallani g'o'laga ko'ndalang qilib qo'ydi va boltani olib shoxini ajratishga kirishdi.

– Mana, shox! – ushlab turib gapirardi u, o'tkir boltani shoxlarning tubiga qadab. – Bu sening bobongga. – U bolaga qarab ko'z qisib qo'ydi. – O'lishi bilan bu shoxni uning qabriga qo'yamiz. Qani, endi kim bizga u kishini hurmat qilmaysizlar, deb ayta olar ekan. Yana nima kerak. Bunday shox uchun hatto bugunoq o'lsang arziydi! – deya mo'ljalga olarkan, O'rozqul xaxolab kuldi.

Shoxni osonlikcha olib bo'lmaydi. Uni olish juda qiyin edi. Mast O'rozqulning boltasi nishonga borib tegmadi, bu esa battar jahlini chiqardi. Kalla g'o'la ustidan dumalab ketdi. Shunda O'rozqul uni yerdayoq chopla boshladi. Kalla sirg'alib chiqib ketaverdi. O'rozqul bolta ko'targanicha uning orqasidan chopib yurdi.

Bola seskanib ketdi, har gal ketmoqchi bo'lib beixtiyor tisarilsa-da, bu yerdan ketishga o'zini majbur etolmasdi. Uni allaqanday dahshatli bir kuch tutib turganday edi, u o'z joyida turgancha shu narsaga ajablanar ediki, kiprik qoqmay baqrayib turgan Shoxdor ona bug'uning ko'zlari boltadan o'zini olib qochmasdi. Qo'rquvdan qisilib yumilmasdi. Kalla allaqachon loy va tuproqqa belangan bo'lsa ham, ko'z qorachig'i

musaffoligicha boqib turardi, aftidan, u o‘zini o‘limga mahkum etgan shu yorug‘ jahonga tilsiz, unsiz hayratda qolib hamon boqib turgandek edi. Bola mast-alast O‘rozqul bilan ko‘zi ko‘ziga tushib qolishidan cho‘chirdi. Shox hamon bo‘sh kelmasdi. O‘rozqul esa borgan sari tutaqib, goh boltaning tig‘i bilan, goh orqasi bilan kallaning duch kelgan joyiga urardi.

...O‘rozqul molxona orqasida qaysarlik bilan Shoxdor ona bug‘u kallasini tilkalashda davom etardi. Uning bu holati uzoq kutilgan qasosni bajo keltirgandek tuyulardi.

– Dabdala qilmasam otimni boshqa qo‘yaman. Mana senga! Mana senga! – shunday deb bolta bilan kallani urdi. Kalla chirsillab yorilib, mayda suyaklar har tomonga sochilib ketdi.

Boltaning tig‘i ko‘zga ko‘ndalang kelib tekkanda bola chinqirib yubordi. Ochilib qolgan ko‘z chanog‘idan qop-qora quyuq suyuqlik oqib tushdi. Ko‘z so‘ndi, barbod etildi...

– Men bundan zo‘rroq kallalarni ham maydalaganman! Bundan boshqa shoxlarni ham sug‘urib ola bilaman! – deb jazavasi tutib bo‘kirardi O‘rozqul gunohsiz kalladan nafratlangancha.

Nihoyat, kallaning peshona suyaklarini ham maydalashga muvaffaq bo‘ldi. U endi boltani tashlab kallani oyog‘i ostiga olib, shoxdan ikki qo‘llab ushlagancha vahshiyona kuch bilan buray boshladi va shoxlarni yulib oldi. Ular sug‘urilib olingan ildiz singari qarsillardi. Bu shoxlar bolaning iltimosiga ko‘ra, O‘rozqul bilan Bo‘key xolaga sehrli beshik keltirishi lozim bo‘lgan o‘sha Shoxdor ona bug‘uning shoxlari edi...

Bolaning ko‘ngli behuzur bo‘ldi. U burildi va qo‘lidagi buyrakni tushirib yuborib, sekingina nari ketdi. U yiqilib tushadigandek yoki bo‘lmasa odamlar ko‘zi oldida qayt qilib yuboradigandek juda qo‘rqdi. U oqarib, gezarib, manglaylari yopishqoq terga botgancha o‘choq yonidan o‘tib borarkan, o‘choqda lovullab o‘t yonib, qozondan burqirab qaynoq bug‘ ko‘tarilardi. Baxtsiz Mo‘min bobo bo‘lsa hamon avvalgidek yuzini o‘tga burib, hammasiga chap berib o‘tirardi.

Bola bobosini bezovta qilgisi kelmadi. U tezroq o'rniga yetib borishni va to'shakka boshi bilan burkanib yotishni istardi. Qani endi, hech narsani ko'rmasa, eshitmasa, unutsa.

U biroz o'ziga kelish uchun hovliga chiqdi. Hovlida hech kim yo'q, huvullab yotardi... O'ti o'chib qolgan o'choq yonida ichkilikning zo'ridan o'lar holatda yotgan Mo'min boboga ko'zi tushdi. Chol tuproqda o'sha Shoxdor ona bug'uning kesib tashlangan shoxlari yonida hushsiz yotardi. Bug'uning maydalangan kallasini it g'ajiyotgandi.

Bola bobosining ustiga engashgancha uning yelkasidan tortqiladi.

– Bobo, yuring, uyga ketamiz, uyga, – dedi u.

Chol javob bermadi, u hech nima eshitmadi, boshini ham ko'tara olmadi. Ha, u nima ham deya olardi.

– Qani, turing, bobo, uyga ketamiz, – dedi bola.

Kim bilsin, u o'zining bolalik aqli bilan bobosining Shoxdor ona bug'u haqidagi ertagi uchun bu yerda ta'zirini yeb yotganini, o'z erki bilan unga qasd qilmaganligini, uning o'zi bu haqda bolaga hamma vaqt nasihat qilib kelganligini, – ota-bobolar udumiga, o'z vijdoniga va vasiyatlariga zid borganligini, baxtiqaro qizini deb... nabirasini deb shu ishga qo'l urganligini fahmlay oldimikin yoki anglab yetmadimikin?..

Chol og'ir ahvolga tushib, g'am-alam o'tida yonib, bolaning ovozigga javob qilmasdan, go'yo o'lik singari yuzini yerga qilib yotardi. Bola bobosining yoniga cho'qqayib o'tirganicha uni qo'zg'atishga harakat qildi.

– Bobo, boshingizni ko'tarsangiz-chi, – dedi u. Bolaning yuzlari oqarib, bo'shashib ketgan edi. Qo'llari, lablari qaltirardi.

– Bobo, bu menman. Eshityapsizmi? – derdi u. – O'zimni juda yomon sezyapman, – deya yig'lardi. – Boshim og'riyapti, juda qattiq og'riyapti.

Chol ingrab qimirlay boshladi, biroq hamon o'ziga kelolmagan edi.

...Bola bobosini yonbosh bilan ag'darilib yotishga majbur etdi va nogahon mast holda yotgan cholning yuziga ko'zi tushib, seskanib ketdi. Bola shu daqiqada haligina

O‘rozqul bolta bilan maydalab tashlagan oq bug‘uning kallasini xayolidan o‘tkazdi va qo‘rquvdan o‘zini chetga oldi. Bobosidan nari ketar ekan dedi:

– Men baliqqa aylanaman, eshityapsizmi, bobo, suzib ketaman...

Chol hech qanday javob qaytarmadi.

Bola yurishda davom etdi. Daryoga tushib suv kecha boshladi.

Bolaning suvda baliq bo‘lib suzib yurganidan hali hech kimning xabari yo‘q edi.

Sen o‘z ertagingdagi baliq kabi suzarding, bo‘talog‘im. Bilasanmi, sen hech qachon baliqqa aylanib qololmaysan va Issiqko‘lgacha suzib ketolmaysan...



Savol va topshiriqlar:

1. «Oq kema» qissasi boshlanishida bolaning ikki ertagi bo‘lgani haqida gap boradi. Siz shu ertaklarning qaysilar ekanligini aniqlay oldingizmi?
2. Qissada bolaning ikki ertagi haqida gapira turib, «**Keyin birontasi ham qolmadi**» deyilgani sababini tushuntiring.
3. Bolaning o‘z «**tuya**», «**bo‘ri**», «**tank**», «**egar**»lariga munosabatiga qarab uning tabiati haqida fikr bildiring.
4. Chaqirtikanak, supurgio‘t va pechakgullarga munosabati bola tabiatining qaysi jihatlarini ko‘rsatadi deb o‘ylaysiz?
5. Bolaning xayolparastligi aks etgan o‘rinlarni qissa matnidan izlab toping. O‘zingizning bolaligingiz yoki ukalaringizning tabiati bilan uni solishtirib, so‘ng bolaga baho bering.
6. Bolaning bulutlarga qarab yotishni sevishi nimadan dalolat beradi deb o‘ylaysiz?
7. Boshqalardan yashirincha yig‘laganda pana qiladigan shiroljin o‘simligiga bolaning mehri nega tushgan deb o‘ylaysiz? Qissa qahramoni nega yashirincha yig‘laydi deb o‘ylaysiz, odatda, bolalar yig‘lashdan uyalishmaydi-ku?
8. Bolaning bobosi Mo‘min chol tabiati haqida nima deya olasiz? Uni nega hurmat qilishmaydi, u bilan nima uchun hisoblashishmaydi? Fikringizni asar matniga tayanib asoslang.

9. Adib Mo‘min cholni «...*kamdan kam uchraydigan baxtli odam edi*» deya tasvirlashining sababini tushuntirishga harakat qiling.
10. Bobosi portfel olib bergan bolaning baxtiyor holatini qanday tushuntirasiz?
11. Bolaning tengdoshlarsiz, yolg‘iz ekanligi sababini tushuntiring.
12. O‘rozqulning o‘z xotini Bo‘keyga bunchalik yomon munosabati sababini izohlashga urining.
13. Bolaning durbin va portfeli bilan suhbatlashuvini nima deb tushuntirish mumkin? Sizda ham qachonlardir shunday holat bo‘lganmidi?
14. Bolaning baliq bo‘lish va oq kemagacha suzib borish haqidagi orzusi nima uchun va qayerdan paydo bo‘ldi?
15. Birinchi ertakdagi voqealar qaysi faslda ro‘y berganligini asar matniga tayanib aniqlang.
16. Bolaning cho‘milayotgandagi holati tasvirlangan o‘rinlarni qayta o‘qing. O‘zingizda ham shunga o‘xshash holat bo‘lgan-bo‘lmaganligi haqida o‘ylab ko‘ring.
17. Bobosining Shoxdor ona bug‘u haqidagi ertagi bolaga ko‘rsatgan ta’sir ifoda qilingan o‘rinlarni toping va buning sabablarini tushuntirishga urining.
18. Asarning qadim qirg‘iz qabilasi yashagan zamon va makon tasviri berilgan betlarini takror o‘qing. Qabilalar o‘rtasida ayovsiz dushmanlikni keltirib chiqargan omillar haqida o‘z fikringizni ayting.
19. O‘rmondan qaytishganida yurtlarining vayron qilinganini, yaqinlarining o‘ldirilganliklarini ko‘rgan bolakaylarning holatini tasvirlashga urinib ko‘ring.
20. Mo‘min chol aytgan ertakdagi daryo va ko‘l nomlariga hamda qo‘shiqqa e’tibor qildingizmi?
21. Baymoq kampirning Enasoyga iltijosi sababini izohlang.
22. Shoxdor ona bug‘uning yetim bola va qizchaga ko‘rsatgan mehribonligining sababi nimada deb o‘ylaysiz? Fikringizni asar matniga tayanib asoslashga urining.
23. Ona bug‘uning yetimlarga qarata: «*Insonlar qanday yashashlari lozim bo‘lsa, shunday yashanglar*» tarzidagi nasihatini izohlang.
24. Shoxdor ona bug‘u avlodlarining buzilishi qaysi voqeadan boshlanganligini qissa matniga tayanib tushuntiring.

25. Qissadan O‘rozqul portreti tasvirlangan o‘rinlarni toping. Uning sirtqi ko‘rinishi va ichki dunyosi o‘rtasidagi munosabatga e‘tibor qiling.
26. Yangi so‘yilgan bug‘u buyragini uzatganlarida bola uni nima uchun olganligini tushuntira olasizmi?
27. Bug‘u boshini maydalayotgan O‘rozqulning boltasi jonivorning ko‘ziga kelib tekkanida bola nega chinqirib yuborganligini qissa matniga tayanib izohlang.
28. Bolaning ko‘ngli behuzur bo‘lib, ter bosib ketganligi sababini anglatning.
29. Bolaning katta odamlar o‘rtasida adolat, ezgulik, oliyjanoblik yo‘qligi borasida qat’iy xulosaga kelishiga qaysi voqea turtki bo‘ldi deb o‘ylaysiz?
30. Bolani o‘z ertagi qo‘yniga – baliq bo‘lib, uzoq Issiqko‘l tomon suzib ketishga undagan eng so‘nggi voqea nima edi?
31. Qissa qahramoni bo‘lmish bolaning tabiatini ochib beruvchi tasvirlarni daftaringizga yozib boring. Sizningcha, u qaysi jihatlar bilan boshqa bolalardan farq qiladi?
32. Siz o‘zingizni ham kuzating va tabiatingizga xos xususiyatlarni daftaringizga yozing. Taqqoslab ko‘ring-chi, siz bilan bola o‘rtasida qanday o‘xshashlik va farqli tomonlar bor? Ularni izohlashga urining.


RAMZIY OBRAZLAR

Ramz – (simvol) grekcha «symbolon» so‘zidan olingan bo‘lib, qadimgi greklarda maxfiy bir tashkilot a‘zolarining bir-birini tanib olishi uchun qo‘llanilgan shartli belgini anglatgan. Badiiy adabiyotda ramz keng foydalaniladigan tasvir usullaridan biri bo‘lib, aniq tasavvur etish qiyin bo‘lgan hodisa yoki tushunchalarni odamning ko‘z oldiga yaqqol keltiradigan narsalar orqali ifodalashni bildiradi. Misol uchun ayyorlikni ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydi. Lekin tulkining juda ayyor jonivor ekanligi ma’lum va uni ko‘rsa bo‘ladi. Shu bois badiiy adabiyotda tulki ayyorlik ramzi sifatida qabul etilgan. Burgut, arslon, ohu, bulbul, tuya va hokazo jonivorlarning timsollarini ham ramziy ma’noda qo‘llash mumkin.

«Oq kema» qissasida Shoxdor ona bug‘u ramziy obraz bo‘lib, u hech qachon tamomila yo‘qotib bo‘lmaydigan ezgulik, yaxshilik, oliyjanoblik, mehr-oqibat timsolidir. Ayni vaqtda, Ona bug‘uni xalq ramzi deyish ham mumkin. Qissada, shuningdek, baliq va oq kema ham o‘z o‘rinlarida ramziy ma’no tashiydi. Chunonchi, bola uchun baliq erk va qudrat ramzi. Chunki u suvda juda uzoq suza oladi. Yana ko‘zini ham yummaydi, nafasi ham qaytmaydi. Oq kema – to‘kislik, mehr-u oqibat, diydor ramzi. Bolaning nazarida, oq kemaga yetib olsa, otasini topadi. Badiiy asarlarda ba’zan narsalar o‘zlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri tegishli bo‘lmaydigan ma’noga ega tarzda tasvirlanishi ham mumkin. Ana shunday ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan timsollar ramziy obrazlar hisoblanadi.

Qissa qahramoni hayotda mehr ko‘rmagan, uning bobosidan boshqa suyanadigan odami, yaxshilik qilish mumkin bo‘lgan kishisi yo‘q. Shu bois u hayotda ko‘rmaganlarini xayolda yaratib, izlaganlarini ramzlardan topishga urinadi. U bir bola sifatida ota-onasining mehrini qo‘msaydi, ularga intiladi. Oq kemada otamni ko‘raman deb o‘ylagani sabab uni diydorning, oqibatning ramzi deb qaraydi. Aynan shunday ramziy ma’no bug‘u obraziga ham yuklangan.

O'tmishdan sadolar





RAVSHAN

(Dostondan parcha)

Burungi o'tgan zamonda, eli-yurti omonda, Buxorodan tumanda¹, Taka-Yovmit deganda, Yovmit elida, Chambilning belida Go'ro'g'libek davrini surib, dushmanning dodini berib o'tdi.

Qirq yigitni yig'dirib, silovsin to'n kiydirib, kuniga kechkin² sergo'sht qilib, sermoy palovga to'ydirib, semiz qo'ydan so'ydirib, ko'pkarisin choptirib, olomonga ola sarpo yoptirib, el-u xalqning ko'nglini toptirib, Yunus bilan Misqol parini Ko'hi Qofdan, Eram bog'idan keltirib, umr o'tkazar edi.

Go'ro'g'libekning farzandi bo'lmadi. Hasanxonni Vayangandan, Avazxonni Xunxordan olib kelib, ikkovini ulim deb, iskasam³ gulim deb, jon-u dilim deb, tobutimning chegasi, el-u yurtimning egasi, o'lsam, merosxo'rim deb, ikkovi bilan ko'nglini xush qilib, shularga bino qo'yib, «bolam-bo'tam» deb parvarish qilar edi. Avazxonni Og'a Yunus pari «o'g'lim» deb yoqasidan solib, etagidan olib edi, Hasanxonni Misqol

¹ *Tumanda* – tubanda, quyida.

² *Kechkisin* – kechqurun, kechki ovqat.

³ *Iskamoq* – hidlamoq.

pari yoqasidan solib, etagidan olib edi. Parilar ikkoviga bino qo'yib, bolam deb suyib, har qaysisi o'z uylarida parvarish aylab tarbiyat qilar edi.

Ikkovini katta qildi. Avazxon bilan Hasanxon ham sher haybatli, yo'lbars kelbatli, qoplon yurakli, arslon bilakli yigitlar bo'ldi. Go'ro'g'libekning ham o'g'illaridan ko'ngli to'ldi. Hasanxon Arzrumdan xon Dallini olib qochib, qirq kun shohona to'ylar berib, o'z rasm-rusumlari bilan oldi. Avazxonga Gulqiz degan bir barno suluvni olib berib, uyini tushirib berib, davrini surib yuraverdi.

Hasanxonga xon Dallidan bir o'g'il paydo bo'ldi. Go'ro'g'libek to'ylar qilib, otini Ravshanbek qo'ydi.

Avazxon bir-ikki yildan so'ng qizli bo'ldi. Go'ro'g'libek quvonib, suyunib, munga ham to'ylar qilib, otini Gulanor qo'ydi. Enagalar parvarish qilib boqib, bachalarni¹ tarbiya qilib katta qildi. Bachalar birdan ikkiga kirdi, ota-ena deguday bo'ldi, osh-u non bersa, yeguday bo'ldi, u yoq-bu yoqqa borib keguday bo'ldi. Ikkidan uchga, to'rtga kirdi, ikkovini bir maktabga berdi. Ikkovi ham o'qib mulla bo'ldi.

Kunlardan bir kun Go'ro'g'libek parilar bilan o'tirib edi. Ravshanbek ayni o'n besh-o'n olti yoshida, zarli qalpoq² boshida, yuzi yarqirab, eshikdan salom berib bordi. Go'ro'g'libek Ravshanbekni ko'rib, dimog'i chog' bo'lib, parilarga qarab aytdi: «Ho' parilar, mening ko'nglimga bir gap keldi, sizlarga aytayin, sizlar nima deysizlar. Mening o'zimga shu ishim juda xush keldi, sizlarga ham xush kelar. Men Avazxon bilan Hasanxonni quda qilayin, Gulanorjonni Ravshanjonga fотиha qilayin, o'zim sovchi bo'layin, bugun borayin». Unda parilar: «Juda yaxshi bo'ladi. Bizlarga ham bu so'zingiz yoqdi, yaxshi aytdingiz bu gapdi», – deyishib, quvonishib qoldi.

Gulanor ko'p suluv: yaxshi suratli, shirin so'zli, qurallay ko'zli, uzun bo'yli, keng ko'krakli, xush xayol, zehni tez, serfahm qiz edi. Ravshanbek uning bilan maktab-

¹ *Bachalar* – bolalar, bolachalar.

² *Qalpoq* – do'ppi.

da birga o'qiganda, ko'zining ostiga bosib qo'yar edi. Go'ro'g'libekning bu so'zi Ravshanbekka ham yoqib qoldi. Ichida: «Qizini bersa yaxshi, bu qizini bermas, bobomning so'zini sindirar», – deb qo'ydi. Go'ro'g'libek parilar bilan maslahat qilib, Avazxon o'g'lining qoshiga sovchi bo'lib boraverdi. Shunda Ravshanbek qoralab¹, bobosining orqasidan boraverdi.

...Go'ro'g'libek bol Avazga² qarab, murtini³ burab, bir so'z aytayotir:

...Otang keldi sening so'zing olmoqqa,
Ko'nglidagi sirni bayon qilmoqqa.
Shul sababli mehmon keldim uyingga:
Hasanman o'zingni quda qilmoqqa.

Yetti yoshda olib keldim o'zingni,
Qo'limda ko'p yeding osh-u tuzimni,
Otang keldi, bolam, o'zingga sovchi,
Ravshanga ber Gulanorday qizingni!

Otangning, farzandim, tilin olinglar⁴,
Hasanman o'zingni quda qilayin,
Ravshanga ber Gulanorday qizingni,
Yovmitning eliga to'ylar berayin!

Unda Avazxonning achchig'i keldi. Polvonning qahri kelib, ajdarday to'lg'anib, ko'zlari olovday yonib, Go'ro'g'libek otasiga qarab... bir so'z aytayotir:

Yigitlar ichida menman o'dag'a⁵,
Bedovga yarashar oltindan to'g'a,
Ravshanga bermayman Gulanorjonni,
Qizim tugul, kuchugimdan sadag'a.

¹ *Qoralab* – mo'ljallab, chamalab, yashirinib.

² *Bol Avaz* – Avazning «asalday shirin» ma'nosini bildiruvchi laqabi.

³ *Murt* – mo'ylov.

⁴ *Tilin olmoq* – gapiga kirmoq.

⁵ *O'dag'a* – «yetakchi», «sardor» ma'nosidagi «o't og'a» so'zining buzilgani.

Ota, javobingni berdim, jo'nagin!
Mundan keyin sovchi bo'lib kemagin!
Har kimni tengiga qo'sh-da, vallamat,
Menga munday tuzsiz so'zni demagin!

Eshitib ol, ota, aytgan so'zimni,
O'zim o'lmay, g'anim bosmas izimni,
Bermayman Ravshanga Gulnor qizimni!
Men Hasanga teng qilmayman o'zimni!

...Ravshanbek darchaning orqasida turib edi. Bu so'zlarni eshitib, bir umrda sovuq shamol yemagan¹ bola emasmi, sovuq so'z tugul, bolaning o'mganidan² bir jazoyil³ teshib o'tgandan yomon bo'ldi. Ravshanxon tovushining boricha «vo» deb baqirib, yig'lab qaytaverdi.

Bola shu yig'lagancha ko'chaning yuzi bilan yig'lab bo'rayotir edi. Ravshanbekning yig'lagan tovushi Og'a Yunus parining qulog'iga yetdi. Pari aytdi: «Qanday bola ekan ko'chada yig'lagan?» Shunda qarasa, o'zining ko'rar ko'zi, so'zlar so'zi, o'z joniga teng ko'rib yurgan Ravshanbek bolasi yig'lab kelayotir. Yugurib borib, qo'ltig'iga qisib, ko'zining yoshini betidan artib: «Bek Ravshan bolam, nega yig'laysan?» – deb so'rab turdi. Shunda Ravshanbek dim⁴ o'pkasini bosolmaydi. – Ha, bachchag'ar Avaz, deb aslo turolmaydi.

Og'a Yunus pari: «Ey bolam, Avazni nega urishasan. Menga aytgin, anglab, bilib olayin», – desa, bola har o'ksiydi, gapirolmaydi.

– E ena! Avazing: «Qizimni bermayman, mening tengim emas», – deb bizni quzg'un, o'zini lochin tutdi. Bachchag'ar Avaz bizdan ortiq bo'lib ketibdi. Shu Avazdan kam bo'lsam, cho'llarga boshimni olib ketaman. Qo'yaver, ena, qo'yaver, endi Chambilda turmayman, shu Chambilni Avazga berdim, –

¹ *Sovuq shamol yemagan* – «shashti qaytmagan», «og'ir gap eshitmagan» ma'nosida.

² *O'mgan* – ko'krak, to'sh.

³ *Jazoyil* – nayza.

⁴ *Dim* – aslo, hech.

deb bola dim o'pkasini bosolmaydi. Shunda Yunus pari kulib, Ravshanbekning so'zlariga hayron bo'lib:

– E bolam, Ravshanjon, muddaong Avazning qizi – Gul-anor bo'lsa, aslo g'am yema! «Qizi borning nozi bor» degan, shunday-shunday deydi-da. Unga sen xafa bo'lma! Mana men, men borayin otangning orqasidan; uning qizda nimasi bor ekan? Tortib olib bersam ham Gulanorni senga olib beraman... Qani, men borayin, «bermayman», degan Avazni ko'rayin, shu Avazmi qizini bermaydigan, – deb Og'a Yunus pari bormoqchi bo'laverdi. Shunday qarasa, Ravshanbek juda otashin. Shunda pari ko'nglida: «Bu bola achchig'i bilan bir yoqqa ketib qolmasin», deb xosiyatli uzugini ovunib o'tirsin deb, qo'lidan olib, Ravshanbekka berdi.

– E Ravshanbek, shu uzukka qarab o'tir, men borib, Avazning qizi – Gulanorjonni senga fотиha qilib, to'y taraddudini qilib darrov kelaman, – deb pari ham turib ketdi.

Endi Ravshanbek ko'zining yoshini artib, shunday nigin-ga¹ qarasa, niginning yuzida xati bor, yer yuzida jami parini bandiga² olgan bandi³ bor, olam mamlakatiga bermaydigan xosiyati bor; har yerda suluv barno qiz bo'lsa, oti bor; ba'zi-ba'zi juda nozik, uzik⁴ suluvning ham oti bor, ham surati bor, shu uzukning bir chetida Qoraxon podshoning qizi – Zulxumor degan bir qizning oti bor ham surati bor.

Ana endi bola buni ko'rib, Zulxumorga g'oyibona ko'ngil qo'yib, ishqivoz bo'lib, o'ziga-o'zi aytdi: «Kel-e, Avazning qizi bo'lmasa, Qoraxonning qizi-da! Avaz qizini bermadi deb, mening yig'lab yurganim qanday», – deb g'ayrati kelib, otasining Jiyrongqush degan oti bor edi, urushga minadigan, shu Jiyrongqushning oldiga keldi.

Jiyrongqush ham shunday ot: to'rt oyog'i teng tushgan: biqini yoziq keng tushgan, qarchig'ayning havosi tekkan.

Shu otni yetaklab olib chiqib, yakkamixga boylab, otni egarlab... turipti:

¹ *Nigin* – uzuk.

² *Bandiga olgan* – asirga olgan.

³ *Bandi* – duoli yozuv, tilsim.

⁴ *Uzik* – yetuk, kamchiliksiz.

...Bekning oti po‘lat suvluq chaynadi,
Qizil kiyib, gulday bo‘lib jaynadi¹.
Ilon tilli, yashin turli xanjarni
Obro‘ ber deb, xipcha belga boyladi.
Tomosha qing xon Ravshanday polvonni,
Shirvonning yurtiga talab ayladi².

Tomosha qing Chambilning shunqorini,
Mindi yigit Jiyronqushday otini,
Yig‘latib otasi – Hasan mardini,
Qon yig‘latib xon Dalliday suluvni,
Ravshan izlar bo‘ldi Shirvon yurtini.

Ravshanbek otini hovlidan chiqarib, ota-enasidan g‘oyi-bona rozi bo‘lib, ko‘chaning yuzi bilan, odamlarning izi bilan gulday jaynab, suqsurday bo‘ylab, parvoz aylab, taraqqos boylab³, ostida Jiyronqush oti har usulda o‘ynab... borayotir.

Hasanxon darvozabon bilan do‘st edi, doim darvozabonning oldida o‘tirar edi, ikkovi... birov-birovining so‘zini tashlamas edi. Hasanxon jo‘rasi bilan gaplashib o‘tirsa, Ravshanxon otasining ustiga borib qoldi...

Unda Hasanxon polvon yolg‘iz bolasi, ko‘zining oqi bilan qorasi – Ravshanxonni tanib, ...Jiyronqushning jilovidan ushlab, ko‘zini yoshlab, «...hay, attang», – deb barmog‘ini tishlab, yolg‘iz farzandiga qarab bir so‘z dedi:

...To‘rasan, Ravshanjon, Chambil elingga,
Keskir isfihonni⁴ boylab belingga,
Qo‘sh po‘pakli⁵ nayza ushlab qo‘lingga,
Otang qurbon bo‘lsin shirin tilingga,
Yovga ajdahorim, senga yo‘l bo‘lsin?

Sen bo‘lmasang, otang holi ne kechar?
Sensiz menga falak kafanto‘n bichar,

¹ *Jaynadi* – yashnadi.

² *Talab ayladi* – xohladi, ixtiyor etdi, bormoqchi bo‘ldi.

³ *Taraqqos boylamoq* – uchadigan qushday bo‘lmoq.

⁴ *Isfihon* – Isfihon shahrida yasalgan keskir qilich.

⁵ *Po‘pakli* – popukli.

Dunyoning bolini zahar deb ichar,
Qanday kuni kechar¹ sho‘r enang nochor,
Harna yo‘g‘-u borim, senga yo‘l bo‘lsin?

Menga aytgin ko‘nglingdagi o‘yingni,
Aytgin, bolam, boradigan joyingni,
Men bilayin talab qilgan elingni,
Ayt siringni, qaytarmayman ra‘yingni,
E, yolg‘iz shunqorim, senga yo‘l bo‘lsin?

Ravshanxonni otasining savlati bosib, hayosi g‘olib kelib,
nima derini bilmay o‘ylanib turib edi, axiri bo‘lmadi. Otasiga
gapirmay o‘tsa, u ham bo‘lmaydi, gapiray desa, uyaladi.

Ana endi Ravshan polvon otasining so‘zlariga javob
berib, ko‘ngli buzilib, yurak-bag‘ri ezilib, ko‘zining yoshi
tizilib, boshidan o‘tgan sir-savdosini otasiga aytib, o‘zidan
o‘tganidan xabardor qilib, bir so‘z aytayotir:

Jonim ota, aytolmayman uyalib,
Bolang ketar endi boshini olib.
Jon ota, alamim ko‘pdir so‘rmagin,
Bek Ravshan jo‘nadi safarga tolib².

Qaladan³ qalampir yuklar qalachi⁴,
Har xil isli bo‘lar tog‘ning og‘ochi.
Otajon, alamim ko‘pdir, so‘rmagin,
Vallamat⁵ boripti Avazga sovchi.

Qabul qilmay vallamatning so‘zini,
Nomard Avaz bermas bo‘pti qizini,
O‘tib ketdi Avazxonning so‘zlari,
Bizni quzg‘un, lochin qipti o‘zini.

Maydon-maydon Jiyronimni yelmasam,
Dushman bo‘lsa, bo‘lak-bo‘lak qilmasam,

¹ *Kuni kechar* – kuni o‘tar.

² *Tolib* – talabgor.

³ *Qala* – shahar.

⁴ *Qalachi* – shaharlik.

⁵ *Vallamat* – bu yerda Go‘ro‘g‘li ko‘zda tutilmoqda.

Avazning qizidan yaxshini olmasam,
Jonim otam, Chambilbelda turmasman.

Chambil deydi unib-o'sgan elingni,
Javob ber, otajon, ko'tar qo'lingni!¹
Talab qildim, Shirvon elga, otajon!
Javob bersang, bermasang ham ketaman!

Javob ber, otajon, yorga boraman,
Yor deyman-ku, nomus-orga boraman.
Ota sendan oq fotiha tilayman,
Shirvon elda Zulxumorga boraman.

Hasanxon bu so'zlarni eshitib, ...«Hay, attang», – deb barmog'ini tishlab, ko'zini yoshlab, o'g'liga ne derini bilmay qoldi. Shirvonning eli uch oylik yo'l. Ikki ora suvsiz cho'l, u yog'i dushman el. «Yolg'iz bola yovdan yomon», uzoqroq bozorga yuborgisi kelmaydi. ...Hasanxon bechora o'g'lining jamoliga, novdaday o'sgan kamoliga ko'zi to'ymay, ...ichi g'amga to'lib, rangi gulday so'lib, yolg'iz bolasidan ayrilib qololmay, oh tortib:

– E Ravshanjon! Axir mening uyimni motamxona qilib, meni tashlab ketar ekansan-da, – deb turib, asli mard emasmi, «Kel tavakkalda», – deb ...o'zi dildorlik berib ...o'g'liga qarab necha yerdan timsol keltirib, nasihat qilib so'z aytayotir:

Paydo bo'lding ikki gavhar donadan,
Parvoz qilib uchding manzil-xonadan.
Avval aytgan nasihatim, Ravshanjon,
Kechsang yomon bo'lar ota-onadan!

Eshitib ol, otang sho'rning arzini,
Elida sarg'aytding gulday tarzini.
Bir qiz uchun unutmagin bizlarni,
Unutma otang ham onang qarzini!

O'zingdan pastlarman har yo'lga ketma!
Bolam, aytgan nasihatim unutma!

¹ «*Duo qil*» ma'nosida.

Oldingdan kim chiqsa, besalom o'tma!
Bir g'aribni ko'rsang, zinhor og'ritma!

Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,
Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot!
Nasihatim yod qilib ol, yolg'izim,
Yolg'iz yursa, chang chiqarmas yaxshi ot.

Hasanxon polvon mard emasmi, bolasiga qarab, oq foti-
hani betiga tortib: – Bor, bolam, manglayingni xudo ochsin! –
deb qolaverdi. Ravshanbek otasidan duo olib, otining boshini
solib, yo'lga ravona bo'lib ketaverdi.

* * *

*Ravshan... tog'-u toshlar, cho'l-u biyobonlarni bosib o'tib,
Shirvonga keladi. Bu yerda bir kampirga o'g'il bo'lib yurib,
kunlarning birida shaharni aylanar ekan, bozorning ustidan
chiqib qoladi. Zulxumorning qalpoq tikib, har bozor kuni
yigitlarga sotishni rasm qilgani, bozordagi ko'shkning ustida
yuzini ochib o'tirishi, yigitlar ko'rmanasiga bir lagan tilla
hadya qilib, uni tomosha qilishlarini bilib oladi.*

* * *

...Ravshanbek bozorning ustidan kelib qolib, «Yorim
Zulxumorjonni ko'raman», – deb, dimog'i chog' bo'lib, vaqti
xush bo'lib, bozordagi odamlarga qarab, bir so'z aytib turibdi:

Uzoqdan kelayotibman,
G'amning loyiga botibman,
E yoronlar, birodarlar, birodarlar!
Men yorimni yo'qotibman.
E yoronlar, birodarlar, xaloyiq!
Men yorimdan adashibman...

Elda davron surgan bormi?
O'z davriman yurgan bormi?
Bizning yordan ko'rgan bormi?
Yor daragin bergan bormi?
Toblab zulfin o'rgan bormi?

Yorman suhbat qurgan bormi?
Yoki birga yurgan bormi?
Bog‘idan gul tergan bormi?
Bizning yordan ko‘rgan bormi?
Yor daragin bergan bormi?..

Shunday asov toyday yorni
Qo‘lga keltirsam deb keldim.
Oshiqligim shu barnoga
Endi bildirsam deb keldim.
Eldan o‘zgan chin suluvni
Ishqib¹ ildirsam deb keldim.
Aytganima ko‘nmasa-chi,
Aldab ko‘ndirsam deb keldim.
Bizning yordan ko‘rgan bormi?
Yor daragin bergan bormi?

...Past-pastgina past ko‘chalar,
Holin bilmas bir nechalar,
Bedov mingan boyvachchalar,
Boyvachchalar, bekvachchalar,
Qalpoq bozori qaysidi(r)?

Bozor kelgan bozorchilar,
Yo‘lni kezgan guzarchilar²
Tinmay elni kezarchilar,
Jo‘n³ savdoni buzarchilar⁴,
Qalpoq bozori qaysidi(r)?

Mardikorlik – ish bozori,
Cho‘yan bozor, mis bozori,
Manov pishiq g‘isht bozori,
Qassob bozor – go‘sht bozori,
Qalpoq bozori qaysidi(r)?

¹ *Ishqib* – ishqilib.

² *Guzarchilar* – o‘tkinchilar.

³ *Jo‘n* – to‘g‘ri, jo‘n.

⁴ *Buzarchi* – buzuvchi.

Changib yotgan un bozori,
Qo‘qib¹ yotgan jun bozori,
Anov mursak², to‘n bozori,
Pichoq bozor, qin bozori,
Qalpoq bozori qaysidi(r)?

Anovi qovun bozori,
Baqqollik, sovun bozori,
Salloh³ sotib kalla-pocha,
Qassobga tovun⁴ bozori,
Qalpoq bozori qaysidi(r)?

Chetda turgan qo‘y bozori,
Yilqi bozor, toy bozori,
Qurt bilan, sarimoy bozori,
Qog‘ozdagi choy bozori,
Qalpoq bozori qaysidi(r)?

Bo‘z bilan alak⁵ bozori,
Attorda elak bozori,
Rang, bo‘yov, lok bozori,
Paranji, jelak⁶ bozori,
Qalpoq bozori qaysidi(r)?

Bug‘doy ham arpa bozori,
Paxtali ko‘rpa bozori,
Qo‘y teri surpa bozori,
Sersavdo turpa⁷ bozori
Qalpoq bozori qaysidi(r)?

¹ *Qo‘qimoq* – ifloslanmoq, tartibsizlik.

² *Mursak* – yengsiz paxtalik kamzul.

³ *Salloh* – qassob.

⁴ *Tovun* – tegishli, qarashli, tobe.

⁵ *Alak* – bo‘zning turi, olacha.

⁶ *Jelak* – ayollarning yenglari bir-biriga chatilgan yopinchig‘i.

⁷ *Turpa* – turfa, har xil.

Echki ham uloq bozori,
Telpak ham tumoq¹ bozori,
Kavob, qovurdoq bozori,
Nasya emas, naq bozori,
Qalpoq bozori qaysidi(r)?
Qalpoq bozori qaysidi(r)?

Ravshanbek «qalpoq bozori qayerda», – deb baqirib bo-rayotir edi. Shu yerda bir nashavand turib edi, kayfi uchib ket-di. Ravshanbekka qarab aytdi: «Ey o‘zbek! Muncha baqira-san, kayf degan narsadan qolmadi-ku! Sen o‘zing burun ham hech bozorga boribmiding, ilgari bozorni ko‘ribmiding? Anov changib yotgan un bozori, narigi qo‘qib yotgan jun bozori, hu anav, katta do‘kon – to‘n bozori, narigi turgan – pichoq bo-zori bilan qin bozori, undan o‘tding – qalpoq bozori-da, yurtni buzding-ku?!» – deyotir.

Ravshanxon bozorni oralab o‘tdi, qalpoq bozoriga yetdi. Qarasa, qirq zinalik ko‘shkning ustida Zulxumor oyim kaniz-lari bilan qalpoq sotib turibdi. Zulxumor betidan niqobini olib, ko‘p kanizlar o‘rtaga olib turibdi. Ravshanbek Zulxu-morning jamolini, navdaraxt² kamolini ko‘rib, tomosha qildi. Ravshanbek qarasa, Zulxumorning kamoli, oyday jamoli, oq yuzida xoli, yangi to‘lgan oyday ikki qoshi hiloli. Ravshan-bek zehnini qo‘yib qarasa, yasangan hurday, tishlari durday, ko‘zlari yulduzday, qoshlari qunduzday, lablari qirmizday, og‘izlari o‘ymoqday, lablari qaymoqday, ikki yuzi oyday, tarlon-qarchig‘ay uchadigan qushday, muhrlangan qog‘ozday yalt-yult etib o‘tiribdi. Zulxumoroyning bu yog‘ida to‘qson besh, bu yog‘ida to‘qson besh – o‘n kam ikki yuz kokili bor, bir yog‘ini tilla suvga botirgan, bir yog‘ini kumush suvga botirgan, tong shamolida qotirgan. Jamoli chillaning qoriday tingjirab³, yaltirab o‘tirgan.

Ana Zulxumorning ko‘zi javdirab, zulfi shovdirab, zulfi-ning shu’lasi yuziga ursa, yarq-yurq etib, betining shu’lasi

¹ *Tumoq* – bo‘yinni ham berkitadigan telpak. Ko‘proq tulki terisidan tikiladi.

² *Navdaraxt* – novdaday, yosh daraxtday tik qomatli.

³ *Tingjiramoq* – yaltiramoq, ko‘zni olmoq.

zulfiga ursa, yashin tushganday bo‘lib o‘tiribdi. Ravshanbek qarasa, musicha, so‘pito‘rg‘ay, g‘azalay, simcha qushlar Zulxumorning jamoli jilvasiga chidamay, baland quyilib kelib, egniga, kiptiga¹ tegib-tegib, uchib borayotipti. Ravshanbek Zulxumorni bu sha‘n-u shavkatda ko‘rib, yuz jon-u dil bilan ishqivoz bo‘lib, yuz jon-u dil bilan xaridor bo‘lib, qarab qoldi...

Ravshanbek masti beixtiyor bo‘lib, ikki qo‘lini ko‘tarib, bulg‘ab², oyoqni uzangiga tirab, balandga qarab baqirib, qizlarni chaqirib bir so‘z aytadi:

Kuygan alvon-alvon so‘zlar,
Ayrilgan bir-birini izlar.
Ko‘shkida o‘tirgan qizlar,
Baring birday botamizlar³,
Turinglar, Chambil ketamiz,
Juringlar, Chambil ketamiz!

Shirvon elning barnolari,
Suluvlarning podsholari,
Yigitlarning dilxolari,
Yuzlari mehr-u mohlari⁴,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz!..

Zulfin toblab o‘rgan qizlar,
Elda davron surgan qizlar,
Kaptarday bo‘b yurgan qizlar,
Qalpoq sotib turgan qizlar,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz!

¹ *Kipt* – kift, yelka.

² *Bulg‘ab* – silkitmoq, imlamoq, undamoq.

³ *Botamiz* – tamizli, mazali.

⁴ *Mehr-u moh* – quyosh-u oy.

...Unda hamma qizlar hayron qolib kulayotir. «Hu-hu», – deyishib qarayotir. «Nega unday qilayotir?», – deb bir-biridan so‘rayotir... Ravshanbek shu yerda qip-qizil tentakka chiqib qoldi... Bir pilla¹ Ravshanbek hushiga kelib qarasa, qorong‘i bo‘lib qolibdi, bozor tarqab ketibdi, qizlar tushib ketibdi. Ravshanbekning o‘zi qolibdi. Hech kim yo‘q... U yoq-bu yoqqa qarab, qizlarning qayoqqa ketganini bilmay, bir dardi ming bo‘lib, ichi g‘amga to‘lib... ne pillalarda uyga keldi...

Enasi Ravshanbekning joyini solib berib, uxlagali joyiga o‘tib yotdi. Bolaning uyqusi qayoqdan kelsin, ilon, chayon chaqqanday Zulxumorning ishqiy kuydirib borayotipti. Uh deydi bo‘lmaydi, uyqu kelmaydi... Bolaning ko‘ziga dalaning shu‘lasi baland ko‘rindi. Tomga chiqib qarasa, katta yo‘l bilan boyagi ko‘shkda ko‘ringan qizlar, qancha kanizlar kelayotir... Bularning orqasidan boyagi ko‘shkda ko‘ringan xossaki² kanizlar bilan Zulxumoroyim o‘tib borayotipti.

...Ravshanbek tomdan o‘zini tashlab ketdi. Kampir: «Ha, bolasi tushmagur, qayt-chi-qayt!» – deb qichqira-qichqira qoldi. Ravshanbek piyoda yo‘rtib³, ko‘chaning yuzi bilan, qizlarning izi bilan urib yugurib, qizlarni izlab keta berdi...

Bir qancha yo‘l yurib edi, oldidan chiqdi katta bir bog‘, bir yog‘i chorbog‘, juda katta-kalondimog‘, ko‘rganlar farog‘, shunday joyga borib qoldi. Qarasa, ko‘p qizlar, ancha sarvinozlar, beadam kanizlar, hay-haylashib, o‘n – bir, besh – bir, to‘p-to‘p bo‘lib, bir xili oz, bir xili ko‘p bo‘lib, yuribdi sayil-bog‘ qilib.

Ravshanbek bildi, kechagi qizlar shu yerga kelgan ekan... Ravshanbek astagina pisib borib, gulning ichiga yashirindi... Bog‘da bitta ham erkak yo‘q. Qizlar o‘ynashib, qizg‘aldoqday yashnashib... bir xillari bir-birlarining bo‘yniga qo‘lini tashlashib yuribdi... Qizlar bir bazmlar, tapir-tupur o‘yinlar qilayotir, qizig‘i keyin bo‘layotir...

¹ *Pilla* – palla, vaqt.

² *Xossaki* – maxsus, alohida, xos.

³ *Yo‘rtib* – lo‘killab.

Shu asnoda bir to'p qizlar o'ynashib-kulishib, gul terishib-talashib, yashirinib yotgan Ravshanning ustidan chiqib qolishadi. Begona yigitni ko'rgan qizlar dod-voy solib, Zulxumorga xabar berishadi. Zulxumor yigitning kim, qayerlik ekani, nimaga kelganini so'rab, ko'rmanasini olib kelishga Oqqiz degan kanizini jo'natadi. Ravshan tillasi yo'qligi uchun momosi Yunus pari bergan sehrli uzukni ko'rmana sifatida Zulxumorga yuboradi. Qiz uzukni tomosha qilayotib, unda o'z ismi va suratini ko'radi. Uzuk sehrli ekanini bilgach, bunday uzuk har kimda ham bo'lavermasligini o'ylab, yigitni huzuriga olib kelishlarini buyuradi.

Qizlar Ravshanni olib kelishgach, Zulxumor, avvalo, uzuk ko'zidagi yozuvni taqdirning bitigi deb bilganidan, ikkinchidan, yigitning chin oshiq ekanini sezib, yoqtirib qolganidan uni qabul qiladi. Bir necha kunni Ravshanbek Zulxumor bilan shod-xurram o'tkazdi. Ravshanga ko'ngli ketgan, lekin e'tiborini qozona olmagan hasadgo'y Oqqiz Zulxumorning Ravshan bilan yashayotganini onasiga aytib beradi. Onasi bu gapni Qoraxonga yetkazadi. Ravshanni bandi qiladilar. Podsho uni osishga buyuradi. Shunda Shirvon kattalari: «Yigitni o'ldirishga shoshmaslik kerak, yosh, aqlli va botir yigit ekan, uni qirq kun zindonga tashlasak, so'ng chiqarib dinimizga kirishini so'rasak, ko'nsa, sizga kuyov qilsak, ko'nmasa, osaverasiz», – deb maslahat berishadi. Bu gap podshoga ma'qul kelib, Ravshan zindonga tashlanadi. Zulxumor kanizlari bilan bir hovliga qamalib, besh yuz sarboz qorovul qo'yiladi. Qiz Ravshan bilan yashirincha maslahatlashib, uning ota-onasiga xat yozadi.

Zulxumor oyim o'z qo'li bilan bir xatni bitdi: «Hasan mardning o'g'li, xon Dallining jon-u dili, oti bek Ravshan, Shirvon mamlakatiga kelib bandi bo'ldi. Qirq kun muhlat qilib, zindonga soldi. Shu qirq kunning o'n to'qqiz kuni o'tganda shu xat bo'ldi, namozshomda bitildi. Tong otmay, Chambilbelga to'ramning eliga yetadi. ...Ravshanning mu-rabbiylari bo'lsa, kelsa, ayirib olsa». Xatni mahkam qildi, o'rab berkitib, bir narsa zarar qilmasday, yomg'ir bo'lsa o'chmasday qildi. Shu xatni mayna qushning bo'yniga mahkam boylab, tushib qolmasday qilib, maynaga necha bir so'zlarni tayin qilib, mayna jonivor ham oqshom uchmoqqa taraddud qilayotir.

Beklar minar bedov otning sarasin,
Yaxshi tulpor uzoq yo'lga yarasin.
Qichay berdi jonvor mayna g'ayratman,
Sahar vaqti oldi Chambil qorasin.

Uchmoqdan maynada armon qolmadi,
Biror yerda mayna damin olmadi.
Borib qo'ndi bir hovlining ustiga
Har paridan chakillab ter tomadi.

Sahar vaqti xon Dalli yolg'iz bolasi, ko'zining oq-u qorasi ...Ravshan bolasini sog'inib, dalaga chiqib bora turib: «Boy Ravshan!» – dedi. Buni jonivor mayna eshitib, shul ayol Ravshanbekning enasi ekanligini bilib, bir qaqirlab, qattiq sayradi. Buni xon Dalli eshitib, maynaga qarab, bolasini so'rab, bir so'z deb turi:

Sahar vaqti, mayna gulday jaynading,
Osoyishta tanda jonim qiynading,
Hayron qoldim dovushingdan, maynajon,
Ne sababdan, mayna, bunday sayrading?

Sen bunday sayraysan, jonim olasan,
Meni endi har xayolga solasan,
Ne sababdan, mayna, bunday sayrading?
Joningni achitib dovush qilasan.

...Bulbul oshna bo'lar bog'ning guliga,
Mayna yetdi talab qilgan eliga.
O'tirgan joyidan uchib shu mayna
Kelib qo'ndi xon Dallining qo'liga.

Xon Dalli qarasa, qushning dodi bor,
Ko'p uzoqdan qistagan holati bor.
Xon Dalli qo'liga olib qarasa,
Maynaning bo'ynida arza xati bor.

Xon Dallidan xatni olib o'qib, voqeadan xabar topgan Hasanxon Go'ro'g'lining G'irko'k otini minib, zudlik bilan Shirvonga jo'nashga qaror qiladi. Xatdan ayon bo'lishicha,

Qoraxon bergan qirq kunlik muhlatning roppa-rosa yigirma kuni o'tgan. Yigirma kundan keyin Ravshan yo begona dinga kirishi, yo dorga osilishi kerak...

Ana endi Go'ro'g'libek shoshib-surinib, yig'lab-emranib, Hasan mardga oq fotiha berib yubordi. Hasanbek: «Hayt!» – deb, G'irko'kni o'ynatib, suvliqni chaynatib, dushmanlarning zardasini qaynatib, «Shirvon, qaydasan?» – deb, yakka-tanho savab ketib borayotir, huv deb ketib borayotir:

Sovutini bo'ktarib¹,
Qalqonini do'ngtarib²,
Yo'lga tushdi mard Hasan
Shirvon elin axtarib...

Ot boradi arillab,
Otgan o'qday parillab,
Ot alqimi³ – tong shamol,
Mis karnayday zarillab,
Suvsiz cho'lda G'irko'k ot
Borayotir karillab.

Tonglar otib boradi,
Kunlar botib boradi,
Suvsiz cho'lda mard Hasan
Yakka ketib boradi.
Dushmanlarning qonini
Bo'z tuproqqa qotsam⁴ deb,
Qoraxonday podshoni
Yerman yakson etsam deb,
Yuragin qon etsam deb,
Bek Ravshanning ustida
Katta to'fon etsam deb.

¹ *Bo'ktarmoq* – egar orqasiga bog'lamoq.

² *Do'ngtarmoq* – yelkasiga do'ng tomonini sirtiga qilib, to'ntarib osib olmoq.

³ *Alqim* – shiddat, epkin.

⁴ *Qotmoq* – qorishtirmoq.

Qulon¹ yurmas yerlardan
Quvib o‘tib boradi.
Bulon² o‘tmas yerlardan
Burib o‘tib boradi.
Qarsoq³ yurmas yerlardan
Qalqib o‘tib boradi.
Bo‘ri yurmas yerlardan
Bo‘zlab ketib boradi.
Polvon Hasan dovushin
Sozlab ketib boradi.
Bek Ravshanni tinmasdan
Izlab ketib boradi...
Yo‘lbars yurmas yo‘llardan
Yo‘rtib o‘tib boradi.
Bek Ravshanning alamin
Tortib o‘tib boradi...

Hasan mard yo‘lni qichab ola bersin, Shirvonga yaqin kela bersin, shu so‘z shu yerda qola bersin. Endi Ravshanxonning enasidan... eshiting. Ravshan Shirvon elida o‘g‘il tutingan kampirning avval olti o‘g‘li bor edi, oltovi ajdahor edi... Har biridan Qoraxon podsho qo‘rqar edi, oltovi olti yerda qal’a-qo‘rg‘on qilib turar edi. Olti o‘g‘li o‘lib ketdi. Kampir bolalarining o‘tiga kuyib-yonib, o‘rtanib, tutanib, jizig‘i⁴ chiqib qolgan edi. Ravshanbekni o‘g‘lim deb, o‘lsam merosxo‘rim deb qo‘ygan edi. Bu ham podshoga bandi bo‘lib, kampirning avvalgi alamlaridan shunisi o‘tdi...

Ana shu kampirning katta o‘g‘lining bir nonxo‘r polvoni bor edi, o‘zi juda zo‘r edi, urush-surish bo‘lsa, mingga barobar edi. U polvonning otini Aynoq kal der edi. Lekin o‘zlari to‘rt og‘a-ini edi, to‘rtovi ham kal edi, bari ham bohunar⁵ edi.

¹ *Qulon* – yovvoyi eshak.

² *Bulon* – yovvoyi ot.

³ *Qarsoq* – tulkidan kichikroq yirtqich.

⁴ *Jiziq* – kuydirilgan quyruq, jizza.

⁵ *Bohunar* – hunarli.

Kattasi Ayniq kal zo‘r edi. Ayniq kal shunday edi: ot, tuya, arava ko‘tarolmas edi. Doim bir yoqqa ko‘chmoqchi bo‘lsa, piyoda ketar edi... Ukalarining otlarini Jaynoq kal, Ersak kal, Tersak kal deb yuritishar edi. Jaynoq juda masxaraboz edi, har tusli bo‘la berar edi. Agar birovni aldamoqchi bo‘lsa, har tusli bo‘lganda o‘zining jo‘ralari ham tanimas edi. Ersak kal shunday edi: oqshomlari qo‘liga kamonni olsa, qushni ko‘zidan urar edi. Juda mergan edi... Tersak kal sinchi edi: Yilqining tulporini suyagidan tanir edi, qilichning o‘tkirini qinidan bilar edi.

Kampir yig‘lab-emranib Ayniq kalga bordi. Aytdi: «Ayniqjon! Mening qarigan vaqtimda xudo menga tag‘i bir g‘amni soldi, u bolalarimning g‘amidan ziyodaroq bo‘ldi. Sen ilgari, o‘g‘limning borida, davlatimning ko‘pida mening osh-nonimni ko‘p yeding. Endi mening ishim senga tushib qoldi. Shu Ravshanbek bolamni ayirib olaman desang, sening qo‘lingdan keladi».

Ayniq... aytdi: «Ho‘, ena!.. Aslo g‘am yema! Shu o‘g‘illaringning menda haqi ko‘p. Sening tuzingni men ko‘p yegaman... Katta o‘g‘ling meni ko‘p parvarish qilar edi. Endi shuning arvohi uchun ertaga maydonga kiraman... Ravshanni ayirib olaman...»

Shunday qilib, kallar maslahatni bitirib, shahardan xabardor bo‘lib, borib-kelib yura berdi.

Erta muhlat tamom bo‘ladi, bek Ravshanni shu yerga olib keladi. Kallar to‘rtovi barvaqt borib, gashtagini qilib, palovini yeb, choyini ichib, kayfini qilib, bahuzur dimog‘ini chog‘lab, «Ertaga qudag‘ay kimga qo‘y so‘yadi», – deb to‘rtovi o‘tirib edi. Shu kuni kun pora-pora bo‘lib yerga o‘tirgan vaqtda jonivor G‘irko‘k suzilib, buyiri-buyiriga¹ qapishib, qorni qorniga yopishib ter bilan qotgan changlar yong‘oqday dumaloq bo‘lib, Shirvonga kirib bordi.

Shaharning o‘rtasida bozorjoy. Do‘konlarni shipirib-sidirgan. Bozorjoyning o‘rtasida bir yangi dor qurilgan. Hasan ko‘nglida: «Shu dor bek Ravshanga deb qurilgan chiqar;

¹ *Buyir* – biqin.

bo'lsa-bo'lmasa, erta shu yerga keladigan bo'lsam, kel, shu bugun shu yerda turib damimni olayin», – deb tushib, bir do'konga otini tortib o'tira berdi. Endi gapni kallardan eshiting.

To'rtovi o'tirib edi, Hasan mard ham shularning qavatiga tomon borib qo'ndi, u ham o'tira berdi. Shunda masxaraboz kal¹ aytdi: «Aynoq, ishimiz yaxshi bo'ldi, o'ng keldi. Ravshanni endi ayirib oladigan bo'ldik, balki ayirib oldik. Ana qara, Hasan mard ham keldi. Shu o'tirgan yigit Cham-bilning belidan, Yovmitning elidan kelgan Hasan mardning o'zi shu». Shunda Aynoq aytdi: «E, uchchangdan² urgur, har kimni ham odam deyberasanmi! Xudo urgani yo'q. Hasan mard shunday bo'lsa, G'irko'k ot – ovozası olamni tutib yurgan ot; bu ot Ishrat devonaning otidan ham yomon, o'libdimi shunday bo'lsa! Men ertaga urush bo'lsa, boyadan beri shuni chog'lab-ko'zlab o'tiribman; anov tolni, manov qayrag'ochni sug'urib olib, ertaga to'dada «qadama og'och»³ qilaman deb o'ylab o'tiribman. Agar ertaga badanim qizisa, shu devona otini qo'yninga solib, kuni bilan yugurib yursam ham, bir noncha salmog'i bo'lmas, qanday qilib bu Hasan mard bo'ladi, u G'irko'k ot bo'ladi?!» – deb ukasini urishdi. Shunda Tersakka qarab aytdi: «Tersak! Shu odamni sen bir sinla⁴, qani, qayoqning odami ekan. Agar sening ham didingga kelmasa, undan keyin qo'yamiz».

Tersak damini ichiga olib, tishini tishiga qo'yib, kiprigini qoqmay tiklab qoldi. Turib-turib, ancha vaqtdan keyin damini chiqarib: «Uh», – dedi.

Ersak aytdi: «E, Tersak, sinladingmi, qayerning odami ekan, shu ot qayerning oti ekan?»

Shunda Tersak og'a-inilariga qarab, Hasan marddan xabar berib, bir so'z deb turibdi:

¹ *Masxaraboz kal* – qiyofasini o'zgartira oladigan Jaynoq ko'zda tutiladi.

² *Uchcha* – tos suyagi bilan son suyagining birlashgan joyi. Bu yerda: «jin urgur» ma'nosida.

³ *Qadama og'och* – og'och butoqlaridan tayyorlangan qoziqlar yerga qadab o'ynaladigan bolalar o'yini.

⁴ *Sinlamoq* – chamalamoq, tanimoq.

...Ot chopilar baland tog‘ning pastida,
Quloq soling gapimning payvastiga,
Shu ot kepti Qoraxonning qasdidagi,
Endi maydon bek Ravshaning ustida.
Kesgir isfihonni olib dastiga,
Qarab bo‘lmas chin botirning bastiga,
Yobi¹ dema, shu ot tulpor ekandi,
Shu o‘tirgan Hasan shunqor ekandi.

...Ana endi to‘rt mard Hasanxon polvonning oldiga keldi. Salom berib, ko‘rishib o‘tirdi. Aynoq qarasa, bir «devona» o‘tiribdi: devsifat, bir ajdahoday, hech narsani ko‘ziga iladigan emas, balki nazariga keltirmay, pisand qiladigan ham emas; shunday haybatli, siyosatli. Aynoq ichida aytdi: «Hasan ekan, bechora Jaynoqni bekorga urishgan ekanman».

...Aynoq joyidan irg‘ib turdi, ukalari ham tura keldi: mard Hasan bilan quchoqlashib, qaytadan ko‘rishib aytdi: «Yaxshi kelibsan, jo‘ra, juda yaxshi kelibsan. Bizlar ham, shu yerga Ravshan keladi deb, sening o‘g‘ling uchun o‘tiribmiz. Ana endi sen kelding, ishimiz o‘ng keladi. Endi, jo‘ra, ertaga Ravshanxonni shu yerga haydab keladi, nasib qilsa, taloto‘p bo‘ladi, taxti vayron bo‘ladi», – deb Hasan mard bilan kallar suhbatlasha berdilar.

Aynoq ukalarini yuborib, G‘irko‘k otga beda, yem oldirib keldi. Hasanxon polvonga palov, go‘sh, manti, barak² berib siylab, ziyofat ustiga ziyofat qilib, choyni damlab, G‘irko‘kni yemlab, ertagi urushning g‘amini g‘amlab, xotirni jamlab o‘tira berdi.

Qirq kun muhlat tamom bo‘ldi. Qoraxon podshoga: «Taq-sir podshoyim, kechagi gunohkorning muhlati bitdi, ajali yetdi, endi olib borib dorga osib, boshini kesib, dodini bermoq kerak», – deb amaldorlari arz qildi.

...Ravshanjonni zindondan chiqarib, bo‘yniga g‘ul – zanjir solib, tevaragini ko‘p dushman olib, bo‘taday bo‘zlatib, ko‘zini boylab, ko‘p zulmlarni aylab kela berdi.

¹ *Yobi* – cho‘bir, qirchang‘i.

² *Barak* – chuchvara

Ravshan chiqqan kuni Zulxumor oyim qancha kanizlari bilan dod deb yig‘lab, Ravshanning o‘ng tarafidan kelib, to‘rasining dog‘ida kuyib, betini yulib, dovushining boricha chirqirab yig‘lab kelayotipti. Bir tarafda kampir enasi «dod» deb, bolasining dog‘iga kuyib: «Voy bolam», – deb Ravshan-ning bo‘yniga osilib kelayotipti.

Zolimlar dorning ostiga yaqinlashib qoldi. Hasanxon G‘ir-ko‘kning ustiga minib, yov-yarog‘ini choq qilib, ustiga eski to‘n kiyib, bir devona bo‘lib turar edi. Dasta, dasta, baland-pastda, odam bosib kela berdi asta-asta, maydon sipohiga to‘lib ketdi.

Qoraxon podsho saltanati bilan, bir bo‘lak amaldor-umaro-lari bilan kelib, bir yaxshi joyni olib, tushib o‘tira berdi. Baland ham odam, past ham odam.

Shunda jallod, mirg‘azablar Ravshanni haydab kela ber-di. Hasan mard buni ko‘rib, ko‘zlari yoshga to‘lib, jazavalari qo‘zg‘alib, polvonlik tomirlari uyg‘onib, o‘zini tuzab, tezlana berdi...

Ravshanxonni... jallodlarga haydatib, dorning ostiga olib keldi. Shunda Qoraxon podshoning amri bilan ikki hudaychi¹, salom og‘asi² kelib, Ravshanbekni dorning ostida to‘xtatib, Qoraxon podshoning tili bo‘lib, Ravshanxonga qarab bir so‘z aytdi:

Bo‘yinsunsang Shirvon elning xoniga,
Ko‘nsang agar vazirlar deganiga,
Seni dordan ayirib olib ketaylik,
Agar kirsang Qoraxonning diniga...

Eshitib ol vazirlarning so‘zini,
Shirvon elda podsho deydi o‘zini,
Agar kirsang Qoraxonning diniga,
Olib beray suluv Xumor qizini.

Shunda Ravshanxon polvon vazirlarning bu gapini eshitib qahri kelib, ilonday zahri kelib: «Sen aytgan odaming men

¹ *Hudaychi* – arzo‘y bilan hukmdor o‘rtasida turadigan mansabdor.

² *Salom og‘asi* – saroydagi qabul tartibini nazorat qiluvchi amaldor.

emasman... o‘limdan qo‘rqadigan odaming boshqadir», – deb Shirvonning amaldorlariga qarab bir so‘z aytib turibdi:

Bir nechalar o‘z holini chengnamas¹,
Sen aytgan odaming, zolim, men emas,
Men o‘lmasam, o‘z elimdan kechmayman!
Aziz boshing oyog‘imga teng emas...

Ravshanbek aytdi: «...Sizlar mening ko‘zimni boylab, ...haydab keldinglar. Endi mening ko‘zimni ochsanglar... men ham yorug‘ dunyoni bir ko‘rsam... Sizlardan mening tilagim shu, boshqa so‘zni demayman».

...Ravshanbek ko‘zini ochib qarasa, bir yog‘ida Zulxumor yori, qancha kanizlar... dod deb turibdi; bir yog‘ida enasi – kampir... Voy bolam, deb o‘zini urayotir. Shirvon eli katta-kichik, yaxshi-yomon, yugruk-chaqqon, qiz-u juvon – jami odamning bari tomoshaga yig‘ilgan, Ravshanbekka qarashib turibdi.

Ravshanbek o‘ng tarafiga qarasa, otasi – Hasan mard polvon yo‘lbarsday kelib turibdi: ostida G‘irko‘k oti, sherday haybati, qaynab g‘ayrati, ko‘zi yoshga to‘lib, ot qo‘yayin deb turibdi. Otasini ko‘rib, aslo dalaga chiqmagan bola emasmi, yig‘lab yubordi. So‘ng hol-ahvolini bayon qilib, otasiga bir necha so‘z aytdi:

Uyquda boyladi nozik qo‘limni,
Sog‘indim, otajon, Chambil elimni.
Tor zindonda: «Vo ota», – deb yig‘ladim,
Ko‘rdingmi, otajon, mening holimni?

Yo‘lingga intizor bo‘ldim, otajon,
Baloga giriftor bo‘ldim, otajon,
Dushmanga xor-u zor bo‘ldim, otajon,
Bir ko‘rmoqqa xumor bo‘ldim, otajon.

¹ *Chengnamoq* – aniqlamoq, bilmoq. Bu yerda: «O‘z holini bilmas» ma‘nosida.

Mehribonim kelgan ekan, ming shukur,
Tulporini yelgan ekan, ming shukur,
Meni o'ldirmoqqa kelgan Qoraxon –
Endi zolim o'lgan ekan, ming shukur.

Hasan polvon o'zi olovday yonib, dudday tutanib turgan edi. Endi mardning g'ayrati kelib, jazavasi qo'zg'alib, o'g'lining bu so'zlarini eshitib, bir na'ra tortib yubordi, shu yerda turganlarning ko'pi et-petidan tushib, aqli shoshib, esidan adashib, ne botirman deganlari turolmay emaklashib, bari birday chuvlashib qoldi...

Shunda Hasanxon G'irko'kka qamchi berib, qilichini g'ilofdan sug'urib, ot qo'yib turibdi. Bir yoqda kallar ham choq turibdi. Hasanxon polvon kal jo'ralariga qarab, otini maydonga haydab, bir so'z deb turibdi:

Keling, kallar, keching jondan,
Umiding bo'lsa maydondan,
Siz bir yondan, men bir yondan,
Ot qo'y g'animning ustiga.

Oq, qora bosh, yashil tug'lar,
Tikildi maydon ichinda,
O'mirovli¹ ne polvonlar,
Yiqildi maydon ichinda.
Bo'z tuproqqa qirmizi qon
Sepildi maydon ichinda.
Ne go'zallar qaddi yoyday
Bukildi maydon ichinda.
Oq badandan qizil qonlar
To'kildi maydon ichinda.
Nayza tegib kirovkalar²
So'tildi maydon ichinda.

Qilich kelar yalab-yalab,
G'arib ko'ngil istar talab,

¹ *O'mirovli* – ko'krakdor.

² *Kirovka* – sovut ichidan kiyiladigan metall nimcha.

Oltin kosa, gulgun sharob
Ichildi maydon ichinda.
Ajalli¹ning kafan to'ni
Bichildi maydon ichinda.

Qirg'iy yurar qiyada,
Lochin yotar uyada.
To'rt kal ham qiladi
Hasanxondan ziyoda.

Endi ko'ring Aynoqni,
Masxaraboz Jaynoqni,
Qo'shinning oldin oladi,
Yetganini soladi,
Kimga yetsa shu kallar,
Yetganda ikki bo'ladi...

Hasan ishin ishladi,
Pastki labin tishladi.
Yig'ilib kelgan qo'shinning
Ko'pini qirib tashladi.
Ozi qoldi, ko'prog'i
Qo'rqib qocha boshladi.
Daladagi zo'r kallar:
«Turavor!» – deb ushladi.
Yig'lab, qo'rqib elansa,
O'xshatib uch-to'rt mushtladi.

Hasan vaqtin xushladi,
Ishni yaxshi tishladi².
Ostidagi G'irko'kni
Mard Hasan kishkishladi.
Og'zin ochib G'irko'k ot
Nechovini tishladi.
«O'zi qirgani ozmidi,
Oti ham urush boshladi,

¹ *Ajalli* – ajali yetgan.

² *Tishladi* – joyiga tushdi.

Necha odamning kallasini
Oti uzib tashladi».
Bu soʻzni aytib turgan yov
Tura qocha boshladi...

Endi koʻring, Qoraxon
Boʻlib qoldi sargardon...
Podshoga vahm tushdi,
Endi yuragi shishdi.
Otin minib Qoraxon
Qoʻshindan chiqa qochdi.

Qoraxon shoh uzamay¹
Hasanxon koʻzi tushdi.
Gʻirkoʻkka qamchi qoʻshdi,
Quvib keynidan tushdi,
Ogʻzin ochib Gʻirkoʻk ot
Qoraxonga yetishdi.
Endi Hasanxon polvon,
Gʻirkoʻk otin yeldirdi,
Zoʻrligini bildirdi,
Quvib yetib ortidan,
Oq nayzaga ildirdi...
Egnidan sop nayzasin,
Oʻpkasidan oʻtkazib,
Qoraxonni oʻldirdi...

Ana endi Hasanxon polvon Shirvon odamlaridan omonlik tilaganlariga omon berib, qoʻshinning u yoq-bu yoqqa qochganlari yigʻilib, hammasi bir yerga uyilib, qilich, sadoqlarini boʻynilariga solib kelib, Hasanxon polvonga elanib, yolvorib itoat qildi. El-yurt omon-omon boʻldi...

Shirvon kattalari, maslahatdor kayvonilar – kengash-boshilar Zulxumorni, Ravshanbekni, Hasan polvonni, toʻrtta joʻrasi: Aynoq, Jaynoq, Ersak, Tersak kallarni izzat-ikromlar bilan shaharga olib joʻnadi.

¹ *Uzamay* – uzoqlashmasdan.

Endi Shirvon mamlakatiga... shodiyona qo'ydirib, Qoraxon podshoning xazina-dafinalarini bo'shatib, elni yig'dirib, ochni to'ydirib, yalang'ochni kiydirib, balabon, g'ijjak, karnay, surnay qo'ydirib, qirq kun to'y qilib, Zulxumoroyini Ravshanxonga nikoh qilib berdi. To'y tarqadi. Hasanxon polvon Shirvonning katta-kichigini yig'ib, shu Shirvonni kallarga topshirdi. Aynoq jo'rasini Shirvon shahriga podsho qildi, ukalarini vazir, mahram qildi. Zulxumoroyimni... olib, Ravshanxon polvon yo'lga tushdi... Hasanxon boshliq necha kun yo'l yurib, qancha suvsiz cho'l yurib, ozgina emas, mo'l yurib, axiri Chambilga yetdilar.

Otasi Go'ro'g'libek, enasi Yunus, Misqol parilar, yori xon Dalli, qirq yigit jo'rasi bari oldiga chiqib, Hasanxon bilan, Ravshanbek bilan ko'rishib, hol-ahvol so'rashib, Zulxumoroyim bilan, necha kaniz qizlari bilan tanishib, izzat-ikromlar bilan Chambilga olib bordilar.

Go'ro'g'libek elga odam qo'yib, Zulxumoroyimga to'y boshlab, qirq kun to'y qilib, qancha o'yin qilib, to'yni tarqatdi, ko'p in'om-ehsonlar bilan to'yni tamom qilib, murod-maqsadlariga yetdi.



Savol va topshiriqlar:

1. Ravshanbekning Gulanorga munosabatini haqiqiy sevgi deyish mumkinmidi? Matnga tayanib fikr bildiring.
2. Avaz nega qizini Ravshanga munosib ko'rmadi, deb o'ylaysiz? Fikringizni matnga tayanib tushuntiring.
3. Avazning rad javobini eshitib qolgan Ravshanning ruhiy holatini tushuntirib bering.
4. Yunus parining qo'lidagi sehrli uzukni Ravshanga berishi tasviri sizni ishontirdimi?
5. Avazning rad javobiga Og'a Yunus parining birmuncha bosiqlik bilan munosabatda bo'lganligi sababini izohlang.
6. Ravshanning dastlab otasidan ruxsat so'ramaganligi sababini izohlang.
7. Dostonda: «*Qaladan qalampir yuklar qalachi, Har xil isli bo'lar tog'ning og'ochi*» so'zlari nima uchun keltirilgan deb o'ylaysiz?

8. Ravshanni Shirvonga otlantirgan narsa faqat Zulxumorga bo'lgan muhabbatmi yoki boshqa chuqurroq sabab ham bormi? Bu haqdagi xulosangizni matnga tayanib bildiring. Qahramonning: *«Yor deyman-u nomus-orga boraman»*, – degan iqrorini izohlang.
9. Hasanxonning o'g'liga nasihatlarini sinchiklab o'rganing. Otaning: *«Kechsang yomon bo'lar ota-onadan»*, *«Bir qiz uchun unutmagin bizlarni»* tarzidagi istaklarida qanday tuyg'ular aks etgan?
10. *«Oldingdan kim chiqsa, besalom o'tma»*, *«Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot, Yaxshilik qil bolam, yomonlikni ot»* singari fikrlarining salmog'i hamda ifoda tarziga munosabatingizni bildiring.
11. Hasanxon yoshgina o'g'lining begona yurtlarga yolg'iz ketishiga nima uchun javob berdi deb o'ylaysiz?
12. Suratini uzuk ko'zida birgina marta ko'rgan qizni topish uchun yurti, ota-onasini tashlab yo'lga tushgan Ravshan tabiati haqida qanday fikrdasiz? Fikringizni doston matniga tayanib asoslang. Yoki bu qarorning boshqa sababi bor edimi?
13. Ravshanbek qalpoq bozorini izlar ekan, *«G'amning loyiga botibman»*, – deya nola qiladi. Siz uning nolasini qanday sharhlaysiz?
14. Ravshanbek: *«Eldan o'zgan chin suluvni ishqib ildirsam deb keldim»*, – deydi. Bu gaplarni izohlashga urining.
15. Dostonda bozor qanday tasvirlangan? Bu tasvir qadimiy o'zbek bozorining ruhini bera oladi deb o'ylaysizmi?
16. Dostonda Zulxumor portreti tasvirlangan o'rinni toping. O'zbek xalqining go'zal qiz to'g'risidagi tasavvurlariga o'z munosabatingizni bildiring.
17. Ravshanbek qizlarga qarata: *«Kuygan alvon-alvon so'zlar»*, – deydi. Bu e'tirofning tagma'nosini izohlang.
18. Dostondagi: *«Kaptarday bo'b turgan qizlar»* tasvirini sharhlang.
19. Dostondan bog' tasvirini toping. Shunga tayanib, bobolarimizning ming yillar oldingi turmush tarzlari, madaniyat darajalari haqida fikr yuriting.
20. Zulxumor Ravshanbekning uzugini ko'rib, uni huzuriga chorlagani sababini tushuntiring.

21. Kampirning Ravshanga munosabati, undagi onalik mehri-ning kuchi va sabablari haqida mulohaza yuriting.
22. Kallarning hunarlariga e'tibor bering. Ular xalqimizning timsoli bo'la oladilarmi?
23. O'g'lini qutqarish uchun ketayotgan Hasanxonning ruhiy holatini doston matniga tayanib tasvirlab bering.
24. Dostonda kallar tomonidan aytilgan: *«Ertaga qudag'ay kimga qo'y so'yadi»*, – degan jumla bor. Shu jumla orqali ifodalangan ma'noni topishga urinib ko'ring.
25. Asardagi: *«Shu kuni kun pora-pora bo'lib yerga o'tirgan vaqtda jonivor G'irko'k suzilib, buyiri-buyiriga qapishib, qorni-qorniga yopishib, ter bilan qotgan changlar yong'oqday dumaloq bo'lib, Shirvonga kirib bordi»* tarzidagi tasvir asosida otning, chavandozning holatini tushuntiring. Hasanxon Shirvonga yetib borgan vaqt kunning qay mahali ekanligini aniqlang.
26. Dostonda Ravshanning dor tagida yig'lagani tasviri bor. Uning yig'isi sababini asar matniga tayangan holda tushuntiring.
27. Dostonda jang manzarasi qanday tasvirlangan?
28. Hasanxonning jangga kirish oldidagi holatining mubolag'ali tasvirini dostonan toping va mubolag'aning shu o'rindagi badiiy vazifasini tushuntiring. U Hasanxonning ayni paytdagi ruhiy holatiga qanchalik mos kelishini izohlang.
29. *«Oltin kosa, gulgun sharob ichildi maydon ichinda»* misralaridagi obrazli ifodalarni sharhlang.
30. Ravshanbekning insoniy sifatlari haqida to'xtaling.
31. Ravshanning dor ostidagi: *«Men o'lmasam, o'z elimdan kechmayman!»* – degan gaplari asosida uning tabiatini izohlashga urining. Eli bilan dinini muqaddas va daxlsiz, hatto o'z hayotidan azizroq deb bilgan kishi haqidagi mulohazalaringizni ayting.
32. Doston qahramonining: *«Aziz boshing oyog'imga teng emas...»*, – degan e'tirofida manmanlik tuyg'usi kuchlimi yoki o'zbeklik g'ururi?
33. Hasanxonning tabiatiga xos xususiyatlarni izohlang.
34. Kallar tabiatiga xos jihatlarni aniqlang. Ularning hammasiga xos umumiy jihatlarga, ayni vaqtda, har biriga xos alohida qirralarga to'xtaling.

35. Dostonda aks ettirilgan voqealarga oddiy hayotiy hodisalar bayoni tarzida emas, balki qarama-qarshi e'tiqodlar kurashi ko'rsatilgan manzaralar tarzida yondashib, so'ng ularga munosabat bildiring.
36. Asarda: *«Agar kirsang Qoraxonning diniga, Olib beray suluv Xumor qizini»* tarzida ifoda bor. Nima uchun shirvonliklar dini yoki boshqa bir dinga emas, aynan *«Qoraxonning diniga»* tarzida urg'u berilayotganligiga e'tibor qiling. Sizda xonning dini fuqarolarinikidan o'zgacha emasmikin degan fikr paydo bo'lmadimi?

«RAVSHAN» DOSTONI HAQIDA

Turkiy xalqlarning she'riy dahosi, ijodkorlik salohiyati ular yaratgan ko'lamli dostonlarda to'liq namoyon bo'ladi. Doston o'zbek xalq og'zaki ijodining keng tarqalgan yirik janridir.

«Doston» so'zi adabiy atama sifatida xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotdagi yirik hajmli asarlarni anglatadi. Xalq dostonlarini do'mbira yordamida ijro etuvchi, kuylovchi san'atkor o'zbeklarda «shoir» yoki «baxshi» deb atalgan. Xorazmda dostonlar tor jo'rligida aytiladi va bu xil aytuvchilar «xalfa» deb yuritiladi.

Baxshi va xalfalarning badiiy bisotida turli yo'nalishlarda yaratilgan dostonlar bor. Ularning ilk bor qachon va kim tomonidan aytilganligini aniqlash deyarli mumkin emas. Baxshilar repertuaridagi asarlarning katta qismini ishqiy-sarguzasht dostonlar tashkil etadi. Bunday dostonlar mazmuni asosan sevgi mojarolaridan iborat. Ulardagi sevgi mojarolari qo'rqinchli sarguzashtlar, ertaklardagidek xayoliy hodisalar hayotiy-real voqealar bilan aralash tasvirlanadi.

Bunday dostonlardagi voqealar tizmasi (sujet) bir-biriga ancha o'xshashdir. Qahramon ko'pincha afsonaviy go'zalni tushida yoxud suratini uzukda yoki oynada ko'rib qolib, g'oyibona oshiq bo'ladi. So'ng uni izlab xatarli safarga otlanadi, sermashaqqat va tahlikali sarguzashtlarni, ajoyib-g'aroyib voqealarni boshidan kechiradi, turli dushman kuchlar

bilan to‘qnashadi, qahramonlik ko‘rsatadi. Nihoyat, barcha qiyinchiliklarni yengib o‘tib, maqsadiga erishadi. Dostonlari-mizning asosiy qismi ishqiy sarguzashtlarga bag‘ishlanganligi o‘zbek xalqi juda qadim zamonlardan buyon chin insoniy muhabbatni qadrlaganini ko‘rsatadi. Ota-bobolarimiz hamisha yor tanlashda, yorga yetishish uchun kurashishda, uning nomusini himoya qilishda dunyo xalqlariga namuna bo‘lib kelganlar.

Xalqimiz kuylab kelgan dostonlar orasida «Go‘ro‘g‘li» turkumi alohida o‘rin tutadi. Bu turkum dostonlar turkman, qozoq, qoraqalpoq, tatar, turk, ozarbayjon, tojik, arman, gurji xalqlari orasida ham mashhur. O‘zbeklar orasida tarqalgan «Go‘ro‘g‘li» dostonlarining o‘zi yuztadan oshadi.

«Ravshan» badiiy jihatdan g‘oyat pishiq ishqiy-sarguzasht dostonidir. Xalq orasida u o‘tgan asrda ham mashhur bo‘lgan. Ammo doston folklorchi olim Hodi Zarif (1905–1972) tomonidan birinchi marta 1928-yilda Ergash Jumanbulbul o‘g‘li (1868–1937) og‘zidan yozib olingan va 1941-yilda nashr ettirilgan. Ergash shoir «Ravshan»ni otasi Jumanbulbuldan, u esa ustozi Kichik Bo‘rondan o‘rgangan. Dostonning sayqal topib, badiiy go‘zal asar shaklini olishida Jumanbulbul va Ergash baxshilarning alohida xizmatlari bor.

«Ravshan» otashin va samimiy muhabbatni kuylovchi, pok va haq islomiy e‘tiqod yo‘lida sobit tura oladigan iymonli kishilarni madh qiluvchi, ezgulikni, mardlik va botirlikni ulug‘lovchi, zulm va zo‘ravonlikni, adolatsizlikni qoralovchi asardir.

Taqdiriga bitilgan Zulxumorni qo‘lga kiritish niyatida olis yo‘lga yakka o‘zi chiqqan Ravshan yoshligi, soddaligi tufayli osongina bandi etilib, zindonga tashlanadi. Ammo u qo‘rqoqlik qilmaydi. Yigitlik sha’niga dog‘ tushirmaslikka intiladi. Qoraxon a’yonlarining dinini o‘zgartirish haqidagi taklifini rad etib, o‘z e‘tiqodidan, dinidan kechmasligini aytadi. Muhabbat uchun chekilgan iztirob, iymon yo‘lidagi azobga aylanadi. Chin muhabbat egasi bo‘lgan botir yigit o‘limdan hayiqmaydi. Dostonda Ravshan hech qanday kamchiliksiz,

har jihatdan yetuk odam sifatida tasvirlanmaydi. Uning ojizligi, g'oirliqi, tajribasizligi tufayli xatolar qilishi, aldanishi haqqoniy ko'rsatiladi.

Hasanxon – Go'ro'g'lining tarbiyasini olgan dongdor polvon. Zulxumor mayna orqali yo'llagan maktubni olgan Hasanxon G'irotda uch oylik yo'lni yigirma kunda bosib o'tadi. Dostonda shu o'rinlar nihoyatda hayajonli, ta'sirchan va go'zal ifodalangan.

Doston – she'riy san'atlarga, badiiy tasvir vositalariga juda boy. Zulxumorning qiyofasi, fe'l-atvori, tabiat manzaralari yuksak mahorat bilan chizilgan. Zulxumorning bog'i tasvirini o'qisangiz, ulkan e'tibor ila parvarishlangan, shohona ko'shk va qasrli so'lim maskan, jannatday bir oromjoy ko'z o'ngingizda namoyon bo'ladi. Yoki Shirvon bozorining 145 misralik tasvirini olaylik. Dostonda sershovqin, to's-to'polon Sharq bozorining o'ta tabiiy, jozibador tasviri berilgan.

She'riy parchalar anvoyi poetik tasvir vositalariga nihoyatda boy qofiyalar bilan mohirona ziynatlangan. «Ravshan» dostoni qofiyali nasr (saj)ning go'zal namunasi. Deyarli har bir nasriy parcha – qofiyali. Dostonning vazni ham o'ziga xos. She'riy qismi asosan yetti, sakkiz va o'n bir bo'g'inli barmoq vaznida. Baxshi qahramonning ruhiy holati, his-hayajoni, voqea rivojining sur'atiga ohangdosh, ayni shu holatga mos tasvir yo'sinini topadi. Sakkiz bo'g'inli vazn urush va jangovarlik holatiga juda mos keladi:

Keling, kallar, keching jondan,
Umiding bo'lsa maydondan.
Siz bir yondan, men bir yondan,
Ot qo'y g'animning ustiga.

Asarda tasvir etilayotgan voqea yo harakat sur'ati tezlashgan holatlarga esa, yetti bo'g'inli she'rlardan foydalaniladi:

Qush uchmagan cho'llardan,
So'na¹ yuzgan ko'llardan,
Odami yo'q yo'llardan,

¹ So'na – o'rdak.

Dim uchi yo‘q cho‘llardan,
Tomosha qing, mard Hasan
Qistab o‘tib boradi.

Bunday o‘rinlarda tinglovchi o‘zini go‘yo asar qahramoni bilan yonma-yon ot qo‘yib borayotganday his etadi. Shoir qahramonlar ruhiy holatini chuqur his etadi va uni doston tinglovchilariga ham yuqtira biladi. Dostonning tili – sodda, rang-barang. Unda adabiy tilimizni boyitishga xizmat qiladigan so‘z va atamalar juda ko‘p. Ko‘plab misralarda xalq maqollari va hikmatli so‘zlari o‘rinli qo‘llangan.

Suyukli xalq shoiri Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining ulkan mehnati, iste’dodi hamda dostonni yozib olgan folklorshunos va noshirlarning og‘ir mehnati tufayli avlodlarga meros bo‘lib qolgan «Ravshan» dostoni kitobxonlarni mustahkam islomiy e’tiqod, chin va pokiza muhabbat, or-nomus, e’tiqod, qahramonlik, ota yurt va xalqqa sadoqat ruhida tarbiyalaydi.



Savol va topshiriqlar:

1. Xalq dostonlarining ijro shakllari haqidagi fikringizni bildiring.
2. «Ravshan» dostonidagi badiiy tasvir vositalari haqidagi muhazalaringizni aytib bering.
3. Dostonda qo‘llanilgan she’riy vaznlar rang-barangligi sababini misollar asosida tushuntiring.

BADIIY OBRAZ VA MUBOLAG‘ALI TASVIR

Badiiy adabiyot hayotni, undagi insonlarning ruhiy holati, o‘y-fikrlarini aks ettiradi. Hayot hamisha insonlarning tirikchiligi, mehnat faoliyati, kurashi, his-tuyg‘ulari, kechinmalaridan iborat. Adabiyotning tasvir mavzusi, avvalambor, insondir. Inson tasviri yo‘q, u ko‘zda tutilmagan joyda badiiy adabiyot ham bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra adabiyotshunoslik ilmida markaziy o‘rinni egallovchi tushuncha ham **obraz**, **qahramon** yoki **personaj** tushunchasidir.

Obraz – timsol tushunchasining keng va tor ma'nolari mavjud. **Keng** ma'nodagi timsol tushunchasi ijodkorning fikr-tuyg'ulari singdirilgan hayot manzarasini anglatadi, **tor** ma'noda badiiy asarda aks ettirilgan inson siymosini ifodalaydi. Biz bu o'rinda timsol tushunchasining ko'p qo'llaniladigan tor ma'nosi haqida fikr yuritamiz.

Yozuvchi hayotni badiiy timsollar orqali tasvirlaydi. Shuning uchun ham biror badiiy asar o'qiganimizda unda aks ettirilgan voqelik ongimizda shu asarda tasvirlangan kishilarning obrazlari orqali muhrlanib qoladi. Mana, siz «Ravshan» dostonini o'qib chiqdingiz. Buning natijasi o'laroq, Ravshan, Zulxumor, Hasanxon, Aynoq, Jaynoq, Ersak, Tersaklarning mahorat bilan chizilgan timsollari, Shirvon bozori, Zulxumorga qarashli bog'ning ajoyib-g'aroyib manzaralari xotirangizda mahkam o'rinish qoladi.

Badiiy adabiyotda inson timsoli u yashayotgan jamiyat va undagi jarayonlar bilan, uni o'rab olgan tabiat, ijtimoiy muhit, narsa-hodisalar bilan birgalikda, ular bilan chambarchas aloqada tasvirlanadi. Chunki inson hamisha shular qurshovida bo'ladi. Biroq bularning hammasi inson timsolini yo o'ziga xosligini ko'rsatishga, yoki uning ham boshqalarga o'xshash tomonlari borligini ta'kidlashga, yoxud inson obraziga hissiy ta'sirchanlik bag'ishlashga, yoki uning biror jihatini to'ldirishga xizmat qiladi. Demak, ular yordamchi vositalardir. Inson yolg'iz o'zi mavjud bo'la olmaydi. Odam odamday yashashi va o'z insonligini namoyon etishi uchun juda ko'p narsalar kerak. Badiiy adabiyotda inson bilan bir qatorda, narsa-hodisalar tasviri ham zarurdir. Faqat ularning badiiy adabiyotdagi tasviri inson holati, kechinmalariga bo'ysundirilgan bo'ladi.

Insonni tasvirlash, avvalo, uning ichki dunyosini, kechinmalarini tasvirlash demakdir. Odam odamlar orasida, ya'ni jamiyatda yashaydi. Insonning kechinmalari jamiyatga oid turli-tuman masalalar bilan chambarchas aloqador bo'ladi. Shunday ekan, badiiy adabiyot inson kechinmalarini barcha murakkabliklari bilan aks ettirishi kerak. Bu esa ijodkordan

yuksak iste'dod va badiiy mahorat talab qiladi. U hayot va odamlarni yaxshi bilishi, insonning holatini, imkoni boricha, haqqoniy aks ettirishi kerak. Shundagina badiiy asar odamlar qalbiga kuchli ta'sir etib, zavq-shavq uyg'otishi, kishilarni ezgulikka e'tiqod va go'zallikka muhabbat ruhida tarbiyalashi mumkin.

Demak, *badiiy adabiyotda insonning alohida shaxs qiyo-fasida yaratilgan, ayni paytda badiiy umumlashma xususiyatiga va hissiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan surati **badiiy obraz*** deyiladi. Obrazlar *bosh* va *epizodik* singari turlarga bo'linadi. Asarning boshidan oxirigacha qatnashib, tasvirda muhim o'rin tutuvchi ishtirokchi bosh qahramon deyilsa, asarning bir-ik-ki o'rnidagina qatnashib, keyin tushib qoladigan ishtirokchilar epizodik qahramonlar deyiladi. «Ravshan» dostonidagi Ravshan, Zulxumor, Hasanxonlar bosh timsollar bo'lsa, shirvonlik kampir ena, aka-uka kallar, Oqqiz epizodik obrazlardir.

Badiiy adabiyot asosida go'zallik haqidagi tasavvur yotadi. Bunday tasavvur insonning odam, hayot va jamiyat haqidagi orzu-armonlaridan tug'ilgan. Badiiy asar ana shu orzu-armonlarni aks ettirishga tarbiyaviy quvvatga ega bo'ladi.

Badiiy asarlarning *ta'sir darajasini oshirish uchun unda tasvir etilgan odam, narsa yoki hodisaga xos xususiyatni o'rtirib ko'rsatilishi **mubolag'a*** deyiladi. Mubolag'a obrazni bo'rttirish orqali uning ta'sir kuchini oshirishga qaratilgan bo'ladi. «Ravshan» dostonida Hasanxonning g'azabi, Jay-noqning jismoniy qudrati juda oshirib tasvirlangan o'rinlar ko'p uchraydi. Mubolag'a xalq dostonlarida juda ko'p qo'llaniladigan tasvir vositasidir.

Mumtoz adabiyotda behad orttirilgan mubolag'a *bulug'* yoki *ifrot* ham deyiladi. Aqlga sig'maydigan darajadagi mubolag'a **g'ulu** deb ham yuritiladi.



Alisher Navoiy

(1441–1501)



utun umrini turkiy til mavqeyini ko‘tarish, turkiy adabiyot imkoniyatlarini dunyoga tan oldirish, turkiy davlatchilik asoslarini mustahkamlash, jamiyatda haqiqat va adolat mezonlarini qaror top-tirishga bag‘ishlagan bobokalonimiz haqidagi biografik ma’lumotlar, yozmishlarining deyarli barchasi to‘liq saqlanib qolgan. Xalq ichida bu zotning hayoti va faoliyati bilan bog‘liq rivoyat va afsonalar ham talaygina. Chunki odamlar o‘zlariga va kelgusi avlodga yashash tarzi, qilmishlari ibrat, aytmiş va yozmiş so‘zlari haqiqat bo‘lgan zotlar to‘g‘risida ham hurmat, ham hikmat ma’nosida mana shunday og‘zaki ijod namunalarini to‘qib oladilar.

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Xuroson o‘lkasining poytaxti Hirotda tug‘ildi. Zamondoshlari uni «Nizomiddin Mir Alisher» deb ulug‘laganlar. «Nizomiddin» – din nizo-mi deganidir. Ko‘pincha, mansab egalariga nisbatan aytilgan «mir» – amir demakdir. Chunki u Husayn Boyqaro saroyidagi eng nufuzli amir bo‘lgan. Alisher bolalikdan ma’rifatli oila muhitida tarbiya topdi. Navoiyning otasi G‘iyosiddin Muham-mad (uni «G‘iyosiddin kichkina» ham der edilar) temuriy-larga yaqin amaldorlardan bo‘lib, o‘z davrining obro‘li va

ma'rifatli kishilaridan sanalgan. Adabiyotshunos Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha, u o'g'li Alisherning tarbiyasi-ga, kelajakda fazilatli odam bo'lib yetishmog'i uchun astoydil harakat qilgan. Onasi Kobul amirzodalaridan Shayx Abusaid Changning qizi bo'lgan. Bo'lajak shoirning tog'alari Mir Said (Mirsayid) Kobuliy yaxshi shoir, Muhammad Ali G'aribiy shoir, sozanda va xattot edilar. Alisher oilada uchinchi yoki to'rtinchi farzand bo'lib, maktabda bo'lajak sulton Husayn Boyqaro bilan birga o'qidi. U erta savod chiqardi, she'r o'qish va yod olish, she'r bitishga bolalikdan havas uyg'ondi. Kichik maktab yoshida fors shoiri Farididdin Attorning kattalar ham tushunishi qiyin bo'lgan «Mantiq ut-tayr» dostonini fors tilida o'qib ham uqib yod olgani uning yoshlik iste'dodining muqim qirralaridan edi.

1447-yilda podshoh Shohrux Mirzo vafot etib, poytaxt Hirot notinch bo'lib qoladi. Alisherlar oilasi Iroqqa ko'chib ketadi. Yo'lda Taft shahrida Alisher mashhur tarixchi Shara-fiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi, tiyrak va aqlli bolakay-ni-ning zukkoligidan mamnun bo'lgan keksa olim uning haqqiga duolar qiladi. Xalq orasidagi «Ulug'lar duosi qabul bo'ladi» degan naql bejiz emas.

Alisherlar xonadoni 1451-yilda Hirotga qaytadi. Ko'p o'tmay, taxtga Abulqosim Bobur Mirzo o'tiradi. Alisherning otasi G'iyosiddin Muhammad Sabzavorga hokim qilib tayin-lanadi. Alisher esa, o'qishni davom ettiradi.

1453-yilda Alisherning otasi G'iyosiddin Muhammad vafot etdi. Alisher Abulqosim Bobur xizmatiga kirdi. Av-val Sabzavorda, so'ng Mashhadda yashadi. Ikki maktabdosh do'st: Husayn va Alisher yana birga bo'ldilar. Bu yillar ham yosh Alisher uchun o'qish va bilim egallash davri bo'ldi.

She'rga mehr Alisherni ijodga undadi. U 7–8 yoshlaridan she'r yoza boshladi. O'zbekcha she'rlariga «Navoiy», forsha she'rlariga «Foniy» taxallusini qo'ydi. Deyarli Siz tengi payt-larida she'rlari bilan mamlakatga tanilib qolgan edi.

O'smirlik davrlarida Alisher o'qishda va yozishda tinim bilmas, she'r mutolaasidan charchamas edi. «Muhokamat ul-

lugʻatayn» asarida oʻzining yoshlik chogʻida mashhur oʻzbek va fors shoirlari nazmidan 50 ming bayt (100 ming misra) sheʼrni yod bilganini yozadi. Bolalik vaqtlaridayoq oʻz davrining Amir Shohiy, Lutfiy, Kamol Turbatiy kabi shoirlari bilan yaqindan aloqada boʻldi. Otasi vafotidan soʻng taniqli ilm va adabiyot, sanʼat arboblardan Sayyid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad kabilar otalik qildilar. Sabzavorlik olim va shoir Darvesh Mansurdan aruz boʻyicha taʼlim oldi.

1457-yilda Abulqosim Bobur Mirzo vafot etdi. Uning oʻrnini Abusaid Mirzo egalladi. Husayn Boyqaro taxt uchun kurashga shoʻngʻib ketdi. Navoiy esa Mashhad madrasalarida oʻqishni davom ettirdi. 1464-yilda Hirotga qaytib kelgan shoir hayotida noxushliklar boshlandi. Abusaid Mirzo taxtga daʼvogar Husayn Boyqaroning yaqin kishilarini taʼqib ostiga oladi. Alisherning ota mulkini musodara qiladi, togʻalari Kobuli va Gʻaribiylarni qatl ettiradi.

Navoiy 1460-yillarning ikkinchi yarmida Samarqandda yashadi. Temurbek poytaxt qilgan bu koʻhna shahar uning hayotida oʻchmas iz qoldirdi. Bu yerda oʻz davrining yetuk olimlaridan, xususan, shu kungacha asarlari Islom olamida moʻtabar sanalib kelayotgan Fazlulloh Abulays Samarqandiydek allomadan saboq oldi. Keyinchalik bu shaharni oʻz asarlarida «firdavsmonand» (jannatmisol) deb taʼrif etdi. Bu yerda shoir sifatida juda katta shuhrat topa bordi. Bir devonga yetib ortadigan asarlari boʻlishiga qaramay, kamtarlik tufayli boʻlsa kerak, oʻzi tartib bermaganligi uchun 1465–1466-yillarda uning muxlislari sheʼrlarini toʻplab, «Devon» tuzdilar. Bu kitob bugungi kunda shartli ravishda «Ilk devon» deb nomlanadi.

1469-yilda Hirot taxtiga Husayn Boyqaro chiqadi va Samarqandga xat yoʻllab, Alisher Navoiyni oʻz yoniga chaqirib oladi. Davlat ishlariga jalb etadi, avval muhrdor¹, soʻng vazir qilib tayinlaydi. 1487–1488-yillarda Astrobodga hokimlik qildi. Husayn Boyqaro hokimiyat ishlarida Navoiyning aql

¹ *Muhrdor* – davlat hujjatlarini rasmiylashtiruvchi amaldor.

va sadoqatiga tayanib ish ko‘rdi. Uning qarshiligiga qaramasdan, shoirni yuqori martabalariga tayinladi. Buyuk shoir «amiri kabir» (ulug‘ amir), «amir ul-muqarrab» (podshohga eng yaqin amir) unvonlariga musharraf bo‘ldi. Uning vazirlik yillari Hirotida obodonlik ishlari avj olgan, madaniyat gullab-yashnagan, adolat va haqiqat tug‘i baland ko‘tarilgan davr bo‘ldi. «Ilgimdan kelganicha, – deb yozadi «Vaqfiya» asarida Navoiy, – zulm tig‘in ushotib (sindirib), mazlum jarohatig‘a intiqom marhamini (qasos malhamini) qo‘ydum. Va ilgimdin kelmaganni ul Hazrat (Husayn Boyqaro) arzig‘a yetkurdim».

Davlat ishlari bilan bir qatorda o‘zining sevimli mashg‘uloti – badiiy ijodni ham to‘xtatmadi. 1472–1476-yillarda «Badoe ul-bidoya» («Badiiylik ibtidosi»), 1476–1483-yillarda «Navodir un-nihoya» («Tuganmas nodirliklar») nomlari bilan ikki devon tuzdi.

1483-yilda turkiy tilda birinchi bo‘lib «Xamsa» yozishga kirishdi va misli ko‘rilmagan qisqa muddat – ikki yilda besh yirik dostonidan iborat asarni yozib tugatdi. Ilm va ijod ahli bu voqeani zo‘r shodliklar bilan qarshi oldi. Abdurahmon Jomiy Navoiy «Xamsa»siga yuksak baho berdi. Husayn Boyqaro buyuk shoirni o‘zining oq otiga mindirib, unga jilovdorlik qilib, Hirot ko‘chalarini aylantirdi. Bu insoniyat tarixida kamdan kam uchraydigan hodisa edi: qudratli davlatning shavkatli podshohi bir shoirga jilovdorlik qilsa! Mazkur hodisa ayni paytda Husayn Boyqaroning ma‘nan yuksak, ma‘rifatli va haqiqatpesha hukmdor bo‘lganligining dalilidir. Navoiy «Hayrat ul-abror» dostonida bejiz uni shoh G‘oziy deya ulug‘lamagan edi.

1489–1493-yillar shoir uchun ayriliq, og‘ir judolik yillari bo‘ldi. Do‘stlari, ustozlaridan Sayyid Hasan Ardasher, Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Muhammad ketma-ket vafot etdilar. Navoiy ularning xotirasiga bag‘ishlab uchta memuar – esdaliklardan iborat nasriy asarlar yaratdi.

Navoiy fanning bir necha sohalarida qalam tebratib, zabardast olim ekanligini ham isbot etdi. O‘tmish mavzusida «Tarixi mulki Ajam» («Ajam, ya’ni arab bo‘lmagan mam-

lakatlar tarixi»), «Tarixi anbiyo va hukamo» («Paygʻambarlar va donishmandlar tarixi») asarlarini yozgan. Turkiy adabiyotshunoslikda ham uning alohida oʻrni bor. Aruzga doir «Mezon ul-avzon» («Vaznlar oʻlchovi»), tazkirachilikka¹ oid «Majolis un-nafois» («Nafis majlislar») kabi asarlar yaratdi. Bular oʻzbek (turk) tilida shu sohalaridagi birinchi asarlar edi. Buyuk shoir tilshunoslik bilan ham qiziqdi. Lugʻatshunoslikka oid «Sabʻat-u abhur» («Yetti dengiz») nomli kitob yozdi. Ayniqsa, «Muhokamat ul-lugʻatayn» («Ikki til muhokamasi») asarida turk (oʻzbek) va sort (fors) tillarini solishtirib, oʻz ona tilining tuganmas imkoniyatlarini ilmiy asoslab berdi.

Navoiy 1490-yillarda adabiyotimiz tarixidagi yana bir katta hodisa – «Xazoyin ul-maoniy» («Maʼnolar xazinasi») majmuasini tuzdi. Toʻrt devondan iborat boʻlgan bu ulkan sheʼriy toʻplam shoirning turkiy tilda yozgan deyarli barcha lirik sheʼrlarini qamrab olgan edi. Shuningdek, fors tilini mukammal bilgan va unda ham barakali ijod qilgan shoir bu tilda yozgan sheʼrlarini toʻplab «Devoni Foniyy»ni tuzdi.

Buyuk adib umrining oxiriga qadar ilm-u ijod bilan qizgʻin va samarali shugʻullandi. Sharqda oʻtgan mashhur shayxlar, soʻfiylar hayoti haqida maʼlumot beruvchi «Nasoyim ul-muhabbat» («Muhabbat shabadalari») asarini yozib tugatdi. Soʻng umr boʻyi xayolini band etgan «Lison ut-tayr»ni qogʻozga tushirdi. Boshqalar bilan olib borgan yozishmalari – xatlarini toʻplab «Munshaot» («Xatlar») tuzdi. 1500-yilda buyuk mutafakkirning yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlarini oʻzida ifodalagan «Mahbub ul-qulub» («Koʻngillarning sevgani») asari maydonga keldi. Bu buyuk adibning soʻnggi asari edi.

Alisher Navoiy 1501-yilning 3-yanvarida vafot etdi.

¹ *Tazkira* – ijodkorlar haqida ixcham maʼlumot va ayrim asarlaridan namuna keltiriladigan toʻplam.



1. Navoiyning «shams ul-millat» deb ulugʻlanishi sababini ayting.
2. Shoirning bolalik va oʻsmirlikdagi qaysi jihatlari keyinchalik buyuk inson boʻlib yetishuviga sabab boʻlganligi toʻgʻrisida fikr yuriting.
3. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari, shoirning davlat arbobi sifatida olib borgan faoliyati haqida nima deya olasiz?

«SABʼAI SAYYOR» DOSTONIDAN

Beshinchi iqlim yoʻlidan kelgan musofirning dostonoroligʻi¹

Aziz oʻquvchi! Endi eʼtiboringizga «Xamsa»ning toʻrtinchi dostoni boʻlmish «Sabʼai sayyor»dan olingan parchani havola qilamiz. Agar «Hayrat ul-abror»da yaxlit bir voqea hikoya qilinmay, u fikr-mulohaza, mushohada va tahlillardan iborat maqolatlardan, kichik hajmli hikoyatlardan tuzilgan boʻlsa, bu doston keng qamrovli voqealarni oʻz ichiga olgan murakkab sujetli yirik epik asardir. Bunday asarlarda tasvirlar oʻzgarishi, voqealar almashinuvi oʻziga xos tarzda boʻladi. Yaʼni voqealar bir makondan boshqasiga oʻtganda, lavhalarining biri ikkinchisiga koʻchganda zamonaviy epik asarlarda boʻlganidek boblar, boʻlimlar yoki sarlavhalar bilan ajratilmaydi. Shuning uchun mutolaa davomida Sizdan diqqat va sinchkovlik talab qilinadi. Garchi dostonning oʻzida boʻlmasa-da, Sizga tushunishni yengillatish uchun voqealar almashinuviga qarab, biz ushbu parchani shartli ravishda olti qismga ajratib taqdim etdik. Avvalgi uch qismda har bir baytning satrma-satr maʼnosini bermoqdamiz. Bundan maqsad: Sizda oldingi mashgʻulotlar orqali baytlarni tushunish va tahlil qilish koʻnikmasini shakllantirish. Siz avval baytni diqqat bilan oʻqing, keyin uni satrlar ostida bugungi tilda berilgan

¹ Dostonoroligʻ – dostonchilik, doston aytuvchilik.

mazmuni bilan misrama-misra solishtiring. E'tibor bering: tushunilishi qiyin so'zlar ma'nosi chiziq (defis) yoki «ya'ni» so'zidan keyin keltirildi. Agar bunday so'zlar bir necha marta takrorlansa, ma'nosi izohlanmay o'z holicha qoldirildi. Qavs ichida esa misralarda bevosita bo'lmasa-da, bayt mazmuni-dan kelib chiqib qo'yib olinishi kerak bo'lgan so'zlar keltirildi. Agar shu uch qism orqali bayt mazmunini chiqarishni puxta o'zlashtirib olsangiz, keltirilgan parchaning qolgan qismini o'zingiz mustaqil tushunib, tahlil qila bilasiz.

I. Suv va quruqlikda zulmni o'ziga kasb qilib olgan zolim qaroqchi va uning makoni ta'rifi

«Bor ekandur Adanda¹ javr² fane³,
Javr qilmoq fanida safshikane⁴.

*Adanda jabrni fan – kasb (qilgan kishi) bor edi,
(U) jabr qilish fanida safshikan, ya'ni qahramon edi.*

Bori manzil o'lub savohil⁵ anga,
Sohili bahr⁶ o'lub manozil⁷ anga.

*Barcha manzillar unga sohil bo'lib,
Dengiz sohillari uning manzillari edi.*

Ham tanumand-u⁸ ham shujo-u⁹ daler¹⁰,
Ul sifatkim jazira¹¹ ichraki sher.

¹ *Adan* – Arabistondagi kichik mamlakat nomi.

² *Javr* – jabr, azob.

³ *Fan* – hunar.

⁴ *Safshikan* – saflarni buzuvchi qahramon.

⁵ *Savohil* – sohillar, qirg'oqlar.

⁶ *Sohili bahr* – dengiz sohili.

⁷ *Manozil* – manzillar, maskan.

⁸ *Tanumand* – kuchli.

⁹ *Shujo* – botir.

¹⁰ *Daler* – qo'rqmas.

¹¹ *Jazira* – orol.

*(U) ham kuchli, ham botir-u qo'rqmas (bo'lib),
Bu sifatлари (bilan) jangalzor ichra sher(ga o'xshardi).*

Axzi¹ moli harom komi o'lub,
Bo'yla kom istabon haromi o'lub.

*Maqsadi harom, ya'ni o'zgalar molini talash bo'lib,
Bunday istagidan (u) haromi(ga aylangandi).*

Shavkatidin ne yor anga, ne rafiq²,
Yolg'uzun aylar erdi qat'i tariq³.

*Shavkatidan unda na o'rtoq, na do'st bo'lib,
Yolg'iz o'zi yo'lto'sarlik qilar edi.*

Karvoni agar o'n-u gar yuz,
Borchasig'a harif⁴ edi yolg'uz.

*(Yo'lda karvon xoh o'n, xoh yuz (bo'lsa-da),
Barchasiga yolg'iz o'zi bas kela olardi.*

Yo'q savohil ichinda rahzan⁵ ul,
Bahr aro ham anga kelib fan ul.

*U sohilda, ya'ni quruqlikdagina qaroqchi emasdi,
Dengiz ichida ham bu (qaroqchilik) unga fan edi.*

Bir necha zavraq⁶ asrabon tayyor,
Yangi oy zavraqi kibi sayyor.

*(U doim) bir necha qayiqni tutardi tayyor,
(Ular) yangi (chiqqan) oy kabi edilar sayyor.*

Qaysi zavraqkim, ul yasab oni,
Asrabon o'zga yerda pinhoni.

¹ Axz – olmoq, egallamoq.

² Rafiq – do'st, o'rtoq.

³ Qat'i tariq – yo'l to'sish, yo'lto'sarlik.

⁴ Harif – raqib, bas kelguvchi, dushman.

⁵ Rahzan – yo'lto'sar, qaroqchi.

⁶ Zavraq – qayiq.

*U qaysiki kema(lar)ni yasagan bo'lsa,
(Ularni) o'zga, ya'ni boshqa yerda pinhon asrardi.*

Necha rahzan anga mulozim etib,
Hifzini¹ borchasig'a lozim etib.

*Qancha yo'lto'sarni unga, ya'ni kemalarga etib mulozim,
Barchasiga (kemalarni) qo'riqlashni ayladi lozim.*

Qaydakim zavraqi topib taskin,
Anda bir diydabon² qilib tayin.

*Qayerdagi kemasi taskin topgan – yashirilgan bo'lsa,
U yerga bir diydabon – kuzatuvchini tayin qilardi.*

Kim jazoirdakim tutub besha³,
Ul kishiga bu ish bo'lub pesha.

*Kim (qaysi) jazira, ya'ni orolda makon tutsa,
Unga bu ish, ya'ni kuzatuvchilik pesha – vazifa bo'lardi.*

Kim, chiqib bir biyik shajar uzra,
Ko'z solib bahri mavjvar⁴ uzra.

*(Kuzatuvchi) bir ulkan daraxt ustiga chiqib,
Mavjli dengiz uzra ko'z solib (o'tirar edi)*

Ko'ziga kema uchrasa nogah,
Ani filhol⁵ etar edi ogah.

*Nogoh ko'zlariga kema ko'rinsa,
Darhol u (zolim)ni ogoh etardilar.*

Ul minib zavraqi sabuksayre⁶,
O'ylakim suvda sayr etar tayre⁷,

¹ *Hifz* – saqlash, qo'riqlash.

² *Diydabon* – kuzatuvchi, poyloqchi.

³ *Besha* – o'rmon, to'qay.

⁴ *Bahri mavjvar* – mavjlangan dengiz.

⁵ *Filhol* – darhol.

⁶ *Sabuksayre* – tezyurar.

⁷ *Tayr* – qush.

*U (darhol) tezyurur kemaga minar (edi),
Go 'yoki suvda sayr etuvchi suzar qush(dek bo 'lardi).*

Kema ahlig'a hay deguncha yetib,
Borchag'a har ne ko'ngli istar etib.

*Kema ahliga «hay» deguncha – birpasda yetardi,
Barchasiga ko'ngli istaganini qilardi.*

Talabon mol-u, elni aylab halok,
Yonibon¹ komi dil bila bebok².

*Mol(lar)ni talab, (kemadagi) elni halok qilib,
Dildagi maqsadi(ga yetib) xotirjam qaytardi.*

Bahr aro ofati nechukki nahang³,
Besha ichra nechukki sher-u palang⁴.

*(U) dengiz ichida go 'yo nahang kabi ofat (bo 'lsa),
To 'qay, ya 'ni quruqlikda sher-u yo 'lbars(day edi).*

Suv yuzinda sabo kibi obir⁵,
Otini xalq aytibon Jobir⁶.

*Suv yuzida shabada kabi kezuvchi (edi),
Xalq (uning) otini Jobir derdi.*

Dasht-u daryoda lek ahli ubur⁷
«Jobiru rohzan⁸» qilib mashhur.

*Lekin dasht-u daryoda(gi) sayyohlar (orasida)
(U) «qaroqchi Jobir» (nomi bilan) mashhur edi.*

¹ Yonib – qaytib, ketib.

² Bebok – qo'rqmay.

³ Nahang – ulkan yirtqich baliq, akula.

⁴ Palang – yo'lbars.

⁵ Obir – yeluvchi, yengil o'tuvchi.

⁶ Jobir – jabr qiluvchi.

⁷ Ahli ubur – keluvchilar, sayyohlar

⁸ Jobiru rohzan – Jobir yo'lto'sar.

Bor edi bir jazira ma'man¹ anga,
Xalq molin yig'org'a maxzan² anga.

*Uning bir jazirada joyi bo'lib,
(U talangan) xalq moli yig'iladigan xazina edi.*

Bir yig'ochqa³ yaqin jazirag'a davr⁴,
Davrida suvg'a topmayin kishi g'avr⁵.

*Jaziraning davr(i) – atrofi bir yig'ochga yaqin (bo'lib),
Bu masofadagi suv tubiga hech kim yetmagandi.*

Davrasida ko'runmayin ko'zga,
Onchakim ko'z tushar sudin o'zga.

*Atrofdan (qaraganda, jazira ko'zga ko'rinmasdi,
Shunchalik ediki, ko'z suvdan o'zgasiga tushmasdi.*

Ichida beaded shajar butubon,
Sabza o'rnig'a nilufar butubon.

*Ichida beaded, ya'ni behisob daraxt bitgan,
Sabza, ya'ni maysalar o'rniga nilufar bitgandi.*

Chashmayi erdi xushguvor⁶ anda,
Zahr aro no'sh⁷ oshkor anda.

*U yerda shirin chashma (bor bo'lib),
U zahar ichidagi ichimlik suvdek ko'rinardi.*

Ul su birla yasab edi bog'e,
Bog' ichinda imorati dog'i.

¹ Ma'man – joy.

² Maxzan – xazina.

³ Yig'och – o'n ikki chaqirim (kilometr) chamasidagi masofa.

⁴ Davr – oraliq, aylana.

⁵ G'avr – tub, qa'r, tag.

⁶ Xushguvor – shirin, lazzatli.

⁷ Zahr aro no'sh – dengizning zaharday sho'r suvi o'rtasidagi birdan bir ichimlik suv.

*Shu (buloq suvi) bilan bog' barpo etgan,
Bog' ichida (esa) yana imorat ham yasagan edi.*

*Anda dahlez-u gunbaz-u ayvon,
Suyi andoqki chashmayi hayvon¹.*

*Unda dahliz-u gumbaz-u ayvon (bo'lib),
(Uning) suvi obihayot bulog'idek edi.*

II. Sohibjamol Mehr vasfi va uning tasodif bo'roni tufayli Jobir qo'lida asira bo'lganligi bayoni

*Go'yiyo andag'i jazoir aro,
Shahri ermish oti «Bihishtsaro»².*

*Deydilarki, boshqa bir jazira orasida
«Behishtsaro» nomli shahar (bor) edi.*

*Anda shohi saxi-yu donishvar³,
Qabzai hukmi⁴ ichra ul kishvar.*

*Undagi shoh saxi-yu donishmand bo'lib,
U mamlakat (shu shoh) hukmi ichida, ya'ni ostida edi.*

*Oti Navdar va lek o'zi nodir,
Tab'i har nodir ish aro qodir.*

*(Shohning) oti Navdar, o'zi nodir,
Tab'i ham har nodir ishga qodir edi.*

*Bor emish go'yiyo anga bir qiz,
Odami o'yla ko'rmagan hargiz.*

*Uning bir qizi bor emishki, go'yo
Odamizod bunday (go'zal)ni hargiz ko'rmagan.*

¹ *Chashmayi hayvon* – tiriklik, hayot bulog'i.

² *Bihishtsaro* – jannat yer, jannat joy.

³ *Donishvar* – dono, donishmand.

⁴ *Qabza*

i hukmi – qo'l ostidagi, tasarrufidagi.

Qaddikim naxli sarfarozi¹ kelib,
Husn bog'ida sarvinozi² kelib.

*Qaddi tik o'sgan nihol singari,
Husn bog'ida u sarvinoz edi.*

Zulfidin sunbul³ aylabon yuz pechi⁴,
Og'zidin g'uncha aytmay so'z hech.

*Zulfini ko'rib sunbul (rashkdan) yuz buralib ketadi,
Og'zini ko'rgach g'uncha (uyatdan) hech so'z aytolmay
qoladi.*

Orazi⁵ mash'ali jahonafrozi⁶,
Partavi⁷ shu'lasini kelib jonso'zi⁸.

*Yuzi jahonni kuydiruvchi mash'ala bo'lsa,
(Undan taralayotgan) nur shu'lasini jonga o't qo'yuvchi edi.*

Sochi aylab kamand bo'lmoq fan,
Mehr bo'ynig'a tortar erdini rasan⁹.

*Sochi kamand – sirtmoq bo'lishni fan qilgan bo'lib,
Quyoshning bo'yniga arqon(dek o'ralib) tortar edi.*

Yuzig'a mehr banda-vu oti Mehr,
O'yurulub¹⁰ mehridek boshig'a sipehr¹¹.

*Yuziga mehr – quyosh banda bo'lgan(ning) oti Mehr,
Falak boshi uzra quyoshdek aylanardi.*

¹ Sarfarozi – yuksak, o'sgan.

² Sarvinoz – sarvqomat.

³ Sunbul – mayin va uzun tolali qora o'simlik.

⁴ Pech – o'ram, to'lg'am.

⁵ Oraz – yuz.

⁶ Jahonafrozi – jahonni kuydiruvchi, yorituvchi.

⁷ Partavi – nur, shu'la.

⁸ Jonso'zi – jonni yoquvchi.

⁹ Rasan – arqon.

¹⁰ O'yurulub – aylanib.

¹¹ Sipehr – falak, osmon.

Bahrg'a noz ila chu ko'z solibon,
Dema ko'lok¹, bahr qo'zg'olibon.

*(Agar u) noz bilan dengizga ko'z tashlasa,
To'lqinlargina emas, (balki) dengiz qo'zg'alardi.*

Bu sifat mehri olamfuruze²,
Mehr yo'q, shu'lai jahonso'ze³.

*Bu sifat bilan u olamni yoritadigan mehr – quyoshdir,
Yo'q, mehr emas, jahonni yondirguvchi shu'ladir.*

Bir kun istab tengiz tafarrujini⁴,
Yel xiromi-yu suv tamavvujini⁵.

*Bir kuni (u) dengiz sayrini istab,
Yel esishini-yu suv mavjlanishini (ko'rmoqni tusadi).*

Kiribon zavraq ichra soyir⁶ o'lub,
Ul jazoir to'shida⁷ zoyir⁸ o'lub.

*(Qiz) kemaga tushib sayr qildi,
O'sha jazira (Jobir oroli) tarafga zoyir – kezuvchi bo'ldi.*

O'yla bahri falak misol ichra,
Kavkabi⁹ yer tutub hilol¹⁰ ichra.

*Go'yo dengiz falak misol-u, ya'ni dengiz osmonga o'xshar,
(U) hilol – yarimoy shaklidagi kema ichidagi yulduzdek edi.*

Nogahon esdi nomuvofiq yel,
Voqif¹¹ o'lguncha kemalardagi el.

¹ Ko'lok – to'lqin.

² Olamfuruz – olamni porlatuvchi.

³ Jahonso'z – jahonni kuydiruvchi.

⁴ Tafarruj – sayr.

⁵ Tamavvuj – mavjlanish.

⁶ Soyir – sayr qiluvchi, sayyoh.

⁷ To'sh – taraf, tomon.

⁸ Zoyir – ziyoratchi.

⁹ Kavkab – yulduz.

¹⁰ Hilol – yangi yarimoy (qayiqqa o'xshashligiga ishora).

¹¹ Voqif – xabardor.

*Nogahon kutilmagan yel esdi,
Kemadagi odamlar (bundan) voqif bo'lgunlaricha.*

*Kemalarni tengiz aro surdi,
Shiddatin lahza-lahza oshurdi.*

*Kemalarni (shamol) dengiz ichiga surdi,
Shiddatini har lahzada oshirdi.*

*Toki tund o'ldi¹ bahr aro ko'lok,
Dedi malloh² aylabon yaqo chok.*

*Toki dengizda to'lqinlar tund bo'lgan – quturganda,
Kemachi yoqasini chok qilib dedi:*

*Kim: «Inoyat³ yo'q ersa Yazdondin⁴,
El kerakdur yumoq ilik jondin»⁵.*

*«Yazdon, ya'ni Xudo inoyat etmasa,
El jonidan qo'l yuvsin – umid uzsın».*

*To bu yanglig' necha kecha-kunduz,
Yel surar erdi kemalarni tuz⁶.*

*Shu tariqa necha kecha-kunduz
Yel kemalarni turli yoqqa surib ketdi.*

*Topqucha yel suubati⁷ orom,
Kemaga oncha bo'lmish erdi xirom⁸.*

*Shamol dahshati tinguncha,
Kema ancha uloqib yurdi.*

*Ki kishikim qo'yib edi Jobir,
Diydabonliqqa har sori nozir⁹.*

¹ *Tund o'ldi* – kuchaydi, g'azablandi, ko'tarildi.

² *Malloh* – kemachi.

³ *Inoyat* – marhamat, shafqat.

⁴ *Yazdon* – Xudo, Yaratgan.

⁵ *Yumoq ilik jondin* – jondan umidni uzish, qo'lni yuvib qo'ltiqqa urish.

⁶ *Tuz* – to'g'ri, old.

⁷ *Suubat* – dahshat, to'polon.

⁸ *Xirom* – ohista yurish.

⁹ *Nozir* – nazoratchi, kuzatuvchi.

*Jobir (tomonidan) qo'yilgan kishi
Diydabonlik qilib har soriga nazar tashlardi.*

Suvda chun kemaga nazar qildi,
Ko'rganidin anga xabar qildi.

*(U) suvda (tentib yurgan) kemani ko'rdi,
(Bu) ko'rganini unga, ya'ni Jobirga xabar qildi.*

Kirdi zavraqqa Jobiri xunrez¹,
Yel kibi qo'ydi yuz alar sori tez.

*Qon to'kuvchi Jobir kemasiga o'tirib,
Ular sari yel kabi tezlik bilan suzdi.*

Yetkacho'q² bo'ldi razm-u³ kinpardoz⁴
Qildilar kin alar dog'i og'oz⁵.

*Yetiboq urush va o'q otishga tushdi,
Ular (kemadagilar) ham qarshilik ko'rsata boshladilar.*

Har o'qikim, alar sori otti,
Qonlarin bahr suvig'a qotti.

*(Jobirning) ular sari otgan har o'qi
Qonlarini dengiz suviga oqizdi.*

Qildilar, chun ko'p ayladi bedod⁶,
Qolg'oni zinhor ila faryod.

*(Jobir) shu tariqa ko'p zulm ko'rsatgach,
(O'lmay) qolganlari faryod bilan (taslim bo'ldilar).*

Olig'a solibon borin surdi,
Tokim o'z maskanig'a yetkurdi.

¹ Xunrez – qonxo'r, qon to'kuvchi.

² Yetkacho'q – yetiboq, yeta solib.

³ Razm – olishuv, jang.

⁴ Kinpardoz – adovat qiluvchi.

⁵ Og'oz – boshlash.

⁶ Bedod – adolatsiz, zo'ravon.

*(Jobir ularning) barini oldiga solib,
To o‘z maskaniga yetkuncha surdi, ya‘ni haydab ketdi.*

Kemalarni qirg‘oqq‘a bog‘lab rust,
Xalq-u amvolini¹ chiqordi durust.

*Kemalarni qirg‘oqqa mahkam bog‘lab,
Xalqni, mollarning hammasini o‘ziniki qilib oldi.*

Sho‘xdin² chun emas edi ogoh,
Ko‘zi tushti aning sori nogoh.

*(Avvaliga) go‘zaldan (uning) xabari yo‘q edi,
Nogoh unga ko‘zi tushib qoldi.*

Yiqilib zoyil o‘ldi³ andin hush,
Bir dam erdi o‘luk kibi xomush.

*(Shunda) undan (aql-u) hush yo‘qolib,
Bir dam o‘lik kabi jim bo‘lib qoldi.*

Hushi kirgach, yana nazar etti,
Ko‘rgacho‘q holidin yana ketti.

*Hushiga kelgach, yana nazar qildi,
Ko‘rdi-yu, yana holdan ketdi.*

Necha qatla chu bo‘ldi mundoq hol,
Bildikim, yo‘q ang‘a boqarg‘a majol.

*Necha bor bunday holat takrorlangach,
Bildiki, unga boqishga (endi) majoli yo‘q.*

Amr qildiki, mohi Zuhrajabin⁴,
Kirdi bog‘ ichra bo‘ldi qasrnishin⁵.

¹ *Amvol* – mollar, narsalar.

² *Sho‘xdin* – o‘ynoqidan, go‘zaldan (qizdan ma‘nosida).

³ *Zoyil o‘ldi* – yo‘qoldi.

⁴ *Zuhrajabin* – Tong (Zuhra) yulduzidek.

⁵ *Qasrnishin* – qasrda o‘tirish.

*Amr qildiki, bu Zuhra yulduzidek oy
Boqqa kirib, (undagi) qasrda o'tirsin.*

Qoshig'a qo'ydi bir-ikki gulxad¹,
Sarvi gulruxg'a hamdam-u hamqad.

*Uning oldiga bir-ikki gul yanoqli go'zallarni qo'ydi,
(Toki ular) gulyuzli sarvga hamdam-u hamqad bo'lsin.*

O'zga nekim bor erdi yaxshi-yomon,
Beribon jonidin borig'a amon.

*Boshqa (asirlardan) yaxshimi-yomonmi kim bo'lsa ham
Barchalarining jonlariga omonlik berdi.*

Qildi bir kema borchag'a ta'yin,
Ul kema ichra tuttilar taskin².

*Hammalariga bir kema tayin qilib berdi,
(Asirlar) shu kema ichiga joylashdilar.*

Dedi: «O'z mulkingizga azm etingiz,
Jon keraklik esa ravon ketingiz».

*(Jobir) dedi: «O'z mamlakatingizga jo'nangiz,
Jon kerak bo'lsa ravon – tez ketingiz».*

Vahm etib ul guruh bu so'zdin,
Bahr aro yittilar³ ravon ko'zdin.

*(Kemadagi) guruh bu so'zdan vahimaga tushib,
Dengiz aro tezda ko'zga ko'rinmay ketdi.*

Mohvash qoldi ul jazira aro,
Mehri iqboli shomi tiyra aro.

*Oy yuzli go'zal u jazira ichida qoldi,
Iqbol quyoshi qorong'i shom ichida (ko'rinmas bo'ldi).*

¹ Gulxad – gul yanoqli.

² Taskin – joylashmoq, to'xtamoq.

³ Yittilar – ko'rinmay ketdilar, yitdilar.

Jobir oning xayolidin xushhol,
Ko‘ngliga kelmayin umidi visol.

*Jobir uning xayoli bilan xushhol (yurar),
Ko‘ngliga visol umidini keltirmas ham edi.*

Mehr ko‘ziga shamdek ayyom,
Mehrdek ko‘ngli o‘rtanib to shom.

*Mehrning ko‘ziga kunduzlar shomdek ko‘rinar,
Ko‘ngli quyosh kabi (ertalabdan) to shomgacha
o‘rtanardi.*



Savol va topshiriqlar:

1. Asar boshida Jobir qanday tasvirlanganini so‘zlab bering. Uning aqli va tadbirkorligi qaysi o‘rinlarda namoyon bo‘ladi?
2. «*Ham tanumand-u ham shujo-u daler*» bo‘lgan, «*tadbir-u roy*»da mislsiz Jobirning ma’naviy qiyofasi haqida nima deysiz?
3. Asarda Jobirning «moli harom» maqsadi bilan yashashi aytiladi. Harom mol, harom rizq tushunchasini Siz qanday izohlaysiz? Navoiy harom bilan tirikchilik qiluvchilarni qanday atagan?
4. Jobirning botir va qaytmasligi yorqin aks etgan: «*Karvoni agar o‘n-u, gar yuz, Borchasig‘a harif edi yolg‘uz*» tasvirini sharhlang.
5. Navdarshohning shaxsiy fazilatlari, mamlakatining nomlanishi va go‘zal tabiati tasviri o‘lka va uning xalqi to‘g‘risida tasavvur beradimi?
6. Navoiy sakkiz baytda Mehrning beqiyos go‘zalligini chizib ko‘rsatadi. Mazkur baytlarda qaysi badiiy tasvir vositalari qo‘llanganini toping.
7. Mehrning tutqunlikka tushib qolish sababini, tutqunlikdagi qiz kechinmalari qanday ifodalanganini sharhlang.

III. Ko'rkam Suhayl ta'rifi, tutqinlikdagi Mehr iztiroblari tasviri va to'y taraddudida dengizdan yo'lga chiqqan Suhaylning hiyla domiga bandi bo'lganligi to'g'risida

...Go'yiyo ham jazirada bir shahr,
O'zi firdavs-u salsabil¹ anga nahr.

*Xuddi shunday (boshqa) jazirada (ham) bir shahar
(bo'lib),
O'zi jannat bog'iday, ariqlari jannatdagi buloq kabi edi.*

Bor emish ravzadek² havosi aning,
Charxi minu³ kibi fazosi aning.

*Uning havosi jannatdek emish,
Fazosi zangori osmon kabi keng ekan.*

Anda bir shoh hokim-u voliy,
Mulki ma'mur-u⁴ himmati oliy.

*Unda bir shoh hokimlik-u boshqaruvchilik (qilar),
Mamlakati ma'mur, (o'zining) himmati oliy (edi).*

Oti Nu'mon-u mulki oti Yaman,
Adlidin mulki guliston-u chaman.

*Unda bir shoh hokimlik-u boshqaruvchilik (qilar),
Mamlakati ma'mur, (o'zining) himmati oliy (edi).*

Anga bir o'yla nozanin farzand,
Kim, bashar⁵ ichra yo'q anga monand.

*Uning shunday bir nozanin farzandi bo'lib,
Insonlar orasida unga monandi – o'xshashi yo'q edi.*

Yuzidin bargi gul xijil erdi,
Qaddidin sarv munfail⁶ erdi.

¹ *Salsabil* – jannat bulog'i.

² *Ravzadek* – jannatdek.

³ *Charxi minu* – zangori osmon.

⁴ *Ma'mur* – obod.

⁵ *Bashar* – odamzod, insoniyat.

⁶ *Munfail* – xijolat.

*Yuzi(ning go ‘zalligi)dan gul bargi xijil tortardi,
Qaddi(ning kelishganligi)dan sarv daraxti xijolat edi.*

Borcha fazl-u hunarda yo‘q misli,
Ko‘zguga boqsa o‘zi-o‘q misli.

*U barcha fazilat-u hunarda o‘xshashi yo‘q,
Ko‘zguga boqsa (husnda) o‘ziday (kishi) yo‘q.*

Hunar avji sori kelib anga mayl,
Yuzi andoqki mehr, oti Suhayl¹.

*Hunar (egallashda) yuksaklikka mayl qilardi,
Yuzi mehrdek (yorqin), oti Suhayl edi.*

Mehr zulfig‘a ko‘ngli bog‘lig‘ edi,
Bu anga go‘yiyo atog‘lig‘ edi.

*(Uning) ko‘ngli Mehrning sochlariga bog‘langan edi,
Bu (qiz) ham go‘yo unga atalgan(dek yaratilgan) edi.*

O‘ylakim, Mehrning xarobi Suhayl,
Mehrg‘a ham Suhayl sori mayl.

*Shundayki, Suhayl Mehrning (ishqida) xarob bo‘lgani kabi
Mehrda ham Suhaylga moyillik bor edi.*

Maylni qo‘yki, vola-u zor ul,
Jon berib vaslig‘a xaridor ul.

*Mayl demaki, u (Suhaylning ishqida) vola-yu zor (edi),
Jonini berib (bo‘lsa ham) visoliga xaridor (edi).*

Bo‘ylakim hajr qo‘ydi bag‘rig‘a dog‘,
Manzil o‘lmish edi anga ul bog‘.

*Lekin hajr (Mehrning) bag‘riga dog‘ qo‘yib,
(Jobirning) bog‘i unga manzil bo‘lib qolgandi.*

¹ *Suhayl* – yorug‘ yulduz nomi, yigitning oti.

Bor edi anda guna-guna¹ shajar,
Gul yo‘q edi bag‘ayri nilufar².

*Unda, ya ‘ni bog‘da xilma-xil daraxtlar bor edi,
(Ammo) nilufardan bo ‘lak gul yo ‘q edi.*

Nilufarvor³ so‘gvor⁴ erdi.
Nilufar ichra ashkbor⁵ erdi.

*(Mehr shu) nilufarguldek qayg‘uli edi,
Nilufarlar ichida ko ‘zi yoshlirog ‘i edi.*

Ashkidin go‘yiyo berur edi suv,
Oh o‘tidin qururg‘ayib⁶ qayg‘u.

*Ashki, ya ‘ni ko ‘zyoshi bilan go ‘yo (gullarni) sug‘orardi,
Oh o ‘ti bilan qayg‘usini quritardi.*

Yo‘qki hijron g‘amida zor-u zalil⁷,
Nilufar ichra oqizib edi Nil.

*Yo ‘q, (uni) hijron g‘amida zor-u xor (bo ‘ldi demang),
Nilufar(zor) ichida (ko ‘zidan) Nil (daryosini) oqizardi.*

Topibon ashki nilufarda mamar⁸,
Yo‘q, ajab bahr ichinda nilufar.

*Ashki nilufar(zor)da suv yo ‘li – o ‘zan topib,
Nilufar(ning) dengiz – suv ichidaligi ajablanarli emas.*

Ko‘ngli gar nilufarg‘a rog‘ib⁹ edi,
Mehr ila nilufar munosib edi.

¹ Guna-guna – xilma-xil.

² Bag‘ayri nilufar – nilufardan boshqa.

³ Nilufarvor – nilufardek.

⁴ So‘gvor – qayg‘uli, hazin.

⁵ Ashkbor – ko‘zyosh to‘kuvchi, yig‘lovchi.

⁶ Qururg‘ayib – qurib.

⁷ Zalil – xor, tuban.

⁸ Mamar – o‘tish joyi, yo‘l.

⁹ Rog‘ib – moyil.

*Ko 'ngli agar nilufarlarga moyil bo 'lsa, (buning sababi)
Mehr bilan nilufar (bir-biriga) munosib edi(lar).*

Nilufar sori ko'p qilib ohang,
Kiymakin ham qilib edi ul rang.

*Nilufar(gul)ga juda ham bog 'lanib qolganidan
Kiyimlarini (ham) shu (nilufar) rangda qilib olgandi.*

Nilufargun libos birla sanam,
Tutubon yor hajrida motam.

*(Bu) sanam nilufarrang libosi bilan
Yori hajrida motam tutardi.*

Motamin zohir aylamakka mafar¹,
Rang aro so'gvor nilufar.

*(Aslida o 'z) motamini zohir qilish – ko 'rsatish maqsadida
Qayg 'uli nilufar (shu) rangda (bo 'ladi).*

Mehrni charx etib asiri firoq,
Aylar erdi Suhayl otosi yaroq².

*Charx – dunyo Mehrni firoq, ya 'ni ayriqliq asiri etganida,
Mehrning otasi (to 'y) yarog 'ini – taraddudini ko 'rardi.*

Aqd bazmini³ qilg 'ali obod,
Go 'yiyo bu mahal edi miod⁴.

*Nikoh to 'yini obod qilgani, ya 'ni o 'tkazish uchun
Bu vaqtni qulay deydilar.*

Yuklabon necha jung⁵ aro amvol,
Anda mavjud har ne qilsa xayol.

¹ *Mafar* – panoh, boshpana.

² Misraning mazmuni: Suhayl tayyorgarlikni boshlagandi.

³ *Aqd bazmi* – nikoh to 'yi.

⁴ *Miod* – vaqt, payt.

⁵ *Jung* – kema.

*(Bir) necha kemaga (bebaho) mollarni yuklatdi,
Unda nimaniki xayol qilish mumkin bo'lsa bor edi.*

Yer tutub bir hilol ichinda Suhayl,
Mehr aqdig'a aylamish edi mayl.

*Suhayl hilol – yangi oy(ga o'xshash) kemaga joylashdi,
Mehr (bilan) aqd – nikoh maylida – orzusida edi.*

Yo'l qiroqdin¹ magar yiroq erdi,
Bahrdin borsa yaxshiroq erdi.

*Yo'l qirg'oqdan – quruqlikdan yiroqligi uchun
Dengizdan borish yaxshiroq edi.*

Bu jihatdin murod sori murur²,
Bahrdin ittifoq tushti zarur.

*Shu jihatdan maqsad sari yurish(ni)
Dengiz orqali zarur deb ittifoq qildilar.*

Andakim, Mehr kemasin ko'lok
Surdi bahr ichra o'ylakim xoshok.

*O'z vaqtida Mehr kemasini (bo'ron) to'lqinlari
Dengizda xashak singari surib ketgandi.*

Go'iyokim esib hamul³ yel tez,
Soldi bu elga dog'i rustoxez⁴.

*Go'yo o'sha shiddatli yel esib,
Bu elga ham g'avg'o soldi.*

Suv g'a surdi Suhayl kemasini,
Oyirib borchaxayl-u niymasini.

*(Bo'ron) Suhayl kemasini suvga surdi,
Barcha hamrohlari va narsalaridan ayirib qo'ydi.*

¹ Qiroq – qirg'oq.

² Murur – o'tish, kechish.

³ Hamul – o'sha.

⁴ Rustoxez – g'avg'o.

Beribon kemasiga muhliq¹ mavj,
Bir zamoni haziz-u² gohi avj.

*Kemasiga halokatli mavjlar urilib,
(Bo‘ron) bir zamon pastlar, goh (yana) avj (olardi).*

To kema bo‘ldi ul sori obir,
Kim, qo‘yub erdi diydabon Jobir.

*To kema (yana) o‘sha tomon o‘tguvchi bo‘ldiki,
Jobir (bu yerga) diydabon qo‘ygan edi.*

Diydabon ul taraf boqib nogoh,
Yana Jobirni ayladi ogoh.

*Diydabon nogoh bu tarafga boqib,
(Kema haqida) yana Jobirni ogoh qildi.*

Ul kirib zavraqig‘a ayladi azm,
Bo‘lub ul kema ahli qatlig‘a jazm.

*U kemasiga o‘tirib, (darhol) yo‘lga tushdi,
Bu kema ahlini qatl (qilishga) jazm qildi.*

Chun yetib qildi el halokig‘a mayl,
Razm-u kin ichra chobuk³ erdi Suhayl.

*Yetib(oq) ularni halok etmoqchi bo‘ldi,
(Lekin) Suhayl (ham) jang va o‘q otishda epchil edi.*

Qila boshlab aning birla parxosh⁴,
Ishlari kema ichra bo‘ldi savosh.

*U bilan jang qila boshlab,
Ishlari kema ichida savashish bo‘ldi.*

¹ *Muhliq* – halokatli.

² *Haziz* – pastroq, sekinroq.

³ *Chobuk* – chaqqon, epchil.

⁴ *Parxosh* – jang.

Jobir ar¹ zarb urur edi behad,
Borcha zarbin Suhayl etar edi rad.

*Agar Jobir behad (kuchli) zarb ursa (ham),
Suhayl barcha zarblarini qaytarar edi.*

Qilsa ul dog‘i zarb izhori,
Munga ham tushmas erdi ul kori².

*U yana zarb beradigan bo‘lsa,
Bunga hech kor qilmas edi.*

Ikkisi chunki erdilar cholok³,
Bir-biridin alarg‘a yo‘q edi bok⁴.

*Ikkisi (birday) chaqqon edilar,
Bir-biriga zarar yetkizolmasdilar.*

Ko‘rdi Jobirki, qoyim⁵ o‘ldi ishi,
Olida nomuloyim⁶ o‘ldi ishi.

*Jobir ko‘rsaki, ishi – jangi (dushmani bilan) baravar,
Bu holat (uning uchun) ko‘ngilsizlik edi.*

G‘olib o‘lmoq aro bo‘lub ojiz,
O‘zin ul nav‘i ko‘rmayin hargiz.

*G‘olib bo‘lishga ojiz bo‘lib,
O‘zini hargiz u holatda – g‘oliblikda ko‘rmay.*

Ilgiga hiyla shevasin oldi,
Yalang‘ochlab o‘zun sug‘a soldi.

*Qo‘liga hiyla odatini oldi, ya‘ni hiyla yo‘liga o‘tdi,
Yalong‘och bo‘lib, o‘zini suvga otdi.*

¹ Ar – agar.

² Tushmas erdi ul kori – «Zarb kor qilmas edi» ma’nosida.

³ Cholok – chaqqon.

⁴ Bok – qo‘rquv, xavotir.

⁵ Qoyim – teng, baravar.

⁶ Nomuloyim – yoqimsiz.

Xasmning¹ kemasi tubiga kirib,
Tig‘ ila kemandig tubini yorib.

*Raqibining kemasi ostiga kirib,
Tig‘ bilan kemandig tubini yordi.*

Taxtani uyla kov-kov etti²,
Ki, suv yo‘lin nechukki nov etti.

*(Kema) taxtasini shunday kovladiki,
Go‘yo suv yo‘lini (kemaga) ariq qildi.*

Kemasin chunki nov ko‘rdi Suhayl,
Tubidin suv yuqori etgan mayl.

*Suhayl kemasining teshilganligini ko‘rdi,
(Uning) tubidan yuqoriga suv ko‘tarila boshlagani uchun.*

Daf‘ig‘a necha hiylagar bo‘ldi,
Qilmadi sud-u³ kema(g‘a) su(v) to‘ldi.

*To‘xtatishga qancha hiyla, ya‘ni tadbir qilsa ham,
Foydasi bo‘lmadi – kema suvga to‘ldi.*

Ul su to‘ldi-yu bahr erdi amiq⁴,
Kema-yu kema ahli bo‘ldi g‘ariq.

*(Kemaga) suv to‘ldi, dengiz chuqur edi,
Kema va kema ahli g‘arq bo‘ldi.*

Qo‘lni shahzoda jonidin yudi pok,
Qo‘ydi ko‘nglin suvda bo‘lurg‘a halok.

*Shahzoda pok, ya‘ni butunlay jonidan umid uzdi,
Suvda halok bo‘lishni ko‘ngliga tuydi.*

¹ *Xasm* – dushman, raqib.

² *Kov-kov etti* – kovladi, o‘ydi.

³ *Sud* – foyda.

⁴ *Amiq* – chuqur.

Qildi Jobir aning sori ohang¹,
Ul sifatkim, bolig' yutarg'a nahang.

*Jobir uning yoniga qasd qilib (keldi),
Xuddi baliqni yutishga (shay) nahangga o'xshardi.*

Boshig'a yetti aylamakka qatil,
O'lar elga nechukki Azroil.

*Qatl qilish uchun boshiga keldi,
O'layotgan odam (tepasidagi) Azroil(ga o'xshardi).*

Qo'lig'a chun aning qo'lin oldi,
O'zining zavraqi aro soldi.

*Qo'liga uning qo'lini oldi, ya'ni qo'lidan ushlagancha,
O'zining kemasi ichiga soldi.*

Chiqti dog'i eshib kamandini² chust³,
Bog'lab oning ilik-ayog'ini rust.

*Darhol arqon eshib chiqdi-da,
Uning qo'l-oyog'ini mahkam bog'ladi.*

Bo'ldi yonmoq ishiga omoda⁴,
Keldi nogah o'ziga shahzoda.

*Qaytish uchun tayyor bo'lib turganida,
Nogoh shahzoda o'ziga keldi.*

Ko'rdi o'zni g'arib band ichra,
Halqa-halqa xami⁵ kamand ichra.

*O'zini g'arib holda band ichida ko'rdi,
Halqa-halqa o'ralgan arqonda edi.*

¹ Ohang – qasd, qiliq, niyat.

² Kamand – arqon.

³ Chust – tez.

⁴ Omoda – tayyor.

⁵ Xam – o'ralgan, bog'langan.

Aduv ilgida qatra suvdek tig‘,
Edi o‘z notavonlig‘ig‘a dareg‘¹.

*Dushmani qo‘lida qatra suvdek ojiz bo‘lib,
O‘z(ining) (bunday) notovon holatidan pushaymon edi.*

Dedi Jobirki: «Ey qo‘lumda asir,
Razm-u ko‘shishda² qilmading taqsir³.

*Jobir dedi: «Ey qo‘limda(gi) asir yigit,
Urush va(jang) harakatlarida xato qilmading.*

Men bu zavraqni suvg‘a to surdim,
Ming seningdekni suvda o‘lturdim.

*Men bu kemani suvga – dengizga solganimdan buyon
Seningdek minglab (odamlarni) suvda o‘ldirdim.*

Birida sencha ko‘rmadim jur‘at,
Jur‘ating bo‘ldi maxlasingg‘a⁴ jihat.

*(Hech) birida senchalik jur‘at ko‘rmadim,
Jur‘ating xalos bo‘lishingga sabab bo‘ldi.*

Kim, tengiz ichra boshinga yettim,
O‘laringdin seni xalos ettim.

*Dengiz ichida boshingga yetgan bo‘lsam ham,
O‘limdan seni xalos etaman – o‘ldirishdan voz kechdim.*

Qatlinga garchi tab‘ roq‘ib emas,
Lek qo‘ymoq dag‘i munosib emas.

*Ko‘ngil qatlingni tilamasa-da,
Lekin qo‘yib yuborish ham to‘g‘ri bo‘lmaydi.*

Kim, agar banddin xalos o‘lg‘ung,
Bir shahi komrong‘a⁵ xos o‘lg‘ung.

¹ *Dareg‘* – pushaymon, achinish.

² *Razm-u ko‘shish* – dushmanlik harakatida.

³ *Taqsir* – qusurli, kamchilikli.

⁴ *Maxlas* – xalos, qutulish.

⁵ *Shahi komron* – baxtli shoh.

*Agar banddan xalos bo'lsang,
Bir toleli shohga xos bo'lasan.*

Bo'lmoq o'lmas xalos domingdin¹,
Bo'lmog'um emin² intiqomingdin.

*(Shunda) tuzog'ingdan xalos bo'lmay,
Qasosingdan qutulolmayman.*

Ish hisobin shumora³ qilg'ungdur,
Qatl-u kinimg'a chora qilg'ungdur.

*(Oramizdagi) ish – olishuvni hisob-kitob qilasan,
(Meni) qatl qilish uchun chora qilasan.*

O'lmoq avlo sanga kamand ichra,
Tirik o'lmoq valek band ichra».

*Sening argonda (boylog'liq) bo'lishing yaxshi,
Tirik qolasan, lekin band ichida bo'lasan».*

Necha izhori ajz⁴ qildi Suhayl,
Qilmadi kinavar⁵ javobig'a mayl.

*Suhayl ojizlik bilan qancha yolvorsa ham,
Dushmani javob bergisi ham kelmadi.*

Kemasin maskani sori surdi,
Oni o'z ma'manig'a yetkurdi.

*Kemasini maskani sari surdi,
Uni (Suhaylni) o'z makoniga keltirdi.*

Qasri kunjida⁶ bor edi chohe,
Kimsani band aylasa gohi,

¹ *Domingdin* – tuzog'ingdan. Bu yerda qo'lingdan ma'nosida.

² *Emin* – xotirjam, ishonchli.

³ *Shumora* – hisob-kitob.

⁴ *Ajz* – ojizlik.

⁵ *Kinavar* – kinchi, adovatkor, kekchi.

⁶ *Kunj* – burchak.

*Qasr burchagida (bir) choh bor edi,
Goho kimni bandi qilsa,*

*Ul choh ichra qilurdi sokin¹,
Chiqmoq andin emas edi mumkin.*

*U choh ichiga sokin qilardi – tashlab qo‘yardi,
Undan (qutulib) chiqish mumkin emasdi.*

*Aning a‘zosidin rasan² oldi,
Band³ ila choh qa‘rig‘a soldi.*

*Uning a‘zosidan, ya‘ni qo‘l-oyog‘idan arqonni yechib,
Zanjir bilan choh qa‘riga soldi.*

*Har kim ul choh aro chu bo‘ldi g‘ariq,
Non ikita edi, su bir ibriq⁴.*

*Kimki u choh ichiga g‘arq qilingan bo‘lsa,
(Kuniga) ikkita non, bir oftoba suv (berilar edi).*

*Yuqori dilbar-u quyi bedil⁵,
Bir-biridin vale ikov g‘ofil⁶.*

*Yuqorida dilbar, ya‘ni Mehr, quyida g‘amgin – Suhayl,
Lekin ikkovi bir-biridan g‘ofil edilar.*

*Bu ikovga bu yerda mundoq hol,
Qavm-u xaylig‘a⁷, emdi ko‘r ahvol.*

*Ikkovlari bu yerda bundoq ahvolda,
Endi qavmi va yaqinlari ahvolini ko‘r(gin).*

¹ *Sokin* – turuvchi.

² *Rasan* – arqon.

³ *Band* – kishan.

⁴ *Ibriq* – choydish, oftoba.

⁵ *Bedil* – qayg‘uli, hasratli oshiq.

⁶ *G‘ofil* – xabarsiz.

⁷ *Qavm-u xayl* – yaqinlar, atrofidaqilar.

IV. Qizining boshiga tushgan kulfatni eshitib, Navdarshohning shoh Nu'monga maktub yo'llagani hamda ikki shohning Jobir tomon qo'shin tortgani bayonida

Andakim Mehrni qilib noshod,
Qavm-u xaylini ayladi ozod.

Ul ulus jondin ayru el yanglig',
Sayr etib suv yuzida yel yanglig'.

Kunduz-u kecha po'ya¹ ettilar,
Toki kishvarlarig'a yettilar.

Nilufargun libos etib bori,
Qildilar borchamotam izhori.

Shoh xud Mehr ishtiyoqidin,
Bal jigargo'shafi firoqidin.

Ham bu rang aylab erdi xil'atni,
Xayli dog'i bu rang kisvatni².

Chun bular dog'i keldi motam ila,
Bahri anduh-u lujjai g'am³ ila.

Shohkim, bag'rig'a tegib edi tish⁴,
Ayladi Mehr holini taftish⁵.

Bo'ldi ketgan azo yana toza⁶,
Qolmadi dard-u g'amga andoza⁷.

Qildilar ulcham bor edi taqrir⁸,
Ki, ne kelturdi olig'a taqdir.

¹ *Po'ya* – tez yurish.

² *Kisvat* – ust-bosh.

³ *Lujjai g'am* – g'am girdobi.

⁴ *Tegib edi tish* – yaralandi.

⁵ *Taftish* – tekshirmoq, so'ramoq.

⁶ *Toza* – yangi.

⁷ *Andoza* – o'lchov.

⁸ *Taqrir* – aytish, bildirish, bayon etish.

Yana anduh ila fig'on qildi,
Yana anduhi qasdi jon qildi.

Tiyra bo'ldi jahon anga, holi
Go'yiyo botti mehri iqboli.

Dedi o'ziga yig'lab achig'-achig',
Ki: «Achig' yig'lamoq manga ne asig'¹.

Tig' ila bag'rim aylasam pora,
Chun jigargo'sham yitti, ne chora?

Chora topmoq kerak mufid² emdi,
Yo'q g'am-u noladin umid emdi».

Olib ilgiga safha-yu xoma³,
Qissa sharhini yozdi bir noma.

Har ne ish bo'lg'onin bayon etti,
Shoh Nu'mon sori ravon etti⁴.

Yozib ul noma ichra pinhoni,
Kim: «Bu bo'lmish qazoyi Yazdoniy⁵,

Lek haqkim g'am-u balo bermish,
Dard bermish, vale davo bermish.

Chora bu ishga intiqom durur,
Yo'qsa, bo'lmoq tirik harom durur,

Mehr agar erdi jonima payvand,
Sanga dog'i bo'lub edi farzand.

Bo'lsa ul dushman ilgida mahbus,
Manga nomus erur, sanga nomus.

¹ *Asig'* – foyda.

² *Mufid* – foydali.

³ *Sahfa-yu xoma* – qog'oz va yozg'ich.

⁴ *Ravon etti* – yubordi, jo'natdi.

⁵ *Qazoyi Yazdoniy* – Tangri buyurgani, Yaratganning irodasi.

Mundin oʻzga bu ishga yoʻq tadbir,
Ki, ikkimiz cherik¹ yigʻib bir-bir.

Senga mulkungda boʻlmoq oʻlsa mayl,
Lek farzandi arjumand Suhayl.

Kim, erur pil zoʻr-u sher shukuh,
Panjasidin kelib bu ikki sutuh².

Bal haqiqat aro aningdur Mehr
Ki, bu mansuba³ zohir etti sipehr.

Boshlabon ul cherikni sohil ila,
Suv yaqosidagi manozil ila.

Aylabon razm-u kiyna izhori,
Kelsa Jobir jazoyiri sori.

Men dagʻi tabʻi kiynaxohimni⁴,
Saʻy⁵ aylab yigʻib sipohimni,

Yaroq aylab koʻngul farogʻi bila,
Ulcha mumkin cherik yarogʻi bila,

Beribon kemalar aro orom,
Yel kibi aylasak, suv uzra xirom.

Men sudin aylasam azimat jazm,
Ul qurugʻluq soridin aylab azm.

Oʻyla tarix aylasak miod,
Ki, qachonkim boʻlur bu ish bunyod.

Necha kundin soʻng oʻlgʻay imkoni,
Qobsamoq⁶ bu iki cherik oni.

¹ *Cherik* – qoʻshin, lashkar.

² *Sutuh* – sathlar, tekisliklar. Bu yerda ikki kuch maʼnosida.

³ *Mansuba* – tadbir, chora.

⁴ *Kiynaxoh* – alamzadalik, oʻch olish istagi.

⁵ *Saʻy* – gʻayrat, harakat.

⁶ *Qobsamoq* – oʻrab olmoq, qoʻrgʻamoq.

Ham o‘shul nav’kim muqarrar o‘lur,
Say’ qilsoq, bu ish muyassar o‘lur.

Ki, chekilgay¹ bu intiqom oxir,
Ro‘zi o‘lg‘ay bu nav’ kom oxir.

Ul Zuhalvash² jazog‘a xos o‘lg‘ay,
Mehr ham uqdadin³ xalos o‘lg‘ay.

Gar bu yanglig‘ emasdurur sanga kom,
Oni ham botroq aylag‘il e‘lom⁴.

Ki, chu ish tushsa boshima yolg‘uz,
O‘zga yanglig‘ topay salohig‘a⁵ yuz»⁶.

Shoh Nu‘mon o‘qug‘och ul noma,
Bildikim, bo‘lmish o‘zga hangoma.

Yig‘labon bo‘ldi asru⁷ ko‘p g‘amnok,
Bu sitamdinki ayladi aflok⁸,

Oni ham bildi shohi ozoda⁹
Kim, musofar¹⁰ chu bo‘ldi shahzoda.

Maqsadi sori yetmagan er mish,
Kema ul sori ketmagan er mish.

Ikki muhlik¹¹ ajab g‘am o‘ldi anga,
Motam ustiga motam o‘ldi anga.

¹ *Chekilgay* – amalga oshirilgay, qilingay, olingay.

² *Zuhalvash* – Zuhalga o‘xshagan. Zuhal, ya’ni Saturn sayyorasi yomonlik timsoli bo‘lgan. Bu yerda Jobirga nisbat berilmoqda.

³ *Uqda* – bandilik, tutqun.

⁴ *E‘lom* – bildirmoq.

⁵ *Saloh* – chora, yaxshilanish.

⁶ *Yuz topish* – kirishish.

⁷ *Asru* – juda, g‘oyat.

⁸ *Aflok* – falaklar.

⁹ *Shohi ozoda* – tagi toza shoh, aslzoda shoh.

¹⁰ *Musofar* – safarga chiqqan, sayohatchi.

¹¹ *Muhlik* – halok qiluvchi.

Bilmadikim ne ish ekin hodis¹,
Kim bu ishga bo‘lub ekin bois.

Kim aningdek Suhayl-u sayyora
Charx zulmidin o‘lg‘ay ovora?

O‘ylakim bo‘lmag‘ay asar andin,
Demagay hech kim xabar andin.

Ko‘p qilib fikr topti ra‘yi savob²,
O‘qug‘on nomag‘a bitiydi javob.

Kim: «Hamul nomakim bitilmish edi,
Mehr holin bayon qililmish edi.

Ul alam garchi soldi boshima dud³,
Bildim o‘rtanmagimda yo‘qtur sud.

Sabt⁴ edikim, yururga qilsang mayl
Yaxshi, yo‘qsa chekib sipoh Suhayl.

Azm aylab cherik yarog‘i bila,
Yurusun bahrning qirog‘i bila.

Nukta qilma⁵ Suhayldin iblog‘⁶,
Qo‘ymag‘il dog‘im ustiga yana dog‘.

Degil avval muniki, qoni Suhayl?
Qoni ulkim, der erduk oni Suhayl?

Kim, Suhayl etgali sizing sori azm,
Olti oydur hisob etib biz jazm.

Kech kelur fikridin eduk g‘amnok,
Yetmagan anda, bizni etti halok.

¹ Misraning mazmuni: Nima ishlar sodir bo‘lganini bilmadi.

² *Ra‘yi savob* – to‘g‘ri fikr, savobli mayl.

³ *Dud* – tutun.

⁴ *Sabt* – yozish.

⁵ *Nukta qilma* – ta‘riflama, gapirma.

⁶ *Iblog‘* – yetkazish, aytish.

Sen qurug‘luq bila sipah cheksang,
Charx uza avji borgah¹ cheksang.

Men bo‘lub kema ichra bahr xirom,
Sipahim birla tutmasam orom.

Topqamen shoyad ushbu savdoda²
Gavharimdin nishona daryoda.

Topsam-u topmasam sening sori
Aylagumdir tavajjuh³ izhori.

Ki, nechukkim kerak qilib ko‘shish⁴,
Haq taolodin istabon baxshish⁵.

Ul haromig‘a tig‘i kin sursak,
Keragidek jazog‘a tegursak.

Emdi mav‘id⁶ falon kun o‘ldi yaqin,
Azm⁷ uchun soat ayladuk tay‘in.

Sen dog‘i ushbu so‘zni aylab jazm,
Kerak etsang bu va‘da birlan azm».

Emdikim yozdi nomag‘a unvon,
Nomaning homilini⁸ qildi ravon.

Chunki qosid⁹ bitikni¹⁰ yetkurdi,
Shoh Navdar qo‘lig‘a topshurdi.

Navdar ochti-yu soldi borig‘a ko‘z,
O‘qudi anda har ne bor edi so‘z.

¹ *Borgah* – qo‘nim joy, qarorgoh.

² *Savdoda* – mojaroda, ishda.

³ *Tavajjuh* – yuzlanish, ko‘rinish.

⁴ *Ko‘shish* – jahd qilish, intilish.

⁵ *Baxshish* – marhamat.

⁶ *Mav‘id* – va‘da.

⁷ *Azm* – kirishish, harakat.

⁸ *Homil* – eltuvchi.

⁹ *Qosid* – xabarchi, so‘zlovchi.

¹⁰ *Bitik* – xat, yozilgan narsa.

Bo'ldi miod vaqtidin ogoh,
Ham o'shul vaqt birla yig'di sipoh.

Ul sari azm qilg'ali Nu'mon,
Ham muayyan bor erdi vaqt-u zamon.

Bo'ldilar ikki shoh musta'jil¹,
Biri daryo bila, biri sohil.

Necha kun aylabon masofat² qat'³,
Sohili bahr ichinda ofat qat'.

Bo'ldi paydo aduv bo'lur besha,
Tushti ikki tarafqa andesha.



Savol va topshiriqlar:

1. Mehr va Suhaylni qaysi jihatlariga ko'ra bir-birlariga mos va muvofiq deb bilasiz?
2. Suhaylning qizga munosabati ifodalangan: *«Mehr zulfig'a ko'ngli bog'lig' edi, Bu anga go'yiyo atog'lig' edi»* satrlarini izohlang.
3. Dostondan olingan: *«O'ylakim, Mehrning xarobi Suhayl, Mehrg'a ham Suhayl sori mayl. Maylni qo'yki, vola-u zor ul, Jon berib vaslig'a xaridor ul»* parchasida qiz bilan yigitning o'zaro munosabati aks etgan. Bu tasvirni izohlab berishga urinib ko'ring.
4. Suhaylning asir tushishi tasvirida yigitning jasorati, mardligi hamda qaroqchining hiylakorligi qanday ifodalanganini ko'rsating.
5. Jobirning: *«Men bu zavraqni suvg'a to surdim, Ming seningdekni suvda o'lturdim. Birida sencha ko'rmadim jur'at, Jur'ating bo'ldi maxlasingg'a jihat»* tarzidagi iqroriga qarab, qaroqchining ichki olami haqida mulohaza yuriting.

¹ *Musta'jil* – shoshilish.

² *Masofat* – masofa, yo'l.

³ *Qat'* – bosish, yurish.

6. Hazrati Navoiyning tutqunlar holatini aniq aks ettiradigan:
«Har kim ul choh aro chu bo'ldi g'ariq, Non ikita edi, su bir ibriq» tasviriga diqqat qarating va izohlashga urining.
7. Asarda oshiq-ma'shuqlarning fojiaiy holati aks etgan:
«Yuqori dilbar-u, quyi bedil, Bir-biridin vale ikov g'ofil» misralarini izohlang.
8. Navdarshohning bo'lajak qudasi shoh Nu'monga yozgan:
«Lek Haqkim g'am-u balo bermish, Dard bermish, vale davo bermish. Chora bu ishga intiqom durur, Yo'qsa bo'lmoq tirik harom durur» tarzidagi maktubidagi fikrlarni izohlang. Unda xalqimiz ma'naviyatiga xos qanday qadriyatlar aks etganligini aniqlang.
9. *«Bo'lsa ul dushman ilgida mahbus, Manga nomus erur, sanga nomus»*, deb yozganda Navdarshoh nimani ko'zda tutadi deb o'ylaysiz?
10. *«Ikki muhlik ajab g'am o'ldi anga, Motam ustiga motam o'ldi anga. Bilmadikim ne ish ekin hodis, Kim bu ishga bo'lub ekin bois»* misralarida kimning holati aks ettirilayotganligini matndan toping va izohlab bering.
11. *«Kech kelur fikridin eduk g'amnok, Yetmagan anda, bizni etti halok»* satrlari kim haqida bitilgan deb o'ylaysiz?

V. Ov ketidan quvib sipohidan ajralgan

Navdarshohning Jobir tuzog'iga ilingani, bo'ron ofatidan halokatga uchragan shoh Nu'monning tushgani haqida

Qoldi Navdarg'a chunki bir manzil,
 Besha ichra murur¹ edi mushkul.

Vahm oldi qarorini shahdin,
 Ki, aduv chiqmag'ay kamingahdin².

Kesturub beshani ochilg'ali yo'l,
 Cherigin eltur erdi ilgari ul.

Go'yiyo saydlardin ul jangal,
 Voqe' erdi to'la bug'u-vu maral.

¹ *Murur* – o'tish, yurish.

² *Kamingah* – pana, pistirma joy.

Shahgʻa koʻp erdi ov ishida vuqf¹,
Balki bor erdi asru koʻp mashʻuf²,

Har tarafdin dorir edi³ sayde,
Shahgʻa erdi sipoh ishi qaydi⁴.

Sayd yetgach koʻzini asrar edi,
Koʻrmayin deb oʻzini asrar edi.

Nogahon bir shikoriyi gulrang⁵
Oʻtgali qildi olidin ohang⁶.

Keynicha ixtiyorsiz chopti,
Oʻq otargʻa qarorsiz chopti.

Sayd jangal ichini qildi talosh,
Yoʻli ham tor edi-yu, ham chirmosh.

Gʻayr oning soʻngicha chopmas edi,
Oʻq otargʻa majol topmas edi.

Iztirob aylabon ota tushti,
Bir-ikki oʻq, vale xato tushti.

Oʻzga xud boʻldi⁷ ul sifat behad
Kim, dimogʻidin uchti hush-u xirad⁸.

Sayd qasdigʻa oʻyla qoʻydi koʻngul
Ki, aduv chiqti yodidin bilkul⁹.

Sayd bila beshagʻa kirib ketti
Ki, aduv qavm-u xayligʻa yetti.

¹ *Vuquf* – voqif, xabardor.

² *Mashʻuf* – berilish.

³ *Dorir edi* – uchrardi.

⁴ Misraning mazmuni: Shohga harbiy ish qoidalari maʼlum edi.

⁵ *Shikoriyi gulrang* – ovlanadigan rangli qush, tustovuq.

⁶ *Ohang* – qiliq.

⁷ *Oʻzga xud boʻldi* – oʻzgacha boʻlib qoldi.

⁸ *Hush-u xirad* – aql-u hush.

⁹ *Bilkul* – butunlay, tamomila.

Qo'yub erdi kaminda¹ Jobir nev²,
Kinavarlar masof³ vaqtida dev.

Kim, kishi tutsalar keturgaylar,
Xizmatig'a aning yeturgaylar.

Ko'rdilar solur erdi bir bug'u xez⁴,
Yetti on-u qovub bir otlig' tez.

Poshina⁵ raxshlarga⁶ urdilar,
Ha deguncha ani tushurdilar.

Chopibon saydg'a solay dedi qayd⁷,
O'zga sayyodlarga⁸ bo'ldi sayd⁹.

Shoh tilar bo'lsa shohliq qilmoq,
Sipohidin kerakmas ayrilmoq.

Shohni derlar sipoh birlan shoh,
Shoh emasdur yo'q esa anda sipoh.

Shohg'a xayl o'lsa, fath aning ishidur,
Bir kishi Rustam o'lsa, bir kishidur,

Shohlik oyinin¹⁰ aylabon ranbur¹¹,
Aylamas besipoh sukun-u murur¹².

Uchsa yolg'uz ko'rarga oq-u qaro,
Ne tavofut ul-u, yana bul aro.

¹ *Kamin* – pistirma, pana.

² *Nev* – pahlavon, botir.

³ *Masof* – jang, janggoh.

⁴ *Xez solmoq* – tez ketmoq.

⁵ *Poshina* – qichamoq, niqtamoq.

⁶ *Raxshlar* – otlar.

⁷ *Qayd* – sirtmoq, band.

⁸ *Sayyodlar* – ovchilar.

⁹ *Sayd* – ov, o'lja.

¹⁰ *Oyin* – odat, udum.

¹¹ *Ranbur* – o'zgartmoq, molamoq.

¹² *Sukun-u murur* – turish va yurish.

Borsa shatranj shohining sipahi,
Ko'rki, bormu hisob ichinda shahi.

Chunki Navdar adug'a bo'ldi asir,
So'ydilar¹ har ne kiyganin bir-bir.

Holig'a chun nazora qildilar,
Navdar erkonin jazm² bildilar.

Biri ul xayldin chopib filhol,
Berdi Jobirg'a mujdayi iqbol³.

Kim: «Bu yanglig' ish oshkor o'ldi,
Bo'yla saydi sanga shikor o'ldi».

Ul eshitgach bu nav'i afsona,
Tengriga sajda qildi shukrona.

Dedi: «Mafquf bo'lmayin⁴ nimaga,
Ko'zuni bog'labon soling kemaga.

Eltibon qasr aro qiling mahbus,
Eshigin ustidin eting madrus⁵.

Andog' aylan bu ishni pinhoni,
Kim, kishi fahm qilmosun oni.

Uy eshigin falong'a topshurunguz,
Xabarin manga bot kelturunguz!»

Shahni ul qasrg'a yeturdilar,
Borcha hukmni bajo keturdilar.

Ne, ne yer erkonin bildi shah,
Ne shah erkonidin o'ldi el ogah.

Bo'ldi Navdar ishiga surat bu,
Lek Nu'monga jilvagoh edi suv.

¹ *So'ydilar* – yechdilar.

² *Jazm* – aniq.

³ *Mujdayi iqbol* – xursandchilik xabari.

⁴ *Mafquf bo'lmayin* – to'xtatmayin.

⁵ *Madrus* – bekitish, yopish.

Qoldi chun ikki kunchalik maqsad,
Yana yel suvni qo‘zg‘adi behad.

Bo‘ldi ko‘lok osmonpaymoy¹,
Ko‘runir erdi kemadek yangi oy.

Tushti Nu‘mon ishiga asru futur²,
Har zamon jonidin edi mahjur³.

To safar ahli ko‘pi o‘ldi talaf⁴,
Tushti har bir kema bir o‘zga taraf.

Garchi Nu‘mong‘a ko‘p yetishti nahib⁵,
Lek to‘fondin o‘lmadi osiyb⁶.

Kemasi lekin ul taraf ketti,
Ki, burun o‘g‘li kemasi yetti.

Diydabonlar yana qilib ma‘lum,
Yana Jobirg‘a dedilar mafhum⁷.

Yana Jobir yetib alar sori bot,
Topmay ul xaylning ko‘pida hayot.

Tirigidin so‘rub chu surati hol,
Zohir anglabki, ne durur ahvol.

Ilayiga⁸ solib, alarni surub,
Sharh qilg‘on jazirag‘a keturub,

Chiqorib shohni o‘lum holi,
Kemani moldin qilib xoli.

Shoh jismig‘a za‘f⁹ topib yo‘l,
Fahm qilmayki ne kishidur ul.

¹ *Osmonpaymoy* – osmon baravar, balandga intiladigan.

² *Futur* – barbodlik, buzg‘unlik.

³ *Mahjur* – mahrum, ayrilgan.

⁴ *O‘ldi talaf* – nobud bo‘ldi, talafot ko‘rdi.

⁵ *Nahib* – qo‘rqinch.

⁶ *Osiyb* – zarar, ziyon, ofat.

⁷ *Mafhum* – tushuncha, xabar, so‘z.

⁸ *Ilayi* – oldi.

⁹ *Za‘f* – kasallik.

Shahni bir pardag‘a nihon qildi,
O‘zga zindon sori ravon qildi.

Har zamon shoh ichinda jondin vahm,
Kimsa lekin ul ishni qilmay fahm.

Yana ul elni soldi kema aro,
Bo‘ldi bu nav’ alarg‘a nuktasaro¹.

Ki: «Kerak bo‘lsa sizga jon ketingiz!
Qaydakim ko‘nglungiz tilar yetingiz!

Bu navohida² anglasam sizni,
Qo‘ymog‘umdir tirik biringizni!»

Kettilar boshlarini olib bu guruh,
Ko‘z aro ashk-u, jon aro anduh.

Shoh Navdar sipohi ham bori,
Bildilarkim, ne ish erur tori³.

Roy ko‘p urdilar tuzub mahfil⁴,
Shahsiz o‘lsa sipah yo‘q hosil.

Topmoyin g‘ayri qaytmoq chora,
Buzulub⁵ yondilar bayakbora.

Jobiri rohzan bo‘lub firuz⁶,
Tun-u kun bog‘i ichra bazmafro‘z⁷.

Mehr yodi bila ichib sog‘ar⁸,
Sola olmay vale yuziga nazar.

Boqa olmay anga murodi bila,
Qon yutub, yo‘qki boda⁹, yodi bila...

¹ *Nuktasaro* – ma’noli so‘zlovchi.

² *Navohi* – atrof.

³ *Tori* – qorong‘ilik, to‘satdan bo‘lish.

⁴ *Mahfil* – majlis, yig‘in.

⁵ *Buzulub* – xafalanib, ko‘ngli buzilib.

⁶ *Firuz* – g‘olib, baxtli.

⁷ *Bazmafro‘z* – bazmni qizitmoq, bazmni avjlatmoq.

⁸ *Sog‘ar* – may.

⁹ *Boda* – sharob, may.

VI. Mehrning oʻz qalligʻini chohdan chiqarib parvarish qilgani va Suhaylning yuzma-yuz olishuvda Jobirni yengib, soʻngida barchalarining murodga yetganliklari toʻgʻrisida

Mehr gul yangligʻ aylabon yaqo chok,
Nilufarzor aro kezib gʻamnok.

Yosh toʻkub bahri mavjvar¹ yangligʻ,
Koʻk libos ichra nilufar yangligʻ.

Yuziga bas taponcha² urgʻonidin,
Nilufarlar ochib gulistonidin.

Hajrdin forigʻ oʻlmogʻin istab,
Ul balodan qutulmogʻin istab.

Fikrdin kecha koʻzni yopmas edi,
Chora koʻp istar erdi, topmas edi.

Bandini anglab erdi choh ichra,
Gʻam-u anduh-u umrkoh³ ichra.

Dedi: «Ul chahdin oni qutqorsam,
Yigʻlabon zor-zor yolborsam.

Ozim etsam⁴ Suhayl uchun oni
Kim, desam hojatimni pinhoni.

Ul magar holatimni anglab jazm,
Maxlasimgʻa⁵ bu sori qilgʻay azm».

Yoshurun tiyra uyga ul dilxoh
Kirdi ikki kaniz anga hamroh.

¹ *Bahri mavjvar* – mavjlangan dengiz.

² *Taponcha* – shapati, tarsaki.

³ *Umrkoh* – jon azobi.

⁴ *Ozim etsam* – yuborsam.

⁵ *Maxlas* – xalos, qutulish.

Keldi chah boshi uzra g‘amparvard¹,
Chekti un: «Ki-ey asiri mehnat-u dard!

Men dog‘i bir faqirmen sendek,
Notavon-u asirmen sendek.

Maxlasing ichra sa‘y etib jondin,
Seni cheksam bu tiyra zindondin.

Har ne desam qabul etarsenmu?
Qayon etsam ravon ketarsenmu?»

Choh ichinda Suhayl edi betob,
Holini za‘f qilmish erdi xarob.

Bor edi oncha mehnati bir yon,
Mehri gulchehr furqati² bir yon.

Bo‘lg‘och ul nav’ so‘z xitobi aning,
Oshti ul undin iztirobi aning.

Ko‘ngluni say’ birla to‘xtatti,
Nozaning‘a bu nav’ so‘z qotti:

«Ki-ey bashar xilqat-u, farishta sifot,
Bergan o‘lgan tanimg‘a toza hayot!

Sendan etsa bu nav’ lutf zuhur,
Har nechuk ishga aylasang ma‘mur.

Sa‘y etay to tanimdadur jonim,
Qilayin toki bo‘lg‘ay imkonim».

Mehr eshitgach bu so‘zni soldi tanob³,
Ne tanob, ikki gisui⁴ partob⁵.

Notavon tutti rishtani mahkam,
Mehr chekti⁶, ul ikki mahvash ham.

¹ *G‘amparvard* – g‘amga botgan, g‘amboda.

² *Gulchehr furqati* – gulyuzlidan ayriliq.

³ *Tanob* – arqon.

⁴ *Gisu* – soch.

⁵ *Partob* – uloqtirmoq, tashlamoq.

⁶ *Chekti* – tortdi.

Tiyra uyga chiqordilar oni,
Mehr ko‘p qildi lutf pinhoni.

Qildi zanjir-u banddin ani fard¹,
Yer o‘pub, dedi zori g‘amparvard.

Ki: «Ne hukm etgung, ey malaksiymo,
Shammai² andin aylagil iymo»³.

Mehr qildi fasonasin bunyod⁴,
Boshig‘a nekim o‘tti ayladi yod.

Otov-u mulk-u joh-u hashmatini,
Pardasi⁵ Suhayl nisbatini⁶.

Ko‘rganin bahr mavjiddin tashvir⁷,
Tushganin anda notavon-u asir.

Bo‘lg‘on anda zarurdin sokin,
Qolg‘onin Jobir ilgidin emin.

Za‘f etib notavon aning so‘zidin,
Lahza-lahza borur edi o‘zidin.

Anga yetkurdi so‘zni Mehri munir⁸,
Ki: «Bu yanglig‘ki, men bo‘lubmen asir,

Aylay olmas kishi xalosima mayl,
Ko‘shish-u kina birla g‘ayri Suhayl.

Sanga ey dardmand-u ovora,
So‘z budurkim, gar aylabon chora,

Andoq etsangki, bahrdin qutulib,
Yaman ahli sori ravona bo‘lub.

¹ *Fard* – alohida, xalos.

² *Shamma* – salgina, biroz.

³ *Iymo* – imo, ishora.

⁴ *Fasonasin bunyod* – sarguzashtini, hikoyasini aytdi.

⁵ *Pardasi* – nomusi.

⁶ *Nisbati* – munosabati, aloqasi.

⁷ *Tashvir* – falokat.

⁸ *Mehri munir* – qizning ismi quyosh ma’nosini anglatadi. Shu bois «yorituvchi quyosh» deb so‘z o‘yini qilinmoqda.

Jahd-u sur'at aro tay aylab arz¹,
Holatim aylasang, Suhaylg'a arz.

Lek bir nukta bordur yoshurun
Ki, seni mundoq asrasoq necha kun.

Jazm qilsang bu ishni pinhoni,
Ont ichib emin aylasang oni.

Ki, chu men bastayi balo² bo'ldum,
Jobir ilgiga muftalo bo'ldum.

Manga tushmish ko'zi yiroqdin-u bas,
Yiqilib yerga yotti o'ylaki xas.

Chun ko'rar fikri qilmoq erdi ishi,
Chunki ko'rdi, yiqilmoq erdi ishi.

Munda to zoyi' o'lmish avqotim,
Budur oning bila muloqotim».

Muni bilgach Suhayl zor-u hazin,
Shammai topti xotiri taskin.

Sidq bildi³ yaqin aning so'zini,
Sa'y ila asray olmadi o'zini.

Ohidin o't dimog'ig'a tushti,
Dilbarining ayog'ig'a tushti.

Qildi faryod-u bordi andin hush,
Mehrni hayrat ayladi madhush⁴.

Chunki holin bilurg'a ayladi mayl,
Yaxshi tahqiq⁵ qilg'och, erdi Suhayl.

O'lgudek nola qildi ul dog'i,
Hushi borib, yiqildi ul dog'i.

¹ *Tay aylab arz* – yerni tez aylanib chiqish, topish.

² *Bastayi balo* – baloga yo'liqmoq.

³ *Sidq bildi* – chin bildi.

⁴ *Madhush* – hushsiz.

⁵ *Tahqiq* – tekshirish, aniqlash.

Yig‘labon boshlarida ikki kaniz,
Ko‘tarib boshlarini mehromiz¹.

Kelgach o‘ziga Mehri ravshan roy,
Dedikim: «Fitna bo‘ldi band kushoy²»,

Ayladi oni tiyra uyda nihon,
Anga tegruki³ tiyra bo‘ldi jahon,

Za‘fi ifrotidin⁴ Suhayl dog‘i,
O‘ziga keldi lek uyqu chog‘i.

Bo‘ldi bir-birga jism ila jondek,
Yo magar sarvu ishq pechondek⁵.

Necha kun qasr aro nihon erdi,
Sarvi gulruxqa mehmon erdi.

Toki berdi taom ila sharbat,
Za‘fliq zor jismig‘a quvvat.

Ani ham jazm bildikim Jobir,
Mehrdin hajr ila emish sobir.

Bir kun o‘lg‘onda Jobiri g‘ofil
Bog‘ni sayr etarga forig‘dil⁶.

Chiqti o‘trusidin Suhayli daler,
Ul sifatkim qobon masofig‘a⁷ sher,

Dedikim: «Pahlavonliq ermas ul
Kim, kishi makr birla urg‘ay yo‘l.

Teshib el kemasini hiyla bila,
G‘arq etib suvga bu vasila⁸ bila.

¹ *Mehromiz* – quyoshdek.

² *Fitna bo‘ldi band kushoy* – isyon (ish) siri oshkor bo‘ldi, yechildi.

³ *Anga tegru* – ungacha.

⁴ *Ifrot* – haddan ortiq.

⁵ *Ishq pechon* – pechakgul.

⁶ *Forig‘dil* – bermalol, ko‘ngli xotirjam.

⁷ *Masof* – olishish, jang.

⁸ *Vasila* – vosita.

Qolmagʻon chogʻda kimsaning joni,
Tutubon band aylagay oni.

Sen agar zohir etting itlikni,
Men sanga koʻrguzay yigitlikni»,

Dedi-yu xasm sori qildi shitob¹,
Xasmni hayrat ayladi betob.

Chun talashmoqqa ayladilar mayl,
Koʻtarib yerga urdi oni Suhayl.

Bogʻladi qoʻllarin shitob bila,
Muni ul bogʻlagʻon tanob bila.

Soldi filhol ani hamul chah aro,
Budurur tabʻ-u fahmi ogah² aro:

«Har kishikim birovga qozgʻoy choh,
Tushgay ul choh aro oʻzi nogoh».

Chun Suhayl oʻldi ul sifat firoʻz,
Mehr aqdigʻa boʻldi bazmafroʻz.

Tushti Jobir dafoyni³ qoʻligʻa,
Balki olam xazoyini⁴ qoʻligʻa.

Andagʻi el boʻlub sarafganda⁵,
Shah topib barcha boʻldilar banda⁶.

Emdikim, tuzdi bazm-u aysh-u farah,
Qoʻliga oldi shohvor⁷ qadah.

¹ *Shitob* – tezlikda, chaqqon.

² *Fahmi ogah* – hushyor aql.

³ *Dafoyin* – dafinalar, koʻmilgan (dafn qilingan) boyliklar.

⁴ *Xazoyin* – xazinalar.

⁵ *Sarafganda* – bosh egdi, boʻysundi.

⁶ *Banda* – tobe, itoatchi.

⁷ *Shohvor* – shohona, katta.

Fikr etib komgor-u¹ davlatmand,
 Dedi: «Har kimki, Jobir etmish band,
 Men bilib borin ayladim ozod,
 Kelturingkim, qilay qadah bila shod».
 Ikki bandio‘q² erdi bog‘ ichra,
 Kelgach ul majlisi farog‘ ichra.
 Biri Navdar edi, biri Nu‘mon,
 Kimga bo‘lg‘ay bu nav’ qissa gumon?
 Bu mahalni ne nav’ sharh etayin,
 El bilur, bilmas o‘lsalar netayin.
 Bori ikki ato, iki farzand,
 Rishtayi vasl ila topib payvand.
 Qo‘pubon³ yig‘lashib ko‘rushtilar,
 O‘lturub bir-birin so‘rushtilar.
 Bo‘ldi ma’lum chun bori holat,
 Shukrlar qildilar etib hayrat.
 Ikki shah kirdilar xudo yo‘lig‘a,
 Mulklarini solib aning qo‘lig‘a.
 Mulk eli shukr qildilar bori,
 Aylabon shodmonlig‘ izhori.
 Evrulub kom birla davri sipehr,
 Vasl topti Suhayl birlan Mehr.
 Mehrkim, charx xokrohi⁴ edi,
 Nilufarzor jilvagohi edi.
 To‘ni ul rang-u ko‘nglak-u ul rang,
 Yorining dog‘i kiymaki ul rang.

¹ *Komgor* – baxtiyor, murodga yetgan.

² *Ikki bandio‘q* – ikkitagina tutqun.

³ *Qo‘pub* – turib.

⁴ *Xokroh* – kamtar, xokisor.

Nilufar rangi keldi ta'bpazir¹
Kim, libos etti oni Mehri munir.

Har pari chehraiki mahvash erur,
Moviy o'lsa, libosi dilkash erur.

Mehrkim, gulruxi samoviydur,
Nilufarvash libosi moviydur.

Chun tugatti fasonani roviy,
Pardador² ochti pardayi moviy...



Savol va topshiriqlar:

1. Asardagi: *«Sayd yetgach ko'zini asrar edi, Ko'rmayin deb o'zini asrar edi»* tasviri kim va nima to'g'risida?
2. Dostonda shoh Navdarning holati: *«Keynicha ixtiyorsiz chopti, O'q otarg'a qarorsiz chopti»* yo'sinida aks ettirilgan o'rinlarga qarab, uning tabiatiga xos sifatlarni tavsiflab bering.
3. Asarda ov manzarasi g'oyat jonli va haqqoniy aks ettirilgan: *«Sayd jangal ichini qildi talosh, Yo'li ham tor edi-yu, ham chirmosh. G'ayr oning so'ngicha chopmas edi, O'q otarg'a majol topmas edi»* misralariga qarab buyuk shoirning tasvir mahoratiga munosabat bildiring.
4. Shoirning *«Shohni derlar sipoh birlan shoh, Shoh emasdur yo'q ersa anda sipoh»* misralari kimga nisbatan aytilgan? Baytni u bilan aloqador voqeaga bog'liq holda izohlang.
5. Avval Mehr, keyinchalik shoh Nu'monning to'fon tufayli bandi bo'lib qolishiga kim aybdor? Yoki bu taqdir hukmimi?
6. Tutqunlarning ozod bo'lishida kimning xizmati ko'proq deb o'ylaysiz? Mehrningmi yoki Suhaylning?
7. *«Sen agar zohir etting itlikni, Men senga ko'rguzay yigitlikni»* so'zlari kimga tegishli? «Itlik» va «yigitlik» xislatlarini sharhlang.

¹ Ta'bpazir – ta'biga mos.

² Pardador – soqchi.

8. Asar qahramonlari: Mehr, Suhayl va Jobir ismlariga diqqat qiling. Bu ismlar ma'nosining egalari xarakteri, amallari hamda ma'naviy qiyofasiga muvofiqligini sharhlang.
9. Nima deb o'ylaysiz, Jobir hammadan ko'proq kimga jabr qildi?
10. Asardan qirq misra yod oling.
11. «Suhayl va Jobir» mavzusida adabiy insho yozing.

TASHBIH, TANOSUB, IRSOLI MASAL SAN'ATLARI

Badiiy tasvir vositalari she'riy san'atlar deb ham yuritiladi.

Tashbih – adabiyotda keng qo'llanadigan she'riy san'atlardan biri. Uni o'zbekcha qilib o'xshatish desa ham bo'ladi. Tashbihda narsa, belgi va harakat kabilar boshqasiga o'xshatish, qiyoslash orqali tasvirlanadi. Bu o'sha tushunchani anglash va his qilishni osonlashtiradi. Demak, tashbih ikki narsani bir-biriga o'xshatishdir. Masalan, «Yuzing go'zallikda gul kabidir» deyilganda yuz gulga o'xshatilgan. Tashbihning yuzaga kelishida to'rt unsur ishtirok etishi mumkin:

O'xshamish – tasvirda fikr qaratilgan narsa yoki tushuncha (yuz).

O'xshatilmish – tasvirda qiyoslanayotgan narsa yoki tushuncha (gul).

Asos – nimaga ko'ra o'xshatishning yuzaga chiqqanligi (go'zallikda).

Vosita – o'xshatish belgisi (kabi).

Vosita ishtirok etgan o'xshatishlarda tashbih aniq ko'rinib, bilinib turadi. So'z san'atida **-dek, -day, -cha, -simon, -vor, -saro, -oso, -vash, -iy, -oyin** kabi qo'shimchalar, **kabi, singari, misli, go'yo, yanglig', xuddi, o'xshab, nechukki** va boshqa so'zlar vosita bo'lib keladi. Ko'p hollarda asos ishtirok etmaydi. Misollarga murojaat qilamiz:

Sanga binafsha kibi qaddi nigun,
Bosh ko'tara olmay uyotdin zabun.

Ul ulus jondin ayru yel yanglig‘,
Sayr etib suv yuzida yel yanglig‘.

Ba‘zan vosita ham tushib qolib, tashbihda o‘xshamish bilan o‘xshatilmishgina ishtirok etadi. Masalan, «qoshi hiloldek egik» deyish o‘rniga «qoshi hilol», «qomati sarvdek tik» deyish o‘rniga «sarvqomat», «yuzi oydek» o‘rniga «yuzi oy» ishlatiladi:

Ermas alar tufrog‘-u, sen nuri pok,
Xilqat alarg‘a-u sanga – tiyra xok, –

baytida ham shu holatni ko‘rish mumkin. Asos va vositaning qo‘llanish yoki qo‘llanmasligidan qat‘i nazar o‘xshamish bilan o‘xshatilmish ishtirok etgan o‘xshatish san‘ati **mutlaq tashbih** (aniq o‘xshatish) deyiladi.

Ayrim o‘rinlarda o‘xshamish ham tushib, o‘xshatilmishning o‘zigina saqlanadi. «Hilol», «sarv», «oy», «gul» so‘zlarining o‘zi o‘xshamishga ham ishora qiladi va bu **kinoya tashbih** (ishora o‘xshatish) deb ataladi.

Bo‘rini dag‘i galadin dur qil,
Suv beribon bog‘ni ma‘mur qil, –

baytida to‘rtta kinoya tashbih bor: bo‘ri – bo‘ridek talovchilar, gala – gala singari xalq, suv – suvdek (zarur) adolat, bog‘– bog‘ga o‘xshash mamlakat tashbihlarining ishoralaridir.

Tanosub – baytda, umuman, she‘riy bandlarda ma‘no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so‘zlarni qo‘llash orqali hosil qilinadi. Masalan, «bulbul» so‘zi gul, bog‘, chaman, navo so‘zlari bilan; «Ka‘ba» esa haj, farz, Tengri, ziyorat so‘zlari bilan mazmuniy bog‘lanib, yaxlit tushuncha, tugal ifoda va jonli lavha yaratadi.

Anda bir shoh hokim-u voliy,
Mulki ma‘mur-u himmati oliy.

Ushbu misralardagi shoh, hokim, voliy (hukmdor), mulk va ma‘mur so‘zlari hokimiyat tushunchasiga tegishli bo‘lganidan tanosub hosil bo‘ladi.

Maylni qo'yki, vola-u zor ul,
Jon berib vasliga xaridor ul.

Bu o'rinda o'z ma'nosiga ko'ra sevgi tuyg'ulari bilan bog'liq mayl, vola, zor, vasl, xaridor singari tanosub so'zlar Mehrning ishqqa doir holatini, kechinmalarini ifodalab, yaxlit bir ruhiy manzara yaratadi.

Irsoli masal – «maqol kiritish» ma'nosini bildirib, badiiy asarda fikr isboti uchun xalq maqollaridan foydalanish san'atidir. Masalan,

Har kishikim birovga qozg'oy choh,
Tushgay ul choh aro o'zi nogoh

baytida keltirilgan mashhur maqol zolim Jobir va unga o'xshagan kimsalarning qilmishi hamda qismatiga to'la mos tushgan va masnaviyning ta'sirchanligi oshishiga xizmat qilgan.



Savol va topshiriqlar:

1. Tashbihga xos xususiyatlarni ko'rsating. Ularning qanday unsurlardan iborat ekanini sharhlang.
2. Tanosubning belgilarini ko'rsating. Unga «Mehr va Suhayl» asaridan misol keltiring.
3. Irsoli masal san'atining badiiy vazifasiga to'xtaling. Unga zamonaviy she'riyatdan misol toping.



Turdi Farog'iy

*(Taxminan XVII asr
o'rtalarida tug'ilib,
1699–1700-yillarda
vafot etgan)*



Ozbek adabiyotida hajviyot rivojiga sezilarli hissa qo'shgan shoir Turdi Farog'iy Buxoroda tug'ildi va shu yerda shoir sifatida shakllandi. Shoirning hayoti va ijodiy faoliyati Buxoro xonlari Nodirmuhammad va uning o'g'illari Abdulaziz hamda Subhonqulixon hukmronligi davrida kechdi. XVII asr yurtimiz tarixi uchun ziddiyatli va murakkab davr bo'ldi. Keyinchalik Xivada qo'ng'irotlar, Buxoroda mang'itlar, Qo'qonda minglar o'z hukmronligini o'rnatib, Turkiston uch xonlikka bo'linib ketishiga zamin yaratildi. XVIII asrda esa ular o'rtasida toj-taxt, hudud uchun kurashlar kuchaygandan kuchayib bordi. Bu holat vijdonli, millat taqdiriga befarq qaramaydigan xalq vakillarining noroziligiga sabab bo'lishi tabiiy edi.

1645-yilda Nodirmuhammad Xivani o'ziga bo'ysundirish uchun qo'shin tortadi. Bir yurtida yashovchilar, bir millat vakillari o'zaro to'qnashishga majbur, qon to'kilishi aniq. Xondan norozi bo'lgan yuz urug'i Xo'jandda Boqi yuz boshchiligida qo'zg'olon ko'taradi. Turdi shular orasida edi. Chunki birodarkushlik harakati uning ham g'azabini qo'zg'agan edi.

Isyonni bostirish uchun yuborilgan Abdulaziz otasiga xiyonat qilib, qo'zg'olonchilarga qo'shildi. Ular bilan Buxoroga yurish qilib, taxtni egalladi. Nodirmuhammadning boshqa o'g'li Subhonquli bilan taxtni qaytarish harakatlari natija bermaydi va u hajga ketishga majbur bo'ladi.

Aka-uka o'rtasidagi taxt talashishlar Abdulazizxonning ham Buxoroni tashlab haj safariga jo'nashi bilan yakun topdi. U otasiga ravo ko'rgan qismat endi o'zining boshiga tushdi. Xalq otasiga tik boqqan Abdulazizdan insof va adolat ko'rmaganidek, akasiga tig' ko'targan Subhonquli davrida ham ro'shnolik topmadi.

1681-yilda Samarqand yaqinidagi Miyonko'lda unga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Qo'zg'olonchilar orasida yakdillik bo'lmay, bir qismi xonga taslim bo'ldi. Ikkinchi qismi Xo'jand va O'ratepa hokimi Rahimbiy yuzdan yordam so'rab, kurashni davom ettirdi. Madad kelmay, mag'lubiyatga uchradilar. Turdi mana shu ikkinchi qism orasida edi. Chunki uning tabiatiga zolimga bo'ysunish, zulm bilan kelishish yot edi. Umrining so'nggi davrini Xo'jandda Oqbo'tabiy huzurida muhtojlikda o'tkazadi. Quyida ana shu millatparvar, haqparast shoir ijodi namunalaridan bahramand bo'lasiz.

G'AZALLAR

Tor ko'ngullik beklar, manman demang, kenglik qiling,
To'qson ikki bovli¹ o'zbak yurtidur, tenglik qiling.

Birni Qipchoq-u Xito-yu, birni Yuz, Nayman demang,
Qirq-u Yuz, Ming son bo'lub, bir xon oyinlik² qiling.

Bir yaqodin bosh chiqorib, barcha bir to'ng'a kirib,
Bir o'ngurlik³, bir tirizlik⁴, bir yaqo, yenglik qiling.

¹ *Bov* – bog', shoh, urug'.

² *Oyin* – rusum, odat.

³ *O'ngur* – to'nning etagi, bar.

⁴ *Tiriz* – to'nning yelka qismi.

Kim qo‘yubdur, uhdayi o‘z mulkungizdin chiqmayin,
Ikki, uch, to‘rt da vosin etmakni ko‘tahlik¹ qiling.

Mardlar maydon chekib, rangin ko‘tarib zaxmlar²,
Sizga yo‘q, ul javhar-u yuzga upo-englik³ qiling.



Savol va topshiriqlar:

1. She‘rda beklar nega «tor ko‘ngullik» deb sifatlanmoqda? «Kenglik qiling», «tenglik qiling» chaqiriqlari ma‘nosini shoir yashagan davr voqealariga bog‘lab tushuntiring.
2. Ikkinchi bayt so‘ngidagi «bir xon oyinlik qiling» ifodasi orqali qanday g‘oya ilgari surilmoqda?
3. Uchinchi baytda «bir» so‘zining takrori mazmun va shaklda qanday ahamiyat kasb etayapti? Baytda qo‘llanilgan ibora mazmunini izohlang.
4. Shoir o‘z «mulk»lari «uhda»sidan chiqmagan beklarni nega tanqid ostiga olmoqda?
5. Maqta’dagi mardlar maydonda olishib qon to‘kkanda, panna turgan beklarga «upa-englik» tavsiya qilinayotganligi zamiridagi ma‘noni ilg‘ashga urining. Bu xil beklarni shoir kimga o‘xshatmoqda deb o‘ylaysiz?
6. G‘azalda shoirning shaxsiyati, xarakter belgilari namoyon bo‘lganmi?
7. G‘azalni yod oling.

* * *

Qatrayam nochiz⁴, ammo zoti qulzum⁵ Turdiman,
Kelturan amvojj⁶ a⁶ bahri talotum⁷ Turdiman.

¹ *Ko‘tahlik* – qisqalik, bu o‘rinda «kamtarlik» ma‘nosida.

² *Zaxm* – yara.

³ *Englik* – elik, upa.

⁴ *Qatrayam nochiz* – arziyas qatra.

⁵ *Qulzum* – dengiz.

⁶ *Amvoj* – mavjlar.

⁷ *Talotum* – po‘rtana, bo‘ron.

Qirq, Yuz, Ming aqrabolar¹ ettilar mandin nufur²,
Ne balo, baxti qaro-yu toleyi shum Turdiman.

Rishtadek ming bor ro‘ze chashmi so‘zandin³ o‘tar,
Bovujudi e‘tibori chashmi mardum⁴ Turdiman.



Savol va topshiriqlar:

1. Hasbi hol yo‘nalishidagi ushbu g‘azalni sinchiklab o‘qib, bunday asarlarga xos jihatlari haqida tushuncha bering.
2. Matla’da ifodalangan fikrning shoir hayotiga aloqador jihatlari aniqlang. Shoir nega o‘zini bunchalar baxtsiz va tolesiz hisoblayotganini tushuntira olasizmi?
3. So‘nggi bayt qatidagi ma‘noni anglashga urining. Har kuni ignaning teshigidan o‘tgan ip kabi tirikchilik o‘tkazgan shoir ruhiyati tasviri haqida to‘xtaling.
4. Matla’dagi tazod san’ati qo‘llangan o‘rinni aniqlang, uning fikrni ifodalashdagi ahamiyatini belgilang.

MUXAMMAS

Yod mandin kim berur, yaxshi zamonlar ko‘rdiman⁵,
Rind sarxayli-yu⁶ xush⁷ ayshi damo-dam surdiman,
Halqai ushshoqda⁸ bazm-u majolis⁹ qurdiman,
Mushti xokam¹⁰ davr-u davronlarni lekin ko‘rdiman,
Xush dimog‘ etgan mayi sofi hariflar¹¹ durdiman¹².

¹ *Aqrabolar* – yaqinlar, qarindoshlar.

² *Nufur* – nafrat, yoqtirmaslik.

³ *Chashmi so‘zan* – igna ko‘zi.

⁴ *Mardum* – odamlar.

⁵ *Ko‘rdiman* – ko‘rdim, ko‘rganman.

⁶ *Rind sarxayli* – mayparastlar davraboshisi.

⁷ *Xush* – yaxshi, ko‘ngilli.

⁸ *Halqai ushshoq* – oshiqlar davrasi. Allohga oshiq so‘fiylarning davra qurib zikrga tushishi.

⁹ *Majolis* – majlislar, yig‘inlar.

¹⁰ *Mushti xokam* – bir siqim tuproqman.

¹¹ *Hariflar* – ulfatlar, sheriklar.

¹² *Durdiman* – quyqasiman.

Qilmadim shukronai, soldurdi tufroq oshima,
Qolmadi juz¹ dard-u g'am hamdam, musohib qoshima,
Haq o'zi rahm aylag'ay, ohi sahar ko'z yoshima,
Tafriqa² toshini yog'durdi zamona boshima,
Xonumon ovora selobi havodis³ surdiman.

Nozili⁴ hukmi qazo⁵ hech kim rad-u man' etmadi,
Barcha bo'yniga solan bu rishtani qat' etmadi⁶,
Ahli hole⁷ topmadim boshdin balo daf' etmadi,
Kulfat-u g'urbatni tuzluk sunnati⁸ raf' etmadi⁹,
Xor-u beqadramki mundin ortinib, jubrindiman¹⁰.

Voqife yo'q¹¹, bu musofirlik'da mandin ne o'tar,
Baski yuz ko'yi bila ro'zi kelib, ro'zi ketar,
O'zmag'ay mundin balo-yu bo'lmagay mundin batar,
Aqrabalar suhbatimdin or etar, qoshin chatar¹²,
Salb dillarda¹³, nazarlarda karih¹⁴ siprindiman.

Yaxshi vaqtlar yod etib, undin ketib, mundin qolib,
Harza¹⁵ ashki tifldek¹⁶ ayni nazarlardin¹⁷ solib,

¹ *Juz* – bo'lak, boshqa.

² *Tafriqa* – bo'linish, ixtilof, parchalanish.

³ *Selobi havodis* – hodisalar seli.

⁴ *Nozil* – tushirilgan, yuborilgan.

⁵ *Hukmi qazo* – qazo hukmi, o'lim hukmi.

⁶ *Qat' etmadi* – kesmadi.

⁷ *Ahli hol* – holingni tushunuvchilar, hamdardlar.

⁸ *Tuzluk sunnati* – to'g'rilik yo'li.

⁹ *Raf' etmadi* – o'rtadan ko'tarmadi, yo'qotmadi.

¹⁰ *Jubrindi* – chuvrindi.

¹¹ *Voqife yo'q* – xabardor yo'q.

¹² *Qoshin chatar* – qoshini chimirar, yoqtirmas.

¹³ *Salb dil* – dilidan tongan, inkor etgan.

¹⁴ *Karih* – jirkanch.

¹⁵ *Harza* – behuda.

¹⁶ *Ashki tiftl* – bolaning ko'z yoshi.

¹⁷ *Ayni nazarlardin* – ko'z kosasidan.

Nosara dirham¹ sifatliq rad qilib, qo‘lga olib,
Dasta farsuda², yuzi qaytib, oyoqlarda qolib,
Ko‘hna tig‘i tah-batah g‘am zangi tutg‘on kundiman³.

Oh, bu umri kiromni⁴ sarfi g‘aflat ayladim,
G‘ussayi behuda asbobi nadomat⁵ ayladim,
Bilmadim o‘z aybimi, xalqqa mazammat⁶ ayladim,
Shukr shahdin⁷ bilmadim, kufroni ne‘mat⁸ ayladim,
Zaxmi nishi⁹ ro‘zgor ahlini talh-u tundiman¹⁰.

Hukm jori¹¹, so‘z qabuli, bir duri dargo‘sh¹² edim,
Ahli davlatlar bilan yor-u harif, hamdo‘sh¹³ edim,
Hoy-hoyi bazmlarda¹⁴ shahd no‘sho-no‘sh edim,
Xush zamonlar yuz qazoni boshida sarpo‘sh¹⁵ edim,
Bu zamon yavg‘on qozon ostida qolg‘on yundiman¹⁶.

Charxi dun¹⁷ qildi manga javr-u jafolar behisob,
Gardishi davron¹⁸ berur har lahza yuz ming pechutob¹⁹
Har sori yeldim-yugurdim suv sonib mavji sarob²⁰,

¹ *Nosara dirham* – qadrsiz dirham, pul.

² *Dasta farsuda* – dastasi eskirgan, tutqichi yo‘q.

³ *Kundi* – o‘tmas.

⁴ *Umri kiromni* – aziz umrni.

⁵ *Asbobi nadomat* – pushaymonlik, afsus asbobi.

⁶ *Mazammat* – yomonlash, tergash, aybsitish.

⁷ *Shukr shahdin* – shukurning shirinligini.

⁸ *Kufroni ne‘mat* – nonko‘rlik, yaxshilikni bilmaslik.

⁹ *Nish* – nayza, nishtar.

¹⁰ *Talh-u tundiman* – achchig‘-u sovug‘iman.

¹¹ *Hukm jori* – hukmi bajariladigan, o‘tadigan.

¹² *Duri dargo‘sh* – quloqdagi dur.

¹³ *Hamdo‘sh* – yelkadosh.

¹⁴ *Hoy-hoyi bazmlarda* – katta bazmlarda.

¹⁵ *Sarpo‘sh* – qopqoq.

¹⁶ *Yundiman* – yuvindiman.

¹⁷ *Charxi dun* – teskari, tuban dunyo.

¹⁸ *Gardishi davron* – o‘zgaruvchan davron.

¹⁹ *Pechutob* – to‘lg‘anish, iztirob, azob.

²⁰ *Suv sonib mavji sarob* – sarob (yo‘q narsa)ning mavjini suv hisoblab...

Tashna lab, gardi kudurat¹ zeri poyinda² xarob,
Bahri davlatdin yiroq gardan shikasta mo'ndiman³.

Kasrati yo'qluq⁴, tama'⁵ kettirdi qadr-u qiymatim,
Yuz sarig'liq yerga urdi obro'-yu izzatim,
G'ayrdin izhori matlab⁶ ayladi dun fitratim⁷,
Aql zoyil⁸, umr kam, besh o'ldi⁹, dard-u mehnatim,
Davlat urgan pushti po-yu¹⁰ baxtibad chirkindiman¹¹

Man kimam, gumnom-u¹² nokom-u¹³ jahon ovorai,
Diyda namnok-u¹⁴ giribon chok-u¹⁵ bag'ri porai,
Noqabuli marhami¹⁶, nosur¹⁷ bitmas yorai,
Bekasi¹⁸, mushti xasi¹⁹, bir bandai bechorai,
Sobiram²⁰, rozi qazo, tiyri balog'a²¹ ko'ndiman.

¹ *Gardi kudurat* – g'am changi.

² *Zeri poyinda* – oyoq ostida.

³ *Gardan shikasta mo'ndiman* – og'zi siniq ko'zaman.

⁴ *Kasrati yo'qluq* – doimiy yo'qlik, muhtojlik.

⁵ *Tama'* – ochko'zlik, tamagirlik.

⁶ *Izhori matlab* – talab qilish, istakni bildirish.

⁷ *Dun fitrat* – tuban fe'l, pastkash tabiatli.

⁸ *Aql zoyil* – aql ketdi, yo'qoldi.

⁹ *Besh o'ldi* – ko'paydi, ortdi.

¹⁰ *Pushti po urmoq* – e'tiborsiz qoldirmoq, tark etmoq.

¹¹ *Chirkindi* – ifloslangan, kirlangan.

¹² *Gumnom* – nomsiz, oti yo'q.

¹³ *Nokom* – nochor.

¹⁴ *Diyda namnok* – ko'z yoshli.

¹⁵ *Giribon chok* – yoqavayron.

¹⁶ *Noqabuli marhami* – malham ta'sir qilmaydigan, dori foyda bermaydigan.

¹⁷ *Nosur* – yomon, bitmas, xunuk.

¹⁸ *Bekas* – yolg'iz, hech kimi yo'q.

¹⁹ *Mushti xasi* – bir siqim xasday.

²⁰ *Sobiram* – sabrliman.

²¹ *Tiyri balog'a* – baloning o'qiga.

Xeshman¹, darvish miskin², mustahiq³ devonadin,
Bahramand et iltifot-u himmati mardonadin,
Sen turub loyiqmidur, qilmoq tama' begonadin,
Qiblagoho, mandin ikroh etma⁴ er mayxonadin,
Jo'shi⁵ borkim sof maysan, man g'ubor-u durdiman.

Yuz farozidin ozib⁶, tushdum nishibi qirqqa⁷,
Xavf-u biymu⁸ vahm arosinda qaribi qirqqa⁹,
Dona¹⁰ deb pobast o'lub¹¹, domi firibi qirqqa¹²,
Voy, yuz ming voy, yuz bo'ldim firibi qirqqa,
Hokimi Dizzax muti'u payravi jurqundiman¹³.



Savol va topshiriqlar:

1. «Yod mandin kim berur» so'zlari orqali shoirning xotiraga berilayotganiga diqqat qiling. U «yaxshi zamonlar» deganda nimani nazarda tutgan?
2. «Rind sarxayli» (soqiy), «ushshoq» (oshiqlar), «may» so'zlari ifodalagan ramziy ma'nolarni topib, birinchi band mazmunini izohlang.
3. Shoirning ko'rguliklari: «*Qilmadim shukronai, soldurdi tufroq oshima*» misrasi bilan boshlanadigan bandda qanday aks ettirilganligini kuzating. U kimni ayblayotir?
4. «*Tafriqa toshini yog'durdi zamona boshima*» misrasi mazmunini anglating.

¹ *Xeshman* – qarindoshman.

² *Miskin* – bechora, siniq.

³ *Mustahiq* – haqli.

⁴ *Ikroh etma* – jirkanma, ayama.

⁵ *Jo'sh* – qaynoq, kuchli.

⁶ *Farozidin ozib* – balandligidan adashib, yuksakligidan hovliqib.

⁷ *Nishibi qirq* – qirqning pastligiga.

⁸ *Biym* – qo'rquv.

⁹ *Qaribi qirqqa* – qirqning yaqiniga.

¹⁰ *Dona* – don, yemish.

¹¹ *Pobast o'lub* – oyog'im bog'lanib.

¹² *Domi firibi qirqqa* – qirqning hiyla tuzog'iga.

¹³ *Jurqundi* – anqov, lallaygan, gunohkor.

5. «Nozili hukmi qazo», ya'ni Yaratganning taqdiriga rozi bo'lib, boshiga tushgan balolarni daf etuvchi bir «ahli hol» – ma'naviy ustoz izlayotgan shoirning ruhiy kechinmalari qanday tasvirlangan?
6. «*Voqife yo'q, bu musofirlig'da mandin ne o'tar*» misrasi shoir hayotidagi qaysi davrni yodga tushiradi?
7. She'rdagi: «*Baski yuz ko'yi bila ro'zi kelib, ro'zi ketar, O'zmag'ay mundin balo-yu bo'lmag'ay mundin batar*» misralarining «Turdiman» radifli g'azali maqta'sidagi mazmun yaqinligini sharhlang. Aqrabo (yaqinlari)ning shoirga pisandsizligi sababi nimada deb bilasiz?
8. O'tmishdagi shavkatli holat aks etgan: «*Hoy-hoyi bazmlarda shahd no'sho-no'sh edim, Xush zamonlar yuz qazoni boshida sarpo'sh edim*» baytida shoir mahorati qanday namoyon bo'lganligiga e'tibor qiling. Yuz urug'i qozoniga qopqoq bo'lgan zamonlarni qanday tuyg'u va kechinmalar bilan eslayapti deb o'ylaysiz?
9. *Diyda namnok-u giribon chok-u bag'ri porai*» misrasida Turdining tasvir mahorati qanday ko'ringanini anglatirg.
10. Shoirning: «*Yuz farozidin ozib, tushdum nishibi qirqqa*» misrasidagi «yuz» va «qirq» atamalari urug'larning nomlarini anglatadi. Shoir shu o'rinda urug' nomlari yordamida so'z o'yini qilgan. Shu o'yinni topib, tushunishga harakat qiling. «Yuz» so'zi yuzaga keltirgan tajnis san'atini izohlang.
11. Muxammasni oldingi ikki g'azal bilan qiyoslang. Ular orasidagi fikr, tuyg'u va ifodalar yaqinligini topib sharhlang.

MILLATNI BIRLIKKA CHORLAGAN SHOIR

Turdidan bizga ijodining juda oz qismi – 400 misra atrofidagi o'n sakkizta she'r yetib kelgan. Ularning ko'pchiligi g'azal va muxammaslardan iborat. Bir g'azal va bir muxammasi tojik tilida bitilgan. Bu uning zullisonayn (ikki tilda ijod qiluvchi) shoir bo'lganligidan darak beradi.

She'rlarida «Turdi» hamda «Farog'iy» taxalluslarini qo'l-lagan.

«Tor ko'ngullik beklar...» she'ri g'azal janrida yozilgan. U adabiyotimiz tarixidagi xalqni milliy birlikka chaqirgan, o'zaro tenglikka da'vat etgan, hududiy yaxlitlikni targ'ib qilgan siyosiy ruhdagi birinchi she'r sifatida alohida e'tiborga molikdir.

O'zbeklar etnik jihatdan to'qson ikki urug'dan iborat bo'lgan. Ular qirq, yuz, ming, jaloyir, jig'alboyli, oytamg'ali, xitoy, qipchoq, nayman, boymoqli, sirg'ali, o'roqli, bolg'ali, boyovut, qo'ng'irot, so'loqli, qaropchi, kenagas, mang'it kabi nomlar bilan atalgan. Bu urug'larning boshchilari, yurt kattalari mavqe, amal, hudud talashib urug'-aymoqlar o'rtasida o'zaro nizolarni kuchaytirdilar. Bundan oddiy xalq aziyat chekdi, qishloqlar vayron, ekinzorlar payhon bo'ldi. O'lka parokandalikka yuz tuta boshladi. Bu holdan qattiq g'azablangan shoir Turdi mamlakat, mansab uchun qirpichoq bo'layotgan beklarni ko'ngillaridagi tor shaxsiy g'arazlarni qo'yib, keng miqyosda millat uchun qayg'urishga chaqiradi:

Tor ko'ngullik beklar, manman demang, kenglik qiling,
To'qson ikki bovli o'zbak yurtidir, tenglik qiling.

Keyingi baytda parokandalik, tarqoqlikdan voz kechib, bir hukmdor qo'l ostida yaxlit bir mamlakat, yagona bir milliy davlat haqidagi orzularini bayon etadi. Keyingi uch urug'ning nomi sonlarga uyg'unligidan foydalanib, tazod vositasida mazmunga mos shakl topa biladi. Ya'ni urug'ingiz nomi qirq, yuz, ming bo'lsa-da, siz bir xonlikda yashashni, bir mamlakat bo'lib birlashishni odat qiling, deydi shoir.

Uchinchi baytda g'azalning umumiy g'oyasi yanada yorqinroq, ta'sirliroq ifodalangan. Birlikka da'vat etayotgan shoir baytdagi misralarda «bir» so'zini bir maromda besh marta takrorlaydi va uni bitta kiyimning qismlari misolida ifoda etadi:

Bir yaqodin bosh chiqorib, barcha bir to'ng'a kirib,
Bir o'ngurlik, bir tirizlik, bir yaqo, yenglik qiling.

Oxirgi ikki baytda o‘z mulki, ya’ni mamlakatini boshqarishni uddasidan chiqmagani holida boshqa yerlarga ko‘z olaytirayotgan beklarni tanqid qiladi, yuragida mardlar kabi maydonda zahmat chekish javhari – jur’ati yo‘q yurt kattalari-ga o‘zining achchiq kinoyasini, istehzosini bildirishga jur’at etadi. G‘azalda o‘zidan kechib maydONTALAB bo‘lolmaydigan, ammo turli gap va ig‘volar bilan el orasini buzadigan kimsalar pardoz qiluvchi satang ayollarga o‘xshatib «yuzga upo-enlik qiling» deya kulgi qilinadi:

Mardlar maydon chekib, rangin ko‘tarib zaxmlar,
Sizga yo‘q, ul javhar-u yuzga upo-enlik qiling.

Uch baytdangina iborat «Turdiman» radifli g‘azali hasbi hol – o‘z ahvolini bayon etish tarzida yaratilgan. Unda ma’lum darajada shoirning taqdiri, kechmishlari aks etgan deyish mumkin.

G‘azal shoirning hasbi holi bilan boshlanadi:

Qatrayam nochiz, ammo zoti qulzum Turdiman,
Kelturan amvojga bahri talotun Turdiman.

Bayt tazod san’ati asosiga qurilgan. Shaxsiyati va holatidagi qarama-qarshilik orqali fikr bo‘rttiriladi. «Qatradek nochiz», ya’ni oddiy odam bo‘lsa-da, o‘z tirishqoqligi, jonkuyarligi, izchil harakatlari bilan ezilgan kishilarni oyoqqa turg‘izgan, isyon va qo‘zg‘olonlarni keltirib chiqargan, she’rlari bilan amaldorlar yuziga ham haqiqatni tik ayta olgan shoir: «Kelturan amvojga bahri talotun Turdiman», – deya faxrlanishga haqli edi. Ikkinchi baytda shoir tolesizligi sababi ko‘rsatiladi:

Qirq, Yuz, Ming aqrabolar ettilar mandin nufur,
Ne balo, baxti qaro-yu toleyi shum Turdiman.

Turdining oliyjanob harakatlarini, yakdillik haqidagi yonib-kuyishlarini qirq, yuz, ming va boshqa urug‘lardagi millatdoshlari anglab yetmaydilar, ba’zilari hatto nafrat bilan qaraydilar. Bundan iztirobga tushgan shoir o‘zini, «baxti

qaro», «toleyi shum» deb biladi. Bu holat uning turmush tarzi, hayot kechirishiga ham ta'sir etmay qo'yadi:

Rishtadek ming bor ro'ze chashmi so'zandin o'tar,
Bo vujudi e'tibori chashmi mardum Turdiman.

Rishta – ip, ro'ze – kun, chashmi so'zan – igna teshigi degani. Demak, shoirning moddiy ahvoli ancha tang: tirikchiligi «chashmi so'zan», ya'ni igna teshigidan o'tkazilayotgan ip kabi qiyin o'tadi. Shoir shu taxlit o'zining o'tmishini, iztirobli kechinmalarini, turmush tarzini siqiq, lo'nda shaklda bayon etadi.

Hayotligida iztirobli kunlarni boshidan o'tkazgan bo'lsa-da, millatni birlikka chorlagan she'ri bilan shoir hamon biz bilan. O'zidan keyin so'zi qolgan shoir baxtsiz emas.



Savol va topshiriqlar:

1. Turdining «Tor ko'ngilli beklar» tarzida boshlanadigan g'azalining barcha davrlardagi ahamiyati nimadan iborat deb o'ylaysiz?
2. O'zi mansub bo'lgan urug'ni bilishning yaxshi tomoni nimada? Qanday holda u yomonlikka aylanishi mumkin?
3. Siz o'zingiz mansub urug'ni bilasizmi? Nechta ota avlodingizni bilasiz?
4. Inson hayotida hamma narsaning omonat ekanligi «Turdiman» radifli g'azalda qanday aks etgan?



Jahon Otin Uvaysiy

(1779–1845)



Har bir shoir taxallusining oʻz maʼnosi bor. Mumtoz adabiyotimizda shoirlar asosan muqaddas Islom dini taʼlimotiga, paygʻambar Muhammad alayhissalom oʻgitlari hamda oʻtmishdagi ulugʻ ajdodlarga ergashib yoki tugʻilgan yeriga nisbat berib, oʻziga taxallus tanlaganlar. Taxallus bu shunchaki bir soʻz yoki ismgina emas, balki adibning ijoddan koʻzlagan maqsadini, yoʻlini belgilovchi timsol, ajdodlari, Vatani oldidagi masʼuliyatga ishora qiluvchi hikmatli soʻzdir. Masalan, Navoiy – haq va haqiqat, adolat yoʻlida navo qiluvchi, Buyuk Alisher Navoiyning ikkinchi taxallusi Foni – oʻtkinchi, yaʼni oʻzining bu dunyoda vaqtinchalik mehmon ekanligini anglab, faqat ezgu ishlarni koʻzlovchi, Maxmur – ilohiy ishqdan mast boʻlgan darvesh va hokazo. Xoʻsh, unda Uvaysiy taxallusining maʼnosi nima?

Oʻtmishda Uvays Qaraniy ismli valiy zot oʻtgan. Uning Muhammad alayhissalomga boʻlgan muhabbati shu kungacha insonlar orasida tillarda doston boʻlib kelmoqda. U paygʻambarimiz bilan bir zamonda, bir-birlaridan unchalik uzoq boʻlmagan joyda yashagan boʻlsalar-da, ularga koʻrishish nasib etmagan. Bu zot Muhammad alayhissalomga hali paygʻambarlik berilmay turib, uning qachon va qayerdan

chiqishini bilmagan holda Rasulullohning kelishini intizorlik, ko'zda yosh bilan kutgan. O'zi hali ko'rmagan, daragini faqat ilohiy kitoblardan eshitgan payg'ambarga g'oyibona muhabbat qo'yadi. Muhammad alayhissalom ham o'ziga zamondosh sahobalari hamda ummatlari ichida ko'rmay turib, Uvays Qaraniy hazratlariga alohida ikrom va e'zoz bilan mehr qo'yanlar. Shundan Islom olamida payg'ambarimizning (garchi u zot o'tib ketgan bo'lsalar-da) g'oyibona nazari – nigohiga sazovor bo'lish ilinjida «uvaysiylik» yo'li paydo bo'lgan. Ehtimol, shoira Uvaysiy ham o'z taxallusini qaysidir bir buyuk zotga bo'lgan g'oyibona uvayslik munosabati tufayli tanlagandir.

Mana, shoira Jahon Otin taxallusining ma'nosini ham deyarli bilib oldik. Endi uning hayot yo'li to'g'risida bir-ikki og'iz so'z.

Shoira Marg'ilon shahrida ziyoli oilada dunyoga keldi. Otasi o'zbek va tojik tillarida she'rlar yozgan ijodkor, onasi ham fozila ayol bo'lgan. Hofiz unvoni bilan el ichida tanilgan akasi Oxunjon ashula aytar, musiqadan yaxshigina xabardor edi. Badiiy did yuqori bo'lgan ma'rifatli oilada voyaga yetgan Jahon Otin yoshligidan she'r mashq qildi va tez orada «Uvaysiy» taxallusi bilan shuhrat topdi.

Shoiraning turmush o'rtog'i Hojixon erta vafot etib, qizi Quyoshxon, o'g'li Muhammadxonni tarbiyalab voyaga yetkazish yakka o'zining zimmasida qoladi. U maktabdorlik qiladi, ijod bilan shug'ullanadi. Farzandlari ham she'rlar yozgan.

Uvaysiy hayoti va ijodiy faoliyatining bir qismi malika va shoira Nodirabegim hurmati va iltifoti tufayli xon saroyida kechadi. Bu yerdagi qizg'in ijod uchun kerakli adabiy muhit, farzandlarining yashashi va tarbiyasi uchun qulay sharoit shoiraning bir necha yillar osoyishta hayotini ta'minladi. 1822-yilda Amir Umarxon vafot etgach, Uvaysiy uchun ham tashvishli va qayg'uli kunlar boshlanadi. Otasining o'rniga taxtga o'tirgan Muhammad Alixon unga yaxshi munosabatda bo'lmadi. Boz ustiga, o'g'li Muhammadxon ham sarbozlikka olinib, Qashqar uchun olib borilayotgan urushga jo'natildi.

Oilaviy turmushi baxtsiz kechgan qizi Quyoshxon kasallanib, o'ttiz yoshida vafot etadi. Undan Bibi Xadicha ismli qizcha qoladi.

Buxoro amiri Nasrullo 1842-yilda Qo'qonni bosib olib, Nodirabegimni, uning o'g'li va nabiralarigacha qatl ettiradi. Shundan so'ng Uvaysiy ona shahri Marg'ilonga qaytadi va taxminan 1845-yilda vafot etadi.

Shoira mumtoz adabiyotning g'azal, muxammas, musaddas, murabba', chiston hamda doston kabi janrlarida qalam tebratgan va uning she'rlari asosan ishqiy mavzuda. Ularda o'zining Yaratuvchisiga intiqlik bilan intilayotgan solik banda, Olloh yaratiqklarining eng afzali Payg'ambar alayhissalomga oshiq ummat, Haq yo'lida sobit ustozlarga muhabbatli shogird sifatida tuyg'ularini izhor etadi. Shuningdek, insonning insonga sevgisini tarannum etuvchi g'azallari ham talaygina.

Uvaysiyning «Uvaysiyman», «Dog' o'ldi, dog' o'ldi», «Sog'indim» kabi g'azallari hasbi hol tarzida yozilgan. Ularda shoira hayotining ayrim lavhalari, taqdiri uchun muhim bo'lgan hayotiy holatlar bayon etilgan. Masalan, «Sog'indim» radifli g'azal o'g'li Muhammadxonning sarbozlikka yuborilishi munosabati bilan farzandidan judo onaning iztiroblari, sog'inchini aks ettiradi.

Uvaysiy chistonna vis sifatida ham o'z mahoratini namoyon etgan. Ayniqsa, «Anor» chistoni yaratilgandan buyon she'riyat ixlosmandlari e'tiborini qozonib kelmoqda.

G'AZALLAR

* * *

Mehnat-u alamlarga muhtalo Uvaysiyman,
Qayda dard eli bo'lsa, oshno Uvaysiyman.

Istadim¹ bu olamni, topmadim vafo ahlin,
Barchadin yumib ko'zni muddao Uvaysiyman.

¹ *Istadim* – bu yerda: «izladim» ma'nosida.

Uz diling taalluqdin¹, band qil Xudo sori,
To degil kecha-kunduz: «Mosivo² Uvaysiyman!»

Kechalar fig'onimdin tinmadi kavokiblar³,
Arz to samo⁴ uzra mojaro Uvaysiyman.

To ko'rib xarobotin⁵ ta'na etma, ey zohid,
Bir nafas emas xoli iqtido⁶ Uvaysiyman.

Faqr borgohiga⁷ qo'ysa gar qadam har kim,
Bosh agar kerak bo'lsa, jon fido Uvaysiyman.

Vaysiy beriyozat⁸ deb sahl⁹ tutma, ey orif,
Ishq aro nihon dardi bedavo Uvaysiyman.



Savol va topshiriqlar:

1. She'rdagi «Uvaysiyman» radifi ikki ma'noda: shoirning taxallusi va tasavvufdagi uvaysiylilik yo'lidagi so'fiy ma'nosida kelayotganidan kelib chiqib tahlilni olib boring.
2. Shoir nima uchun barchadan ko'zni yumibgina muddaoga yetishini aytmoqda?
3. Dunyodan uzilib, dilni xudo sari band qil deganida nimani nazarda tutgan: tarki dunyo qilishnimi yoki mol-dunyoga berilib, butunlay Xudoni, iymon va vijdonni unutmaslik ma'nosinimi?
4. Ilohiy ishqda o'rtanayotgan oshiqning kechinmalari nima uchun yer-u ko'kni larzaga soladi?

¹ *Uz diling taalluqdin* – dilingni dunyo aloqasidan uz, ya'ni dunyodan yuz o'gir.

² *Mosivo Uvaysiyman* – dunyodan uzilgan Uvaysiyman.

³ *Kavokib* – yulduzlar.

⁴ *Arz to samo* – yerdan osmongacha.

⁵ *Xarobotin* – bu yerda: so'fiylar maskani.

⁶ *Iqtido* – ergashish. Bu yerda Uvaysiyning so'fiylilik, tasavvuf maslagiga ergashgani anglashiladi.

⁷ *Borgoh* – faqir so'fiylar, ishq ahlining manzilgohi.

⁸ *Beriyozat* – mashaqqatsiz, qiynoqsiz, azobsiz.

⁹ *Sahl* – yengil, oson.

5. G‘azaldagi oshiqning zohid bilan bahsga kirishishining boisi nima? Oshiqlik va zohidlik o‘rtasidagi farqdan kelib chiqib javob bering.
6. Oxirgi baytlarni o‘qituvchingiz va sinfdosh o‘rtoqlaringiz bilan tahlil qiling.

SOG‘INDIM

Bukun, ey do‘stlar, farzandi jononimni sog‘indim,
Gado bo‘lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog‘indim.

Musofirman, g‘aribman, bekas-u ham benavodurman¹,
Vujudim dardga to‘ldi, emdi darmonimni sog‘indim.

Tilimning zikri-yu, ko‘nglimni fikri, yaxshi farzandim,
Azizim, yolg‘izim, davlatli sultonimni sog‘indim.

Kecha-kunduz yo‘lig‘a muntazirdurman, tikarman ko‘z,
Kelib holim so‘ribon ketsa, mehmonimni sog‘indim.

Nasibin uzmadı tangrı, ilojin topmag‘ay kelsa,
Onam deb bo‘lg‘usi bag‘ri qizil qonimni sog‘indim.

Qorong‘u bo‘ldi olam ko‘zima ushbu judolikdin,
Ko‘z-u ko‘nglum ziyosi mohi tobonimni sog‘indim.

Mani bekas Uvaysiy, yig‘lagayman ro‘z-shab² tinmay,
Uyimning ziynati, ko‘z ravshani, xonimni sog‘indim.



Savol va topshiriqlar:

1. She‘rdan shoira tarjimayi holi bilan bog‘liq jihatlarni toping. G‘azalda ifodalangan yetakchi fikr va tuyg‘uni aniqlang.
2. G‘azaldagi **«gado»**, **«shohi davron»** timsollari shoiraning intizorlik tuyg‘ularini ifodalashga qay darajada xizmat qiladi?

¹ *Benavo* – baxtsiz, sho‘rpeshana.

² *Ro‘z-shab* – kun-tun, erta-kech.

3. Qanday she'riy san'atda o'zaro zid, qarama-qarshi ma'noli so'zlar yordamida ta'sirchanlikka erishilishi mumkinligini ayting.
4. Shoiraning: *«Vujudim dardga to'ldi, emdi darmonimni sog'indim»* tarzidagi anduhida o'zbek onalariga xos sifat-larning qanday ifodalanganligini ko'rsating.
5. G'azaldagi: *«Tilimning zikri-yu, ko'nglimni fikri, yax-shi farzandim, Azizim, yolg'izim, davlatli sultonimni sog'indim»* baytida sog'inch iskanjasidagi ayol tuyg'ularini ifodalashda shoira mahoratini ko'rsatuvchi jihatlarni toping.
6. Shoiraning oddiygina askar o'g'lini «davlatli sultonim» deb atashi sababini qanday izohlaysiz?
7. Shoiraning o'z o'g'liga bergan sifatlarini yozib chiqing va izohlab bering.
8. *«Onam deb bo'lg'usi bag'ri qizil qonimni sog'indim»* mis-rasida ifodalanayotgan ma'noni anglatning.
9. Shoiraning o'ziga nisbatan ishlatgan sifatlashlari orqali izti-robni, o'g'liga qo'llagan sifatlar vositasida sog'inchni ifoda-laganini tahlil qilib chiqing.
10. She'rda o'g'ilning holati, kechinmalari ham aks etganmi?
11. Holat va kechinmalar tasviri uchun qo'llangan xalqona ibora va ifodalarni toping, ularning g'azal badiiyatida tutgan o'rnini sharhlang.
12. She'rni yod oling.

CHISTONLAR

1

Ul na gumbazdir, eshigi, tuynugidin yo'q nishon,
 Necha gulgunpo'sh¹ qizlar manzil aylabdur makon.
 Sindurub gumbazni, qizlar holidin olsam xabar,
 Yuzlarig'a parda tortig'liq turarlar bag'ri qon.

¹ *Gulgunpo'sh* – qizil (gulgun) kiygan.

Ul nadurkim, sabzto‘nlik, yoz yog‘ochning boshida,
Qish yalang‘och aylagay barcha xaloyiq qoshida.
Barcha qushlarning so‘ngoki¹ ichida,
Ul na qushdurkim, so‘ngoki toshida.

Ikki mahbubni ko‘rdum, bir-birisin ko‘rmagan,
Ikkisining o‘rtasiga, do‘stlar, qil sig‘magan.



Savol va topshiriqlar:

1. «Chiston»ga xos janr xususiyatlarni ko‘rsatib bering.
2. «Anor» chistonini sharhlang. O‘xshamish va o‘xshatilmish orasidagi muvofiqlik haqida fikr bildiring. Shoiraning xayol parvozi, tuyg‘ular dunyosi, ijtimoiy qarashlar tizimini sharhlang.
3. «Anor»ning qofiyalarini aniqlang.
4. «Yong‘oq» chistonida yong‘oqning qaysi yashirin va qanday ochiq belgilariga tayanilganiga e‘tibor qarating.
5. «Kun va tun» chistonidagi «mahbub»lar timsoliga to‘xtaling.
6. Chistonlarni yod oling.

CHISTON HAQIDA

Xalq og‘zaki ijodi janri bo‘lmish topishmoq haqida yaxshi bilasiz. Ma’lumki, nomi yashirilgan narsa yoki tushuncha belgi, ishoralariga qarab topiladigan savol yoki topshiriqlar topishmoq deyiladi. Mumtoz adabiyotdagi she’riy topishmoq janri **chiston** deb yuritiladi. U forscha «chist» (nima) hamda «on» (u) so‘zlaridan iborat bo‘lib, «u nima?» degan ma’noni bildiradi. Chistonning hajmi cheklanmagan, lekin ko‘pincha bir yoki ikki bayt (ikki bayt – to‘rt misra) bo‘ladi. Turkiy ada-

¹ So‘ngok – suyak.

biyotda ilk chistonlar XV asrda Alisher Navoiy tomonidan yaratilgan. Fors-tojik adabiyotida undan bir necha asr ilgari ham mavjud edi hamda **lugʻz** deb atalgan. Keyinchalik lugʻz hamda chiston atamalari turkiy va fors adabiyotida baravar qoʻllanavergan.

Uvaysiy chistonlari misolida bu janrga xos xususiyatlar yaqqol namoyon boʻladi.

Birinci chistonda javobni topish uchun bir qator belgi va ishoralar berilgan. Tashqi shakliy koʻrinishi: gumbazsimon, tuynugi yoʻq.

Ichki tuzilishi: gulgunpoʻsh (qizil yopingan) qizlar hamda parda borligi.

Unga munosabat shakli – sindirish kerakligi.

Bu belgilarga koʻra anorni koʻrgan odam biroz tafakkur qilib, uni topa oladi. Haqiqatan ham anor gumbazga oʻxshaydi. Uning biror teshigi yoʻqki, ichini koʻrib boʻlsa. Anor donachalari esa qizil kiygan qizlarning oʻzginasi. Boʻlaklarni ajratib turuvchi pardalar goʻyo ular yuzidagi harir mato. Nihoyatda sinchkovlik va zukkolik bilan topilgan tasvir!

Uvaysiy saroyda yashagan yillari davomida xon haramidagi kanizlar hayotiga guvoh boʻlgan. Gulday yoshligi saroy gumbazi ostida xazon boʻlayotgan qizlarning bagʻirlari qon. Saroyning harir pardalari ularni tashqi olamdan ajratib tura-di. Yuqoridagi chiston ana shu kuzatishlar asosida yaratilgan boʻlsa ajab emas. U ijtimoiy hayotdagi voqeaga ishora qiladi.

Keyingi ikki chistonda esa bu xususiyat yoʻq. Ular tabiatdagi holat va hodisalar tasviriga bagʻishlangan, ishoraviylikdan xoli. Shundan kelib chiqsak, sheʼriy topishmoqlar ikki turli boʻladi: majoziy chistonlar («Anor») hamda oddiy chistonlar («Yongʻoq», «Kun va tun»).

Qofiya she'rning asosiy unsurlaridan biri sanaladi. U she'riy asarlar musiqiyligini, jozibasini ta'minlaydi. Qofiya matnda yarq etib ko'zga tashlanadi, eshtilishida ham boshqa so'zlardan ajralib turadi. Shuning uchun shoirlar asarlarida asosiy fikrni tashuvchi so'zlarni qofiyada berishga harakat qiladilar.

Qofiya – bir so'z bilan yuzaga chiqmaydigan badiiy hodisa. Qofiya bo'lishi uchun ikki va undan ortiq ohangdosh so'zlar uyg'unligi bo'lishi kerak. Ular **qofiyadosh** so'zlar deyiladi. Ohangdoshlikni bu so'zlardagi **raviy** deb ataluvchi unli yoki undosh bo'lgan tirkak tovush hosil qiladi. Qofiyadosh so'zlarda raviy qat'iy bir o'rinda keladi. Masalan, «Anor» chistonidagi «nishon», «makon», «qon» qofiyadosh so'zlarida «n» undoshi raviy hisoblanadi. Ularda qofiya raviy bilan tugagan. «Yong'oq» chistonining birinchi baytidagi «boshida», «qoshida» qofiyadosh so'zlarida «sh» tovushi raviydir. Chunki qofiyadosh so'zlarning o'zagi «sh» bilan tugagan. Lekin bu chistonda qofiya raviydan keyin ham davom etmoqda. Raviy bilan tugallangan qofiyalarni **muqayyad** deb, raviydan keyin harflar kelgan qofiyalarni **mutlaq qofiya** deb atash qabul qilingan. Mumtoz she'r ilmiga ko'ra raviy so'zning asosida (o'zagida) bo'lishi talab etilgan. Ammo ijod amaliyotida ba'zan bu talabdan chetga chiqishlar ham kuzatiladi. Uvaysiyning «Kun va tun» chistonida ham shu holatni ko'ramiz. «Ko'rmagan» – «sig'magan» qofiyasidagi raviy («n» tovushi) o'zakda emas, qo'shimchaning tarkibida joylashgan.

Eslab qolish kerakki, «lola – piyola», «banda – xanda» kabi qofiyalarda «a» unlisi emas, balki «l» hamda «d» undoshlari raviy hisoblanadi. So'zdagi cho'ziq unililargina raviy bo'la oladi. Qisqa unlilar raviy bo'lolmaydi. Masalan, shoiraning «Uvaysiyman» radifli g'azalida «mubtalo», «oshno», «muddao», «mosivo» so'zlaridagi «o» unlisi raviydir.

Qofiyadan keyin takrorlanadigan so'z yoki so'zlar birligi radif deyiladi. Yuqorida siz o'rgangan:

Bu kun, ey do‘stlar, farzandi jononimni sog‘indim,
Gado bo‘lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog‘indim, –

bayti bilan boshlanuvchi she’rida «jononimni», «davronimni» kabi so‘zlar qofiyadosh bo‘lsa, ulardan keyin takrorlanuvchi «sog‘indim» radifdir.

Radif bir necha so‘zdan ham iborat bo‘lishi mumkin. Uvaysiyning:

Ki bulbul nola, afg‘on aylamakni mendin o‘rgandi,
Vujudin sham’i so‘zon aylamakni mendin o‘rgandi, –

baytida «afg‘on», «so‘zon» qofiyasidan keyingi uch so‘zdan iborat «aylamakni mendin o‘rgandi» radif bo‘lib kelgan.

Chistonlarning javoblari:

1. Anor
2. Yong‘oq
3. Kun va tun



Zavqiy

(1853–1921)



asr oxiri – XX asr boshlarida Qo‘qon yurti-mizdagi madaniy-adabiy markazlardan biri bo‘lib, bu davrda shahar va uning atrofidan ko‘plab taniqli shoirlar yetishib chiqdi. Ularning ijodi o‘zbek adabiyotining yorqin sahifasini tashkil qiladi. Ana shu iste’dodlar sirasida lirik she‘rlari, hajviy asarlari bilan o‘z davrida e’tibor topgan shoir Zavqiyning o‘ziga xos o‘rni bor.

Zavqiy taxallusi bilan qalam tebratgan shoirning asl ismi Ubaydulloh bo‘lib, 1853-yilda Qo‘qon shahrining Qatag‘on dahasiga qarashli Shayxon mahallasida mahsido‘z kosib Muhammad Solih oilasida dunyoga kelgan. Bo‘lajak shoir dastlab mahallasidagi maktabda o‘qigan, so‘ng 1870–1874-yillarda shoirtabiat tog‘asi Muhammad Siddiq yordamida «Madrasai Oliy» va «Madrasai Chalpak» madrasalarida tahsil ko‘rgan. Ayni vaqtda ota kasbi mahsido‘zlikni o‘rganib, bo‘sh vaqtlarida otasiga yordamlashgan. Lekin onasining vafot etishi, otasining falaj bo‘lib qolishi sababli ota kasbi – kosiblik bilan ro‘zg‘or tebratadi. Ma’lum muddat Qo‘qon poyabzal rastasining xo‘jayini Mo‘minboy qo‘lida mirzalik ham qilgan. Shu xizmat taqozosi bilan Samarqand, Buxoro, Marg‘ilon, Andijon, O‘sh, Namangan, Xo‘jand,

Toshkent kabi shaharlarda bo‘ladi. Shoirning ijodiy faoliyati madrasada tahsil olib yurgan paytlarida boshlangan. O‘sha paytlarda u Muqimiy, Muhyi, Furqat, Nisbat, Muhayyir kabi taniqli shoirlar bilan tanishdi, ular bilan adabiy majlislarda, sherxonliklarda ishtirok etdi. Bu muhit Zavqiyning ijodiy kamolida alohida ahamiyat kasb etdi. Furqat o‘z esdaliklarida ushbu shoirlar tez-tez to‘planishib, adabiy suhbat qurganlari, bir g‘azalga ergashib, uning ma‘nosini turli shakllarda ifodalab, she‘riy bahslar qilganlari haqida yozgan edi.

1890-yili tog‘asi Muhammad Siddiq bilan birga haj safariga chiqib, olti oy davomida Turkiya va Arabiston mamlakatlarida bo‘ladi. Shoir safar davomida boshqa xalqlarning hayoti, urf-odatlarini bilan tanishadi. Natijada dunyoqarashi kengayib, ijodida yangi mavzu va ohanglar paydo bo‘ladi. Haj safaridan qaytgan shoir ota kasbini davom ettiradi va umrining oxirigacha badiiy ijod bilan shug‘ullanadi. Zavqiy 1921-yilda ikki oy davom etgan og‘ir kasallikdan so‘ng 68 yoshida vafot etgan.

Zavqiyning she‘rlari, maqolalari o‘z davrida «Turkiston viloyatining gazetisi», «Sadoi Farg‘ona», «Tirik so‘z», «Najot» gazetalarida hamda «Al-Isloah» jurnalida bosilgan, asarlaridan namunalar to‘plam va bayozlarga kiritilgan. Shoir umri davomida talay she‘rlar yozib, xalq olqishini olgan bo‘lsa-da, hayotlik chog‘ida she‘rlarini jamlab kitob holiga keltirgan emas. Aniqlanishicha, shoirning o‘z qo‘li bilan tuzgan devoni uning vafotidan so‘ng, aniqrog‘i, 1930-yilda turmush o‘rtog‘i Xayrunniso tomonidan Qashqarga olib ketilgan. Hozir bu devon Zavqiyning Xitoy Xalq Respublikasida yashayotgan avlodlari qo‘lida saqlanmoqda. Yurtimizda shoirning saqlanib qolgan asarlari jamlanib, 1958- va 1960-yillarda ikki marta nashr etilgan. 2003-yili Zavqiy tavalludining 150 yilligi munosabati bilan mazkur to‘plamning to‘ldirilgan nashri bosmadan chiqdi.

Zavqiy adabiyotimiz tarixida yirik hajvchi shoir sifatida ham e‘tirof etiladi. Uning ijodida «Ajab ermas», «Hajvi ahli rasta» she‘rlarining o‘ziga xos o‘rni bor. «Ajab ermas»

she'rida yurt kelajagi borasidagi shoirning armon, orzu va istaklari aks etgan. Bu she'r muxammas shaklida yozilgan. Asli yetti banddan iborat bo'lsa-da, sho'rolar davrida mustabid tuzum mafkurasiga moslab, to'rt banddan iborat she'r tarzida taqdim etildi. Qo'qonlik adabiyotshunos olim Rustamjon Tojiboyev 1997-yili muxammasning to'la matnini tiklab, matbuotda e'lon qildi.

Muxammasning dastlabki bandida Zavqiy xalq boshidan o'tkazayotgan istibdod kunlari osmondagi tarqalib ketuvchi bulut, mustamlakachi davlat esa suv yuzidagi ozgina ta'sirdan yorilib ketishi mumkin bo'lgan pufakcha kabi omonat va o'tkinchi bo'lishini istaydi. Keyingi bandlarda birin-ketin shoirning yurtdoshlarga murojaati, Yaratganga iltijosi, dildagi armonlari, o'z o'quvchisiga xitobi chuqur dard, mahzun kechinma, ayni paytda yorqin kelajakka ishonch tuyg'ulari bilan uyg'unlashgan holda bayon etilgan. Ayniqsa, **«boshlar uzra soya solsun, Humo yetkur»** satri mustaqil O'zbekiston gerbidagi tasvirni yodga soladi va biz Zavqiyning shoirona bashoratiga tahsinlar o'qiydiz. Muxammasda talaygina islomiy so'z, atamalar uchraydi. Ular kontekst bilan bog'liq bir qator ijtimoiy tushunchalarni qamrab oladi. Masalan, islom – tinchlik, adolat, tenglik, istiqloq; musulmonlar – shoirning zamondosh va yurtdoshlari; shariat nuri – adolat; shiori shar' (shariat shiori) – qonun ustuvorligi tushunchalarini o'z ichiga oladi.

Zavqiy o'zbek adabiyotida hajviyotning ham satira, ham yumor yo'nalishida barakali ijod qilgan shoirdir. O'z zamonasining nosozliklari, illatlari to'g'risida bir qator hajviy she'rlar yozgan. «Zamona kimniki», «Dar mazammati zamona», «Ajab zamona», «Kajdor zamona», «Bo'l», «Muncha ko'p» satiralari zamona muammolari mavzusida yozilgan satirik she'rlar guruhini tashkil qiladi. Shoir satiralarida zamonning umumiy kamchiliklarinigina emas, ayni paytda zamonasidagi hammaga tanish odamlarning obrazini, ularga xos bo'lgan illatlar tanqidini adabiyotga dadil olib kirdi. Shunday satiralardan biri «Hajvi ahli rasta» she'ri bo'lib, unda

Qo‘qon bozor ahllaridan qirq olti kishi hajv ostiga olingan. Shuni ta’kidlash kerakki, bu she’rni anglash uchun Zavqiy zamonasiga, Qo‘qon bozori muhitiga qaytish, uni tasavvur qilish kerak bo‘ladi.

Zavqiy bu hajviyasini odamlar o‘qisi uchun katta qog‘ozga yirik harflar bilan yozib, Qo‘qondagi doimo gavjum Mo‘ymarak maydonidagi baland terakka ilib qo‘yadi: **«Qirq olti kishini fasona qildim, Kim chiqsa o‘qiydi Mo‘ymarakka».**

Hajviya g‘azal shaklida (a-a, b-a, d-a... tarzida) qofiyalangan. Qofiyada aksariyat xalq tiliga xos so‘zlarning keltirilganligi uning sodda bo‘lishini ta’minlagan.

AJAB ERMAS

Bu kunlar boshimizda bir sahob¹ o‘lsa, ajab ermas,
Munavvar zimnida² bir oftob o‘lsa, ajab ermas,
Bu davlat suv yuzinda bir hubob³ o‘lsa, ajab ermas,
Ko‘rulsa suvrati, asli niqob o‘lsa, ajab ermas,
Ochilsa pardalar yuzdin, hijob o‘lsa, ajab ermas.

Duoya qo‘l ochib, az taxti dil⁴ yig‘lang, musulmonlar,
Zaif o‘ldi, bilurmisiz, bu nuqson birla iymonlar,
Xudoga yalbaringlar, ketmasin ko‘ngilda armonlar,
Burodarlar, azizlar, yaxshilar, ahbob, yoronlar,
Duolar Hazratig‘a⁵ mustojob o‘lsa, ajab ermas.

Nasimi jonfizo⁶ bemorlarga, ey sabo, yetkur,
Xazon pajmurda⁷ bo‘lganlarga bir obi havo yetkur,
Qo‘y emdi biz bilan begonani, bir oshno yetkur,

¹ *Sahob* – bulut

² *Zimnida* – o‘rtasida, orasida, ichida.

³ *Hubob* – pufakcha.

⁴ *Az taxti dil* – astoydil, dildan.

⁵ *Hazratig‘a* – bu yerda: Allohga.

⁶ *Nasimi jonfizo* – jon bag‘ishlovchi shabboda.

⁷ *Pajmurda* – so‘lg‘in, g‘amgin.

Gadomiz, boshlar uzra soya solsun, Humo yetkur,
Muqarrardur, zamona inqilob o'lsa, ajab ermas.

Shariat nuri birlan aresai olamni¹ anvar² qil,
Bisoti saltanatga ziynati islomni zevar³ qil,
Amiri adl gustar, hukmron mazlumparvar qil,
Asosi zulm daf'in qil, adolatpesha sarvar qil,
Aduvlar⁴ kori bori ixtisob⁵ o'lsa, ajab ermas.

Shiori shar'⁶ birlan ziynatafzo⁷ bo'lsa Farg'ona,
Havosi ruhparvar⁸ ham diloru bo'lsa Farg'ona,
Jahon ahlig'a go'yo savdo bo'lsa Farg'ona,
Tong ermaski, go'yo jannatoso⁹ bo'lsa Farg'ona,
Bo'lub tufrog'i anbar, suv gulob o'lsa, ajab ermas.

O'tub bir qarn¹⁰, ahhobim¹¹, jahon obod ko'rgaysiz,
Jahon ahlini qayg'u qaydidin¹² ozod ko'rgaysiz,
Giriftori alam ermas, hamani shod ko'rgaysiz,
Avalgi o'tgan-u ketgan ko'ngilda yod ko'rgaysiz,
Qarig'an chog'da bir ahli shabob¹³ o'lsa, ajab ermas.

Bashoratlarni bilsang, Zavqiy olam ogahidindur,
Bu ra'y, albatta, islom ahli bo'lsa, matlabidindur¹⁴,

¹ *Arsai olam* – olam maydoni, ya'ni butun dunyo.

² *Anvar* – nurli.

³ *Zevar* – ziynat, bezak.

⁴ *Aduv* – dushman, yov, raqib.

⁵ *Ixtisob* – hisob-kitob. Misraning ma'nosi: dushman, raqiblarning bor qilgan ishlari – yomonliklari hisob-kitob qilinsa, ajab emas.

⁶ *Shiori shar'* – shariat shiori, ya'ni qonun ustuvorligi.

⁷ *Ziynatafzo* – ziynat, bezak beruvchi.

⁸ *Ruhparvar* – ruh, jon bag'ishlovchi.

⁹ *Jannatoso* – jannat kabi.

¹⁰ *Qarn* – davr, asr.

¹¹ *Ahhob* – do'stlar.

¹² *Qayd* – zanjir.

¹³ *Shabob* – yosh, yigit.

¹⁴ *Matlab* – talab.

Bo‘lur bu kanzi maxfiy¹ oshkoro deb Jalidindur²,
Degan tarixlar ul Ne‘matulloh Validindur,
Bu so‘z vallohu a‘lam bissavob o‘lsa, ajab ermas³.



Savol va topshiriqlar:

1. Nima uchun shoir o‘zi yashab turgan kunlarni bir sahob (but), davlatni suv yuzidagi hubob (pufakcha) bo‘lishini istayotganligini izohlang.
2. Ikkinchi baytni qayta o‘qing. Qaysi nuqsonlar iymonning zaiflashuviga sababchi bo‘lganligini o‘ylab ko‘ring.
3. «*Qo‘y emdi biz bilan begonani, bir oshno yetkur*» misrasidagi «*oshno*» va «*begona*» so‘zlari siz uchun nima (kim)-larni anglatyapti?
4. «*Gadomiz, boshlar uzra soya solsun, Humo yetkur*» misrasini bizning kunlarimizdan kelib chiqib sharhlang.
5. «*Asosi zulm dafi*», «*adolatpesha sarvar*», «*Aduvlar kori bori ixtisob*» bo‘lishi haqidagi orzuning qachon va qanchalik mustajob bo‘lganligi haqida fikr yuriting.
6. Yurt kelajagini o‘ylab, uning «*ziynatafzo*», «*jannatoso*», «*tufrog‘i anbar, suv gulob o‘lsa, ajab ermas*» tarzidagi shoirning istaklari amalga oshdimi?
7. Muallifning «*jahonni obod*», «*jahon ahlini qayg‘u qaydidan ozod*» ko‘rish borasidagi ilinjleri to‘la ro‘yobga chiqdimi? Fikringizni misollar bilan asoslang.
8. Siz ham Zavqiyni «*olam ogahidindur*» deb bilasizmi? Bunga she‘rdan qaysi asoslarni topdingiz?

¹ Kanzi maxfiy – maxfiy xazina

² Jali – Alloh.

³ Misraning ma‘nosi: yuqorida aytilgan istak amalga oshsa ajab emas.

HAJVI AHLI RASTA

Arzim buki, Qori sumalakka,
Yetsun boshi, arzisa, falakka.

Gah-gah nazora aylasun ul,
Ibrat ko'zi birla bu samakka¹.

Sangmayda nosdonini maxtab,
So'z naqdini urmasun mahakka²...

Shokir qora tarz odam o'lmish,
Ming la'nat o'shal qora eshakka.

Ul Shohaziz ayrilib otidin,
O'xshaydi Solih hezalakka.

So'z ta'siri ketmasin, Mo'minshoh
Osh yesa og'iz artmasun fatakka.

Ko'p haddidin oshmasun Nazirbek,
O'xshaydi ul oshqaboq xamakka.

Pul kelmasa, Bonkaboyvachcha
Karnay chaladur bo'lar-bo'makka.

Kofircha degan bir Ahmadjon bor,
Ko'p shug'li³ baland po'k yemakka.

A'lamni o'g'ullari Oxundjon
Hayf to'n bila salla gungalakka...

Silaft oriqqina Muhiddin,
Ahvoli ayon bo'lur kuzakka...

¹ *Samak* – yer osti. Baytning ma'nosi: go'yo boshi falakka yetgan Qori sumalak yer osti kabi xokisor bu Zavqiya ibrat nazari bilan qarasin.

² *Mahak* – kumush va oltinlarga surtib, ularning toza-notozaligini ajratadigan tosh.

³ *Shug'l* – mashg'ulot.

Olib borur erdi Qosim oxund
Bizni Qorako'lga handalakka...

Kir ko'ylak o'lubtilar Umarjon
Sotmoq uchun emdi jun jiyakka.

Chinni bila choy sotur Jalolxon,
Singan ani zarfi qush muyakka...

Dovudxo'ja chorbozor qatnar,
Chit moshinasin sotur elakka.

O'rus qo'li chit¹ sotub Zokirjon
Qochdi, edi qamchini iyakka...

Ul hoji Hasan degan zakiytab'²,
Yo'q toqatim anga so'z demakka.

Nusrat bila oshnolig'im bor,
Tentakina shatrama-shatakka³.

So'fini balosi Abduqodir
Qatig'lig'i o'xshamish danakka...

Qosim shamol andake yengilroq,
O'xshab uchar bandi bodfarakka⁴.

Xalq oni akasini o'xshaturlar
Og'zini tuvak, burnini sumakka...

Ortuqbachani semurturinglar,
O'q bo'lg'usi katta zambarakka.

Ko'r ishtahosin Hojibachcha
Osh solib ichar emish chelakka...

¹ *O'rus qo'li chit* – chitning o'ta sifatsiz turi bo'lsa kerak.

² *Zakiytab'* – ziyrak, farosatli.

³ *Shatrama-shatak* – dali-g'uli, ko'nglida kiri yo'q.

⁴ *Bodfarak* – varrak.

Ellikboshi o‘g‘li mokiynvor¹,
Ustod bo‘lubti kurkurakka...

Qirq olti kishini fasona qildim,
Kim chiqsa o‘qiydi Mo‘ymarakka.

Ta‘bingning arobasini to‘xtat,
Shotisini bog‘la g‘ildirakka.

Zavqiy osilurg‘a himmatidin
Dor bog‘ladi bir baland terakka.



Savol va topshiriqlar:

1. Dastlabki uch baytdan Qori sumalakning qanday xarakterdagi inson ekanligini anglash mumkin?
2. Satiradagi qaysi obrazlar tashqi ko‘rinishlari bo‘yicha hajv qilingan?
3. Qaysi obrazlar o‘zlarining xarakter xususiyatiga ko‘ra tanqid qilinganligini aniqlang.
4. Mashg‘uloti, kasbi kori bilan bog‘liq qing‘ir ishlarga qo‘l urgan shaxslar illatlari qanday fosh etilganligini sharhlang.
5. She‘rda keskin tanqid ostiga olinmagan timsollar ham bormi? Ularga shoirning munosabati qanday deb o‘ylaysiz?
6. Tarixiy shaxslar obrazini yaratishda qanday badiiy tasvir vositalariga murojaat qilinganligini izohlang.
7. El orasida ko‘pchilikka tanish savdogarlarni bu qadar o‘tkir hajv ostiga olinishiga sizning munosabatingiz qanday: bu jasoratmi, ularga nisbatan nafratmi yoki?..

¹ *Mokiynvor* – makiyonsifat.



Maxtumquli

(1733–1791)



axtumquli turkman xalqining iftixori hamda yorqin adabiy siymosidir. O‘zbek kitobxonlari ozarbayjonlik Fuzuliyini qanchalik o‘ziniki deb bilsalar, turkman Maxtumquli ijodini ham shunchalik yaqin ko‘radilar. Uning adabiy merosida o‘zbek-turkman ellarining qon-qardoshlik tuyg‘ulari tamg‘alangan deyish mumkin. Ayniqsa,

Yassaviyning ta’siri, Navoiyga izdoshlik chizgilari Maxtumqulining bitganlarida yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Shoirning asarlarida umumturkiy mushtarak g‘oyalar, orzu-armonlar, sharqona ma’naviyat va yuksak ma’rifat tarannum etilgan.

Maxtumquli 1733-yilda Turkmanistonning Atrak daryosi bo‘yidagi Hojigovshon qishlog‘ida tug‘ilgan. Qizig‘i shundaki, bo‘lajak shoirning bobosini ham Maxtumquli deyishardi. Bobosi asosan dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug‘ullangan. Ayni paytda o‘ziga xos iste’dodga ega bo‘lgan bu shaxs xalq qo‘shiqlari yo‘lida she’rlar ayta oladigan oqin sifatida ham tanilgan. Shoirning otasi Davlatmamad 1700-yilda tug‘ilgan bo‘lib, Xiva madrasasida tahsil ko‘rgan, keyinchalik shu madrasada mudarrislik ham qilgan juda

o'qimishli kishi edi. U iste'dodli shoir bo'lib, Ozodiy taxallusi bilan qo'shiq va g'azallar yozgan. Turkman adabiyoti taraqqiyotida Ozodiy alohida mavqega ega ijodkor sanaladi. Olti ming misrali, to'rt bobdan iborat «Va'zi Ozod» deb ataladigan yirik ilmiy risola-dostoni Ozodiy ijodida, umuman, turkman mumtoz adabiyotida muhim o'rin tutadi. Oiladagi ma'rifat, ijod, izlanishga bo'lgan ishtiyoq, badiiy kashfiyot, mukammallikni nozik his qila bilish qobiliyati hamda so'zda ko'rkamlikni yarata olish iqtidori Maxtumqulining kelajakda yetuk adib sifatida shakllanishiga o'ziga xos zamin bo'lib xizmat qildi.

Maxtumquli dastlabki ta'limni oilada o'z otasidan olgan. So'ng ovul maktabida Niyozsolih mulla qo'lida o'qidi. Tahsil davomida u o'zini har qanday og'ir nazariy masalalarni ham yengil o'zlashtira olishga qodir iqtidorli, zehnlil, ta'lim jara-yoniga ijodiy yondasha oladigan o'quvchi sifatida namoyon eta bildi. Maktab tahsili tugagach, o'qishni Qiziloyoq ovulidagi Idrisbobo, Buxorodagi Ko'kaldosh, keyinchalik xonlik markazi bo'lmish Xivadagi Sherg'ozil madrasalarida davom ettirib, zamonasining fozil kishisi bo'lib yetishdi. O'z mehnati bilan halol rizq topish maqsadida zargarlik hunarini o'rgandi. Bunda uning asl badiiy adabiyotning yuksak namunalari mutolaasi vositasida shakllangan nozik didi, ayniqsa, qo'l keldi.

Maxtumquli hali bola yoshidanoq qo'lga qalam olib, she'r yozishga tutingan. To'qqiz yoshda bobosi va otasi izidan borib, xalq yo'lida qo'shiqlar to'qiy boshlagan. Ayni tajriba uning kelajakda mukammal badiiy ijod sohibi bo'lishida nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Shoir ba'zi she'rlariga «Firog'iy» taxallusini qo'llaydi. Afg'oniston, Eron, Hindiston, Ozarbayjon singari mamlakatlarda hamda o'lkamizdagi Samarqand, Toshkent, Turkiston kabi bir qancha shaharlarga sayohat qilgan. Albatta, ushbu sayohatlar tasvir-taassurotlari Maxtumquli ijodiyotida turfa badiiy shakllarda aks etib bordi.

Afsuski, barcha turkiy xalqlar uchun birday tegishli bo'lgan bu ijodkor umr yo'li, ayniqsa, hayotining so'nggi

yillari haqida ma'lumotlar nihoyatda kam. Keyingi ma'lumotlarga ko'ra, shoir 1791-yilda vafot etgan.

Maxtumquli ijodi lirik she'rlar, liro-epik dostonlar, g'azal, mumtoz she'riyat yo'lida bitilgan to'rtlik va muxammaslar hamda xalqona ohanglarda yozilgan she'rlardan iborat. Maxtumqulining ijodi bilan maxsus shug'ullangan muta-xassislarning fikricha, shoir ijodining umumiy hajmi o'n ming misradan ortiqroqni tashkil etadi.

Maxtumquli she'riyatining mavzu ko'lami keng va o'ziga xos. Ishq-muhabbat mavzusidagi she'rlarida bir tomondan Sharq mumtoz adabiyoti an'analari bo'y ko'rsatsa, ikkinchi tomondan turkman xalq og'zaki ijodi ruhi ufurib turadi. Bir qator she'rlari shoir yoshlikda sevib yetisholmagani go'zal Menglixon ismli qizga atab yozilgan. Ularda tengsiz suluv ma'shuqa go'zalligidan zavqlanish, ishqiy kechinmalar, hijron onlaridagi o'rtanishlar va judolik alamlari nafis ifodalarda bayon etilgan.

Shoirning bir qator she'rlarida turkman xalqining hayoti, orzu-armonlari, milliy an'analari hamda xalq hayotida yuz bergan muhim ijtimoiy-siyosiy hodisalar aks ettirilgan. «Turkman binosi» she'rida turkman xalqiga xos g'urur, oriyat, ittifoqlik tuyg'ulari haqida iftixor bilan yozadi. Ayni vaqtda shoir turkmanlardagi bunday ma'naviy sifatlar shakllanishida o'z ijodi va faoliyatining ham o'rni borligini ta'kidlaydi:

Qurganim aslida, bilgil, bu zaminning mixidir,
Erur ul erkin doim, budur turkman binosi.

Garki dunyo ayladi, gar kelsa raqib qoshiga,
Bir po'latdan bino bo'lgan, budur turkman qal'asi

Maxtumquli el-ulusning saodati, yurtning obodligi uchun eng katta omil millat birligi, yakdilligi ekaniga alohida urg'u beradi:

Taka, yovmut, yazir, go'klang, ahal eli bir bo'lib,
Gar qilsa bir joyga yurish, ochilar gul-lolasi.

Shoirning hayot va o‘lim, inson va borliq, go‘zal insoniy fazilatlar va odob-axloqqa oid she‘rlarida islom dini va tasavvufiy qarashlar yaqqol sezilib turadi. Bunday she‘rlar shoir to‘plamlarining salmoqli qismini egallaydi. Hatto muhabbat mavzusidagi eng go‘zal she‘rlari Yaratganga bo‘lgan ilohiy ishq kechinmalari bilan uyg‘un tarzda berilganligini kuzatish mumkin:

Asli seni ko‘rmaganman, nigorim!
Qumrimisan, bulbulmisan, namasan?
G‘amgin dilni xayolingda aldarkan,
Bog‘ ichinda bir gulmisan, namasan?..

Yo mushkmisan, yoki jambil, yo anbar.
Aytolmayman, yo charxmisan, yo chamber.
Daryomisan, yo mavjmisan, yo savsar,
Girdobmisan, to‘lqinmisan, namasan?..

Maxtumquli, kechgini kibr-u oringdan,
Qo‘lingni tort bu befavo koringdan,
Jahon to‘la, sen g‘ofilsan Yoringdan,
Yo mastmisan, shaydomisan, namasan?

Bu she‘rdagi yor Olloh bo‘lib, avvalgi misrada bu dunyoda uni ko‘rmaganini aytilmoqda va tabiatdagi eng nafis tasvirlar, go‘zallik ramzlari orqali ana shu ilohiy nigorni topish istagini, ishtiyoqini shoir yashirmaydi. Butun borliq, koinotning egasi, ularni harakatga keltiruvchi, itoatda tutib turuvchi qudrat sohibini «yo charxmisan, yo chamber, Daryomisan, yo mavjmisan» deya tafakkur qiladi. Ma‘lumki, tasavvuf ta‘limotiga ko‘ra Ollohning sifatlari, go‘zallik asarlari butun borliqda aks etadi, qalb ko‘zi ochilgan insonlargina uni ko‘ra oladi, g‘ofillar esa bundan bexabardirlar. «Jahon to‘la, sen g‘ofilsan Yoringdan» misrasi orqali mazkur ishonch, e‘tiqod bayon qilingan. Ayni paytda shoir she‘rlarida ma‘naviy-axloqiy mavzular ustuvorligi ko‘zga tashlanadi. Muallif Sharq allomalari tafakkur gulshanidan bahramand bo‘lgan, xalqning yuksak ma‘rifiy qarashlarini o‘ziga singdirgan donishmand

sifatida namoyon bo‘ladi. Uning o‘gitlari avlodlarni axloqiy poklikka, ma‘naviy yuksaklikka o‘rgatadi:

Kel, ko‘nglim, men senga o‘git berayin:
Yiroq qilma ko‘rar ko‘zing – elingni.
Qimmatin ketkizma, o‘rnida so‘zla,
Ravo ko‘rma har nokasga tilingni.
So‘ziga javob ber har kim so‘rasa,
O‘zingni uzoq tut nomard yo‘risa,
Bir miskin termulib yig‘lab qarasa,
Baholama, tekin bergin molingni.

Maxtumqulining bir qator she‘rlari biografik xarakterga ega. Otasi vafoti munosabati, yaqin jigargo‘shasi, birodari Abdullaning uzoqlarda daraksiz ketgani, yori Menglixondan ayrilishi va boshqa voqealar ta‘sirida «Ozodim qani?», «Abdulla», «Ayrildim», «Bechoraman» kabi she‘rlarini yozgan. Ayniqsa, Sori va Ibrohim ismli o‘g‘illarining bevaqt o‘limi munosabati bilan yozgan satrlar g‘oyat ta‘sirli:

Gar kaklik oldirsa jo‘ja-bolasin,
Sayray-sayray izlamasdan bo‘lurmi?
Gar bulbul yo‘qotsa gulin, nolasin,
Hasratini so‘zlamasdan bo‘lurmi?
Ayriliqqa odam o‘g‘li naylasin?
Kim qolar ko‘rmayin ajal hiylasin?
Maxtumquli, hayvon bilsa bolasin,
Inson bag‘rin tuzlamasdan bo‘larmi?

Maxtumquli uslubida, asarlarining shakli va mazmunida turkman og‘zaki ijodi namunalarining ta‘siri sezilib turadi. U turkman maqol, matallarini, xalq tiliga xos unsurlarni adabiyotga olib kirishda katta xizmat qilgan. Ayni paytda shoirning purma‘no misralari millatning hikmatli so‘zlari, aforizmlari qatoridan joy olgan.

Maxtumquli she‘riyati barcha turkiy millatlar, jumladan, o‘zbeklarning ham ma‘naviy mulkiga aylangan. Bir necha

marta she'rlari o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan. U haqida kinofilm, spektakl va badiiy asarlar yaratilgan. Ko'plab she'rlari hofizlar tomonidan kuyga solinib aytiladi. Bir so'z bilan aytganda, Maxtumquli xalqining tili, aytar so'zi bo'lib, turkmanning qalbini, orzu-armonini, millat ma'naviyatini olam ahliga kuylab o'tmoqda:

Sarxush bo'lib chiqar, bag'ri dog'lanmas,
Toshlarni sindirar, yo'li bog'lanmas.
Ko'zim yotga tushsa, ko'nglim tanglanmas,
Maxtumquli so'zlar tili turkmanning.

ADOLAT YAXSHI

Aslo odamzodga achchiq so'z qilmang,
Faqir-u miskinga dalolat yaxshi.
Baxilga uchramang – kular yuz bo'lmang,
Ishni bitirmoqqa kifoyat yaxshi.

Yetimni ko'rganda kular yuz bo'lgil,
Qo'ldan kelsa, unga taom-tuz bergil,
G'aminni ko'rganda shirin so'z bergil,
Chorasiz qullarga himoyat yaxshi.

Yigit uldir, so'zga aylasa amal,
Qo'ldan kelmas ishga etmasa jadal,
Ollohning amriga qilmagil badal,
Bekka – saxo, shohga – adolat yaxshi.

G'ariblik bir darddir – odam o'ldirmas,
O'ldirmas, hayotda lekin kuldirmas,
Bo'riga ojizlik, it ham bildirmas,
Albatta, dushmanga siyosat yaxshi.

Maxtumquli, shukr, shirin til berdi,
Daraxtlar ko'karib, samar, gul berdi,
Go'ro'g'li Rayhonga qanday yolbordi?
Omonlik deganga diyonat yaxshi.



1. Birinchi baytda tarannum etilgan insoniy sifatlariga e'tibor qarating.
2. Shoirning baxilga munosabati aks etgan misralarni sharhlang.
3. Insonning ezguligini tayin etishda yetim, g'amgin va bechoraga munosabat tutgan o'rniga e'tibor qarating.
4. Asl yigitning sifatlari tasvirlangan misralarni qayta o'qib, sharhlang.
5. «*G'ariblik bir darddir, odam o'ldirmas, O'ldirmas, hayotda lekin kuldirmas*» misralarining ma'nosi va ifoda yo'sinini izohlang.
6. She'rning so'nggi bandida shoirning faxriyasi aks etgan o'rinlarni sharhlang.
7. «Bekka – saxo, shohga – adolat yaxshi» misrasini sharhlang. Bu satrning sarlavhaga chiqarilgani sababini izohlashga urining.

NAMASAN?

Asli seni ko'rmaganman, dildorim!
Qumrimisan, bulbulmisan, namasan?
G'amgin dilni xayoling-la aldarman,
Bog' ichinda bir gulmisan, namasan?

Qaroqchimi, yo saidmi, xo'jami?
Yo soqiymi, yo sharobmi, yo jommi?
Yo yilmisan, yo kunduzmi, kechami?
Yo oymisan, yo kunmisan, namasan?

Yo mushkmisan, yoki jambil, yo anbar?
Aytolmayman, yo charxmisan, yo chamber?
Daryomisan, yo mavjmisan, yo sarvar?
Girdobmisan, to'lqinmisan, namasan?

Oltinmisan, kumushmisan, zarmisan,
Oftobmisan, osmonmisan, yermisan?

Yo yoqutmi, yo marjonmi, durmisan,
Yo chirog‘mi, ziyomisan, namasan?

Maxtumquli, kechgini kibr-u oringdan,
Qo‘lingni tort bu vafosiz koringdan,
Jahon to‘la, sen g‘ofilsan Yoringdan,
Yo mastmisan, shaydomisan, namasan?




Savol va topshiriqlar:

1. She‘rning birinchi bandini diqqat bilan o‘qing. Unda kim to‘g‘risida gap borayotganini aniqlashga urining.
2. She‘rning ilohiy ma‘nosini anglashda ikkinchi bandda tilga olingan timsollarning o‘rniga to‘xtaling.
3. Shoirning «*Jahon to‘la, sen g‘ofilsan Yoringdan*» tarzidagi fikri haqida o‘ylab ko‘ring. Unga munosabat bildiring.
4. O‘ylab toping-chi, qanday zot bir vaqtning o‘zida hamma narsa bo‘lish qudratiga ega? She‘r matniga tayanib u zot kim ekanini toping.
5. Shoirning uni ko‘rmaganligi borasidagi iqroriga e‘tibor qiling. Bu holning sababini izohlang.
6. She‘rdagi: «*Daryomisan, yo mavjmisan, yo sarvar. Girdobmisan, to‘lqinmisan, namasan?*» misralarini izohlang. Satrlarning ifoda yo‘siniga e‘tibor bering.
7. Shoirni «kibr-u or»dan kechishga undovchi holat haqida o‘ylab ko‘ring.
8. She‘r nima haqda deb o‘ylaysiz?

Yangi davr nafasi





Abdulla Qodiriy

(1894–1938)

So‘zim oxirida odil sudlardan so‘rayman: garchi men turli bo‘hton, shaxsiyat va soxtalar bilan ikkinchi oqlanmaydurg‘on bo‘lib qoralandim. Loaqal ularning, qoralovchi qora ko‘zlarning ko‘ngli uchun bo‘lsa ham menga eng oliy bo‘lg‘on jazoni bera ko‘ringiz. Ko‘nglida shamsi g‘uboroti, teskarichilik maqsadi bo‘lmag‘on sodda, vijdonli yigitga bu qadar xo‘rlikdan o‘lim tan-siqroqdir. Bir necha shaxslarning orzusicha ma‘naviy o‘lim bilan o‘ldirildim. Endi jismoniy o‘lim menga qo‘rqinch emasdir. Odil sudlardan men shuni kutaman va shuni so‘rayman.

1926-yil 15-iyun, Samarqand
(Abdulla Qodiriyning suddagi nutqid).



omus, insof va haqgo‘ylik Abdulla Qodiriy hayo-tining asosiy tamoyillari edi. Tabiat in‘om qil-gan nodir iste‘dod chinakam o‘zbekona meh-natkashlik bilan uyg‘unlashgani uchun Qodiriy-ning qalamidan asrlar mobaynida eskirmaydigan asarlar dunyoga keldi. 1894-yilning 10-aprelida Toshkent shahridagi o‘rtahol oilalardan birida dunyoga kelgan Abdulla Qodiriy o‘z davrining maktab va madrasalarida muntazam o‘qish imkoniga ega bo‘lmasa-da, ilmga chanqoqligi va tirishqoqligi tufayli zamonasining eng bilimdon kishilaridan biriga aylandi.

1917-yilgi to‘ntarishlargacha o‘ziga to‘q xonadonlarda turli yumushlar bilan band bo‘lgan: prikazchik (yugurdaklik), ustachilik, bog‘bonlik qilgan. Abdulla Qodiriy Oktabr to‘ntarishidan keyin qator sho‘ro idoralarida xizmat qildi. Hamisha xalq orasida bo‘lgan, uning ehtiyojlarini, og‘riqli joylarini, kayfiyat-u istaklarini bilgan yozuvchi asarlaridagi dilbar obrazlar orqali o‘zi mansub bo‘lgan xalqning turmushini yaxshilash, ma‘naviyatini yuksaltirish, milliy g‘ururini uyg‘otishga intildi.

Uning hikoyalari chiqqan jurnallar, gazetalar qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketardi. Felyetonlari bosilgan «Mushtum» jurnali hamisha talash bo‘lardi. Romanlarini o‘qish uchun navbat kutib turganlarning sanog‘iga yetib bo‘lmas, «O‘tkan kunlar» romanini yod biladigan kitobxonlar bor edi. Chunki adib inson ruhiyatining sirli va nozik jihatlarini chuqur, ta’sirli va haqqoniy aks ettirardi. Uning asarlari yolg‘iz haqqoniylikdan tashqari, go‘zal ifoda uslubi bilan ham ajralib turardi. O‘zbek adabiy tilining hozirgi shaklini bunyod etishda hech bir yozuvchi Abdulla Qodiriy kabi muhim o‘rin tutmagan.

Haq gapni hayiqmay aytayotgan, millatiga o‘zini tanitayotgan, uning g‘ururini uyg‘otayotgan yozuvchi o‘lkamizni egallab olgan bosqinchilar va ularning mahalliy yugurdaklariga yoqmasligi tayin edi. Shu bois qisqagina umri mobaynida Abdulla Qodiriyga ko‘p bor chovut solishdi.

1926-yildayoq «sho‘ro rahbarlarini matbuot orqali obro‘sizlantirdi» degan uydirma ayb qo‘yib, adibni qamoqqa hukm qilishdi. Lekin aybning uydirmaligi, guvohlarning soxtaligi shu darajada ayon ediki, adibni qamoqqa tiqishga jur‘at etishmadi. Bu, zamon zo‘rlari nazarida, yozuvchini o‘ziga xos «ogohlantirish» edi. Adib bu ogohlantirishdan «to‘g‘ri» xulosa chiqarmadi, ya’ni haqiqatga xiyonat qilmadi.

«O‘tkan kunlar», «Mehrobdan chayon», «Obid ketmon» singari roman va qissalari bilan nafaqat O‘zbekiston, balki butun Turkiston xalqlari ma‘naviy ravnaqiga hissa qo‘shgan adibni 1937-yilning 31-dekabrida ikkinchi bor olib ketishdi. Bu davrda Stalin boshqarib turgan qatag‘on mashinasi ti-

nim bilmay ishlar va bu mashinaning yaxshi yurmog‘i uchun yangidan yangi qurbonlar zarur edi. Adolatning ko‘chasidan ham o‘tmagan hukumatning o‘ziga yarasha sudlari 1938-yilning 5-oktabrida XX asr o‘zbek nasrining eng yirik vakilini, asrimizdagi o‘zbeklarning eng fidoyisini o‘limga hukm qildi. Shu tariqa, millat jallodlari tomonidan o‘zbek adabiyotining yana bir chinori qulatildi.

«MEHROBDAN CHAYON» ROMANIDAN BOBLAR

Baxmalbofda faqir bir oila

Anvar 1271inchi hijriya miyonalarida Qo‘qonning Baxmalbof mahallasida faqir bir oilada dunyog‘a keldi. Onalar tuqqan bolalarini sizga «tilab-tilab olgan falonim» deb, otalar «xudoy bergan o‘g‘ulcha» deb taqdim etadirlar. Ammo bizning Anvar bo‘lsa onasining «tilab-tilab olg‘ani» emas va otasi ham uni «o‘g‘ulchag‘a» hisoblamag‘an edi. Otasining kasbi bo‘yoqchilik, hamisha yarim belidan nil suvig‘a cho‘milib yotgan bir kambag‘al va bir qarich, ikki qarich bolalardan beshtasiga dada edi. Shu besh bolaning yonig‘a izzatsiz, hurmatsiz oltinchi «mehmon» bo‘lib, bizning Anvar qo‘shildi. Ya‘ni Anvar tilab oling‘an bola emas, dadasi bilan onasining tilaklariga qarshi, faqat ularning baxtsizlik va qashshoqliqlarig‘a xizmat qilg‘uchi bo‘lib tug‘ildi.

Bola tilab olinsa, so‘yinch-quvonch, nog‘orachi-surnaychi va shunga o‘xshash cho‘zma-chalpak, is charog‘ marosimlari nuqsonsiz ijro etiladir. Ammo Anvarning dunyog‘a kelishi munday marosim, tantanalar va orzu-havaslar bilan bus-butun aloqasiz edi. Masalan, onasi o‘z yonig‘a doya chaqirib takalluflanmadi, to‘ng‘uch qizi Nodiraning ko‘magida tug‘di; bolalarini qo‘ni-qo‘shnig‘a so‘yinch uchun chiqarmadi. Chunki qo‘shnilarning «qaysi holingg‘a tug‘ding?» yoki «o‘zi o‘lgur it mijozmi?» deb ta‘na qilishlaridan cho‘chidi.

Shu holda yeti-sakkiz kunlab Anvarning dunyog‘a «tashrifi» sir bo‘lib kechdi. Anvar ohorliq yangi yo‘rgak ko‘rma-

ganidek, og‘alaridan birining eski beshigiga to‘qquzinchi kun belandi emas, tiqildi.

Anvarning «chillasi charog‘ ko‘rmagan» bo‘lsa, hech boki yo‘qdir, biroq yigirma kunlab beshikda ismsiz yotishi qiziqdir, chunki yangi «qadrlik mehmon»ga ot qo‘yish na otasining esiga va na onasining xotirig‘a kelgan edi. Oradan yigirma kun o‘tsaku, bolag‘a ism qo‘ymasalar, deb ota-onani ayblash og‘ir. Balki Salim bo‘yoqchining tirikchilikdan qo‘li bo‘shamag‘andir. Anorbibining bo‘lsa olti bolaning xarxashasidan qulog‘i tinchimay miyasi suyulgandir, harholda bu «qadrlik» bolaning oti muhtaram mahalla imomi tarafidan qo‘yilmaganidek, ota-ona tomonlaridan ham nasib bo‘lmadi. Ism qo‘yish vazifasini yigirma ikkinchi kunlarda o‘n ikki yoshliq Nodira ado qildi.

Nodira o‘z yaqinlaridag‘i maxdumlardan birining bolasini yaxshi kiyimi, ayniqsa, yoqimli eshitilgan «Anvar» ismiga suqlanib, havaslanib yurar edi. O‘ylab-netib turmadu-da, yangi chaqaloq ukasining otini ham «Anvar» deb atadi va beshikda chalqancha yotib, nursiz qora ko‘zlari bilan dadasining faqir hayotig‘a «razm qo‘yg‘an» bu chaqaloqning tevarigidan aylanib, «Anvarjon, Anvarjon!» – deb xitob qila boshladi. Shuni ham aytib qo‘yish kerakki, Anvarning dunyog‘a kelishini birdan bir tabrik etib so‘yingan shu Nodira edi. So‘ngroq yana unga onaliq martabasida qolg‘uchi, hatto, shu kungacha Anvarning eng mehribon kishisi bo‘lib kelguchi yana shu Nodiradir.

Shu yo‘sun Salim bo‘yoqchining mavridsiz laylaklari ichida bemahal g‘urрак bo‘lib Anvar ham yashay boshladi. Bolalari ko‘paygani sayin Salim akaning ishi ham keyinga ketkanidek, kundan kun ehtiyojdan ehtiyojg‘a o‘tib borar edi. Anvar uch yoshqa kirganda, besh yillardan beri Salim akaga yopishib olg‘an bobosir kasali uning yoqasidan olib yiqitishg‘a muvaffaq bo‘ldi. Ya‘ni Salim aka qonsirab, darmonsizlanib yotib qoldi. Muolajaga pul kerak, mundan ham ilgari oilaning umumiy kasali bo‘lg‘an oziqqa ham shu narsa kerak. Salim bo‘yoqchi sarmoyasidagi nil, tuz va o‘xshash dastmoyalarni

sotib muolaja qildirg'an bo'ldi. Dard ancha ulg'aygan edi. Bu chiqimlar foyda o'rnig'a zarar keltirdilar. Do'kon dastgohini sotib ro'zg'or qildi. Bular ham bitkandan keyin bu oilaning og'ir kunlari boshlandi. Ochliq, yalang'ochliq, ayniqsa, kasal boqish.

Shu qish ayniqsa qattig' kelgan edi. Sovuqdan saqlanish uchun ularning hozirliklari yo'q. O'pkasiga sovuq tegdirib Salim akaning to'rtinchi bolasi o'ldi. Ko'klamga chiqar-chiqmas Salim bo'yoqchining o'zi ham dunyo bilan vidolashdi. Buning ustiga Anvar, yana ikki og'asig'a qizamiq toshib, bir bola munda ham o'lib berdi. Shu yo'sun olti oy ichida Anorbibi eridan va ikki bolasidan ayrilib, to'rt go'dak orasida beva bo'lib qoldi. Nodiraning bo'yi cho'zilib qolg'an, har nachuk bir joyini topib ketar, ammo uchta yosh bolaning ishi qiyin edi. Eridan bolalarning tarbiyasig'a yararliq hech gap qolmag'an, bir-ikkita xum, uch-to'rtta mo'ndi va shunga o'xshash rezrov, boshqa bir balo ham yo'q. Anorbibi mehnat bilan yashab, yeti-sakkizni tug'ib, yoshi ham qirqlarg'a borib, tusiga ajin kirib, keksaymasa ham qarimsiq bo'lib qolg'an, shuning uchun birartaga tegib olishi to'g'risida o'ylash ham behuda.

Anorbibiga o'xshash tul xotinlarning qiladig'an ishlari har kimga ham ma'lum: mahallada dasturxonchilik, boylar eshigida oqsochliq, hunarmandroq bo'lsa – kinnachilik va hokazo. Anorbibi shu hunarlarning hammasiga ham qobiliyat e'lon qilib, bolalarini boqish fikriga tushdi. Va bu orada qizi – Nodirani bir bo'zchi bolasig'a uzatib, yukini ham biroz yengillatdi.

Taniysanmi shu jajji qizni?

Falakmi kajraftor, turmishmi bemaza, harholda Anvarlarning tole'yi yana pastlik qildi. Bir kun Anorbibi biravnikida yumish qila turib to'sindan og'rib qoldi, bir soatning ichida tilidan ham ayrildi. Zambilga solib o'z uyiga keltirib tashladilar. Bolalarning fig'oni falakka chiqdi. Kuyavi tabibga yugur-

di. Natijada yurak falajiga yo‘liqqani ma’lum bo‘lib, shu kun kechasi hatto uch go‘dagi to‘g‘risida bir og‘iz vasiyat qilolmay vafot etdi. Mozorg‘a eltdilar. Tobut oldida ikki og‘asi bilan olti yoshliq Anvar ham yig‘lab bordi.

O‘n bir yoshliq Temur, to‘qquz yoshliq Qobil va Anvarlarni tarbiya qilish og‘irlig‘i Nodiraning ustiga tushdi. Marhuma onasining yodgorlari bo‘lg‘an bu uch bolani begonalar qo‘lida xor qilib qo‘yishni Nodira istamasa ham, erining faqirlig‘i bunga mone’ edi. Taziya kunlari o‘tkandan keyin o‘g‘ulliqqa deb so‘rag‘anlarga ikki bolani berib yubordi va Anvarni o‘zi bilan olib, onasining qaqir-ququrlarini bir aravaga ortib erining uyiga keldi.

Nodira onasi o‘rnig‘a Anvarning boshini siladi, yuvib-taradi va Anvarning istiqboli uchun qayg‘urdi. Otasi va erinig kasblariga yaxshi baho bermagani uchun Anvarni boshqa kishi qilmoq fikriga tushti. Uni o‘qutmoqchi, hatto madrasalarga yubormoqchi va shu yo‘sun mullaliq darajasiga yetkuzib, otasining uyiga charog‘chi qilmoqchi edi. Anvarni o‘zlari turg‘an mahalladan bir guzar nari bo‘lg‘an Solih maxdumning maktabiga berdi. Anvar «taxta»dan o‘qush boshladi, zehnining tiniqlig‘idan bo‘lsa kerak, o‘n bir yoshida savodi chiqayozdi. Biroq o‘qishda qancha baxtli bo‘lsa, peshanada o‘shancha baxtsiz edi. Shundog‘ki, Nodira ikki bolaliq bo‘lg‘an edi. Eri: «Ukangga yedirib-kiydiraymi yoki o‘z bolalaringni-mi? Ukangni kishiga shogird berib yubor», – deb Nodirani qistashga turdi. Bechora Nodira og‘ir holda Anvarni kishiga shogird berib, o‘qushini zoye’ qilishg‘a ko‘zi qiymaydir, eriga muqobala uchun hech bir mantiq topolmaydir. Chunki erining holi o‘ziga ma’lum. Shu yo‘sun yana bir yil o‘tib, Anvar to‘g‘risida eri bilan achchig‘-tiziq bo‘lg‘an bir kun paranjisini yopinib ko‘chaga chiqdi va to‘g‘ri Solih maxdumning uyiga bordi. Shu vaqtlarda Solih maxdumning onasi Marg‘ilong‘a ketmagan edi.

Nodira Mohlar oyimg‘a yig‘lab hasrat qildi. Hamma sarguzashtlarini birma-bir so‘zladi. Shu bola uchun eridan chekkan izolarini chizib:

– Ulug‘ dargohlaringizga shu yatim bolaning umri zoye‘ bo‘lmasmikin, o‘qushi juvanmarg qilinmasmikin, deb keldim. Bir parcha nonlaringizni ayamay, yatim boshini silasalaringiz, deb keldim, – dedi.

«Qush tilini qush biladir» deganlaridek, Nodiraning samimiy arzi bandachiligi Mohlar oyim bilan Nigor kelinning yuraklarini ezdi va shu onda Mohlar oyim maktabxonadagi bolalar ichidan Anvarni chaqirtirib oldi. Anvar kelishkan, do‘ndiq bola edi.

– Domlasi maxtaydirg‘an o‘zimning zehnlik bolam-ku, – dedi Mohlar oyim Anvarni ko‘rish bilan va Nodiraga taskin berdi.

– Xo‘b, qizim, xo‘b, pochchasi boqmasa boqmasin, men o‘zim boqaman, o‘qutib katta mulla qilaman.

Anvar pochchasining keyingi kunlardagi dag‘al muomalalari sababini o‘ylab, xafalanib yurar edi. Mohlar oyimning haligi so‘zi bilan masalaga tushundi va yatimona boshini quyi soldi. Bu holdan opasi ta’sirlanib, ko‘ziga yosh oldi.

– Yig‘lamang, juvon, – dedi Mohlar oyim, – yo‘qliq qursin – yo‘qliq. Pochchasi kambag‘al bo‘lsa, unda ham gunoh yo‘q, hamma gap taqdiri azaldan. Yaxshi: bu kundanoq bola siznikiga bormaydir, o‘z yonimda o‘g‘lim bo‘lib yotadir. Oting nima, katta yigit?

– Anvar...

– Oh, oting ham o‘zingga o‘xshash chiroylik ekan... Manovi do‘ndiq qizni taniysanmi?

Shu o‘rtada o‘ynab yurg‘an olti yoshlar chamaliq Ra‘no yugurib kelib, Mohlar oyimning bag‘rig‘a kirdi. Anvar o‘zidan ham do‘ndiqroq Ra‘noga qarab kuldi:

– Ra‘noxon, – dedi.

Mohlar oyim Ra‘noni bag‘ridan chiqarib buyurdi:

– Bor, Anvar akangga salom qil!

Ra‘no kelinlarcha Anvarga salom qildi va jazb qiling‘an-dek Anvarning yaqinig‘a borib to‘xtadi.

– Ko‘rish, Anvar! – dedi oyim.

Anvar Ra‘noni bag‘riga olib quchoqladi. Shu holda Mohlar oyim kulimsidi.

– Agar o‘lmasam, shu do‘ndiq qizimni berib, Anvarni o‘zimga kuyav qilaman.

Anvar uyalib bag‘ridagini bo‘shatib yubordi. Xotinlar ku-lishdilar. Shu yo‘sun Nodira Mohlar oyimdan juda xursand bo‘lg‘ani holda uyiga qaytib ketdi.

O‘z uyida bir nonxo‘r ortishi maxdumga, albatta, yoqmas edi. Biroq, onasining ra‘yini qaytarishdan ham ojiz edi. Shun-doq ham bo‘lsa, «tomog‘i-ku, yengil, kiyimi og‘irroq. Kiyi-mini opasining ustiga qo‘ymabsiz-da», – dedi. Mohlar oyim: «Kiyimi bir gap bo‘lar. Kishilar masjid, madrasa solg‘anda, biz bir yatim boqsaq, arzimaydimi? Senga og‘irliq qilsa, o‘z bisotimdan kiyintirarman, bolam», – dedi.

Anvar o‘n ikki yoshida uchunchi oilani ko‘rdi. Lekin bu oxirg‘isi Anvar uchun har jihatdan ham qulay bo‘ldi: o‘qushini davom etdirar, qorni panjshanbalik nonlar bilan to‘q, ust-boshi yamoq bo‘lsa ham, yalang‘och emas edi. Bu uchunchi oilaga ko‘chishda Anvarni eng xursand qilg‘an narsa maktabdagi bolalarning ozor berishlaridan qutulishi va domlanning asrandi o‘g‘li maqomini olishi bo‘ldi. Bolalar uni ehtirom qilmasalar ham, unga burung‘icha yomon muomala qilishdan hayiqib qoldilar. Anvarga bu uyda ortiqcha yumush ham yo‘q, chunki har qancha uy xizmatlari maktab bolalari-dan ortmas, o‘qushdan bo‘shag‘an vaqtini Ra‘noni o‘ynatib kechirar edi.

O‘n uch yoshida maktab pro‘g‘rammasini bitirib, yosh bo‘lsa ham xalfalik, ya‘ni domlag‘a ko‘makchilik qila bosh-ladi. Va har kun bolalar ozod bo‘lg‘andan keyin maxdum unga qofiyadan¹ dars berar va «Guliston»i Sa‘diydan bir ne-cha band o‘qutib, ma‘nosi bilan yodlatar edi.

O‘n besh yoshida maktabni yolg‘iz o‘zi idora qilish dara-jasiga yetkanidek, yaxshig‘ina forsiyxon va bir daraja arab tiliga oshno bo‘ldi. Maxdum mundan bir necha vaqt ilgarilar Anvarni madrasaga uzatish to‘g‘risida so‘zlanib yursa ham, hozir bu gapni og‘zig‘a olmay qo‘ydi. Chunki maktab ishida

¹ *Qofiya* – arab tili grammatikasi. Aslida «Kifoyat».

yalqovlanib Anvarga suyanib qoldi va madrasa masalasini unutdirish maqsadida arab, fors nahvsarfidan¹ o‘zi dars berishka tirishdi.

Maxdum Anvarga shu jihat bilan inoq edi. Ammo Mohlar oyimning Anvar bilan muomalasi xolis va samimiy bo‘lib, ul Anvarga o‘z bolasidek mehribon va har vaqt: «Ko‘nglingni buzma, Anvar yigit, ko‘rasanmi shu jajji qizni? Albatta senga berdiraman!» – der edi. Lekin Mohlar oyim va‘dasiga yetalmadi. Maxdumdan arazlab Marg‘ilon ketishka majbur bo‘ldi. Biroq, ketar chog‘ida ham Anvarni unutmadi. Nigor kelinni o‘z yonig‘a chaqirib: «Kuyavlik uchun Anvardan yaxshiroq yigitni topolmassiz, Ra‘nog‘a xudoyim umr berib bo‘yi yetsa, albatta Anvarga berdirgin», – dedi.

CHIN O‘RTOQ

Anvar yoshlig‘ida bo‘shangg‘ina bir bola edi. O‘z tengi bolalar bilan oz aloqa qilar, ularga kam aralashar va ortiqcha o‘ynab-kulmas, hamisha uning ko‘zida mung yotar edi. Bu holat balki oila baxtsizligidan, ota-ona bag‘rida yayramag‘anliqdan tug‘ilg‘andir desak, uning ikki og‘asi munday emas edilar. Bir onadan necha xil bola tug‘ilar, deganlaridek, Anvarning yaratilishi og‘alariga nisbatan boshqacha edi. Maxdumning uyida tura boshlag‘ach, Anvarda biroz o‘zgarish ko‘rildi. Shunda ham bolalar bilan aloqasini eski cha yurutib, faqat Ra‘no yonidag‘ina o‘yin-kulki bolasig‘a alishinar, Ra‘noni yetaklab boqchag‘a, ko‘chadagi katta suv bo‘ylarig‘a chiqib, hamrohini boqchadag‘i gullarning ismi, uchib yurg‘an qushlarning nav‘i, katta oqar suvlar va, ayniqsa, Ra‘no kabi yosh qizchalar uchun bu suvlarga yiqilish xavfi va shuningdek, boshqa masalalar bilan uni tanishdirar, ko‘chada o‘lik ko‘targanlarni ko‘rsa, birarta bolaning otasi yoki onasi o‘lganligini so‘zlab, buning orqasidan: «Menim ham onam o‘lganda o‘shandoq qilib ko‘targan edilar... Men

¹ Nahv – sintaksis, sarf – morfologiya.

ham shu boladek mozorg‘a yig‘lab borg‘an edim», – deb qo‘yar edi. Ra‘no ham Anvarning so‘ziga diqqat bilan quloq solar va ko‘pincha hisobsiz savollar ila uni ko‘mib tashlar, lekin Anvar zerikmas, har bir so‘roqqa javob berib, Ra‘noni qanoatlantirishg‘a tirishar edi.

Anvar yosh bo‘lsa ham jiddiy va kichkina miyasi muhokamaga qobil, boshqa kishilar ustiga tushkan baxtsizlikdan ham mutaassur bol‘g‘uchi edi.

Bola chog‘idanoq eng yaxshi ko‘rgan narsasi gulzor va undagi gullar edi. Maxdumning oilasiga kelib tura boshlag‘andan so‘ng boqchaning gulzor qismini o‘z idorasi ostig‘a oldi. Gullarni sug‘orish, o‘tlarni yulib, tozalash vazifalarini o‘zi bajardi. Gullardan hech kimga uzdirmas, bir bolaning uzib olg‘anini ko‘rsa xafa bo‘lg‘anidek, bolani ham xafa qilar edi. Bolalarning daragi bilan har kimning uyida bo‘lg‘an yangi gullardan ko‘chat va urug‘ olib, – yildan yilga gulzorni boyitdi. Yoz kunlari kelsa, bolalarni kapalak va oltin qo‘ng‘uz tutib kelishka buyurar; qiynamay, ozor bermay zahasiz kapalak tutib kelganlarga sabog‘ini o‘qutib qo‘yish bilan mukofot berar, kapalak va oltin qo‘ng‘uzlarni gulzorda uchirib yuborar, agar ular gullarga qo‘nib qolsalar, o‘zida yo‘q so‘yunar edi. Shuning uchun aksar yoz kunlari maxdumning boqchasi oq, nimrang, ola, zangor, malla, lojuvard va boshqa tus kapalaklarning yalt-yult uchishlari bilan alohida bir ko‘rinishka kirar, Anvarning o‘qushdan bo‘shag‘an kezlari gullar ichida shu kapalaklar orasida kechar edi.

Anvar har kim uchun ham so‘yimlik va xushmuomalasi barchaga barobar edi. Ammo, ayniqsa, xush ko‘rgan kishilaridan birinchisi Ra‘no va ikkinchisi maktabdagi shogirdlardan saboqdosh sherigi Nasim ismlik bola edi. Nasim bilan Anvar juda yaqin do‘st, bir-birini onglag‘uchi sirdosh o‘rtoq edilar. Garchi Nasimning otasi Qo‘qonningg‘ina emas, butun xonliqning tanilg‘an kishilaridan va bu ikki bolaning sinfiy ayirmaliqlari yer bilan ko‘kcha, lekin yosh do‘stlar buning farqiga yetmaslar, Nasim «xonning mirzoboshisining o‘g‘liman», deb havolanmag‘anidek, Anvar ham «Salim bo‘yoqchining ya-

timi, Solih maxdumning asrandisiman» deb andisha qilmas edi. Bu ikki bola bir joyda suhbatka kirishsalar, chetdagi bir kishi Anvarni yirtiq boʻz kiyimlar ichida va Nasimni shohi-adraslar bilan gʻarq holda koʻrib, albatta: «Bu gadoybachcha bilan bekbachchaning oʻzaro nima munosabatlari bor?» – deb taajjublanar, lekin doʻstlar hali buning ayirmasini idrok qilmaslar edi.

Aksar jumʼa kunlari maxdumdan izn olib, Anvar shu oʻrtogʻining uyiga borar, kechkacha Nasim bilan «suhbatlashib» qaytib kelar edi. Anvar shu munosabat bilan Nasimning otasi Muhammad Rajab poygachining iltifotiga noil ham boʻldi. Nasim oʻrtogʻi Anvarning yatimligʻini otasigʻa bildirib majbur qilgʻan boʻlsa kerak, bir necha hayit mavsumlarida Muhammad Rajabbek Anvarga kiyimlar ham berdi. Bu iltifot ikki doʻstning aloqalarin bir-birlariga yana qattigʻroq bogʻladi, ayniqsa, maxdumning dimogʻini chogʻ qildi. Zero, Anvarning Muhammad Rajab kabi bir kishining oʻgʻli bilan doʻstlashishi bir kamolot boʻlgʻanidek, doʻstliqning hatto sarpolar kiyishkacha borib yetishi maxdumning nazarida yana ayni fazilat edi... Shu sarpo kiyish voqiʼasidan soʻng maxdum Anvarga boshqacha qarab qoldi va ichidan: «Sen odam boʻladingʻan koʻrinasan», – deb qoʻydi.

Baxtka qarshi, bu doʻstliq aloqasi uzoq davom etalmadi. Bir kun oradagʻi doʻstliq rishtasini oʻlim yagʻmogari kelib uzdi. Nasim oʻn besh yoshlar chamasida chechak kasali bilan ogʻridi va oʻsha kezlarda davosiz hisoblangʻan bu kasaldan oʻnglanmay vafot qildi. Muhammad Rajabbek va oilasi uchun bu musibat, albatta, ogʻir edi. Biroq, ulardan ham Anvar uchun ogʻir bir hasrat boʻldi. Hatto, koʻz yoshini marhumning ota-onasidan ham koʻbroq Anvar toʻkdi desak, mubolagʻa qilmagʻan boʻlurmiz. Uch kun maktab va maxdumni unutib, Muhammad Rajabbek havlisida turib qoldi. Har oqshom Nasimning qabri ustida bir soatlab yigʻlab oʻlturdi. Bu yoshning samimiy chin doʻstligʻi va oʻrtogʻigʻa sadoqati har kimni taajjubka qoʻydi.

Anvarning birinchi martaba marhum do‘stiga atab yozg‘an marsiyasi motamlik ota-onani yana bo‘zlatqan edikim, biz marsiyadan bir necha misra‘ini quyida ko‘rsatamiz:

Ochilmay so‘lsa har gul g‘unchasi pir-u juvon¹ yig‘lar,
Emas pir-u juvon, balki hamma ahli jahon yig‘lar.

Ajal yag‘mogari bog‘i zako² ichra uzib zanjir,
Rahmsiz ezsa ma’sum lolalarni, chun xazon yig‘lar.

Nasimim ketdi olamdin meni qayg‘u aro tashlab,
Ko‘zimdan oqsa xun hech bir ajab yo‘q, chunki qon
yig‘lar.

Jahonda erdi tanho men yatimga hamnishin, dildor,
G‘ariblikning diyorida adashkan notavon yig‘lar...

Mulla Muhammad Rajabbek poygachi o‘g‘lining sodiq do‘stiga shu kundan e’tiboran boshqacha qarab qoldi. Bir jihatdan ma’sumiyat, ikkinchidan ko‘rinib turg‘an iste’dod Muhammad Rajabbekni Anvarga iltifot etishka majbur qildi. Garchi, Anvarning yuqoridag‘i marsiyasi bolaliq xarxasidan iborat edi ersa-da, yana uning istiqbolidan xabar olish uchun yaxshi mezonliq vazifasini ham o‘tar edi.

Mulla Muhammad Rajabbek, avvalo, o‘z iltifotini Anvarning marsiyasidan bir baytini Nasimning qabr toshig‘a olish bilan boshladi. So‘ngra Anvarning «dunyoda men yatim o‘rtog‘ingg‘a tanho sirdon va dildor (ko‘ngil ko‘targuchi) eding. Bu kun men sendek do‘stdan ayrilib, yana g‘urbat diyorida notavon yig‘layman!» deb afsus va nadomat qilishig‘a qarshi, ya’ni Anvarning yatimlik va g‘aribligiga yo‘l qoldirmasliq uchun mulla Muhammad Rajabbek o‘g‘lining sodiq do‘stiga o‘z otalig‘ini ko‘rsatmakchi bo‘ldi.

Anvar uch haftagacha xatmi qur‘on kechlari Muhammad Rajabbek uyiga kelib turar edi. Oxirg‘i xatmi qur‘on kechi Muhammad Rajabbek Anvardan ahvol so‘radi:

¹ *Pir-u juvon* – keksa-yu yosh.

² *Bog‘i zako* – aql bog‘i.

- Domlangiz salomatmi?
- Shukur.
- O‘qushingiz yaxshimi?
- Birmuncha.
- Domlaning uyida turasiz?
- Taqsir.
- Siqilmaysizmi?
- Yo‘q.
- Ilmi hisob o‘qug‘aningiz bormi?
- Yo‘q, taqsir.
- Domlangiz ilmi hisobni bilurmikin?
- Bilmaslar deb o‘ylayman.
- Agar men bir domla ta‘yin qilsam, hisob o‘quysizmi?
- Ustozim ruxsat bersalar, albatta, o‘quyman.
- Xo‘b... bo‘lmasa erta kechka domlangiz shu yerga kelib, menga uchrashsin.
- Xo‘b, taqsir.

Ertasi kuni maxdum keldi, Muhammad Rajabbek maxdum bilan so‘zlashib, Anvarni o‘rda xizmatiga olish fikrida bo‘lganlig‘ini, buning uchun arabcha, forsiychadan yana ham chuqurroq ma‘lumot olishi lozimligini va hisob o‘rganishi kerakligini aytdi. Maxdum Muhammad Rajabbekning Anvarga munchalik marhamati uchun biroz shoshib qolsa ham, lekin bu mehribonchilik sababiga yaxshi tushunganligi jihatdan, avvalo, bekning yatimparvarligini, so‘ngra, Anvarning zako va iste‘dodini maxtadi. Anvarni odam qilish yo‘lida chekkan o‘z mashaqqatlarini hikoyat yo‘sunida so‘zlab chiqq‘ach, bu kunlarda ehtimomi tom¹ birlan Anvarga fors va arabiydan dars berib turg‘anini va alhol ham Anvar forsiycha tazkira va tahrirlar yoza olishini bayon qilib, necha xil uzrlar ichida o‘zining ilmi hisobdan bahrasizligini bildirdi, ya‘ni Anvarning ilmi hisob o‘rganishi uchun boshqa muallim kerak bo‘lur, dedi. Muhammad Rajabbek bu to‘g‘rig‘a o‘zi domla topmoqchi bo‘lib maxdumga ruxsat berdi.

¹ *Ehtimomi tom* – butun diqqat bilan.

Shu kundan boshlab Anvarning hayotida yangi sahifa ochiladir. Ya'ni maxdum Anvarga ilgarigicha – istiqbolli qorong'u bir yatim, deb qaramay, balki Anvar kabi o'z o'g'li bo'lmag'anig'a o'kuna boshlaydir. Darhaqiqat, uning o'kunishiga arziydirgan chigil masalalar ham tug'uladirkim, masalan: Anvar o'rda xizmatiga kirib qolsa, oyig'a besh tillo-o'n tillo naqdina daromad qilib tursa, bu mablag'lar...

Shunday istiqboldag'i bu «mablag'lar» masalasi maxdumning ichini ari bo'lib talaydir. «O'n yoshidan beri o'qutib, yedirib, kiydirib kelaman; albatta, daromad manim haqqim bo'lur», – deb o'ylasa ham, bu hukmidan o'zi uncha rozi bo'linqiramaydir. Har holda masala chigil...

Mohlar oyimning Ra'noni Anvarga berish to'g'risidagi «ahamiyatsiz» so'zlari o'sha vaqtlarda maxdumning ensasini qotirg'an bo'lsa, hozir shu haqda chinlab o'yladig'ina emas, balki «haligidek Anvarning baxti ochilib ketsa, nima malomati bor. Yatimlik ayb emas, inson uchun fazl-u kamol lozim, kulib turg'an baxt hojat, nasl-u nasabning hech ahamiyati yo'q. Ra'noning husniga har kim tahsin qilur. Anvar, albatta, yo'q demas... Bu borada mol va jonni bir qilishdan boshqa maslahat yo'q» degan qarorg'a daf'atan kelib qoldi. Mundan birar oylar ilgari Nigor oyimg'a: «Anvar balogatg'a yetayozdi. Sen bilan Ra'noga shar'an nomahram, undan qochishlaring lozim», degan bo'lsa ham, bu buyruq hozirg'acha amalga oshmag'an edi va bundan keyin ham amalga oshmaydirg'an bo'ldi. Zero, maxdumning fikricha Anvarga og'ir tuyulish ehtimoli bor edi...

Anvar Muhammad Rajab poygachi tarafidan belgilangan bir muftida hisob, insho (tahrir) qoidalarini o'rgana boshladi. Maxdum ham jon otib arab va forsiydan ta'limni kuchaytirdi. Anvar bir yil ichida hisobni o'rgandi. Va boshqa darslarida ham yaxshi muvaffaqiyat qozondi, ham shu ko'klamdan e'tiboran har kun o'rdag'a borib, Muqammad Rajab munshiy qo'l ostidag'i mirzolar yonida daftardorliq, nomanavis-

lik usullarini tajriba qila boshladi. Bir yil chamasi maoshsiz tajriba ko'rdi. Shunda ham hafta sayin Muhammad Rajabbek o'z kissasidan uch-to'rt tanga choy puli berib turar edi. Anvar shu arzimagan uch-to'rt tangani ham maxdumning qo'lig'a keltirib berar va hafta sayin o'ziga ustozining umidini katta-roq bog'latib borar edi.

Anvar bir yillik tajribada o'rdadag'i daftardorlik, forsiycha va turkcha nomanavislik¹ hunarlarini tamoman deyarlik o'rganib tajribalik mirzolar qatorig'a kirdi. Sarmunshiyning og'zidan chiqqan ma'noni tartibka solib noma, yorlig' yoki boshqacha bir tazkirani tahrir qila olar, mirzolar jumlani g'alat ifoda qilib, sarmunshiydan aksar tanbeh eshitkanlarida, Anvar bunday tanbehka juda siyrak uchrar edi.

Ikkinchi yildan boshlab yetti tillo mohona² bilan maoshliq mirzolar qatorig'a o'tdi. Mohonadan tashqari soliqlardan ham darxonliq³ qog'ozini oldi. Soliqlardan darxonliq maxdumning ro'zg'orig'a katta yengillik edi. Chunki so'ngg'i yillarda xonliq tomonidan xalq ustiga tushkan va tushib turg'an soliqlar behad va to'lab bo'lmasliq darajasida edikim, bu haqda kelasi boblarimizda so'z bo'lur. Shu xursandlik barobarida birinchi oyning yetti tillosi yaxlit holda maxdumning qo'lig'a tegishi go'yo to'y ustiga to'y edi. Domlaning yetti tilloni olg'andag'i holini tasvir qilish, albatta, qiyindir; ko'zlari g'ilaylashqan, aftida qiziq o'zgarish ko'rilib, og'zining tanobi uzoq sayohatni ixtiyor qilg'an – «habba... hosiling durust, Anvar bolam, lekin pulga ehtiyot bo'l, bo'tam!» – degan edi. Yetti tilloning qo'ldan chiqish xabari Nigor oyimning qulog'ig'a yetishkach, Anvardan ranjidi: «Hamma pulingni domlangg'a chakki beribsan, Anvar; ust-boshingni, ko'rpa-yostig'ingni, ortib qolsa Ra'no ukangning ustini tuzatishing kerak edi. Domlang tuflab tugishdan boshqani koshki bilsa!» – dedi.

Maxdum yetti tillo «naqdina»ni olib qancha shodlang'an bo'lsa, o'shanchalik tashvishka ham tushdi. Uning fikri-

¹ *Nomanavislik* – daftar va nomalar har ikki tilda yuritilar edi (*mual.*).

² *Mohona* – oylik.

³ *Darxon* – ozod etish.

cha, zamona yomon, buzuqilar benihoyat; mumkinki, Anvarni o'zidan aynatib, og'zi oshqa yetkanda, boshini toshqa tegdirlasalar... Ra'noni Anvarga nikohlab boshini bog'lab qo'yaymi, deb o'yladi. Biroq, Ra'no hali o'n bir yoshda edi. Ikkinchi kun Anvar ishdan qaytib kelgach, maxdum uni boqchag'a olib kirdi. Boqchadan kungay ham ko'krak bir o'runni ko'rsatdi:

– Ana shu yerga senga atab bir uy, bir ayvon, oshxona va axtaxonasi bilan imorat solsam deyman... Habba, Anvar, – deb so'radi. Anvar kuldi:

– Imoratka ellik tillodan kam pul yetmaydir. Manim bo'lsa bir pulim yo'q. Bo'lading'ani ham fotiha berguningizcha, albatta, sizniki va oyimlarniki, – dedi.

– Habba... himmatingga! – deb yubordi maxdum, – albatta-ku, shunday va lekin o'sha niyatlaringdan keyin boyag'idek alohida pul yig'sang deyman-da... Albatta, bu gap uch-to'rt yilsiz emas-da.

Shu vaqt Ra'no narida bola ko'tarib turar edi. Maxdum Ra'noni o'z yonig'a chaqirib, unga ham haligi o'runni ko'rsatti:

– Habba... mana shu yerga Anvar akangga uy solib bera-miz, Ra'no. Bu senga qalay o'xshaydir, qizim?

Ra'no otasining so'ziga tushunmadi:

– Anvar akamning yotadiring'an mehmonxonasi bor-ku, – dedi.

– Xe-xe-xe, bolasan, qizim, bolasan, – deb kuldi maxdum, – Anvar akang tokay mehmonxonada yotadi deysan. Axir bir kun uy lanadi, bamisoli sen bo'lsang erga tegasan... Axir uy kerak-da, qizim.

Bu so'zdan Anvar qizarib ketdi. Ra'no Anvarga qarab qo'ydi va dadasiga achchig' qilg'an kabi burulib ichkariga jo'nadi. Maxdum Anvarga ustaliq bilan bir ma'noni onglatib, ta'minot berganidek, buzuqilarning vasvasasiga qarshi dam ham solg'an edi... Bu dam solish Anvarga ham ta'sirsiz qol-madi. Shu kungacha Ra'noning yosh, ma'sum husniga umid-

siz qaraydirg'an bo'lsa, bundan keyin unga umid va istiqbolning shirin xayollari bilan termuladiring'an bo'ldi...

Maxdum o'zining chekkan tashvishida haqli bo'lib chiqdi. Anvarning tevaragida «xolis» maslahatgo'ylar ham ko'rinishib qoldilar. Ayniqsa, bu «xolis»lardan biri pochchasi edi. Pochchasi yetti tillo daragini eshitib entikdi. Erining tazyiqi ostida Nodira ham kengashka turdi.

– Pochchang, bizning havlig'a kelib tursin, o'zim uylan-tirib qo'yaman, deydi.

Anvar boshqalarning kengashiga quloq solmag'anidek, opasining so'ziga ham iltifot qilmadi. Maxdum javob bermaguncha bu uydan ketmasligini bildirib, faqat pochchasig'a yordam berib turish va'dasi bilan opasini tinchitdi.

Anvar ikkinchi oy maoshidan uch tilloni o'zida qoldirib, uyga kiyim-kechak olish uchun izn so'rag'an edi, maxdum: «Shu ish chakki-da, bolam. Xayr, bundan so'ng shu noma'qulchilik bo'lmasin!» – deb arang ko'ndi. Anvar Nigor oyim, Ra'no va o'ziga kiyimliklar sotib oldi. Nigor oyim sholpar, Ra'no atlas kiydilar.

Nigor oyim Anvarning pinjiga kirib olib, o'z yo'lig'a sola boshladi. Maoshining hammasini maxdumga bermaslikka, shunga o'xshash kam-ko'stlarga ham yaratib turishg'a undar edi. Anvarning andishasini rad qilib: «Har qancha bersang ham dadasi ola beradir. Lekin berganingni sen bilan bizga misi ham yuqmas. Shunday bo'lg'andan keyin, ishni o'ylab qilish kerak», – der edi. Chunki Nigor oyim erining Anvarga qattig' botina olmaslig'ini sezar edi. Shunday bo'lsa ham Anvar yetti-sakkiz oyg'acha topqanini maxdumga berib, duosini olib turdi. Lekin maxdum shunchalik daromad bilan ham eski tabi'atini bir zarra o'zgartmas, hamon eski tos, eski hammom: har kun suyuq osh, xudo yorlaqag'an kun ozodliqning palovi, shunda ham Anvar kech kelib sovig'an oshni yer, uyda issig' non yopilmas, hamisha panjshanba kun yig'ilg'an non suvi qochib, taraqlab kelasi panjshanbagacha kafolatni o'z ustiga olar edi. Bora-bora Anvar ham bu holdan siqilib, Nigor oyimning kengashicha ish qilmoqqa majbur

bo'ldi. Oltin berib quruq duo va minnatdorchilik olishdan, duosiz yeb-ichishni a'lo ko'rdi. Uyga go'sht va boshqa masallig' olib berib, xohlag'an taomini buyurib turdi; o'zi yaxshi kiyinganidek, Nigor oyim, Ra'nolarni ham yaxshi kiyintirdi. Nodira opasig'a, jiyanlariga kiyimlar olib berdi...

Bu o'zgarish maxdumni dovdiratib qo'ydi va qo'rqa-pisa: «Bu oy xarojatlabsizmi, bolam?» – deb so'rag'an edi, «Kam-ko'stlarni tuzatib oldiq», – degan javobni berdi. Ikkinchi oyda, ko'rpa-yostiqlarni tuzatib, maxdumning ko'zi to'rt bo'la bergach, ikki tilloliq «xolis» duo ham olib qo'ydi. Lekin maxdum bu holdan ancha shoshkan edi. Birar shayton yo'ldan ozdirdimi, deb astag'firullog' o'qur edi. Anvarning eskicha ochiq yuz bilan muomala qilib faqat «naqdina» vajhidangina dam bo'lib qolishi, topqanini «bemaza» ovqatlarga, kiyim-kechak va boshqa «behuda moloya'nilarga¹ sarf qilishi maxdumni ko'b tanglikka solg'an edi.

– Bo'tam Anvar, – dedi bir kun maxdum, – dunyo degan ko'b noyob narsa; kishining bir kuni bo'lsa yig'lab-sixtab o'tib keta beradir, illo, zar qadriga yetish kerak... menda bo'lsa o'zingda turg'andek gap, bolam.

Bunday «muassir» nasihatlar ham Anvarga kor qilmadi. Chunki Nigor oyim va Ra'nolar bilan bu to'g'rida qat'iy bitishib qo'yg'an edi. Shu bilan birga maxdumning oyliq vazifasini ikki tillodan ham kamaytirmadi. Inson har narsaga qobil... Bora-bora maxdum shunga ham qanoat qiladirg'an bo'lib, hisob-kitobni esidan chiqardi. Biroq, oy sayin ikki tilloni olg'anda «qolg'ani» to'g'risida biroz yuragi achishib qo'yar edi...



Savol va topshiriqlar:

1. Asardagi: «*Anvar ohorliq yangi yo'rgak ko'rmaganidek, og'alaridan birining eski beshigiga to'qquzinchi kun belandi emas, tiqildi*» tasvirini izohlang.

¹ Moloya'ni – qiymatsiz narsa.

2. Yozuvchining: *«Ism qo'yish vazifasini yigirma ikkinchi kunlarda o'n ikki yoshliq Nodira ado qildi»* tarzidagi ta'kidi sababi to'g'risida o'ylab ko'ring.
3. *«To'qquzinchi»*, *«yigirma ikkinchi»* kabi aniqliklarning hayotiy sababi va badiiy vazifasi haqida fikrlang.
4. Anvarlar oilasidagi og'irchilikning bu qadar quyuq tasvirlanayotganligi sababi haqida fikr yuritng.
5. Nodiraning Anvarga ayrica mehri asarda qanday tasvirlanganiga e'tibor qiling.
6. Anvar hayotidagi o'zgarishlarda opasi Nodiraning o'rni qandayligiga to'xtaling.
7. Solih maxdum bilan Mohlar oyimning Anvarga munosabatidagi farq tasvirlangan o'rinlarni sharhlang. Bu obrazlarga baho bering.
8. Anvarning tabiatiga xos xususiyatlar tasvirini o'qing va izohlang.
9. Asardagi: *«Anvarning o'qushdan bo'shag'an kezlari gullar ichida shu kapalaklar orasida kechar edi»* tasviriga tayanib Anvar tabiatini izohlang.
10. Solih maxdumning Anvarga munosabati ifodasiga tayanib uning shaxsiyati haqida fikrlang.
11. Maxdumning Anvar bilan Ra'no o'rtasidagi munosabatga yondashuvini baholang.
12. Asarda maxdumning *«og'zining tanobi uzoq sayohatni ixtiyor qilg'an»* tarzidagi holati tasviri nimani anglatadi?
13. Nigor oyimning maxdumga qarshi yo'l tutishi sababini sharhlang.

* * *

Tug'ma qobiliyati va teran aqli tufayli Anvar saroyda mirzaboshilik martabasiga erishadi. Anvarning mirzaboshi darajasiga erishganini ko'ra olmagan mulla Abdurahmon, Shahodat mufti va Kalonshoh mirzo kabi kimsalar Anvar bilan xonning orasini buzish uchun yigitning suyuklisi Ra'noning go'zalligi ta'rifini hukmdorga yetkazadilar va xotinboz xon qizni so'ratib, maxdumga odam yuboradi. Anvar va Ra'no bu zo'ravonlikka toqat qilib o'tirmay, ota uyidan qochib, yashirinishadi. Xon Anvarlarning qochishida uning do'sti Sultonali aybdor sanab, o'limga hukm qiladi. Roman

voqealari rivojida Anvarning akasi Qobil, uning buxorolik do'stlari: Sharif, Rahim hamda qo'qonlik Safar bo'zchi kabilar faol ishtirok etishadi.

CHAYONNING NAMOIYISHI

...Shahodat mufti kasavni olib, cho'g'ni titdi va keng ko'kragini shishirib nafas oldi.

– Ajab bedavo dard-da.

Kalonshoh mirzo boshini irg'atib qo'ydi.

– «Suygan yorim sen bo'lsang, ko'rgan kunim ne bo'lg'ay», – deb davom etdi mufti. – Ululamir qadrnoshunos bo'lg'andan so'ng qiyin ekan. Shu oqpadarning qo'l ostida ishlagandan devonni tashlab ketkan behroq.

– Sabr qiling, domla, sabr: «Innalloha ma'assobirin¹».

– Albatta... Va lekin Sultonalidek bema'niga bosh ekkandan, har ro'z o'n tayog yegan yaxshi.

Xuftanni o'qug'andan so'ng tahorat yangilab yurg'uchi mulla Abdurahmon hujra eshigida ko'rindi. Kichkina hovoncha boshidag'i oq tepchima to'ppi va qora uzun soqoli uni hindilarning savdogari qiyofatig'a qo'yg'an edi. Mulla Abdurahmon ichkari kirib, qoziqdag'i sallani oq to'ppi ustidan kiydi.

– Men janoblarning so'zlari bilan uyga ovqat buyurmadim-a?

– Lozim emas, biz uydan ovqatlanib kelganmiz.

Mulla Abdurahmon tancha yonig'a kelib o'lturdi va yer ostidan Shahodat muftiga qarab iljaydi.

– Shunday qilib, mirzo Anvarni qiz bilan qochurding'iz?

– Qochirish bo'lsa, qochirdiq va lekin qordan qutulib yomg'urg'a tutildiq, mulla Abdurahmon.

– Men eshitdim.

– Kulli yavmin batard² – bunisi undan qabihroq bo'ldi... Besh kundan beri yuraklar zardobka to'ldi, mulla Abdurahmon, – dedi mufti.

¹ Olloh sabr qilg'uchilar bilan birgadir (oyat.) (*mual.*).

² Kulli yavmin batard – kundan kun battard.

– Kecha biznikiga yo‘qlab borg‘an ekansiz. Siz ketibsiz, men kelibman-da; ko‘p afsus qildim. Bu kun mulla Kalonshohni olib, siz bilan suhbatlashib qaytayliq, degan niyatda...

– Quллиq, taqsir, quллиq, – deb mulla Abdurahmon qimirlab o‘lturdi. – Men Anvar bilan Sultonali mojarosini faqat kecha mirzo Boisdan eshitdim. Bu to‘g‘rini aniqroq bilish uchun janobingizning xizimatingizga borg‘anim edi... Xo‘sh, havodis nima?

– Havodismi? Qani so‘zlang-chi, mulla Kalonshoh.

Kalonshoh so‘zlay bering, degandek Shahodat muftining o‘ziga ishorat qildi. Shahodat mufti ko‘zini yuminqirab, havodisdan¹ sahifa ochdi:

– Havodis shulki, Anvar borasig‘a sizning olg‘an nishonigiz jiddan to‘g‘ri tushib, biz kutkandan ham ziyodroq samaraga erishkan, ya‘ni mag‘rur go‘dagimiz qizni olib qochqan...

Mulla Abdurahmon hakimona iljaydi, Shahodat mufti davom etdi:

– Chamasi, nisfi shab-yarim kecha asnosi, do‘stim, deb yonida qiz, Sultonaling uyiga kelgan. Sultonali tong otquncha ikki go‘dakning qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘latib chiqqan, erta bilan ular uyquda yotqanda, Sultonali o‘rdag‘a yugurib kelgan; voqi‘ani tunqotar xong‘a yo‘liqib, xonning buyrug‘i bilan yonlarig‘a yasovullar olib kelsalar, oshiq-ma‘shuq yo‘q, ular joyida Sultonliga atalg‘an bir sabnoma² bor... Chamasi, Sultonali ablahlik qilib, Anvarni bad oldirib qo‘yg‘an va tong vaqti, ular uyquda ekan choqda g‘oyib bo‘lib, yana shubhani ortdirg‘an bo‘lsa kerak. Sultonali Anvar bilan qizni tutib beralmasa ham, baharhol xong‘a yaxshi ko‘rinib, Anvarning o‘rnini olishqa muvaffaq bo‘ldi. Barcha havodis mana shundan iborat.

Abdurahmon hikoyani eshitkandan keyin, bir necha vaqt so‘zsiz o‘lturdi. Tanchadagi olovni tuzatar ekan, yer ostidan muftilarga qarab iljaydi.

¹ *Havodis* – hodisalar, voqealar.

² *Sabnoma* – so‘kib, tahqir qilib yozilg‘an xat (*mual.*).

– Mirzo Boisdan ham shu maolni¹ eshitkan edim, – dedi nihoyat. – Janoblarning fikrlari balki to‘g‘ridir, ammo men bu maoldan biroz shubha qilaman...

– Ya‘ni, masalan?

Abdurahmon qo‘lini o‘ynab, yana biroz sukutda o‘lturdi, so‘ngra labi ohista-ohista ochilib yumila boshladi:

– Bu hammasi Sultonali bilan Anvarning o‘yunidir, deb o‘ylayman... Bu andishamga bir necha sabablar ham bor. Janoblardan maxfiy emasdirkim, biz o‘zaro qanday yaqin bo‘lsa, Sultonali bilan Anvar ham o‘zaro shunday qalin do‘st edilar. Binobarin, aqlg‘a «qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qur ekanmi?» degan savol keladir; janoblari shu borani qanday tushundilar ekan.

Shahodat mufti Kalonshohka qarab qo‘ydi, Kalonshoh parvosizroq ko‘rinar edi. Orada yana bir necha vaqt sukut hukm surdi.

– Sultonali sarmunshiy bo‘lish uchun do‘stidan kechsa ham mumkin, – dedi mufti. – Ikkinchi tarafdin, sizning fikringiz ham ehtimoldan ba‘id² emas.

– Sultonali do‘stidan kechmay turib ham bu nayrangni qilsa mumkin emasmi, domla? – deb kuldi Abdurahmon. – Masalan, xon olmoqchi bo‘lg‘an qizni qochirg‘uchi Anvar ikki boshdan-ku, qaytib sarmunshiy bo‘lolmaydir, boshqa tarafdin, xiyonatkor do‘sti bo‘lib tanilg‘an Sultonalining ham hayoti tahluka ostida turadir... Bas, shu holda bu nayrang to‘qilg‘an bo‘lsa, yana to‘g‘risi, shu hiylani Sultonalining amniyati talab qilg‘an bo‘lsa, siz bilan men g‘ayraz³ qanday mantiqqa suyana olamiz?

Shahodat mufti o‘rnidan turdi, Abdurahmonning yonig‘a kelib, orqasini qoqdi:

– Rahmat, o‘g‘lim, rahmat. Seni tuqqan onangga va o‘qutqan ustozingga rahmat.

Abdurahmon yerga qarag‘an holda iljaydi. Shahodat muf-

¹ *Maol* – mazmun, ma‘no.

² *Ba‘id* – uzoq.

³ *G‘ayraz* – boshqa.

ti uning aqligʻa tahsin oʻquy-oʻquy, nos chakib oʻz joyigʻa oʻlturdi.

– Mulla Kalonshoh-a, shu gap bizning aqlimizgʻa aslo kelmabti-da?

Shahodat muftining xursandligiga qoʻshulmay, tund oʻlturgʻuchi Kalonshoh, parvosiz qoʻlini olovigʻa isitdi.

– Men shu andishani ham qilgʻan edim, – dedi birozdan keyin Kalonshoh, – lekin aqlim bovar qilmagʻan edi va hozir ham bu fikrga qoʻshila olmayman.

– Sabab?

– Bois shulki, Sultonali Anvarga suiqasd qilmagʻanda ham unga hech gap yoʻq edi. Ammo ul xongʻa qarobat¹ hosil qilish uchun aztahidil Anvarning qasdigʻa tushkankim, bunda shubha yoʻq.

Oʻzgalar tarafidan soʻzlangan fikr yoki bahs har qancha mantiqiy boʻlgʻanda ham Kalonshohning qarshi chiqish feʻli bor edi. Uning bu feʻliga yaxshi tushunib qolgʻan Shahodat mufti bosh chayqadi.

– Biz yanglishamiz.

Kalonshoh yana yuqoridagʻi soʻzini takrorladi:

– Bachi maʼni yanglishamiz? Mulla Abdurahmonning oʻzi ham oʻylab koʻrsin, basharti Sultonali doʻstliq yuzasidan Anvarni qochirib yuborgʻanda ham unga hech bir zarar yoʻq edi. Bas, Sultonalining hamma harakati toʻgʻri, Anvarga xiyonat qilishi mansab umidida ekanligi shubhasiz.

Orada oʻz fikriga qarshi shuncha raddiya oʻtsa ham parvosiz, goʻyo muroqabada² oʻlturgʻuchi mulla Abdurahmon yana iljayib bosh koʻtardi.

– Sultonalining Anvar bilan ati-qatiligʻi oʻrdada har kimga maʼlum-ku, domla. Basharti oʻz uyida turgʻan Anvarning xiyonati toʻrisida oʻzini tagʻofulgʻa solsa, mardumning koʻngliga nima gap kelar edi, ayniqsa, janoblaringiz qanday andishaga tushar edingiz... Ojizning fikrimcha, ul nayrang-bozlar bir oʻq bilan necha qushni urgʻanlar, masalan, janobga

¹ *Qarobat* – yaqinlik.

² *Muroqaba* – mushohada qilish.

Sultonlining sadoqati zohir bo'ldi, sarmunshiylik vazifasiga beozor o'tturib oldi va uchunchidan, mardum ko'zini bo'yadi.

– Baharhol... baharhol Anvarga qarshi chiqmag'anda ham Sultonlini na xon va na biz ayblay olar edik.

– Xo'sh?

– Xo'sh-po'shi yo'q, – dedi qizishib qolg'an Kalonshoh, – biravning ustiga qo'yish uchun, shar'an shohidlar lozim, da'voni isbot qilish kerak... Xax-xax-xax, sen falonchi gunohkor bilan do'st eding, deb kishini ayblash. Masalan, ushbu da'voni qilg'uchi o'zingiz ham ularning maslahati ustida bo'lmag'ansiz; faqat shundaymikin, degan mulohazada so'zlaysiz, holbuki, sizning so'zingizning shar'an to'rt pullik qiymati yo'q uka...

Kalonshoh juda qizishib ketdi, «shar'an so'zingizning to'rt pullik qiymati yo'q, uka» tahqiri bilan mulla Abdurahmon ham bo'zarib oldi.

– Menim so'zim bir mulohaza, taqdir, mulohaza shar'an isbotka buyurilmag'an. Hokazo, o'zingiz aytkancha, go'yo masnad¹ uchun jon otib yurg'an Sultonlining zohir² harakatiga ham ishonib bo'lmaydir.

– Shuning kabi, siznikiga ham vusuq³ yo'q.

– Men aytayapman-ku...

Janjalning kattaga ketishini fahmlagan Shahodat mufti Abdurahmonning so'zini bo'lib, orag'a tushdi:

– Bahs nima hojat? Mulla Kalonshohniki ham to'g'ri, sizniki ham haqiqat... Ammo hozirgi masalamiz qaysi fikr to'g'rilig'i ustida emas, qaysi yo'l bilan Sultonlini bu o'rundan olib tashlaymiz borasida.

Ko'b yillardan beri birga yurib, o'z ruhiga tushunib qolg'an Shahodat muftining bu so'zi bilan Kalonshoh ozg'ina yorishdi.

– Ana bu boshqa masala, – dedi, – mulla Abdurahmonning fikrini to'g'rimi, egrimi, surishtirmay, unga faqat bir tadbir

¹ *Masnad* – martaba.

² *Zohir* – oshkora, ochiq.

³ *Vusuq* – ishonch.

deb qarasangiz, bu boshqa gap, ammo mahzi haqiqat¹, deb bilish bus-butun xato.

Shahodat mufti bu masalani yopib, ikkinchi tarafka o'tishka shoshildi. Chunki Abdurahmon yana bir iljayib ikki og'iz so'z aytsa Kalonshohning og'zini tikish og'ir oshar, Shahodat mufti buni yaxshi onglar edi.

– Xalos, xalos, – dedi mufti. – ...Ammo mulla Abdurahmon mulohazasining qiymati shundakim, Sultonali muammosini tez hal qilsa bo'lur.

Muftining siforish² so'zlashi bilan Kalonshoh juda ham o'ziga kelib qoldi va «halli³ qanday» deb yovoshqina so'rab ham qo'ydi.

– Halli oson, juda oson, – dedi mufti. – Biz mulla Abdurahmonning mulohazasi ayni bilan janobga bir ariza yozamiz, xolos.

Mulla Abdurahmon namoyishkor Kalonshohga qarab, o'ng qo'li bilan manglayini qashidi... Ammo Kalonshoh qanoatlanmagandek qilib bosh chayqadi.

– Xon Sultonaling sadoqatiga qanoat hosil qilg'an, yana shu holda bu arizaga ishonarmidi?

– Agar haqiqatni aytilsa, xon o'zidan boshqa hech kimga e'timod⁴ qilmaydir, – dedi mufti, – xayr, Sultonliga e'timod qo'yg'an ham bo'lsin, yana bu taqdirda ham biz arizani yoza beramiz. Nega? Agar ishonsa, Sultonlini o'rdadan haydar, ishonmasa, yana bizga nima zarar? Bu gap sizga qanday o'xshaydi, mulla Abdurahmon?

Abdurahmon ko'zini katta ochib, to'g'ri topqan kabi bosh irg'atdi.

– Arizamiz o'runlasa ko'b yaxshi, bil'aks, o'rdadan o'zimiz haydalurmiz, – dedi Kalonshoh.

– Nima uchun? – deb so'radi mufti.

– Axir arizani kim berganligi ma'lum-ku.

¹ Mahzi haqiqat – faqat to'g'ri gap.

² Siforish – mehribonlik, hurmat.

³ Halli – hal qilinishi.

⁴ E'timod – ishonch.

– Yo‘q, – dedi mufti. – Biz ariza ostig‘a imzo qo‘ymag‘aymiz, Kalonshoh.

– Imzosiz ariza mu‘tamad¹ bo‘lmas.

– Muta‘mad bo‘lsin-bo‘lmasin bizga nima zarar? Bahar-nav’ shu ehtimolni xonning qulog‘iga yetkarsak bas-da, Kalonshoh.

– Kimning dastxati bilan yozasiz?

– Bu oson, siz bunisidan xotirjam bo‘ling, Kalonshoh!

Kalonshoh noiloj ariza yozishqa rog‘ib² bo‘ldi. Arizaning shu majlisda, mulla Abdurahmon huzurida yozilishi muvofiq ko‘rinib, mufti tahrirga o‘lturdi.

IKKI XIL SADOQAT

Kechasi yomg‘ur savalag‘anday yog‘ib turadir... Qop-qorong‘i, olti qarichlik tor ko‘chaning muyushida turg‘an bir ko‘laga yomg‘urdan qochqan kabi kichkina eshik panasiga siqilg‘an va zo‘r berib eshikni qoqadir.

– Kim?

– Men, oching.

– Safarmisan?

– Ha.

Eshik zanjiri «shirq» ko‘tarildi. Yomg‘urda bo‘kkan Safar o‘zini torg‘ina, oldi ochiq yo‘lakka olib, eshikni zanjirladi.

– Tinchlikmi?

– Tinchlik, – dedi eshik ochqan kampir. – Nega kech qolding, Safar?

– Yomg‘urni ko‘rmaysizmi...

...Safar hujraning eshigini ochib, ichkariga kirdi. Sandal ustiga qora charog‘ qo‘yib, oldig‘a kitob yozg‘an Anvar Safar bo‘zchining istiqbolig‘a qo‘zg‘aldi.

– O‘lturing, o‘lturing, shu ishingiz yomon-da, mirzam... Salomatmisiz? Zerikmadinglarmi? Uch kun kechikdim-a. Mendan xafa bo‘lg‘an chiqarsiz-ov... Ha deganda u yoq-

¹ *Mu‘tamad* – ishonchli.

² *Rog‘ib* – moyil.

dan xabar bo‘laveradi, uning ustiga ayollar navqaslanib¹ qoldi...

– Zarari yo‘q, toza ivibsiz, Safar aka. Asli bu kun ham chakki ovora bo‘lg‘ansiz.

– Jazzasi choponni solib tashlash-da², mirzam, – dedi Safar choponni yechib. – Qani, o‘lturing... Yurtda tinchlik, yor-do‘stdan sizga salom, mirza og‘ayningiz xotirjam’ mirza-boshiliqni qilayapti... Men bo‘lsam, sengayam bali, ustozing-gayam bali, deb yurippan.

Anvar iljaydi. Safar bo‘zchi sandal yonig‘a o‘lturib, mahsisining qo‘njidan bir qog‘oz oldi. Anvar qog‘ozni undan olib sandal ustiga qo‘ydi. Qoziqda osilg‘an choponini keltirib, Safarning yaktakchan yelkasiga yopti.

– Shamollaysiz, Safar aka, o‘ranib o‘lturing.

– Hamma vaqt kayib qog‘ansiz-da, mirzam, – dedi Safar va ustig‘a yopilg‘an beqasam choponning astar-avrasini tekshirdi. – Toza yaxtak kiymagan edim, buningiz menga uvalda, uka, – deb siqilinqiradi.

Anvar o‘lturar ekan, e‘tiborsiz qo‘l silkdi va sandal ustidan xatni olib ochdi:

«Baland maqom, loyiqi ehtirom, burodarim mirzo Anvar.

Do‘stlar shod, dushmanlar g‘amgin, yavmi saodat yaqindir... Kaminag‘a xonning e‘timodi yondashmoqda va ul andeshalarimiz ehtimoli bizdin uzoqlashmoqdalar. Mojaro bir necha kun sir bo‘lib kechsa ham, alhol o‘rdadin ba‘zilar bu sirdan voqif bo‘lg‘ang‘a o‘xshaydirlar, ...ochiq so‘zlashka hech kimda had yo‘q. Ammo ikkinchi tarafdin, sizni izlashka maxfiy buyruqlar berildi, darvoza beklari yonig‘a xufyalar yuborildi, binobarin, sizdin iltimos, ushbu xavflar ko‘tarilguncha benihoyat ehtiyot bo‘lish, Toshkand niyatini bir necha haftaga qo‘yishdir. Xizimatingizga Safarboy bilan ushbu xatni ozgina kechiktirib yuborishim boisi ham mazkur xavflar borlig‘idin bo‘lib, ma‘lumingizdir, Safarboyning tabiatida andak beboklik va loqaydlik bor. Ikkinchidan, sizga tegishlik ajabla-

¹ Navqaslanmoq – kasallanmoq.

² Solib tashlash – yechib tashlash.

narli xabar shudirkim, kecha o'rdadin qaytib kelsam, mehmonxona sahnida uch nafar yigit o'ltiribdir. Har uchavi ham bizning Farg'ona kiyimida bo'lmag'an bu yigitlarni ariza yozdirg'ali kelganmi, deb o'yladim. Salom-alikdin so'ng ularni mehmonxonag'a olib kirdim. So'rashishgach, yigitlardan biri mening kim ekanligimni aniqlab oldi, so'ng afsus chekib, sizning mojarongizni so'zladim. Men tamom hayratda qolib, xufiyalarmi, degan andeshaga tushdim. Bu hodisani kimdan eshitdingiz, mirzo Anvarga qanday aloqangiz bor, deb so'radim. Opamdan eshitdim, o'zim mirzo Anvarning og'asi bo'laman, degan javobni berdi. Men taajjubda qoldim; zero, og'angiz borlig'ini sizdan eshitmagan edim. O'tkan xatimda yozg'animcha, bu yigitka ham opangizg'a bergan javobni aytdim, ya'ni, o'zimni oqlash uchun hodisaga birmuncha yolg'on aralashtirib so'zladim. Yigit – og'angiz bo'lmish afsus chekti, o'n yillardin beri Qo'qonda bo'lmag'anlig'ini, buxorolik bir sarkarda eshigida xizmat qilg'anlig'ini, qarindoshlarini ko'rish uchun Buxorodan Samarqandga kelib, u yerdagi katta og'asini topolmag'anlig'ini, undan Qo'qonga o'tib, bunda ham sizga yo'liqolmay qolg'anini so'zladim. Shundan so'ng uning ustidagi shubham biroz arib, ko'ngil ko'tardim. Og'angiz bo'lmishning yonidaqi yigitlar bizning bu taraf kishisiga o'xshamaydirlar. Bular og'angiz bo'lmishning hamrohlari Qo'qonni tomosha qilg'ali kelgan emishlar. Sizga og'aliq da'vo qilg'uchining ismi Qobilboy, tusi sizga o'xshab kelsa ham, pahlavon yigit va har uchavi ham zabardast ko'rindilar. Harchand qistasam ham, ularni ovqatqa to'xtatib bo'lmadi. Siz kechagi maktubingizda mening sarmunshiy tayinlanishimdan tashvishlanib, orada muftilar, Abdurahmonlar bor, sizga birar zahmat yetarmi, degan andeshani yozibsiz! O'tkan xatimda yozg'animdek, bu «marhamat»dan bosh tortishqa hech bir yo'l topmadim, agar uzr bayon qilsam, sizni tutib berishka bo'lg'an harakatimning soxtaligi ochilish ehtimoli bor edi. Chunki xong'a sadoqat bizning «odamlar» fikricha, birar manfaat taqozosidir. Agar men xong'a «sadoqatlik qul» ekanman, bu «sadoqat»

zamidida bir manfaatim bo‘lmog‘i lozimdirkim, ul ham bu do‘stimni... «sadoqating‘a» qurbon qilib, evaziga sarmunshiylik masnadini olishimdir. Basharti shu masnaddan bosh tortsam, menga ishonchsizlik tug‘ulishi shubhasiz edi. Bas, shu majburiyatdan men bu vazifani qabul qildim. Menga zahmat yetishi to‘g‘risida siz tashvish cheka ko‘rmangiz, modomiki, taqdirim shu ekan, o‘zgasi mumkin emasdir. Bu yo‘lda qanchalik zahmat chekmayin va hatto boshim ham ketmasin, mening uchun qiymatlirog‘i insonga sadoqat va shu sadoqatni to o‘lguncha qo‘ldin bermaslikdir. Singlimiz Ra‘nobibiga salom aytursiz. Ota-onalariga hech bir zarar bo‘lmadi, faqat «hadyalar»nigina qaytarib oldilar. Oxirg‘i so‘zim yana ehtiyotlik ustida: zinhor-zinhor har ehtimolga qarshi hozir turilsin.

Addoi mirzo Sultonali».

Anvar maktubni tugatib, oldida yonib turg‘an qora charoqqa tutib, kuydirdi.

– Ehtiyot kerak-a, Safar aka?

– Albatta, mirzam, albatta.

– Bu kecha qolasizmi, ketasizmi?

– Ketmasam bo‘lmaydi, Sultonalingiz xafa qiladi, uka.

Anvar kuldi.

– Ketsangiz xat yozib turishim kerak ekan, – dedi va toqchadan siyoh-qalam oldi. – Isidingizmi, Safar aka?

– Ha-ha, jon kirib qoldi, mirzam!

«Qir-qir» xat yozib borg‘an Anvar... Safar bo‘zchiga yuz o‘girdi:

– Mundin so‘ngg‘i kelishingizda mirzo Sultonali yoningizg‘a bir kishi qo‘shsa kerak. Siz bu yigitni bu yerga olib kelasiz, o‘zi mening og‘am bo‘ladir, xo‘bmi?

– Xo‘b, mirzam, xo‘b. Mirza og‘ayningizg‘a shuni tayinlab bitsangiz bo‘ldi-da.

– Shunday, men bityapman.

Anvar yana yozuvig‘a qaradi, Safar bo‘zchi sandal ko‘rpasiga o‘ranibroq o‘tirdi. Tashqarida yomg‘ur tinayozib, kuchlik shamol qo‘zg‘alg‘an, yomg‘ur tomchilarni goho tom

ustiga to‘pillatib qattig‘ tushirar, daricha tirqishidan kirgan shamol bilan qora charog‘ chayqalib-chayqalib yonar, ayvondagi kampirning chig‘irig‘idan g‘ijillab chiqqan tovush mushuk bola movlagan kabi hujraga eshtilib turardi.

BARIMTA

Kun choshgohdan oshib, Chorsuda xalq olag‘ovuri boshlansa ham, bo‘sh do‘konlarning birida uch nafar yigit hanuz dong qotib uxlar edi. Chorsuda bo‘lib turgan tars-to‘polon go‘yo bu uch yigitni allalar edi. Boshiga bittadan shaparak kir yostiqlik qo‘yib, ostiga yalang qavat taqir ko‘rpacha yozgan va ustiga guppi choponini yopib, yana shu holda bahuzur xurrak otib uxlagan bu uch yigit musofirga o‘xshar edilar. Ular shu yo‘sin rohat qilib yotganda taxtabandlik do‘kon yoniga tashqaridan birov kelib to‘xtadi va hamma tovushini qo‘yib, baqirib yubordi: «To‘xta, hovv Navro‘zqul!»

Uxlovchilarning ikkisi pinagini buzmasdi, ammo do‘konning to‘rida yotgan chuyak bir yigit cho‘chib, boshini ko‘tardi, uyquqlik ko‘z bilan atrofiga qaragandan keyin, hamyoza tortdi, kerishdi, so‘ngra eng chetda yotuvchiga ko‘zi tushib, yonidagi yigitni turtdi:

– Tur, Shariyf, tur, peshin bo‘libtu!

Ikkinchi yigit ko‘zini ochdi:

– E, qo‘ysang-chi, Rahem.

– Tur-da, axe, ana Qobilboy ham keb to‘xtabtu!

Sharifboy yostiqlikdan burilib, yonidagi uchinchini yigitga qaradi:

– Pala‘nat, qachon kelgan ekan?

– Kim bilsin. Inisini bo uchratdimikin? Qani, uyg‘ot-chi, pala‘natini!

Sharifboy yotgan joyidan qo‘lini uzatib, Qobilboyning murtidan tortdi, Qobilboy g‘ingshib uyg‘ondi:

– Tek yot, Sharif!

– Iningga yo‘liqdingmi?

– Yo‘liqdim, ikkavingga salom aytdi, – dedi Qobilboy va yuzini ulardan chetga o‘girib oldi. – Biroz tinch qo‘y, uxlayman.

– Iybi, iybi, – dedi Rahim, – birodaring ahvolini gapir-da, axe. Barpadari uyquki, peshingachikin bo‘lsa, ko‘chaga bo‘lib yotgan to‘palangni go‘shingga ilasanmi?

– Kech keldim, ko‘p javrama-chi, Rahim!

– Qorunni to‘yg‘uzib, so‘g‘un uxla, akun! Qorinlar ham piyoz bo‘lib to‘xtabtu, nonushtani qayerga qilamiz, Shariyf?

– Choyxonaga ketamiz.

– Qani, sen ham kafaningni yopinib, shundaychikin yotma. Pala’nating bo uxlab ketdimi?

Ikkisi turib kiyina boshladilar. Rahim uzun belbog‘ini to‘g‘rilar ekan, bir qancha chaqa va tangalari yerga sochilib tushdi.

– O‘xu, o‘xu, sabil, – dedi Rahim pullarni terib. – Xudo bularni ham ko‘p ko‘rdi chog‘i, akun, Qo‘qoning bizga to‘g‘ri kelmadi, ish topilmayde, pul sochilade, och qolamiz chog‘i, Shariyf?

– Qobilboyning Qo‘qonjoniga la‘nat, – dedi Sharif, – loaqal temirchi ham shogird olmaydi, bizga biron ish topib bermasa, to‘p-to‘g‘ri nar xar¹ Qobilning ustiga minamiz?

Bularning vaqirlashiga uyqusi o‘chib ketgan Qobil, to‘n-g‘ir-to‘ng‘ir bir narsalarni so‘zlab, yostiqlardan boshini ko‘tardi.

– Chumchuqdek chirqillashdinglar-da, tojiklar! – dedi Qobil. – Ishsiz qolgan bo‘lsalaring, Toshkandga ketamiz.

– Ana-ana, yana topdi gapni! – dedi Rahim. – Valdir-valdir qilasan, Qobilboy, akun, Toshkand borish uchun pul qani?

– Pul topiladi.

– Pul topiladi?! – deb kuldi Rahim, – bu bepadar boyvachangni qara, Sharifboy!

– Pul topiladi, – dedi yana Qobilboy va yaktagini cho‘ntagiga qo‘l soldi. – Past odamsanlar-da: biring temir-chining o‘g‘li, ikkinching shustagarning² bolasi...

¹ *Nar xar* – hangi, erkak eshak.

² *Shustagar* – yuvg‘ich, murdasho‘y.

– Voy-voy! – dedi Rahim, – nazari baland bo‘yoqchining o‘g‘lidan xafa bo‘llem!

Qobilboy cho‘ntagidan bir narsa olib, ularning oyog‘i ostiga tashladi va o‘zi og‘zini katta ochib, hamyoza tortdi.

– Ana pul kerak bo‘lsa ol, sendeklarni bir yil boqadi!

Rahim bilan Sharifboyning oyoqlari ostiga ikki tillo kelib tushdi, ular bir oltinlarga va bir Qobilboyga qarab qoldilar:

– Iybi, kimni o‘ldirding?

– Ota kasbim odam o‘ldirish emas.

– Inisi bergan! – dedi Sharif. – Qani, ining bilan ko‘rishdingmi, Qobil?

– Ko‘rishdim.

– Odami nag‘z bo‘lg‘on?

– Odami nag‘z.

– Akun shu qochib yota beraykan-da, – dedi Rahim. – Biron chora boqsin-da, aytmading-chi, axe?

– Aytdim... Payt topib hammamiz Toshkand ketmaqchi bo‘ldik.

– Balli-balli! – dedi Rahim va Sharifga qarab qosh qoqdi. – Toshkand ketamiz digani teksiz emas ekan-da, pala‘nalatingni. Hay, ish bitti, Qobilboy, Toshkandga yuramiz, o‘rusingni ham bir ko‘raylik¹.

Sharif yerda yotgan ikki tilloni olib Qobilga uzatdi:

– Ma, tillangni kissangga tiq, Qobel!

Qobil olmadi.

– Tillo o‘zlaringga, ikkaving bir tillodan bo‘lib ol.

– Achchig‘ingni qo‘y, axe, biz senga dahanaki aytik-da!

Qobil kuldi va parvosiz kiyina berdi.

– Olmaysanmi, pala‘nat.

– O‘zlaringga deyapman-ku, inim senlarga atab berdi.

– Bizdan qarzi yo‘q-ku, axe?

– Tushunmagan odamlarsan-da! – dedi Qobil. – Inim, qochib yotqon holda ularni mehmon qilolmadim, deb senlarga shu ikki tilloni berib yubordi... Endi tushundingmi?

¹ Shu vaqtlarda Toshkent ruslar qo‘lida ekanligi unutilmasin (*mual.*).

– Voy, pala’nat... Hali sen bizni o‘z pulimiz bilan betimizga urding?!

Qobil kuldi. Ular ikkisi birining og‘zidan biri olib, Qobilni past urib, Anvarni maqtab ketdilar.

– San otang o‘g‘li emassan, agar otang o‘g‘li bo‘lsang, mirzo Anvardek mehmondo‘st bo‘layding! Mirzo Anvar mehmonning betini ko‘rmay, boshidan tillo nisor qilganda, sen pala’nat bizni do‘konxonaga qamab qo‘yasan! Burodaring bo‘lmasa, Qo‘qonjoningni ko‘tarib og‘zingga uraydik, muruningdan mag‘zi saring¹ oqib tushaydi!

Qobil bir narsa deb to‘ng‘illadi.

– E, to‘ng‘illama, pala’nat! Biz pul oshnosi emas, odam oshnosi... Seni bozori podshoga olib chiqsa, og‘ziga tish bor, deb sakkiz pulga ham olmaydi, ba xudo!

Ular shu hangomaning ustida edilarki... Chorsudagi shovqin-suron ichidan bahaybat bir hayqiriq eshitildi; bozor olag‘ovuri birdan kesilib, bu uchovi ham tashqariga quloq solib qoldilar:

– Ey-y-y-y. Bozor aro yig‘ilishib gul terganlar!
Qasam yodlab, podshoga so‘z berganlar!
Mirzo Anvar otliq elga ma’lum kishi,
O‘rda ichra qalamkashlik erdi ishi.
Arzimagan gunohiga qochdi, ketdi.
Bundan andak podshohga ozor yetdi.
Uning do‘sti Sultonali nomlik mirzo
Bu qochishdan chekmakdalar behad izo.
Mirzo Anvar gunohida toyildi zor²,
Xaloyiqni to‘xtatishdan maqsadim bor.
Erta peshin asnosida Sultonali
Orsiz Anvar gunohiga o‘lgay, bali.
Jamiyatda hozir bo‘lsa osiy Anvar
Yoki uning do‘sti, oshnosidin birar.
Gunohingga Sultonali o‘lar, desin,

¹ *Mag‘zi sar* – miya qatig‘i.

² *Gunohida toyildi zor* – gunohiga qoldi bechora.

Erta peshin vaqti, afsus, so‘lar desin.
Iymonli qul nafi uchun do‘stin sotmas,
Gunohi yo‘q oshnasini o‘tga otmas.
Quiloq solgan gunohsizning faryodiga
Dard qolmagay, yetar har vaqt murodiga!

Jarchi to‘xtadi, shovqin-suron yana eskicha davom etdi.
Jarning davomida qulog‘i tikkayib, ko‘zi katta ochilgan Qobilboy sukutga ketdi...

– Nega xomush to‘xtading, Qobil? Akun jarching nima deb vaqirlaydi?

Qobil javobsiz boshini chayqadi.

– Gapur, – dedi Sharif, – Mirza Anvar, osiy Anvar, de-yapti chog‘i?

Qobil yana javob bermadi.

– Zaboning bor, axe, burodaringni tutkanlar-chi?

– Yo‘q.

– Bo‘lmasa nega undaychikin xomush to‘xtading?

– Endi tutmakchilar...

– Endi, tutmakchilar? – deb zaharxanda qildi Rahim. – Dardi harinani tutadi!

– Tushunmay yotibsanlar, anovi kun biz bir mirzoning uyiga borgan edik-a?

– Hay.

– Ana shuni, sen Anvarning do‘sti eding, deb barimta¹ ush-laganlar... Ertagacha Anvar kelmasa, shu Sultonolini o‘ldurar emishlar!

...Qobil do‘konxona eshigini yopib, o‘rtoqlari yoniga kel-di. Uchovi bir necha vaqt xomush o‘tirdilar.

– Shu bevafo dunyoga bir ish qilamiz, Qobilboy, – dedi yana ko‘zi olalangan Rahim. – Dayusingni zindoni qayerga?

– Zindonni nima qilasan?

– Ana men bor, ana Sharif, ana sen! – dedi Rahim. – Shu tunga uchovimiz borib yo o‘lamiz, yo shu bechorangni ro‘shnolikka olamiz!

¹ *Barimta* – garovga, kafilga olish.

Qobil manglay ostidan Sharifga ko‘z yubordi. Sharif kulimsirab, Rahimga qaradi.

– E, senga chi balo shud¹?

– Hechchi – dedi Rahim. – Akun biz dunyoga nima olib boramiz, hay o‘lluk: dunyoga o‘n tilla pulimiz qolaydimi yo uyga sochini tarab to‘xtagan xotunimiz qolaydimi!

– Yo‘q, qolaytikoni yo‘q! – dedi kulib Sharif.

– Dastasha gir! – dedi Rahim Sharif bilan Qobilga ikki qo‘lini cho‘zib. Ular ikkisi ham iljaygan ko‘yi qo‘llarini berdilar. Lafzaton yakmi?

– Yak-yak, Rahim dav!

– Hazilash nest?

– Nest!

– Tamom, – dedi ikki qo‘lini bo‘shatib Rahim. – Shud!..

XAYR ENDI, RA’NO!

Xotin-qizlar jinsidan irodasi kuchli, hatto erlardan ham jasurroq shaxslarni ko‘p uchratamiz. Shuning bilan birga ularni, naqadar kuchli irodaga molik bo‘lmasinlar, yana hissiyotlarga mag‘lub ko‘ramiz. Masalan: hikoyamiz qahramoni Ra‘noning jasorati, xonga qarshi isyoni, hatto ma‘yus qolgan Anvarni yo‘lga solishi – o‘z zamonasi uchungina emas, bizning hozirgi asrimiz uchun ham loyiqi tahsin va Ra‘no yoshlik qizlarimizga ibratdir. Lekin irodasi kuchli shu Ra‘no hozir yana hissiyoti qo‘lida mag‘lub edi.

Bu kecha Anvar og‘asi bilan kengashib, shu kunlar miyonasida Toshkand ketishini o‘ziga jazm qildi, Ra‘noga ham Qo‘qon bilan vidolashish og‘ir sezilmadi. Ammo masala qat’iy hal qilingach, Ra‘noda bir tarafdand qo‘rqinch, ikkinchi tarafdand qiziq yana bir jasorat tug‘ildi: kampir bilan birgalashib ota mahallasiga borar emish; o‘zi birovning yo‘lagida turib, kampir orqali onasini aytdirib chiqar emish!

¹ *Chi balo shud* – senga nima balo bo‘ldi?

Tuni bilan shuni o‘ylab chiqqan Ra’no, ertalabdan beri Anvarni xafa qilar, o‘z so‘zida isror¹ etar edi. Kichkina hujraning sandalida qarshima-qarshi o‘ltiruvchi Anvar va Ra’no bir-birisidan o‘pkalik qiyofatda edilar.

– Hissiyotga qattiq berilibsan, Ra’no... Har qadamingda seni bir falokat kutadir, menga qolsa ayamga ham ishonib bo‘lmas.

– Paranji ichida borgan Ra’noni tanish uchun hech kimda karomat yo‘q; ayamga nega ishonib bo‘lmasin?

– Sen qochgan, ayangning obro‘cini to‘kkan qizsan...

– Hech-hech... Ayamning ko‘nglini men yaxshi bilaman, ayam siz o‘ylagan xotinlardan emas hech!

– Yaxshi, yo‘lda ham seni hech kim tanimasin, kampir ham ayangni aldab olib chiqsin, ayangning o‘ziga ham ishonaylik; yana har holda mening uchun shu qasdingdan kech-sang nima bo‘ladir, Ra’no? Biz Toshkentga borib yetgan kunimizoz, sog‘ligimizni va uzrimizni aytib, xat yozarmiz-ku, jonim!

Ra’no javob berish o‘rniga birdan yig‘ladi, ancha vaqt ko‘z yosh to‘kib turdi.

– Balki men... ayam bilan abadiy ko‘rishmasman!

– Hay, Ra’no, Ra’no, – dedi Anvar. – Xudoyor yuz yil yashaydi, biz Toshkentda o‘lamiz, deb o‘ylaysanmi? Xayr, ko‘p bo‘lsa Xudoyor yana besh yil yashasin, vaholanki, uning zulmi shu yo‘sin davom etganda, biz chamalagan bu fursat ham ko‘p; zero, zulm naqadar kuchaysa, uning umri shuncha qisqa bo‘lishi tajribalar bilan sobitdir. Agar shungacha ham sabring yetmasa, boshqa chorasi topilar, Ra’no, masalan, ayangni Toshkentga chaqirarmiz yoki biroz eskitgandan so‘ng Qo‘qonga o‘zimiz ham kelsak bo‘ladi.

Ra’no javobsiz yana ko‘z yoshini to‘ka berdi, bu holdan siqilgan Anvar Ra’noga biroz qarab turdi:

– Xo‘p, yig‘lama. Hali bir-ikki kunsiz yo‘lga chiqolmas-miz; bu kun kechasi akam kelsa, erta bozorga chiqib yo‘l

¹ *Isror* – qat’iylik, o‘jarlik.

hozirligini ko'rsa, har holda birisi kun kechqurun jo'nashimiz ham aniq emas. Binobarin, sen oshiqmasang ham bo'ladi. Undan so'ng, sening o'ylagan yo'ling juda qaltis, bu to'g'rida boshqacharoq tadbir toparmiz...

Ra'no indamadi, bir entikib orom havosini yutdi va ro'moli bilan ko'z yoshisini quritdi. Anvar o'pkalik iljayib, Ra'noni yandi. Ular shu holda ekan, hujra devori, ko'cha tarafdin, uch-to'rt qayta gurs-gurs urildi. Ikkisining ham qu-loqlari dikkayib bir-birisiga savol nazari yubordilar...

– Begona kishi emas, – dedi birozdan keyin Anvar. – Men Safar aka bilan kunduzi devor urishni shart qilgan edim... Sen chiqib kampirga ayt, eshikni ochsin.

Ra'no hujradan chiqdi. Biror daqiqadan keyin hovli sah-niga bir necha oyoqlar kirdi. Bemahal yo'qlashdan Anvarning ko'ngli g'ash tortib, keluvchini Safar aka bo'lar deb o'yladi. Hujra eshigi ochilib, ichkariga biri orqasidan biri – Qobilboy bilan Safarboy kirdilar. Anvar yana anglashilmovchilik ichida qoldi, Safar akaning tinchsiz-hayajonli ko'zi Anvarning il-garidan ko'rib qo'ygan bir necha ehtimollarini xotirlatib, ular-ga joy ko'rsatdi.

– Vaqtsiz yo'qlashlaringiz sababsiz bo'lmas, – dedi tovushi-ni sekinroq chiqarib Anvar. – Bizdan xabar topganlarmi?

Safar hamrohiga qarab, ikki qo'lini qovushtirib yenglari ichiga oldi.

– Yo'q...

– Sultonolini qamaganlarmi?– deb yana so'radi Anvar. – Qamaganlardir!

Safar va Qobil bir-birlariga qarashdilar.

– Shunday, mirzam, shunday... Bizlar juda hayron bo'lib qoldik-da.

Anvarda qonsizlanish va kiprik ostlarida harakat ko'rildi.

– Zarari yo'q, qutqaramiz... Qachon qamaganlar?

– Kecha kechqurun... Boya bizning uyga Sultonalining xotini kelgan edi, men shundan eshitdim. Uning ustiga aka-ngiz borib qoldi...

– Siz kimdan eshitdingiz, aka?

Jarchi xabarini va bu to'g'rida o'rtoqlari bilan bergan qarorni Qobilboy so'zladi. Anvar og'asining so'zini jiddiy eshitib, bir necha vaqt o'ylab o'tirdi.

– Siz va o'rtoqlaringizning hamiyatlaringizga rahmat... Lekin bu yo'l bilan Sultonolini qutqarish qiyinroq, balki mumkin ham bo'lmas, deb o'ylayman!

– Agar biz uning qamalgan joyini bilsak, nima uchun mumkin bo'lmasin, Anvar? O'rtoqlarim yuraksiz yigitlar emas, bu yog'idan xotirjam bo'ling!

– Rahmat! Albatta, bu jasoratni yuraksiz kishilar qilolmas. Mening bu jasoratga umidsiz qarashim sababi shuning uchunki, bunday shartlik va nozik habslar¹ aksar o'rdaning o'zidagi ovoqqa² qamalguvchi edi.

– O'rdaga kirish qiyinmi?

Anvar bosh chayqadi.

– Hech mumkin emas, tun bo'yi ellik nafar yigit o'rda qo'rg'oni ostidan aylanib turadi.

Qobilboy ma'yus Safar bo'zchiga qaradi. Safar bo'zchi zo'r berib mo'ylovini tishlab, uzar edi.

– Zindonga qamagan bo'lsalar, ebi bor ekan-da, taqsir.

– Ebi... Zindonga qamashlari ehtimoldan uzoq, Safar aka.

Yana bir necha fursat sukutda qoldilar. Qobilboy har on to'ppisini qayirib, boshini qashir edi. Anvar sandal ko'rpasidagi bir ipni uzib olmoqchi bo'lgandek qo'lini siltar edi.

– Zindondan xabar oldirishimiz kerak ekan-da, Anvar?

– Xabar olinsa... bo'ladi.

Qobilboy Anvardan shu javobni olib, Safar bo'zchiga yuz o'girdi:

– Mirzoning uyiga bir kishi yuborsak-da, uning xotini eriga taom keltirgan bo'lib zindonga borsa... Shu qanday bo'lar ekan, Safar aka?

– Ma'qul, uka, ma'qul.

– Sizga-chi, Anvar?

¹ *Habslar* – qamaluvchilar, mahbuslar.

² *Ovoq* – avaxta, maxsus qamoq.

Anvar «to‘g‘ri» ishorasini berdi.

– Boyagi andishamizni ham aytib o‘taylik, – dedi Qobilboy.

– Biz yo‘lda bir to‘g‘ri mulohaza qilib keldik, Anvar. So‘zning rosti shuki... Bu uydan hozir ketsangiz ma’qul. Harchi odam bolasi-da. Haligidek, joni ko‘zga ko‘rinib, iqror bo‘lib qo‘ysa...

Anvar bosh chayqab kulimsiradi.

– Sultonali bunday odam emas, bundan xotirjam, – dedi Anvar qanoat bilan va biroz o‘ylab turdi... – Ammo Sultonaling xotini to‘g‘risida biroz xavfliroq; xotin kishi erimni qutqaraman, deb nodonlik qilsa, ish rasvo...

Safar bo‘zchi boya Sultonaling xotini kelganda, Qobilboyning niyatini eshitib xotirjam bo‘lganini so‘zladi.

– Juda yaxshi qilingan, rahmat... Hali uning uyiga kishi yuborsangiz yana uqtirish, xotirjam qilish kerak; shunday ishontirilsinki, erta peshingacha erining ozod bo‘lishiga shubhasi qolmasin, hatto uni bu yo‘sin aldasa ham bo‘ladi. Erta bilangacha qutqarilsa xo‘b, qutqarilmasa, Anvarning o‘zi borib qutqarar emish; agar sen shungacha sabr qilmasang, eringning yana jazoga tortilishiga sabab bo‘lasan, deyilsin!

– Xo‘p, mirzam, xo‘p!

– Sizga yana bir xizmat, Safar aka, – dedi Anvar. Safar hozirlik ishorasini qilib, engashib oldi. – Xizmat shuki, singlingiz men bilan birga turmasa, siz olib ketsangiz...

QO‘RQINCH BIR JASORAT

Qobilboy bu so‘zni eshituvchi quloqlariga ishonmagandek, Anvarning yaqinrog‘iga surildi.

– Nima deyapsiz, Anvar, men yaxshi anglamadim?

Anvar yana o‘sha so‘zni takrorladi. Qobilboy, endi biroz orqasiga tisarilib, ko‘zini katta ochdi va bir necha vaqt qotib turdi...

– Siz nima qilmoqchisiz, uka. O‘z oyog‘ingiz bilan... Yo‘q, bu bo‘lmagan gap! Balki bu – xonning unga popisa-

sidir¹, shu hiyla bilan maqsadga yetmoqchidir... Qo‘ying bu gapni, uka, qo‘ying!..

Anvar hamon boyagi vaziyatda, ko‘zini bir nuqtaga tikib, sandal ustidagi qog‘ozni og‘asi yaqinrog‘iga surib qo‘ydi...

– Basharti, popisa bo‘lmasa?.. – dedi Anvar. – Xon popisani bilmaydi, uning hamma harakati jiddiy! Shunday, siz bu xatni ertaga uning qo‘liga berasiz va undan har bir yordamingizni ayamaysiz!

– Bu aqllik gap emas, uka...

– Men endi shunga qaror berganman! – dedi Anvar o‘zgarishsiz. – Bu azmdan qaytish yo‘q... Faqat, siz unga yordamingizni ayamaslikka menga so‘z bersangiz bo‘ldi!

Qobilboy entikdi, xatni olib, bir necha fursat sukutda o‘ltirdi... So‘ngra birdan o‘rnidan turib hujradan chiqqa boshladi.

– Yo‘l bo‘lsin?

– Ketayapman.

– Xayr, kechiringiz!

Qobilboydan javob bo‘lmadi.

Kun qiyomga² yaqinlashgan. Yana biror soatdan so‘ng Sultonlini o‘limga olib chiqar edilar. O‘rdadan hech kim uning najot topishiga ishonmas; xonning oldiga chaqirildi – o‘ldi, basharti gunohi bo‘lib, iqror qilsa, yana jazoga qoldi, vassalom. Ammo Anvar xon huzuriga kelib, o‘zini uning hukmiga topshiradi, chin yigitlik yo‘li bilan do‘stini qutqaradi, degan xayolga kim ishonsin? Kecha jarchi ko‘y-guzarlarni aylanib, Anvarni insofga chaqirdi, kishi qoniga qolmaslik fazilatini tarannum ettirdi. Biroq Anvarning bunday «hamoqati»ga³ axloqan sukut etib, vijdonan so‘zlagan o‘rda arbobi va boshqalar ishonsinmi!

Shunda o‘rda arbobi bukun peshindan biroz ilgariroq mujassam bir vijdon, tog‘yurak bir yigit va o‘lim sari kulib keluvchi bir arslonni o‘z tarixida birinchi martaba ko‘rdi va tong ajabda qoldi. Bu ulug‘ jasorat bir necha daqiqalarga-

¹ *Popisa* – po‘pisa, yolg‘ondan qo‘rqitish.

² *Qiyom* – tush.

³ *Hamoqat* – ahmoqlik.

cha zulm itlarini sukutga soldi, ularni ishdan to'xtatdi. O'rda arboblarning mahkamada o'tirganlari eshik yoniga chiqib, yo'lda borganlari harakatsiz qolib, parvosiz, har kim yonidan salomlashib o'tguvchi arslonni tomosha qildilar.

Anvar devonxona qarshisiga yetganda, nima maqsad bilandir darichalar va eshik yonida mo'ralashuvchi mirzolar-ga umumiy bir ta'zim ifoda qildi va zinalarga sobitqadam oyoq qo'yib, yuqoriga, xon huzuriga chiqib ketdi. Poytaxt bo'sag'asidagi doimiy yasovullardan o'tib, dahlizda to'xtadi. Chunki bundan o'tish uchun hudaychi vositasida xondan ruxsat oldirish lozimdir. Birinchi eshik yonida qo'l qovushtirib turuvchi Darvesh hudaychi taajjub va hayrat ichida Anvarni qarshilab, ikkinchi xonadagi «janob» huzuriga ketdi.

Textiga takya qilgan¹ Xudoyor ikki ko'zi to'g'risida ikki jallodni qo'yib, yonidagi domla shig'ovul², Tursun otaliq va g'ayri³ bir necha ayonlar bilan suhbatlashar edi.

– Pushti panoho! – dedi hudaychi. – Xiyonatkor o'z ixtiyori bilan kelib, domi adolatingizga taslim bo'lmoqchi.

– Xiyonatkoring kim?

– Mirzo Anvar!

Xon seskanib ketdi, hamnishinlar⁴ ham alang-jalang bo'l-dilar.

– Keltir!

Hudaychi qulluq qilib, orqasiga qaytdi. Dahlizdagi Anvar birinchi xonadagi a'yonni hayratga solib, ikkinchi tanobiy-ning bo'sag'asida, jallodlar o'rtasida to'xtadi va xonga ta'zim ado qildi.

Raqibni bu qadar jasoratda ko'rgan Xudoyorning kiprik ostlari uchib, soqol tuklari silkindi va biroz so'z topolmagan-dek tamshanib turdi.

– Sen bizga xiyonat qilding, it uvli!

Anvar bosh irg'atdi.

¹ *Takya qilgan* – suyangan.

² *Shig'ovul* – saroy marosimlarini boshqarib turadigan amaldor.

³ *G'ayri* – boshqa, o'zga.

⁴ *Hamnishin* – birga o'tirganlar.

– Iqrorman.

– Tuzumni unutding‘!

– Tonmayman!

– Iqrorsan, tonmaysan, o‘bdan ish, – dedi zaharxanda qilib xon, – o‘luvdan ham qaytmaysan!

– Men sizdan marhamat so‘rab kelgan emasman! – dedi iljayib Anvar. – O‘zimni o‘limga berib, bir gunohsizni qutqarish uchun kelganman!

Hamnishinlar lablarini tishladilar. Xudoyor istehzoli kuldi.

– Pusulmonchilik qig‘onsan-da!

– Albatta! – dedi Anvar. – Boshqalar kishi gunohi uchun gunohsizni tutib, pusulmonchilikdan chiqqach, men pusulmonlik bilan o‘lishni o‘bdan bildim!

Bu javob Xudoyorni qip-qizil tusga qo‘yib, manglayida terlar ko‘rindi, g‘azab o‘ti alanga oldi.

– Sening qig‘on ishing pusulmonchilikda bormi, it uvli?!

– Musulmonchilikda yuzlab xotin ustiga bir kambag‘al uylanmoqchi bo‘lgan qizga ham zo‘rlilik qilish bormi, qiblayi olam!

– Chiqar buni, jallod!!!

Jallodlar harakatlandilar:

– Xanjarimiz qonsirag‘an!

Anvar bosh chayqab kuldi.

– Gunohsiz mening ko‘z oldimda banddan ozod qilinmas ekan, Anvarni bu yerdan chiqara olmaslar, qiblayi olam, – dedi va o‘zini tashqariga torta boshlagan jallodlarni arslonlar-cha siltab yubordi. – Sizda adolat bormi, janob!

Qo‘rqinch bu hayqiriq Xudoyorni insofga keltirdi. Jallodlarni to‘xtatishga va hudaychini Sultonolini hozirlashga buyurdi. Ko‘zi qonlangan Anvar ikki qo‘lini yoniga tashlab Xudoyor qarshisida turib qoldi. Hamma sukutda. Shunday fursatlar-da gunohkorni odobsiz so‘zlar bilan so‘kib turuvchi Xudoyor ham jim. Chunki a‘yon nazarida har bir odobsizligiga Anvar tarafidan kuchli haqorat olish ehtimoli bor. Shayx Sa‘diy aytgancha, dunyoda hayotidan qo‘l yuvguvchidek tili uzun kishi bo‘lmas. Darhaqiqat, insonni razolatga solguvchi uning man-

faati taqozosi, qola bersa o'limdir. Bu ikkisidan kechguvchiga esa podshohning qahri va jahannamning qa'ri farqsizdir.

Ko'p fursat o'tmay hudaychining orqasidan Sultonali kirdi, xonga qarshi turuvchini tanib, titradi... Titrar ekan, Anvar dan biroz keyinda turib xonga ta'zim qildi.

– Siz ozod bo'lding'iz! – dedi xon. – Devong'a chiqib o'z ishing'izg'a qarang!

Sultonali ixtiyorsizcha xon tomon bukilib oldi... Anvar «istehzoli» vaziyatda Sultonali yon qaradi:

– Menim qarshimga ishlab, janobga neqadar sodiq qolsangiz ham, sadoqatingiz sizni najotga chiqara olmadi, bil'aks, siz o'ylagancha men – insofsiz sizni qutqardim... Siz shuni unutmasangiz bo'ldi, Sultonali aka, – dedi Anvar va xonga ishorat qildi, – qo'limni bog'lasinlar, chiqarib o'ldirsinlar!

Sultonali orqasiga qaytdi, qaytar ekan, ko'zidan bir necha tomchi yosh oqib tushdi. Jallodlardan biri Anvarning qo'lini orqasiga bog'ladi. Anvarning qo'li bog'lanar ekan, Muhammad Niyoz domla o'rnidan turib, xonga qulluq qildi.

– Shu odobsizning gunohini mening uchun kechirsinlar.

Xon yuzini chetga o'girdi:

– Rastag'a chiqaring!

Anvar, xonni va hamnishinlarni masxaralagandek, ta'zim ado qildi. Jallod oldinga tushdi, uning orqasidan Anvar yurdi va orqadan ikki nafar qurollik yasovul ergashdilar. Anvar o'zini o'rdaga kirishda qanday tetik tutgan bo'lsa, o'lim sari chiqishda ham o'shandog' parvosiz edi. Ko'zi tushgan tanish har kimsa bilan «xayr», «xo'sh» degan kabi imlashib olar edi. Rangi quv o'chib, hushsiz kabi tashqi darvoza yonida turgan Sultonali bilan ham alohida vidolashdi. Anvarning qarashi-dagi ma'noga tushungan Sultonalinining yuragi suv bo'lib oqdi va hushsiz, hissiz Anvar ko'zdan yo'qolguncha qarab qoldi...

Yangi rastada xalq qaynar edi. Qo'lida yalang'och xanjari-ni ushlab, beliga oyboltasini qistirgan manfur jallod orqasidan keluvchi mahkumga ko'zi tushgan xalqdan ba'zisi... nafrat-langan ko'yi o'zini chetga tortdi. Jazo maydoni yangi rasta bilan o'rda bog'ining muyushida bir dor va dor ostiga qon

oqizish uchun qazilgan chuqurdan iborat edi. Dor ostiga kelib yetdilar. Bir onda dor atrofiga yuzlab yig'ilgan tomoshabin xalqni yasovullar chetlanishga buyurdilar. Xalq orqaga siljigan bo'lib, yana siqilisha berdi. Dor ostida Anvarning qo'li yechilib, tahorat olish uchun unga suv berildi. Chunki bu mahkumning qonuniy haqqi edi, Anvar tahorat olar ekan, jallod va yasovullar xanjar yalang'ochlab, uning tevaragini qurshab turdilar. Anvar tahoratlanib, ustidagi to'nini yerga yozdi. Jallodlar doirani biroz kengaytirib, Anvar ikki rakat namoz o'qidi. Duodan so'ng Anvar o'rnidan turdi, qo'lini bog'lashga berib, atrofga besaranjom alangladi. Tevarakni sirib olgan xalq oldida manfur ko'zini moylantirib o'z ustiga to'ppa-to'g'ri qarab turgan mulla Abdurahmonni ko'rdi.

Anvar titradi, Abdurahmon iljaydi.

– Kulishga haqqingiz bor, domla, chunki o'ch olasiz! – dedi Anvar. Birdan hammaning ko'zi Abdurahmonga tushdi. – Faqat siz ifloslik natijasida kulasiz, men... men to'g'rilik samarasini o'raman; siz iflos vijdon bilan g'olibsiz, men sof vijdon bilan mag'lubman... Meni dor ostiga kim keltirdi? Vijdon emasmi, taqsir! Sizni bu yerda kim tomoshabin qildi? Ifloslik emasmi, taqsir?

Xalq chuqur sukutda, o'z orasida turgan «peshvo»ga kiynalik ko'z bilan tikilgan edi... Jallod qo'li bog'langan Anvarni dor tomonga olib bordi. Anvar o'z ixtiyoricha chuqur yoniga o'tirdi va xanjarini yanib kelgan jallodga qo'li bilan «ozgina to'xtang» ishorasini qilib, Abdurahmon tomonga kuldi:

– Mening holimni ko'ringiz, domla, – dedi Anvar kulib, – qo'lim bog'langan, ustimda xanjar yaltiraydi. Lekin men kulaman... Nima uchun bunday, taqsir! Chunki vijdon rohatda, jon tinch, yurakda ishq!.. Durust, men ko'milgach, qabrim ustida ko'ksi dog'li qizil lolalar ko'karar... Nimadan bu? Bu – sizning kabi tubanlar solgan iz!..

Tomoshabinlar toqatsizlangandek ko'rindilar, Anvar uzanib yotdi... Jallod xanjarini yengiga yanib, Anvar ustiga engashdi...

Engashdi, biroq orqadan berilgan kuchli bir zarb bilan Anvarning ustidan oshib, munkigancha chuqurga yiqildi. Jal-

loddan besh qadam narida turgan yasovullar ham ko'kdagi xanjarlik qo'llarini ostiga bukolmay, kimlar bilandir olishib yotar edilar va shu onda kuchli shapaloq tovushi eshitilib, salasi chuvalgan bir yosh mulla yerga o'tirib qoldi... Xalq tartibsizlandi... Qobilboy Anvarning dastbandini kesdi va ikkisi tartibsizlik ichiga kirib yo'qoldilar. Qurolsizlantirilgan yasovullar gurr etib, turli tomonga sochilgan xalq ichidan do'st-dushmani ajratolmay garangsidadilar. Shu vaqt butun a'zosi eski qonlarga belangan jallod chuqurdan chiqishga intilar edi...




Savol va topshiriqlar:

1. Ra'noning boshqa qizlarga o'xshamaydigan darajada jasurligi va hamma ayollar kabi hissiyotga mag'lubligi tasvirlangan o'rinlarni topib o'qing va izohlab bering.
2. Romanda Anvarning tadbirkorligini namoyish qiluvchi tasvirlarni toping.
3. O'rdadagilar nima uchun Sultonaning najot topishiga ishonmas edilar?
4. Anvarning o'rdada paydo bo'lishi qoldirgan taassurot tasviriga e'tibor bering va unga asosanib adolatsizlik va yuksak ma'naviyat haqida fikr yuriting.
5. Anvar bilan Xudoyorxon o'rtasidagi olishuvga diqqat qiling. Bu «jang»da sizningcha kim g'olib chiqdi?
6. Dor ostidagi Anvar bilan mulla Abdurahmonning to'qnashuvi lavhasiga e'tibor bering. Har ikkisinining tabiatiga xos jihatlar tasviri haqida to'xtaling.
7. Anvarning qutqarilishi sahnasiga e'tibor bering. Uning xalaskori kimlar deb o'ylaysiz?
8. Asar matniga tayanib, Qodiriyning so'z qo'llash san'ati haqida fikr yuriting.
9. Adibning qaltis vaziyat tasvirini bera bilish mahorati namoyon bo'lgan o'rinlar haqida misollar asosida so'zlang.



Cho'lpon

(1897–1938)



Haq yo'li, albatta, bir o'tilgusi...

Cho'lpon.



Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon 1897-yilda Andijon shahrining Qatortarak mahallasida tug'ildi. Uning otasi Sulaymonqul mulla Muhammad Yunus o'g'li Andijonning obro'li kishilaridan bo'lib, savdogarchilik bilan shug'ullanar edi. U zamonasining o'qimishli kishilaridan hisoblanar, o'zi ham she'rlar yozib turardi. O'sha davrda

bo'lajak shoirning otasi o'zi yozgan hajviy she'rlardan devon tuzganligi haqida ma'lumotlar bor.

Cho'lponning onasi Oysha aya, garchi unchalik o'qimishli bo'lmasa-da, o'g'lining ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan. Negaki, u xalq qo'shiqlari va ertaklarining bitmas xazinasidan yaxshigina xabardor bo'lgan.

Abdulhamid avval eski maktabda o'qidi. Vaqti yetgach, Andijon va Toshkent madrasalarida tahsil ko'rdi. Zamonning talabini ilg'agan Sulaymonqul o'g'lini rus-tuzem maktabida ham o'qitdi. Bo'lajak shoir muntazam shug'ullanishi va tabiiy iste'dodi tufayli o'zbek, turk, fors, arab, rus tillarini va bu tillardagi adabiyotlarni puxta biladigan o'qimishli kishi bo'lib

yetishdi. Tinimsiz o'qish-o'rganish va kuchli iste'dod tufayli Abdulhamid o'n olti yoshlarga yetib-yetmay ijod qila boshladi. Uning shu davrda yaratgan hikoya va she'rlari Turkiston o'lkasi gazetalarida chop etilardi.

Ijodkorning iste'dodi ko'lami uning o'z xalqiga bo'lgan muhabbati ko'lami bilan o'lchanadi. Katta iste'dod ko'pincha katta muhabbatdan iborat bo'ladi. Cho'lponning dastlabki asarlaridayoq bosqinchilar zulmi ostida ezilayotgan Turkiston xalqiga bo'lgan cheksiz muhabbat yorqin ko'rinib turardi. U xalqini ozod va baxtli ko'rishni istardi. Buning uchun odamlarni jaholat uyqusidan uyg'otish, ma'rifatdan, ilm-u fandan bahramand qilish kerak deb hisoblardi. Ayni paytda, rus bosqinchilari millatning ma'rifatli bo'lishiga keng yo'l bermasligini ham bilardi. Erksiz ma'rifatning, ma'rifatsiz esa erkning bo'lmasligi shoirga ayon edi. Shu bois Cho'lpon 1917-yilning fevralida Rossiyada sodir bo'lgan inqilobga katta umid bilan qaradi. Lekin bu inqilob Turkiston o'lkasiga chin ozodlik bermadi. Chunki ozodlik o'zga kishi yoki tabaqa, yoxud millat tomonidan beriladigan sadaqa emas, balki kurashlarda qo'lga kiritiladigan ne'matdir. O'sha yilning oktabrida ro'y bergan to'ntarish esa shoirning so'nggi umidlarini ham so'ndirdi. Milliy zulm ostida ezilayotgan xalqning zabun holini aks ettirish va xalqni bunday holatdan qutqarish istagi Cho'lpon ijodining bosh yo'nalishi bo'lib qoldi.

Minglab yillik an'analarga ega qadimiy o'zbek she'riyatida Cho'lpon o'z yo'lini izladi va hech kimnikiga o'xshamagan, samimiyligi, jozibadorligi, ta'sirchanligi, tuyg'ularning ranginligi bilan o'zgalaridan ajralib turadigan she'riy olam yarata bildi. Bugungi o'zbek adabiy tili ko'p jihatdan Cho'lpon she'rlari ta'sirida shakllangan tildir.

Cho'lpon mislsiz she'riy kashfiyotlardan tashqari «Kecha va kunduz» deb ataluvchi birinchi o'zbek roman-dilogiyasi-ning¹ muallifi hamdir. Afsuski, zamondoshlarining xotirlashlaricha, romanning ikkinchi kitobi qo'lyozmasi Cho'lpon qamalgan paytda yo'q qilingan va hozirgacha topilgan emas.

¹ *Dilogiya* – ikki kitobdan iborat asar.

Birinchi kitobi «Kecha» egamanlik¹ yillarida qaytadan nashr etildi va ko'pchilik o'quvchilar tomonidan Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romani darajasidagi asar sifatida baho oldi.

Cho'lponning 1921-yilda yaratgan «Yorqinoy» dramasi badiiy jozibasi jihatidan hozirgacha ham o'z ta'sir kuchini yo'qotmay kelmoqda.

Abdulhamid Cho'lpon o'zbek o'quvchilarini jahon adabiyotining durdona asarlari bilan tanishtirish borasida ham salmoqli ishlarni amalga oshirdi. Shekspir, Blok, Gorkiy, Thakur singari mashhur adiblar ijodidan qilgan tarjimalari xalqimiz ma'naviyatining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Cho'lpon haqiqat va hurlikni e'tiqodiga aylantirgan ijodkor edi. Shu sababli ham milliy zulmni milliy tenglik deb da'vo qilgan hukmdorlarga uning ijodi yoqmas edi. Ular shoirdan xalq baxtiyor, erkin va ozod yashamoqda deb kuylashni talab qilishdi. Haqiqat kuychisi va erk farzandi – Cho'lpon buni qilolmasdi. Shu bois uni o'zi sevgan, hayotini baxshida qilgan xalqqa dushman deb, millatchi deb e'lon qilishdi. Shoirni 1937-yilning 13-iyulida qamoqqa olishdi. O'zbekning buyuk shoiri uzoq qiynoq va tahqirlardan keyin 1938-yilning 4-oktabrida Toshkent yaqinidagi xilvat joylarning birida otib tashlandi. Dahshatlisi shundaki, Cho'lponni o'limga hukm qilgan sud qarori 1938-yilning 5-oktabrida chiqarilgan edi. Dushmanlar xalqimizning asl farzandlarini tezroq yo'q qilishga, odamlarni ma'naviyat buloqlaridan bebahra qoldirishga sho-shilardi.

Cho'lpon ijodi namunalari uzoq vaqt mobaynida o'quvchilardan berkitib kelindi. Chunki sho'ro tuzumi haq gapni aytadigan jasoratli shoir ijodini o'rganishdan manfaatdor emas edi. Lekin haqiqatni umrbod berkitib bo'lmaydi. Quyoshni yashirib qo'yishning imkoni yo'q. Cho'lpon o'zbek she'riyatining yorqin yulduzi sifatida o'tkinchi bulutlar pardasini yirtib tashlab, milliy she'riyat osmonida qayta porladi.

¹ *Egamanlik* – mustaqillik.

Qorong‘u kechada ko‘kka ko‘z tikib,
Eng yorug‘ yulduzdan seni so‘raymen.
Ul yulduz uyalib, boshini bukub,
Aytadir: men uni tushda ko‘ramen.
Tushimda ko‘ramen – shunchalar go‘zal,
Bizdan-da go‘zaldir, oydan-da go‘zal!

Ko‘zimni olamen oy chiqqan yoqqa,
Boshlaymen oydan-da seni so‘rmoqqa.
Ul-da aytadir: bir qizil yanoqqa
Uchradim tushimda, ko‘milgan oqqa.
Oqqa ko‘milganda shunchalar go‘zal,
Mendan-da go‘zaldir, kundan-da go‘zal!

Erta tong shamoli sochlarin yoyib,
Yonimdan o‘tganda so‘rab ko‘ramen.
Aytadir: bir ko‘rib, yo‘limdan ozib,
Tog‘- u toshlar ichra istab yuramen!
Bir ko‘rdim men uni – shunchalar go‘zal,
Oydan-da go‘zaldir, kundan-da go‘zal!

Ul ketgach, kun chiqar yorug‘lik sochib,
Undan-da so‘raymen sening to‘g‘ringda.
Ul-da o‘z o‘tidan bekinib, qochib
Aytadir: bir ko‘rdim, tushdamas, o‘ngda.
Men o‘ngda ko‘rganda shunchalar go‘zal,
Oydan-da go‘zaldir, kundan-da go‘zal!

Men yo‘qsil na bo‘lib uni suyibmen,
Uningchun yonibmen, yonib-kuyibmen,
Boshimni zo‘r ishga berib qo‘yibmen,
Men suyib... men suyib, kimni suyibmen?
Men suygan suyukli shunchalar go‘zal,
Oydan-da go‘zaldir, kundan-da go‘zal!



1. Nima sababdan go'zal yulduz bilan oyni o'nglarida emas, tushlarida ko'rindi deb o'ylaysiz?
2. Go'zalni Shamol bilan Kun qay holatda uchratganliklarini tasvirlab berishga urining.
3. **«Ul ketgach, kun chiqar yorug'lik sochib, Undan-da so'raymen sening to'g'ringda. Ul-da o'z o'tidan bekinib, qochib, Aytadir: bir ko'rdim, tushdamas, o'ngda»** satrlarining mazmunini izohlang. Uchinchi misradagi obrazli ifodaning badiiy vazifasini tushuntiring.
4. Shamolning «yo'lidan ozganligi» sababini izohlang.
5. **«Men suyib... men suyib, kimni suyibmen?»** misrasidagi takrorning badiiy vazifasini tushuntiring.
6. She'r Sizda qanday tuyg'ular uyg'otdi? Ko'nglingizdan o'tgan sezimlar haqida so'ylang.
7. She'rdagi Go'zal obrazini kim deb o'ylaysiz? Odam timsolimi, ozodlik ramzimi, baxtmi yoki taqdir ifodasimi?
8. She'rni yod oling.

XALQ

Xalq dengizdir, xalq to'liqdir, xalq kuchdir,
Xalq isyondir, xalq olovdur, xalq o'chdir...
Xalq qo'zg'alsa, kuch yo'qdirkim, to'xtatsin,
Quvvat yo'qkim, xalq istagin yo'q etsin.
Xalq isyoni saltanatni yo'q qildi,
Xalq istadi, toj va taxtlar yiqildi...

Xalq istagi – ozod bo'lsin bu o'lka,
Ketsin uning boshidagi ko'lanka.
Bir qo'zg'alur, bir ko'pirar, bir qaynar,
Bir intilur, bir hovliqar, bir o'ynar.
Yo'qlikni-da, ochlikni-da yo'q etar,
O'z yurtini har narsaga to'q etar...

Butun kuchni xalq ichidan olaylik,
Quchoq ochib xalq ichiga boraylik!



1. She'ning birinchi bandini diqqat bilan o'qing va xalqqa xos xususiyatlar badiiy jihatdan qanday aks etganligini anglating.
2. She'rdagi: «*Bir qo'zg'alur, bir ko'pirar, bir qaynar, Bir intilur, bir hovliqar, bir o'ynar*» misralarida xalqqa xos qanday sifatlar tasvirlanayotir deb o'ylaysiz?
3. Xalqning yaratuvchilik qudrati: «*Yo'qlikni-da, ochlikni-da yo'q etar, O'z yurtini har narsaga to'q etar...*» satrlarida qanday ifodalanganligiga e'tibor qiling.
4. She'ni yod oling.

BINAFSHA

Binafsha senmisan, binafsha senmi,
Ko'chada aqchaga sotilgan.
Binafsha menmanmi, binafsha menmi,
Sevgingga, qayg'ungga tutilgan?
Binafsha, nimaga bir ozroq ochilmay,
Bir erkin kulmasdan uzilding?
Binafsha, nimaga hidlaring sochilmay,
Yerlarga egilding, cho'zilding?
Binafsha,
Ayt menga,
Kimlardir, ularkim,
Ignani bag'ringga sanchalar?
Binafsha,
Bir so'yla,
U qanday qo'llarkim,
Uzalar, hidlaylar, yanchalar?
Binafsha, shunchalar chiroyli yuzing bor,
Nimaga uzoqroq kulmaysan?
Binafsha, shunchalar tortguvchi tusing bor,
Ko'nglimga isriqlik to'kmaysan?

Binafsha, yig'lama, binafsha, kel beri,
Qayg'ungni qayg'umga qo'shgil.

Binafsha, sen uchun ko'kragim erk yeri,
Bu yerdan ko'klarga uchgil.
Binafsha, go'zalim, qayg'ulim, kelmaysan,
Qayg'ung zo'r, qayg'umni bilmaysan,
Menga bir kulmaysan.

1922



Savol va topshiriqlar:

1. Binafsha obrazi qanday majoziy ma'noga ega deb o'ylaysiz?
2. She'rning: *«Binafsha senmisan, binafsha senmi, Ko'chada aqchaga sotilgan. Binafsha menmanmi, binafsha menmi, Sevgingga, qayg'ungga tutilgan?»* misralarida ifodalangan fikr va tuyg'ular haqida o'ylab ko'ring.
3. Binafsha obrazida lirik qahramon munosabati to'liq namoyon bo'lgan o'rinlarni toping va izohlang.
4. Azobli hayot ta'sirchan tasvirlangan satrlarni aniqlang va sharhlab bering.
5. She'rning uchinchi bandi dastlabki to'rt misrasidagi so'zlar miqdoriga e'tibor bering. Uni badiiy vazifasi jihatidan izohlashga harakat qiling.
6. *«Binafsha, sen uchun ko'kragim erk yeri»* misrasining mazmunini sharhlang.
7. She'rda shoir ruhiyatining ifodalanishiga e'tibor qiling.
8. She'rni yod oling.

BUZILGAN O'LKAGA

Ey, tog'lari ko'klarga salom bergan zo'r o'lka,
Nega sening boshing uzra quyuq bulut ko'lanka?
Ujmohlarning kavsaridek pokiza,
Sadaflarning donasidek top-toza.
Salqin suvlar tog'dan quyi tusharkan,
Tomchilari yomg'ir kabi ucharkan,
Nima uchun yig'lar kabi ingraylar?
Yov bormi, deb to'rt tarafni tinglaylar?
Tabiatning o'tini yo'q o'tida,
Sharaq-sharaq qaynab chiqqan buloqlar

Har qorong‘i, qo‘rqinch tunnning betida
Shifo istab kelmasin der, qo‘noqlar.

– Bu nega?

Ayt menga.

Ko‘m-ko‘k, go‘zal o‘tloqlaring bosilg‘on,

Ustlarida na poda bor, na yilqi,

Podachilar qaysi dorga osilg‘on?

Ot kishnashi, qo‘y ma‘rashi o‘rniga

– Oh, yig‘i,

Bu nega?

Tumorchalar, hamoyillar¹ taqingan,

Dalalarda lola bargi yopingan,

Tog‘-toshlarda o‘yin qilgan,

Chopingan

Go‘zal qizlar, yosh kelinlar qayerda?

Javob yo‘qmi ko‘klardan-da, yerdan-da,

Xarob bo‘lgan eldan-da.

Ot minganda qushlar kabi uchguvchi,

Erkin-erkin havolarni quchguvchi,

Ot chopganda uchar qushni tutguvchi,

Uchar qushday yosh yigitlar qayerda?

Tog‘ egasi: sor², burgutlar qayerda?

Sening qattiq sirt-bag‘ringni ko‘p yillardir ezganlar,

Sen bezsang-da, qarg‘asang-da, ko‘kragingda kezganlar,

Sening erkin tuprog‘ingda hech haqqi yo‘q xo‘jalar,

Nega seni bir qul kabi qizg‘anmasdan³ yanchalar?

Nega sening qalin tovshing⁴ «ket» demaydi ularga?

Nega sening erkli ko‘ngling erk bermaydi qo‘llarga?

Nega tag‘in tanlaringda qamchilarning kulishi?

Nega sening turmushingda umidlarning o‘lishi?

Nega yolg‘iz qon bo‘lmishdir ulushing?

Nega buncha umidsizdir turishing?

¹ *Hamoyillar* – qo‘ltiq tagidan o‘tkazib taqiladigan yomon ko‘zdan asrovchi toshli tumor, bezaktosh.

² *Sor* – qarchig‘aylar turiga mansub yirtqich qush.

³ *Qizg‘anmasdan* – ayamasdan.

⁴ *Qalin tovshing* – yo‘g‘on, qat‘iy tovushing.

Nima uchun ko‘zlaringda tutashguvchi olov yo‘q?
 Nima uchun tunlaringda bo‘rilarning qorni to‘q?
 Nima uchun g‘azabingni uyg‘otmaydi og‘u – o‘q?
 Nima uchun borlig‘ingda bu daraja buzg‘unlik?
 Nima uchun o‘ch buluti sellarini yog‘dirmas?
 Nima uchun kuch tangrisi bor kuchi-la soldirmas?
 ...Kel, men senga qisqagina doston o‘qiy,
 Qulog‘ingga o‘tganlardan ertak to‘qiy.
 Kel, ko‘zingning yoshlarini so‘rib olay...
 Kel, yarali tanlaringni ko‘rib olay, to‘yib olay...
 Nima uchun ag‘darilgan, yiqilgan
 Og‘ir tojning zahar o‘qi ko‘ksingda?
 Nima uchun yovlaringni bir zamon
 Yo‘q qilgunday temirli o‘ch yo‘q senda?
 Ey, har turli qulliklarni sig‘dirmagan, hur o‘lka,
 Nega sening bo‘g‘zingni bo‘g‘ib turar ko‘lanka?

1921



Savol va topshiriqlar:

1. She‘rning shu tarzda nomlanish sababini tushuntiring.
2. O‘lka tabiatining go‘zalligi va qismatining og‘irligi yorqin ifodalangan misralarni toping.
3. She‘rning: «*Nima uchun yig‘lar kabi ingraylar?*» misrasidagi ohangdorlikka e‘tibor bering va musiqiylikning sababini anglatning.
4. «*Tabiatning o‘tini yo‘q o‘tida, Sharaq-sharaq qaynab chiqqan buloqlar*» misralaridagi timsol va tashbihlarni sharhlang.
5. «*Shifo istab kelmasin der qo‘noqlar*» misrasidagi «*qo‘noqlar*» so‘ziga yuklangan ayricha ma‘noni izohlang.
6. She‘rda «*nega*», «*nima uchun*» kabi so‘roqni ifodalovchi so‘zlarning qayta-qayta ishlatilish sabablarini tushuntiring.
7. She‘rning boshdan oyoq bir xil o‘lchovda yozilmaganligi, she‘riy ohangdagi tovlanishlar sababini nimada deb o‘ylaysiz?
8. «*Qulog‘ingga o‘tganlardan ertak to‘qiy*» misrasining mazmunini va she‘riy vazifasini tushuntiring. Shoir qanday ertak aytmoqchi deb o‘ylaysiz?

Badiiy ijod talabiga ko‘ra ayrim so‘zlar tashiydigan ma‘no boshqa so‘zlarga ko‘chirilishini anglamay turib, ko‘rkam asarlarni tushunish, undan ta’sirlanish, lazzatlanish va tahlil qilish mumkin emas. Ko‘chim eng ko‘p ishlatiladigan badiiy vositalardandir.

Nutqni ta’sirchan qilish maqsadida «oltin kuz», «o‘tyurak», «olovqalb», «toshbag‘ir» kabi iboralar ishlatiladi. Holbuki, kuzning oltin emasligini, yurakning alangalanmasligini, jigarining toshdan bo‘lmasligi yaxshi ma‘lum. Ammo yuqoridagi iboralar yordamida anglatilgan ma‘no boshqa so‘zlar orqali ifodalansa, gap cho‘zilib ketadi va ta’sirchanligi yo‘qoladi.

Cho‘lponning «Buzilgan o‘lkaga» she’rida «Tog‘ egasi: sor, burgutlar qayerda?» – degan misra bor. Undagi «sor, burgut» so‘zlari o‘z ma‘nosida emasligi sezilib turibdi. Yoki «Binafsha» she’ridagi binafsha timsoli qanday ma‘no tashiyotgani to‘g‘risida o‘ylab ko‘raylik. She’rda shoirning ichki kechinmalari ko‘klam ko‘katiga qaratilganmi, xo‘rlangan qizgami yoki haqoratlangan yurtgami, ezilgan millatgami? Agar so‘z ma’nolarining ko‘chishini anglamasak, she’rning joziba kuchi yo‘qqa chiqaveradi. Chunki anglanmagan go‘zallik go‘zallik bo‘la olmaydi.

Yozuvchilar biror so‘zga xos ma‘noni boshqasiga yuklar, unga ko‘chirar ekanlar, xayollariga kelganday, tavakkaliga ish tutavermaydilar. Agar shunday qilinsa ijodkorlarni tushunib bo‘lmay qolardi. Ma‘no ko‘chirishda narsa-hodisalar o‘rtasida yo ichki, yo tashqi, yo mazmun o‘xshashligi, aloqadorligi bo‘lishi shartdir. Bu jihatdan ko‘chimlar o‘xshatishga yaqin turadi. Lekin asosiy farq shundaki, o‘xshatishda o‘xshagan buyum ham, o‘xshatilgan narsa ham ifodalangan bo‘ladi. Ko‘chimda esa ba’zan o‘xshagan narsa, ba’zan o‘xshatilgan narsa ifodalanib, ikkinchi qismdagi ma‘no birinchisiga ko‘chirilgan bo‘ladi.

Ko‘chim qudratli ko‘rkam tasvir vositasi bo‘lib, u kitobxonning tasavvur olamini kengaytiradi, tasvirlanayotgan

tuyg'ularni bevosita his qilishga, asar qahramonlari hola-tini tuyishga yordam beradi. Shunday qilib, *ko'chim so'zni ko'chma ma'noda qo'llash yoki narsa-hodisaga xos sifatlarni qaysidir jihat bilan shularga o'xshaydigan boshqa narsa-hodisalarga ko'chirish san'atidir.*

Adabiyotshunoslik ilmida ko'chimning *majoz, istiora, ramz* singari ko'rinishlari bo'ladi.

Majoz adabiy asarda o'quvchiga noaniqroq bo'lgan tushunchani ko'pchilikka ma'lum bo'lgan narsalarga xos belgilar bilan ifodalashdir. Gulxaniyning «Tuya bilan bo'taloq», «Maymun bilan najjor», «Toshbaqa bilan chayon» asarlarida insonlarga, ayrim ijtimoiy tabaqalarga xos xususiyatlarning hayvon obrazlariga ko'chirilishi majozning yorqin namunasidir.

Ramz ham ko'chimning keng tarqalgan turlaridan biridir. O'quvchi anglashi murakkabroq bo'lgan mavhum axloqiy-ma'naviy sifatning shu sifatlarga ko'proq ega bo'lgan narsa va jonivorlar orqali ifodalanishiga **ramz** deyiladi. Ramz adabiyotshunoslik fanida timsol yoki simvol atamalari bilan ham yuritiladi. O'zbek mumtoz adabiyotida may – hayot ramzi, gul – ma'shuqa ramzi, burgut – mag'rurlik ramzi, chumoli – mehnatsevarlik, tirishqoqlik ramzi va h.k. tarzida qadimdan qo'llanib keladi.

Ko'chimning ko'p ishlatiladigan ko'rinishlaridan biri **istioradir**. Istiorada biror narsa-hodisaga xos xususiyatlarni boshqa bir narsa-hodisaga ko'chirish orqali badiiy ma'no ifodalanadi. Lekin bu ko'chirishda tashqi o'xshashlik asosiy o'rin tutmaydi. Balki o'xshatilayotgan va o'xshayotgan narsa-hodisalar orasidagi ichki mantiqiy bog'lanishga, yaqinlikka, vazifalardagi umumiylikka tayaniladi. Istiorani qisqargan ko'rinishdagi o'xshatish deyish mumkin.

Cho'lponning «Binafsha» she'rida «Binafsha, sen uchun ko'kragim erk yeri, Bu yerdan ko'klarga uchgil» tarzida ifodilangan misralar bor. Unda «vatan» tushunchasi «ko'kragim» so'zi bilan, «ozod yurt» tushunchasi «erk yeri» so'zlari bilan ifoda etilgan.



Abdulla Qahhor

(1907–1968)



O'zbek adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan adib Abdulla Qahhor 1907-yil 17-sentabrda Qo'qonda dunyoga keldi. Otasi Abduqahhor temirchi tirikchilik o'tkazish uchun Qo'qon atrofidagi Buvayda, Yaypan, Oqqo'rg'on, Qudash, Olqor qishloqlarining biridan ikkinchisiga ko'chib yurar, oila biror qishloqda uzoqroq qo'nim topmasdi. Bo'lajak yozuvchi dastlabki ma'lumotni Buvaydagi eski maktabda oldi. So'ng Oqqo'rg'on qishlog'idagi jadid maktabida tahsil ko'rdi. Sal keyinroq Qo'qondagi yotoq-maktabda o'qidi. 1922–1924-yillarda Qo'qondagi o'qituvchilar tayyorlash texnikumida tahsil ko'rdi.

Abdulla Qahhor 1925-yili Toshkentga kelib, kechasi o'qib kunduzlari «Qizil O'zbekiston» gazetasida ishladi. U 1930-yilda O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zMU)ning pedagogika fakultetini tugatdi.

A.Qahhor ijodi 1924-yilda boshlangan. Dastlab «Mush-tum» jurnal, «Yangi Farg'ona» va «Qizil O'zbekiston» gazetalarida uning hikoya, felyeton va xabarlar bosildi. Abdulla Qahhorga katta shuhrat keltirgan «Sarob» romani 1934-yilda yozildi.

Yozuvchi «Qo‘shchinor chiroqlari» (1951) romani, «Shohi so‘zana» (1951), «Og‘riq tishlar» (1954), «Tobutdan tovush» (1962), «Ayajonlarim» (1967) komediyalari bilan o‘zbek adabiyoti rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi. Adibning «Sinchalak» (1958), «Muhabbat» (1968), «O‘tmishdan ertaklar» (1965) qissalari o‘zbek nasri taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi.

Mashhur hikoyanavis, qisqa so‘zda ko‘p ma’no ifodalash mahorati egasi Abdulla Qahhor 1968-yilning 25-mayida vafot etdi.

O‘G‘RI

Otning o‘limi – itning bayrami.

Maqol

Kampir tong qorong‘isida xamir qilgani turib ho‘kizidan xabar oldi. O!.. Ho‘kiz yo‘q, og‘il ko‘cha tomondan teshilgan... Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho‘kizi yo‘qolmasin. Bir qop somon, o‘n-o‘n beshta xoda, bir arava qamish – uy, ho‘kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo‘yish kerak bo‘ladi.

Kampir dod soldi. Odamlar dod ovozig a o‘rganib qolgan: birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi... Ammo kampirning dodiga odam tez to‘plandi.

Qobil bobo yalangbosh, yalangoyoq, yaktakchan og‘il eshigi yonida turib dag‘-dag‘ titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi, ko‘zlari javdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko‘rmaydi. Xotinlar o‘g‘rini qarg‘aydi, it huradi, tovuqlar qaqag‘laydi. Kimdir shunday kichkina teshikdan ho‘kiz sig‘ishiga aql ishonmasligi to‘g‘risida kishilarga gap ma’qullaydi.

Qobil boboning qo‘shnisi – burunsiz ellikboshi kirdi. U og‘ilga kirib teshikni, ho‘kiz bog‘langan ustunni diqqat bilan ko‘zdan kechirdi, negadir ustunni qimirlatib ham ko‘rdi, so‘ngra Qobil boboni chaqirdi va pang tovush bilan dedi:

– Ho‘kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi.

Uning ogʻilga kirib qilgan taftishi Qobil boboga bir umid bagʻishlagan edi, bu soʻzi haddan ziyoda sevintirdi. Chol yigʻlab yubordi.

– Xudo xayr bersin... Ola hoʻkiz edi...

Odamlar oʻgʻri devorni qachon va qanday asbob bilan teshgani, hoʻkizni qaysi tomonga olib ketgani, uni qaysi bozorda sotishi mumkin ekanligi toʻgʻrisida bahslasha-bahslasha tarqaldi. Gʻovur bosildi. Qobil boboning kampiri yigʻidan toʻxtab, ellikboshini duo qila ketdi.

Ellikboshi oʻgʻri teshgan yerni yana bir koʻrdi. Qobil bobo qoʻl qovushtirib, uning ketidan yurar va yigʻlar edi.

– Yigʻlama, yigʻlama, deyman! Hoʻkizing oq poshsho qoʻl ostidan chiqib ketmagan boʻlsa, topiladi.

Ellikboshi hoʻkizni juda naqd qilib qoʻydi – goʻyo u koʻchaga chiqsa bas – hoʻkiz topiladi. Bu «xudo yallaqagur» shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozim-da. Te-kinga mushuk oftobga chiqmaydi. Bu odam ellikboshi boʻlish uchun ozmuncha pul sochganmi? Mingboshining bir oʻziga yetti yuz bogʻ beda, bir toy bergani maʼlum. Poshsholikdan oylik yemasa! Qobil bobo hamyonini qoqishtirib, borini ellikboshiga berdi, yana qancha duo qildi. Ellikboshi betoʻxtov aminga xabar qilmoqchi boʻlib chiqib ketdi.

Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradigan boʻldi. Quruq qoshiq ogʻiz yirtadi, aminga qancha pul olib borsa boʻladi? Berganga bitta ham koʻp, olganga oʻnta ham oz. Chol-kampir kengashib shunday qarorga kelishdi: bu chiqim oxirgi va hoʻkizni boʻynidan bogʻlab beradigan chiqim, shuning uchun pulning yuziga qarash aqldan emas.

Qobil bobo roʻpara boʻlganda amin ogʻzini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bagʻbaqasini osiltirib kuldi.

– Ha, sigir yoʻqoldimi?

– Yoʻq... sigir emas, hoʻkiz, ola hoʻkiz edi.

– Hoʻkizmi? Hoʻkiz ekan-da. Hmm... Ola hoʻkiz? Tavba...

– Bor-yoʻgʻim shu bitta hoʻkiz edi...

Amin chinchalogʻini ikkinchi boʻgʻinigacha burniga tiqib kuldi.

– Yo‘qolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa ho‘kiz edi?
– Ola ho‘kiz...
– Yaxshi ho‘kizmidi yo yomon ho‘kizmidi?
– Qo‘sh mahali...
– Yaxshi ho‘kiz birov yetaklasa keta beradimi?
– Bisotimda hech narsa yo‘q...
– O‘zi qaytib kelmasmikin!.. Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo‘yilmagan ekan-da! Nega yig‘lanadi? A? Yig‘lanmasin!

Qobil bobo yerga qarab tek qoldi.

– Qidirtirsakmikin-a? – dedi amin chinchalog‘ini etigining ostiga artib. – Suyunchisi nima bo‘ladi? Suyunchidan chashna olib kelinmadimi?

Aminning bu gapi Qobil boboga «Ma, ho‘kizing», – deganday bo‘lib ketdi.

– Kam bo‘lmang, – dedi pulni uzatib, – yana xizmatingiz-daman.

– Men beto‘xtov pristavga xabar beraman. O‘zi chaqirtiradi.

Bir hafta o‘tdi. Bu bir hafta ichida kampir «duoning zo‘ri bilan qulf ochadigan» azayimxonga obdastagardon qildirgani qatnab, yarim qop jiyda, uch yelpishtovoq¹ jo‘xori, ikki kalava ip eltdi, ammo ish chiqmadi. Sakkizinchi kuni Qobil bobo yana aminning oldiga bordi. Aminning tepa sochi tikka bo‘ldi:

– Ha, ho‘kizni uylariga eltib berilsinmi? Axir, borilsin, arz qilinsin-da! Fuqaroning arzga borishi arbobning izzati bo‘ladi!

Qobil bobo yor-do‘stlar bilan kengashdi – pristavga puldan boshqa nima olib borsa bo‘ladi? Ma‘lum bo‘ldiki, uni begim deguncha kishining beli sinar ekan.

Uchta tovuq, garchi biri kurk bo‘lsa ham, Qobil boboning o‘zidan chiqdi. Yuzta tuxumni qo‘ni-qo‘shni, yor-bi-rodarlar o‘zaro yig‘ib berdi. Ammo bu tortiq bilan tilmochedan nari o‘tib bo‘lmadi. Tilmocho tortiqni oldi va beto‘xtov

¹ *Yelpishtovoq* – don yelpishga mo‘ljallangan katta yassi tovoq.

pristavga yaxshilab tushuntirishni va'da qildi. Cholning butun bo'g'inlari bo'shashib ketdi, keyin tutoqishdi, ammo go'rda bir narsa deya oladimi? «O'ynashmagil arbob bilan – seni urar har bob bilan». «Yaxshilab tushuntirilgan» pristav bitta kulangir, bitta farangi tovuq, uch so'm pul olganidan keyin Qobil boboning baxtiga: «Beto'xtov hokimga xabar bera-man», – demasdan: «Aminga bor», – deb qo'ya qoldi. Amin: «Ellikboshiga borilsin», – dedi.

– Gumoningizni ayting bo'lmasa! – dedi ellikboshi tajang bo'lib. – Kim olganini men bilmasam, avliyo bo'lmasam! Olgan odam allaqachon so'yib saranjomladi-da! Uzoq demasangiz, erinmasangiz ko'nchilikka borib terilarni bir qarab chiqing. Ammo terisi ko'nchilikka tushgan bo'lsa, allaqachon charm bo'ldi; xudo biladi, kavush bo'lib bozorga chiqdimi...

– Endi bizga juda qiyin bo'ldi-da. Peshonam sho'r bo'lmasa... – dedi chol yerga qarab.

– Ey, yosh bolamisiz! Nega yig'laysiz? Kap-katta odam... Bitta ho'kiz bo'lsa bir gap bo'lar, xudo ajalga to'zim bersin! Men qaynatamga aytayin, sizga bitta ho'kiz bersin. Bitta ho'kiz odamning xunimi?

Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynatasi – Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko'p achindi va yerini haydab olgani bitta emas, ikkita ho'kiz berdi, lekin «kichkinagina» sharti bor. Bu shart kuzda ma'lum bo'ladi...



Savol va topshiriqlar:

1. Nima uchun yozuvchi «*Otning o'limi – itning bayrami*» maqolini epigraf qilib olgan deb o'ylaysiz?
2. Hikoyada «*Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin*» jumlasining ishlatilish sababini aniqlang, jumlaning mazmunini izohlang.
3. Qobil boboning holati tasvirlangan o'rinlarga e'tibor qiling. Nega u «*dag'-dag' titraydi?*»

4. Ellikboshining o‘zini tutishiga diqqat qiling. Og‘ilni taftish qilishdan uning maqsadi nima edi?
5. Hikoya boshida Qobil boboni sensiragan ellikboshi hikoya yakunida nima sababdan unga «*siz*»lab gapirdi deb o‘ylaysiz?
6. Cholning ellikboshiga pul berganligi sababini tushuntiring. U so‘ramagandi-ku?
7. Hikoyadagi asosiy qahramonning Qobil bobo deb atalishiga e‘tibor qildingizmi? Bu nomda biror yashirin ma‘no bormi?
8. Hikoya nima uchun «*O‘g‘ri*» deb nomlangan? O‘g‘ri deganda muallif kimlarni ko‘zda tutgan deb o‘ylaysiz?

DAHSHAT

Yaqin ikki haftadan beri ko‘z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g‘uvullaydi; tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi.

Bunday kechalarda odamzod qo‘ymijoz, g‘uj bo‘lib va nimanidir kutib jimgina o‘tirishni xohlab qoladi.

Olimbek dodxoning¹ sakkiz xotini katta kundosh Nodir-mohbeginning uyiga yig‘ilib, sandal atrofida o‘tirishar edi. Dodxo har kecha taroveh namozidan keyin halqaga² qolar edi, bu kecha erta qaytdi. Hamma to‘zidi: xotinlardan biri sal-lasini oldi, biri chakmoniga qo‘l uzatdi, biri mahsisini tortgani chog‘landi... Kundoshlarning eng kichigi – bu dargohga tushganiga besh oygina bo‘lgan kelinchak – ganjiravonlik Unsinoy chilim solib tutdi. Dodxo chilimni bir marta, lekin juda qattiq tortdi-yu, yasov tortib turgan xotinlariga e‘tibor qilmay, to‘rga o‘tdi va darchani jindakkina qiya qilib, bir ko‘zi bilan tashqariga qaradi. Shamol goh och bo‘riday uvullar, goh o‘lim changaliga tushgan mushukday pixillar, vag‘illar, hech narsa-hech narsa ko‘rinmas edi.

¹ *Dodxo* – ariza qabul qiluvchi amaldor, mingboshi.

² *Halqa* – taroveh namozi qatnashchilarining ommaviy qur‘onxonlik marosimi.

Dodxo darchani zichlab yopdi, joyiga borib tasbeh o'g'irishga kirishdi. Uning barmoqlari tasbeh donalarini tez-tez o'girayotgan bo'lsa ham, qulog'i guvullayotgan shamolda, xayoli go'ristonda edi: «Hozir go'riston qanaqa vahimali bo'lsa ekan...»

O'zbek go'ristoni o'zi xunuk, buning ustiga, go'riston haqida aytilmagan xunuk gap, to'qilmagan vahimali mish-mish gap qolgan emas. Haqiqatan, bunday kechalarda go'riston esiga tushgan har qanday odam, ayniqsa, dodxo singari payg'ambar yoshidan oshib, kafanligini sandiqqa solib qo'ygan kishi o'lishdan ham ko'ra go'ristonda yotishni o'ylaganida tiligacha sovuq ter chiqaradi.

Dodxo go'riston xayolini boshidan chiqarish uchun tasbehni qo'yib undan-bundan gapirgan bo'ldi, lekin hech kim bu gaplarga gap ulamadi.

Shamol bir xuruj qilganida nimanidir keltirib darchaga urdi. U narsa darchani tirmalaganicha sidirilib pastga tushib ketdi. Hamma o'tirgan yerida go'yo bir qarich cho'kkanday bo'ldi va tin olmay bir-biriga qaradi. Dodxo xotinlariga, ulardan ham ko'ra o'ziga taskin berish uchun o'rnidan turib, darchaning bir tomonini ochdi. Darchadan kirgan shamol osma chiroqni lipillatdi, tebratdi. Dodxo pastga qaradi va suyunib ketganday:

– Bo'ya, bo'ya ekan! – dedi va darchani zich yopib yana joyiga o'tirdi.

Bo'ya odatda tobutga solinadigan bo'lganidan, dodxo-ning ko'z oldiga odamlarning yelkasida lapanglab ketayotgan tobutni keltirdi. Tobut esa yana go'ristonni eslatdi, go'riston haqida bolaligidan qulog'ida qolib kelgan vahimali gaplarni, hodisalarni jonlantirib yubordi. Dodxo bu xayollarni yengish uchun go'riston vahimalaridan o'zi so'z ochdi va ikki og'iz gapning birida o'zining dovyurakligini xotinlariga, ulardan ham ko'ra o'ziga pisanda qila ketdi.

Gapdan gap chiqib Nodirmohbegim bir voqeani aytib berdi.

– Bola edim. Rahmatli dadam gap yer edilar. Bir meh-

monxona yigit... Mana shunaqa shamol kechasi ekan. «Hozir kim go‘ristonga borib, Asqar ponsotning¹ go‘riga pichoq sanchib keladi?» – degan gap bo‘lipti. Shunda bir kishi pichog‘ini qinidan sug‘urib: «Men sanchib kelaman», – depti. Bitta qo‘ydan garov bog‘lashib yo‘lga tushipti. Jo‘ralari hali kutishar emish – yo‘q, hali kutishar emish – yo‘q; tong otip-ti, uyida ham yo‘q emish; go‘ristonga borib qarashsa, Asqar ponsotning go‘ri oldida o‘lib yotgan emish! Bechora go‘rga pichoq sanchganida etagini qo‘shib sanchgan ekan, qaytay desa etagidan birov tortganday bo‘lgan-da...

Hammaning eti jivillashib ketdi. Uzoq jimlikdan keyin Unsin yonida o‘tirgan kundoshiga shivirlab:

– O‘lsin, nokas odam ekan, bitta qo‘yni deb... Koshki arziydigan narsa bo‘lsa!.. – dedi.

Bu gapni dodxo eshitib qoldi. Uning nafsoniyati qo‘zg‘adi. Dodxoday odam go‘riston deganda tizzasi qaltirasa, birov «olamga podsho qilaman» degan taqdirda ham bormasa, borolmasa-yu, bu qiz mushtday boshi bilan «arziydigan narsa bo‘lsa men boraman», – desa!

Dodxo g‘ashi kelib Unsinni masxara qildi:

– Obbo, tegirmonchining qizi!.. Bitta qo‘yni nazarlari ilmaydi! Nechta qo‘y bo‘lsa arzir edi? Sen o‘zing o‘nta qo‘y bersam pichoq sanchib kelasanmi? Yuzta qo‘y, davlatimning yarmini bersam borasanmi?

Unsinoy bozvantidagi² tangalarni o‘ynab:

– Menga davlat kerak emas, davlat kerak bo‘lsa borar edim, – dedi.

Bu gap dodxoga tegib ketdi.

– Nima kerak?

Unsin indamadi. Dodxoning savoli javobsiz qolishi mumkin emas edi. Shuning uchun bittasi gunoh qilsa, hammasi baravar kaltak yeydigan kundoshlar Unsinni turtkilashdi.

– Javob bersang-chi!

– Tildan qoldingmi?!

¹ Ponsot – askarboshi, qo‘rboshi.

² Bozvant – ayollar sochiga taqiladigan bezak, sochpopuk.

Yonida o'tirgan kundoshi biqiniga ikki-uch marta turtgan-dan keyin Unsin boshini ko'tarib, balo-qazoday tikilib turgan dodxoga bir ko'z tashladi-yu, yana boshini egib, lekin dadil javob berdi:

– Javob bersangiz... Ganjiravonga ketsam... Bitta go'rga bitta pichoq emas, o'nta go'rga o'nta pichoq sanchib kela-man... – dedi.

Uning maqsadini kundoshlar darrov fahmlashdi. Lekin dodxo bunday gapni sira kutmagani uchun yanglish tushundi.

– Tag'in nima qilasan Ganjiravonda, borib kelganingga ikki oy ham bo'lgani yo'q-ku!

Nodirmohbegim sandal ichidan oyog'ini uzatib Unsinning boldirini chimchiladi, ko'zi bilan: «Xayriyat tushunmadi, bas, gapirma», – deb ishora qildi. Biroq Unsin jonidan kechgan kishining shijoati bilan dodxoga tik qaradi.

– Yo'q, men butkul ketsam deyman, javobimni bersangiz demoqchiman.

Gapni aytgan Unsin-u, boshqalar o'tirgan joyida yerga qapishib ketdi. Biroq dodxo hammaning kutganiga qarshi, qo'liga qamchi olib Unsinni «qayering qichidi»ga solmadi, aksincha, zaharxanda bilan bo'lsa ham muloyim gapirdi:

– Shunaqami?.. Xo'p mayli, aytganing bo'la qolsin, – dedi va biroz o'ylanib turib, g'ijinganini yashirolmay ilova qildi. – Lekin go'ristonga pichoq emas, qumg'on olib borasan. On-hazratim sag'anasi oldida qumg'on qaynatib, bitta choy dam-lab kelasan, maylimi?

– Mayli, mayli! – dedi Unsin ko'zlari javdirab, – lekin lafzingizdan qaytmaysiz...

Dodxoning dami ichiga tushib ketdi. Bir gadovachchaning bu dargohdan ketishga oshiqishi unga haqorat bo'lib tushdi. Endi Unsinni tilab olish uchun biron so'z aytishga hech kim, hatto go'ristondan uning o'ligi kelishiga ko'zi yetib, ichida faryod chekayotgan Nodirmohbegim ham jur'at qilolmay qoldi.

Dodxoning oppoq uzun soqoli, tovushi titradi.

– Xo'p, lafzimdan qaytmayman, mana xotirjam bo'la qol:

men hozir seni bir taloq qo'ydim, qaytib kelganingdan keyin uch taloqsan! Bor, qumg'onni ko'tar!..

Unsin dodxodan darrov yuzini berkitganicha chiqib ketdi. Nodirmohbegim qo'lidan boshqa ish kelmaganidan keyin, hech bo'lmasa Unsinning yuragiga quvvat bo'ladigan bir-ikki og'iz so'z aytish maqsadida ketidan chiqmoqchi bo'lgan edi, dodxo bir xo'mrayib joyiga o'tqazib qo'ydi. Kundoshlar bitta-bitta oyoq uchida yurib chiqib ketishdi.

Unsin uyiga kirdi, paranji-chimmatini yopindi, qumg'onga suv to'ldirib, choynakka choy soldi-yu, jo'nadi.

Ko'r oydin. Osmonning chekkasi sariq – kir uvadaga o'xshaydi. Bu kir shu'la qo'ynida past-baland uylar, shamolda egilayotgan, tebranayotgan daraxtlar qop-qora ko'rinadi. Pishqirayotgan shamol har xuruj qilganida Unsinni tentiratar, talay joyga surib tashlar edi. Unsin paranji-chimmatini qo'liga olgandan keyin yo'l yurish osonroq bo'ldi.

Go'riston to'g'risida dodxo nimalar eshitgan bo'lsa, Unsin ham shuni eshitgan, shamol kechasi dodxo xayolida go'riston qandoq dahshatli bo'lsa, uning xayolida ham shunday dahshatli, lekin shundoq bo'lsa ham, tiriklar go'ristoni bo'lgan bu dargohning dahshati oldida o'liklar go'ristonining dahshati unga dahshat ko'rinmas, bundan tashqari, ertagayoq Ganjiravonga jo'nash, ota-onasini, dugonalarini ko'rish umidi uning boshiga hech qanday fikr-xayolni yo'latmas edi.

Unsin xuddi dadasidan katta hayitlik olib bozorboshiga ketayotgan yosh boladay chopqillab, qarshisidan esayotgan shamolga so'z bermay, ba'zan irg'ishlab borar edi; biroq go'riston ko'chasiga burilib, salobat bilan tebranayotgan qop-qora chinor ostida oqarishib turgan sag'analarni¹, belgisiz zulmatni ko'rganda yuragi uvishdi-yu, zovur ko'prigidan o'tib, ikki qadam yurgancha to'xtab qoldi. Dahshat uning yuragiga raxna soldi: Ganjiravon, ota-onasi, dugonalari xayolidan ko'tarilib, ko'z oldiga oppoq kafanga o'ralib sag'ana va go'rlar atrofida yelib yurgan arvohtar keldi. Uning eti ji-

¹ *Sag'ana* – qabr ustiga qurilgan maqbara.

virlashib, sochi boshidagi ro‘molini bir qarich ko‘targanday bo‘ldi. Unsin beixtiyor bir qadam orqaga chekindi, lekin shu ondayoq xuddi o‘likdan qo‘rqmasligini birovga pisan-da qilayotganday, baqirib: «O‘likning joni yo‘q, o‘likning joni yo‘q!» – deb olg‘a intildi, shu yugurganicha chinor ostidagi Onhazratim sag‘anasi oldida to‘xtadi; choynak bilan qumg‘onni oyog‘i ostiga qo‘ydi, paranji-chimmatini bir chek-kaga tashladi, ichida: «Ko‘pi ketib ozi qoldi» – deb suyundi. Biroq uning suyungani behuda edi: hamma narsani olibdi-yu, eng zaruri – o‘tin esidan chiqibdi! Har sag‘anadan bir qo‘l, har go‘rdan bir tovush chiqishini kutib o‘tin qidirish vahi-masi uning yuragiga yana raxna sola boshladi. Unsin o‘ziga-o‘zi baland tovush bilan yana: «O‘likning joni yo‘q!» – dedi. Hozir diliga bitta odamchalik quvvat bo‘layotgan bu gapni og‘zidan qo‘ymay, sag‘ana va go‘rlarni oralab o‘tin qidirdi; paypaslanib, qo‘liga ilingan narsani etagiga soldi, qamish sindirdi, yantoq, giyoh yuldi, qo‘llari qonab ketganini ham payqamay, topgan-tutganini keltirib o‘t yoqdi. O‘t chirsillab-qirsillab birpasda gurkiradi, shamolda to‘lg‘anayotgan tutun aralash alanganing qizg‘ish shu‘lasidan qorong‘ilik lipillab, uzoq-yaqinda do‘ppayib turgan go‘rlar, xuddi birov tuproqni ko‘tarib chiqayotganday harakatga keldi.

Unsin yana o‘tin qidirdi, lekin har safar o‘tin qalaganda alanganing gurkirashi, chirsillashi mudrab yotgan arvohlarni uyg‘otib yuborishidan qo‘rqqandan uning ustiga o‘zini tash-laguday bo‘lardi.

Nihoyat qumg‘on qaynadi. Unsin naridan beri choy damla-di, quruq yantoq va qamishlarga o‘t ketmasin uchun o‘tni tep-kilab o‘chirdi; o‘ng qo‘lida choynak, chap qo‘lida qumg‘on, o‘tning shu‘lasidan ko‘zi hanuz qamashib borar ekan, bir joyda yer o‘pirilib, chap oyog‘i taqimigacha botib ketdi va oyog‘ining uchi yumshoq bir narsaga tekkanday bo‘ldi. Un-sin boyagi gapni duoday tez-tez qaytarib, qo‘rquvni o‘ziga yo‘latmayotgan bo‘lsa ham, ko‘ngliga: «O‘likning qorni-mikin?» – degan gaplar keldi-yu, yuragi orziqib oyog‘ini dar-rov sug‘urib oldi va chuqurda qolgan bir poy kavushini ol-

gani yurak qilolmay, mahsichan ketaverdi. Unsin bir necha qadam bosgandan keyin paranji-chimmati sag‘ananing oldida qolganini eslab to‘xtadi, lekin qaytib borgani botinolmadi, hozir qaytish emas, qayrilib qaragani ham yuragi dov bermas, nazarida hamma o‘liklar sag‘analardan, go‘rlardan boshini chiqarib, ketidan qarab turganday edi.

Unsin nima qilishini bilmay turib qoldi. Shu asnoda kattakon bir sag‘ananing ichidanmi, naryog‘idanmi allaqanday bir tovush eshitildi-yu, hayal o‘tmay nimadir kelib Unsinning yelkasiga minib oldi, aftidan bo‘g‘moqchi bo‘lib qo‘l uzatdi. Unsin ko‘kragiga nihoyatda og‘ir bir narsa bilan urilganday ko‘ngli ozib tentirab ketdi-yu, yiqilmadi, lekin oyoq uzra turib hushidan ketdi; oradan qancha vaqt o‘tganini bilmadi, ko‘zini ochib qarasa jonivor yelkasidan tushibdi, emaklab bo-yagi sag‘ananing orqasiga o‘tib ketdi. Unsin telba bir ahvolda bo‘lsa ham fahmladi: maymun! Dodxoning maymuni! Maymunni dodxoning o‘zi olib kelmagandir, birovdan berib yuborgan! Dunyoda dodxoday berahm odam yana bor ekanmi!

Unsin yelkasiga maymun mingan daqiqalarda naqadar qo‘rqqan bo‘lsa, hozir shu qadar tinchidi, xotirjam bo‘ldi: demak, qandoq berahm bo‘lsa ham shu atrofda odam bor!

Unsin go‘ristondan chiqib, katta yo‘lga tushib oldi, yarim yo‘lga borganda chap qo‘liga qattiq og‘riq kirganini sezdi. Og‘riq qumg‘onni eslatdi. Chap qo‘lida qumg‘on bor edi, qani? Unsin bir to‘xtadi-yu, choynakni ikkala qo‘li bilan bag‘riga bosib, darmoni yetguncha jadalladi. Tushida yugurganday uning yo‘li ko‘paymas, ikki oyog‘i gavdasidan keyinda qolar, qo‘lidagi choynak tobora og‘irlashib borar edi.

Unsin Nodirmohbeginning og‘ir eshigini zo‘rg‘a ochdi, ostonadan o‘tib bir necha qadam bosgandan keyin holdan toyib cho‘kkaladi va ne mashaqqat bilan intilib, jo‘mragidan choy oqib bug‘lanayotgan choynakni sandalning bir chekkasiga qo‘ydi, umrlik orzusi ushalganday, hordig‘i chiqib, o‘zini yerga tashladi. Sandalda o‘tirib pinakka ketgan dodxo uyg‘onib tamshandi, boshini ko‘tarib Unsinni ko‘rdi-yu, «jon berayotibdi», deb o‘yladi shekilli, ko‘zlari olaydi, undan ko‘zini olmay

sekin oʻrnidan turdi, xuddi oʻlim xavfidan qochganday, bir irgʻib sandaldan oshdi-da, oʻzini eshikka urdi...

Unsin hushidan ketgan ekan, bir vaqt koʻzini ochib qarasa, sandalning chetida chalqancha yotibdi, tepasida Nodirmohbegim yigʻlab oʻtiribdi. Uning oʻng koʻzi momataloq boʻlib shishib ketgan, oq doka roʻmolining u yer-bu yeriga qon tekkan edi. Unsin Nodirmohbegimga koʻzi tushgan zamoni undan dodxoning lafzi lafzmi ekanini soʻramoqchi boʻlib edi, uning ahvolini koʻrib, eshitarlar-eshitilmas:

– Sizga nima boʻldi? – dedi.

Nodirmohbegim Unsinning yosh joniga rahm qilishini, uni qaytarishni soʻrab dodxoga yolvorganida dodxo uni tutib olib xoʻp urgan edi. Nodirmohbegim Unsinning savoliga javob bermadi, tovush chiqarmay yana ham qattiqroq yigʻlab, uning boshini siladi, yuzini yuziga qoʻydi; soʻng oʻsha chogʻi odam yuborib goʻristondan oldirgan ikki chimdim tuproqni yarim piyola suvga chayib Unsinga tutdi.

– Ich, jigarim, qoʻrqqansan... Goʻristonda qoʻrqqanga goʻristonning tuprogʻi davo boʻladi.

Unsin piyoladagi loyqa suvni darrov ichdi, xiyla yengil tortganday boʻldi.

– Mendan qaytmasa, xudodan qaytsin... Endi Ganjiravonga ketarmikanman?

– Ketasan, – dedi Nodirmohbegim yigʻlab, – sal oʻzingga kelgin, ketasan...

Unsinning chaqnab ketgan koʻzlarida yosh yiltiradi.

– Men tuzukman... Peshingacha tuzalaman, joʻnasam boʻladi... Ganjiravonga odam yuborsangiz... Ota-onam boʻrishimni harna ertaroq eshitsa, harna ertaroq suyunsa...

Nodirmohbegim yana kaltaklashlaridan hayiqmay Ganjiravonga bir xizmatkorini yubordi.

Biroq Unsin peshingacha yetmadi – uzildi.

Shom qorongʻisida uning jasadini qizil koʻrpaga oʻrab aravaga solishdi. Shamol hamon guvullar, yaydoq daraxtlarning shoxida chiyillar, gʻuvullar edi.

Darvozadan boshida paranji va qo'lida oq tuguncha Nodirmohbegim chiqdi. U darvozaga yuzini o'girib, cho'nqaydi, ikki qo'lini fotihaga ochib bir nimalar dedi. Dodxoning o'zi bilan birga bu dargohni yerning qa'riga yuborganday ikkala mushtini uch marta yerga qadadi; keyin: «Bu dargohni endi yelkamning chuquri ko'rsin», – deganday bir harakat bilan keskin burilib, aravaga chiqdi, marhumaning bosh tomoniga o'tirdi.

Arava jo'nadi, shahar qo'rg'onidan chiqqanda kunduzi Nodirmohbegim yuborgan xizmatkor Ganjiravondan qaytib kelmoqda edi.



Savol va topshiriqlar:

1. Hikoyaning dastlabki jumllarini qayta o'qing. Kuzak shamolining vahimasi aks ettirilgan o'rinlarga alohida e'tibor qiling.
2. Tabiatdagi qudratli notinchlik bilan odam tabiatidagi «jim-gina o'tirish»ga moyillik o'rtasidagi bog'liqlikni izohlang.
3. Nima sababdan dodxoning xayoliga go'riston haqidagi fikr kelib qoldi deb o'ylaysiz?
4. Asardan dodxo ruhiyati aks ettirilgan o'rinlarni topib qayta o'qing, munosabat bildiring.
5. Qisman xotinlarini, asosan, o'zini ovutish uchun go'ristondan gap ochgan dodxoning gaplarini xotinlari davom ettirmaganliklari sababini izohlang.
6. Hikoyadagi: **«Hamma o'tirgan yerida go'yo bir qarich cho'kkanday bo'ldi va tin olmay bir-biriga qaradi»**, degan tasvirni qanday izohlaysiz?
7. Darchaga kelib urilgan narsaning bo'yra ekanini bilgan dodxoning suyunishiga sabab nima deb o'ylaysiz?
8. Bir qo'y uchun qabrga tunda pichoq sanchgan kishiga Unsinning salbiy munosabati dodxoga nima uchun yoqmaganligini tushuntirishga urinib ko'ring.
9. Unsinni ko'pchilik erkaklarning ham qo'lidan kelmaydigan jasoratga undagan kuch nima edi deb o'ylaysiz?
10. Asardagi: **«Unsin boshini ko'tarib, balo-qazoday tikilib turgan dodxoga bir ko'z tashladi-yu, yana boshini egib,**

lekin dadil javob berdi» tasvirini qayta o‘qing. Unsinning harakatlarini izohlang. Boshni egish va dadil javob haqida o‘ylab ko‘ring.

11. Hikoyada: *«Unsin dodxodan darrov yuzini berkitgancha chiqib ketdi»* degan jumla bor. Kelinchakning shu harakati ma’nosini chaqib, sababini tushuntiring.
12. Unsin go‘ristonga choy qaynatish uchun ketayotgan paytdagi tabiatning avzoyi tasviriga e’tibor bering.
13. Bir gapda «dahshat» so‘zi besh marta takrorlangan tasvir bor. O‘shani topib o‘qing va izohlang.
14. Muallif dodxoning uyini ne bois *«...tiriklar go‘ristoni»* deb ta’riflaganini tushuntirib bera olasizmi?
15. Unsinning go‘ristonga borib choy qaynatib kelishga ko‘nishi Sizni ishontira oladimi? Fikringizni asoslang.
16. Unsin qo‘rqmaydigan ayolmi? U holda hikoyadagi: *«Uning eti jivirlashib, sochi boshidagi ro‘molini bir qarich ko‘targanday bo‘ldi»* tasvirini qanday izohlash mumkin?
17. O‘zi yashayotgan nobop sharoitga ko‘nikmaslik Unsinning qanday fazilatini namoyon qiladi deb o‘ylaysiz?
18. Hikoya qahramoni qo‘rquvdan hushini yo‘qotib qo‘ymaslik uchun qanday yo‘l tutganligini aniqlang. Bunday holatda Siz nima qilgan bo‘lardingiz?
19. Yelkasiga kutilmaganda maymun minib olganda Unsin tushgan ruhiy holat tasvirini izohlang. Shuncha sinovlar ustiga maymunni ham qo‘yib yuborish qanday odamga xos xususiyat deb o‘ylaysiz?
20. Go‘ristondan chiqishda Unsin *«...chap qo‘liga qattiq og‘riq kirganini»* sezadi. Og‘riq nega, aynan, chap qo‘liga kirdi deb o‘ylaysiz?
21. Hikoyadagi: *«...ikki oyog‘i gavdasidan keyinda qolar, qo‘lidagi choynak tobora og‘irlashib borar edi»* tasvirini talqin qiling. Unsinning holatini sharhlang.
22. Dodxoning go‘ristondan qaytgan Unsinni ko‘rgandagi holatini matnga tayanib izohlab bering.
23. Zo‘rg‘a hushiga kelgan Unsinning Nodirmohbegimdan hol so‘rashi sababini tushuntiring.
24. Nodirmohbegimga xos xususiyatlarni tavsiflang.
25. Unsin yengildimi? Irodali insonni, erksevar odamni yengish mumkinmi? Siz nima deb o‘ylaysiz, o‘lmoq yengilmoqmi?



Mirtemir

(1910–1978)



uqaddas Turkiston shahri yaqinidagi go‘zal Iqon qishlog‘ida tug‘ilgan Mirtemir ota yurti tarovatini umrining oxirigacha unutmagan, so‘nggi nafasigacha kuylab kelgan shoir edi. Mirtemir faqat lirik she‘rlar bitib qolgan emas. Uning jarangdor sochmalari XX asr yigirmanchi yillarida juda mashhur bo‘lgan edi. Mirtemir go‘zal doston-

lar ham yaratgan, dramatik va nasriy asarlar ham yozgan. U qilgan tarjimalar o‘zbek o‘girma adabiyotida alohida bosqich bo‘lishga arziydi. Uning adabiy jarayonni tahlil qilishga bag‘ishlangan, salmoqli ilmiy xulosalarga ega tanqidiy asarlari ham bor.

XX asr o‘zbek she‘riyatining ulkan vakili Mirtemir (Mirtemir Tursunmat o‘g‘li) ko‘hna Turkistonning Qorato‘g‘ etaklaridagi Eski Iqon qishlog‘ida tug‘ilgan. Hujjatlarda adibning tug‘ilgan vaqti 1910-yilning 10-mayi deb ko‘rsatiladi. Shoirning o‘zi bu to‘g‘rida: «Men tug‘ilgan qishloqning kunbotarida qadim Turkiston shahri, janubida O‘tror, Boybalk xarobalari va Yassi, Suyri qal‘alaridan qolgan kultepalar, undan nari Sirdaryo., – deb yozadi. – 1910-yili bug‘doy o‘rog‘ida shu qishloqda tug‘ilibman. Otam – dehqon va chorvador, ona tomondan bobom mulla, maktabdor. Ota tomon-

dan bobom – uzun bo‘ylik, polvon jussalik, qizil yuzli odam edi. Ona tomondan bobom – o‘rta bo‘yli, charaqlagan qora ko‘zli, qora va chechan odam edi. Men bir-ikki yil shu bobom maktabida o‘qidim». Shoir keyinchalik qishloqda ochilgan no‘g‘ay domla maktabida tahsilini davom ettiradi. Shoirning otasi Tursunmat Umarbek o‘g‘li ham adabiyotga ixlosmand edi.

Turmush qiyinchiliklaridan cho‘chimagan, ilmga chanqoq Mirtemir 11 yoshida amakisiga qo‘shilib, Toshkentga qochib keladi va Beshog‘ochdagi «Almai» nomidagi ishmaktabga joylashadi. Ikki yil bu maktabda o‘qigach, Toshkentning yangi shahar qismidagi «O‘zbek erlar bilim yurti»ga ko‘chadi. Shoir ham o‘qib, ham ishlagan o‘sha yillarning mashaqqatini shunday eslaydi: «Ishmaktabda ham, bilim yurtida ham o‘zimiz ekar, o‘zimiz yig‘ar edik, o‘zimiz tikar, o‘zimiz kiyar edik. Deyarli hamma hunar o‘rgatilar edi. Og‘ir yillar edi; to 1924–25-yillargacha xo‘ragimiz har kuni ikki yo uch marta bir burdadan qora non va tushlik bir cho‘mich bo‘tqa edi. Ishmaktabning bog‘i Chilonzorda, bilim yurtining bog‘i Ko‘kterakda edi. Yoz bo‘yi hamma bog‘da ishlardi va rangga qon, bo‘yga jir bitib qaytardik. Bilim yurtida o‘qishlar og‘ir, o‘qituvchilar talabchan bo‘lib, kechasi allamahallargacha sovuq bo‘lmalarda dars tayyorlardik».

1929-yili bilim yurtini tugatgan Mirtemir yo‘llanma bilan o‘sha vaqtda poytaxt bo‘lgan Samarqand shahriga keldi. Samarqandda Pedakademiya (hozir Samarqand davlat universiteti) o‘qish bilan barobar O‘zbekiston Markaziy ijroiya qo‘mitasining raisi Yo‘ldosh Oxunboboyevga shaxsiy kotib bo‘lib ishlaydi. Shoir hayotining Samarqand davri qizg‘in ijodiy izlanishlar davri bo‘ldi. U Hamid Olimjon bilan do‘stlashib qoladi. Lekin oradan ko‘p o‘tmay, Mirtemir tuhmat bilan qamaladi va qamoq muddatini uzoqda – Shimoldagi Belomorkanal qurilishida o‘taydi.

Mirtemirning ijodiy qiyofasini belgilaydigan, uni o‘zbek kitobxoni uchun ardoqli qilgan narsa – uning she‘riyati. Mirtemir samimiy tuyg‘ularni, nozik kechinmalarni sodda va

tushunarli ifodalay oladigan san'atkor. Rost tasvir, buning ustiga, tuyg'ular sherikligida amalga oshirilgan aniq tasvir hamisha esda qoladi. Hammaga, ayniqsa, siz yoshlarga ardoqli bo'ladi. Badiiy nafasi bilan saflarimizni to'ldirib yurgan, avlodlarining pokiza, ma'rifatli, oriyatli bo'lishini istagan Mirtemirning she'riyati sizning hamishalik hamrohingiz bo'lib qolishiga ishonamiz.

BU – MEN TUG'ILGAN TUPROQ

Bu – men tug'ilgan tuproq. Ha, men tug'ilgan tuproq,
Tog'lar, ko'm-ko'k adirlar, daryolar, cheksiz qumloq.
Bo'ronlar qamchilashar, yomg'irlar tomchilashar,
Qishda qalin qordan oq, kuzda-chi, paxtadan oq.
Taqvodorday cho'k tushib, peshonamni qo'yaman,
Onam kabi o'paman, qalb mehriga to'yaman.
Kayxusrav qilichidan kesikbosh bobom xoki,
Kim noxos oyoq qo'ysa, haqoratga yo'yaman.

Bu – men tug'ilgan tuproq. Bu – men yo'g'rilgan tuproq,
Ko'klam gohi serjala, yoz qurumsoq va qurg'oq.
Terak bo'yi jarlardan suv tortar bobo dehqon,
Bug'doy ham, juvari ham bo'liq, ko'm-ko'k, serboshqoq.
Taqvodorday cho'k tushib peshonamni qo'yaman.
Suygulimday quchaman, jamoliga to'yaman.
Chingiz o'qiga uchmish olis bobom xoki bu,
Kim ko'zga ilmay boqsa, kamchilikka yo'yaman.

Bu – men tug'ilgan tuproq, bu – men ulg'aygan tuproq,
Daralari jannatliy, tog' sirlari ko'k yayloq.
Qumloqlarida hatto suruv-suruv qo'y-qo'zi,
Guldor, naqshin qorako'l yetti ranglik, yarqiroq.
Bir farzandday cho'k tushib, peshonamni qo'yaman,
Kun o'tmay sog'inaman, o'pib-o'pib to'yaman.
Oq poshshoning to'pidan abjaq bobom xoki bu,
Oq poshshoni eslatsang, yovuzlikka yo'yaman.

Bu – men umr ko‘rgan tuproq, men bobo bo‘lgan tuproq
Suv bo‘ylari tutzorlar cho‘zilmish yiroq-yiroq.
Ipak ham, bol ham bunda, marmar ham, oltin ham mo‘l,
Ko‘mir ham, sharob ham bor, gurunch – sadaf misol oq.
Bir askarday cho‘k tushib, peshonamni qo‘yaman.
Fidoyiman, shaydoman, o‘pib-o‘pib to‘yaman.
Erk deya shahid ketgan o‘g‘lonlarning xoki bu,
Kim noxos o‘qraysa ham ko‘zlarini o‘yaman.



1. She'rni diqqat bilan o'qib chiqing. Har bir bandda ona tuproq xislatlarining ma'lum bir qirrasini tasvir etilayotganiga e'tibor bering.
2. Birinchi banddagi dastlabki to'rt misra nimani anglatadi? Shu banddagi: «*Kayxusrav qilichidan kesikbosh bobom xoki, Kim noxos oyoq qo'ysa, haqoratga yo'yaman*» misralarini sharhlab bering.
3. Ikkinchi bandda o'lka tabiatiga xos xususiyat juda ham aniq berilgan haroratli misralar bor. Shularni toping va izohlang.
4. «*Guldor, naqshin qorako'l yetti ranglik, yarqiroq*» misrasini izohlashga urining.
5. She'r bandlarining boshida, o'rtasida, oxirida kelgan takrorlarni aniqlang hamda ularning vazifasini tushuntiring.

ONAGINAM

Tovonimga chaqir tikanakday botguvchi – g‘ashlik.
Bedavo sizloviqday sizlatguvchi – g‘ashlik.
Jigarimni qiymalab ahyon-ahyon,
Chuchvaraga chekkuvchi – g‘ashlik.
Meni o‘ylab notavon va nimjon,
G‘ashimga tekkuvchi – g‘ashlik.
Suyaklarimni sirqiratib
 och tevatday g‘ajiguvchi,
Ko‘zimda yosh tirqiratib,
 jig‘ildonimda achchiq bo‘zaday
achiguvchi g‘ashlik...

Dunyoga qayta kelishimga ko‘zim yetsaydi,
Yigit yoshimga to‘lmay turib,
Ayriliq zaylida qoq yog‘ochday qurib,
Jon bergan onamni ko‘rishimga ko‘zim yetsaydi,
Tizzasiga bir nafas bosh qo‘yishimga ko‘zim yetsaydi,
Onalik mehriga obdan to‘yishimga ko‘zim yetsaydi,
«Oq sutingni oqlay», – deyishimga ko‘zim yetsaydi,
Menda g‘ashlik netardi?

Yantoq o‘tinidek,
Tamaki tutunidek,
Tong paytida taralgan badbaxtlik tunidek –
Cheksiz fazolarga tarqab ketardi!
Onaginam!
Odam bo‘ldimmi menam?
Yigit yoshimgacha bir chelak suv keltirib
bermagan bo‘lsam,
Yo tashnaligingda bir kosa sharbat to‘ldirib
bermagan bo‘lsam,

Yo non yopishing uchun,
Hatto bir yo‘la bir kun
Sahrodan o‘tin orqalab kelmagan bolangman...

Yo sigirni podadan ayirib,
Yo echkini hovliga qayirib,
Og‘zingdan so‘z chiqmay, yelmagan bolangman...
Sening arziyas bir yumushingni ado etolmaganim,
Sening bir ishorangga yuz o‘mbaloq oshib
ketolmaganim.

Seni jindak xushvaqt qilgani,
Seni jindak xushbaxt qilgani,
Tagsiz jarlardan o‘tolmaganim,
Seni so‘nggi yo‘lga o‘zim kuzatolmaganim –
Tog‘day zil,
Abadiyatday cheksiz armon bo‘lib qoldi dilimda,
onaginam!

Odam bo‘ldimmi menam?
Ha, odam sanashar meni elimda.
Senga qilolmagan xizmatim,
Sen deb chekolmagan zahmatim –
Jindak zehnim, jindak she’rim, jindak g‘azalxonligim,
Onalik mehriga to‘ymagan mehrim, jindak yaxshilik va
yomonligim,
Meni odam sanagan elimga baxshida, jafodiyda
onaginam!

Elga xizmatim– senga xizmatim emasmi, axir,
El meni farzandim demasmi, axir!
Rozi bo‘l, odam sanalay menam...
Dunyoga qaytib kelurman,
Lekin boshqa o‘g‘il bo‘lib...



Savol va topshiriqlar:

1. Shoirning holati dastlabki misralarda qay tarzda ifodalan-gan?
2. She’rdagi *«botguvchi»*, *«sizlatguvchi»*, *«chekkuvchi»*, *«tekkuvchi»* *«g‘ajiguvchi»*, *«achiguvchi»* singari sifatlash-lar qaysi tushunchaga tegishli? Ular qanday she’riy vazifani bajarishga qaratilgan?
3. She’rdagi *«g‘ashimga tekkuvchi – g‘ashlik»* ifodasining she’r jozibasini oshirishdagi, kishi ruhiy holatini ifodalash-dagi o‘rnini tushuntirib bering.
4. Ona oldida farzandlik burchini o‘tay olmagan kishining af-suslari ifodasi eng avjiga chiqqan o‘rinni aniqlang.
5. *«Tong paytida taralgan badbaxtlik tunidek»* misrasining ma’nosini chaqishga urining.
6. «Onaginam» she’rini boshdan oyoq bir xil ohangda, bir xil zarb bilan o‘qib bo‘ladimi? Ohanglar almashinib turishiga sabab nima?
7. Misralarning uzun-qisqaligiga sabab nima, deb o‘ylaysiz?
8. *«Tog‘day zil»* ifodasi nima uchun alohida bir misraga chiqarilgan va uni qanday o‘qish kerak, deb o‘ylaysiz?
9. She’rni yodlang.
10. «Mening onam» mavzusida insho yozishga hozirlik ko‘ring.

Chayirsan, chechansan, chuchuksan so‘zsiz,
 Ertakday ezgusan, buloq yanglig‘ pok.
 Ko‘z ololmas hatto ilg‘asa ko‘zsiz,
 Holbuki, munglug‘san. G‘amdan ko‘ksing chok.
 Yor jangga jo‘narkan: «Bo‘shashma», – devdi,
 Bo‘shashgan paytda ham bo‘lolding tetik.
 Bilarding – u seni jonidek sevdi,
 Egningda kalta to‘n, oyoqda etik,
 Ko‘ngil qo‘yding suyak paxtazoringga,
 Jo‘yaklarda qolding qosh qorayguncha.
 Ter to‘kib ko‘z tikding o‘z devkoringga,
 Vafo bo‘lsa agar, bo‘lur-da shuncha!
 Burmalik ko‘ylak ham, nimcha-yu g‘ijim,
 Sirg‘alar sandiqqa tushdi. Bardosh bu...
 Xilvatda yosh to‘kding yomg‘irday sim-sim,
 Keyin yig‘i ham tark. Bosh bo‘lding, Toshbu...
 O‘n juvonga boshliq – ko‘p ham osonmas,
 Tun og‘ir va uzun, bo‘lar eding xun.
 Bu to‘y kunidagi quvnoq javlonmas,
 Ter to‘kding ham o‘zing, ham ering uchun
 Qirov ketmasidan tashiding o‘g‘it,
 To‘qiltoq arava – uloving eshak.
 O‘n juvon izmingda – maslahat, o‘git,
 Darddoshlik ham og‘ir, ko‘p og‘ir, beshak.
 O‘z bo‘yiningda edi suv, o‘toq, chopiq,
 Esda turmas edi soch tarash hatto.
 Sho‘x hislarga qalbing darchasi yopiq,
 Kulib qaraganga jo‘n qarash hatto.
 Dalaga ergashar ikki bolang ham,
 Biri choy qaynatar, biri tashir suv.
 Erkak mehnatiga ko‘nikding kam-kam,
 Bu ham jang edi-da, qattol jang, Toshbu!
 Har qalay qaynashdan qolgan yo‘q qozon,
 O‘rtada quyuqmi, suyuqmi – yovg‘on.

Buvak ham, go‘dak ham bo‘lmadi xazon,
 Badnom etolmadi biror qing‘ir jon.
 Kosang toza, halol, butun va beyuq,
 Qoraxat, nim qahat sololmadi chang.
 Jamolingga har gal suqulolmay suq:
 – Buncha toshbag‘ir! – der badar ketdi gang.
 Toleying bor emish, tole yor emish,
 Keldi axir jangchi: bas deb, shum firoq.
 O‘pkasida moshdek o‘q ham bor emish,
 Tirsakdan bir qo‘l yo‘q: Sendan g‘ash yiroq.
 Seni sal xo‘rlagan sira insonmas,
 Ko‘zlarinda g‘urur va baxtdan yosh bu.
 Sensiz O‘zbekiston – O‘zbekistonmas,
 Sensiz keng jahon ham sira jahonmas,
Toshbu!



Savol va topshiriqlar:

1. She‘rning birinchi misrasida «**ch**» tovushi bilan boshlanadigan uch so‘zning yonma-yon kelishida qanday ma‘no bor deb o‘ylaysiz?
2. She‘rda shoir tomonidan Toshbuning ichki va tashqi qiyofasi tasvirlangan satrlarni topib izohlang.
3. Toshbuning bardoshi madh etilgan misralarni toping va ularni sharhlab bering.
4. Toshbu tabiatidagi pokizalik, sadoqat, mehnatsevarlik, insoniy g‘urur tuyg‘ulari tufayli shoir ko‘nglida paydo bo‘lgan faxr aks etgan misralarni toping.
5. O‘zbek ayoli sadoqati va g‘ururiga faxriya tarzida bitilgan misralarni toping va sharhlab bering.
6. «**Sensiz O‘zbekiston – O‘zbekistonmas, Sensiz keng jahon ham sira jahonmas, Toshbu!**» satrlarining ko‘tarinki ruhi haqidagi qarashlaringizni tushuntiring.
7. She‘rni yod oling.

Majnuntol tagiga o'tqazing meni,
Qovrilmay to g'ashlik alangasida.
Majnuntol tagiga o'tqazing meni,
Nafasimni rostlay ko'lankasida.

Majnuntol tagiga o'tqazing meni,
Qushlar ovozig quloq solayin.
Majnuntol tagiga o'tqazing meni,
Xayol og'ushida orom olayin.

Majnuntol tagiga o'tqazing meni,
Shu kungacha o'zni men cheklab bo'ldim.
Majnuntol tagiga o'tqazing meni,
Men uchun yig'lasin, men yig'lab bo'ldim.



Savol va topshiriqlar:

1. She'ning birinchi bandida shoirning qanday kayfiyati aks etgan?
2. «*Qovrilmay to g'ashlik alangasida*» misrasida shoirni qanday g'ashlik qovurmoqchi deb o'ylaysiz?
3. Betob shoirning «*Xayol og'ushida orom olayin*» tarzidagi istagini sharhlang.
4. She'ning uchinchi bandiga alohida e'tibor qiling.
5. Shoirning: «*Shu kungacha o'zni men cheklab bo'ldim*» tarzidagi iqrorini izohlang.
6. So'nggi misradan siz nima ilg'adingiz?
7. She'rni yod oling.



Xayriddin Saloh

(1934–1969)



oyat qisqa umri davomida bir qator yorqin she'riy asarlar yozib qoldirishga ulgurgan jo'shqin shoir Xayriddin Saloh (Salohiddinov) 1934-yilning 15-yanvarida Toshkentda tug'ildi. Maktabda o'qib yurgan paytlaridayoq badiiy so'zga bo'lgan qiziqish Xayriddinni keksa shoir G'ayratiiy rahbarlik qilgan adabiyot to'garagiga boshlab keldi.

To'garakda bo'lajak shoir Erkin Vohidov, Yusuf Shomansur, Sayyor singari tengdoshlari bilan ijod sirlarini o'rganadi.

X. Salohning ilk she'ri 1950-yilda bosilib chiqdi va ko'pchilikning e'tiborini tortdi. O'rta maktabni tugatgan Xayriddin Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi Pedagogika universiteti)ning tarix-filologiya fakultetiga o'qishga kirdi va uning kechki bo'limini 1957-yilda tugatdi. Shundan so'ng shoir «O'zbekiston madaniyati» gazetasi, «G'uncha», «Gulxan» jurnallarida adabiy xodim bo'lib xizmat qildi.

Turli yillarda Xayriddin Salohning «Chashma» (1959), «Ikkinchi imtihon» (1961), «Ishqim va rashkim» (1965), «Tug'yon», «Na'matak» (1969), «Izlar va hislar» (1974), «Shu'lalar qo'shig'i» (1975), «Lirika» (1985) singari she'rlar to'plamlari bosilib chiqdi.

Iqtidorli shoir Xayriddin Saloh yirik she'riy janrlarda ham ijod qilib, «Laylo», «Yangroq hayot», «Toshkent bilan suhbat» dostonlarini yaratdi. Uning tarjimonlik borasida qilgan xizmatlari ham e'tiborga loyiq. X. Saloh Bayron, Heyne, Lermontov, Shevchenko, Hamzatov singari olamga mashhur shoirlarning ko'plab asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Serqirra ijodkor Xayriddin Saloh 1969-yilning 5- iyunida vafot etgan.

YULDUZLAR AFSONASI

Bobolarning gapi shunday: «Har kechaning kunduzi bor,
Har kimning o'z nasibasi, har kimning bir yulduzi bor».
Gar tug'lsa biror go'dak, derlar: «Ortdi yulduz soni,
Yana bitta mayoq bilan boyib qoldi yurt osmoni».
Biror yulduz uchsa, derlar: «Kimdir o'tdi bu olamdan,
Ko'hna dunyo ajrab qoldi, evoh, yana bir odamdan».
Eshitganman Zuhallar-u Oy, Zuhrolar to'g'risida,
Somon yo'li, Hulkarlar-u Surayyolar to'g'risida,
Eshitganman yuztasini, eshitganman mingtasini,
O'shalardan so'zlab beray faqatgina bittasini:
«Qadim Hulkar yulduzining suluv qizi bo'lgan ekan,
Bodom qovoq va oq tomoq, yuzi lo'ppi to'lgan ekan.
Uni sevib onajoni baxmallarga o'rar ekan.
Qizchasida istiqbolni aniq-ravshan ko'rar ekan.
Boqmoq uchun qiz yuziga kunduz quyosh, tun oy xumor,
Koshki unga ko'zgu bo'lsam, deya hatto sho'x soy xumor.
Uning yorqin chehrasiga xiyobonda gullar tashna,
Yuzlarini silab-siypab o'tsam, deya yellar tashna,
Bir kun Hulkar qizchasini solibdi-yu belanchakka,
O'zi esa mudrab sekin ketgan ekan tinch pinakka.
Shunda yetti tund qaroqchi boy bermasdan qulay choqni
Olib qochmish, olib qochmish murg'ak, jajji qizaloqni,
Ko'zin ochib boqsa Hulkar, sho'x qizidan yo'qdir darak,
Sekingina tebranardi ko'z o'ngida bo'sh belanchak,

Ona yo‘lga tushibdi-yu, go‘dagini xo‘p izlabdi.
 Xo‘p yig‘labdi, ovunibdi, so‘ngra yana xo‘p bo‘zlabdi...
 Bir nafasda tushar ekan jarliklarga sakrab tikka,
 Bir nafasda ko‘tarilar qorli toqqa – yuksaklikka.
 Farqi yo‘qdir unga sira tunmi-kunduz, baland-pastmi,
 Kechalari tunab qolar barra o‘tmi, poxol, xasmi.
 Oxir unga voqeani bir-bir bayon etibdi Oy.
 Maskaniga yo‘l olibdi shunda Hulkar deb: «Hayyo-hay!»
 Shundan beri quvsa Hulkar qochar yetti tund qaroqchi,
 Oltitasi uxlasa gar, turar ekan biri soqchi...»
 Bu afsona go‘daklarni jalb etmoqqa juda qulay,
 Bunday qadim ertaklarni tinglaganman men bir talay.
 Eshitganman parilari, alvastisi, jinlarini,
 Xushlamadim yolg‘onlarni, eslab qoldim chinlarini.
 Ha, bobolar so‘zlarida qancha ilm va hikmat bor,
 Shuning uchun keksalarga menda cheksiz sadoqat bor.



Savol va topshiriqlar:

1. Yulduzlarning paydo bo‘lishi va so‘nishi bilan odamlar taqdiri o‘rtasidagi bog‘liqlik to‘g‘risidagi afsona haqida she’rda nima deyilgan?
2. She’rdagi *«Boqmoq uchun qiz yuziga kunduz quyosh, tun oy xumor, Koshki unga ko‘zgu bo‘lsam, deya hatto sho‘x soy xumor»* tasviriga tayanib, Hulkarning qizi husniga ta’rif bering.
3. *«Ko‘zin ochib boqsa Hulkar, sho‘x qizidan yo‘qdir darak, Sekingina tebranardi ko‘z o‘ngida bo‘sh belanchak»* satrlarida kutilmaganda bolasidan ayrilib qolgan ona holati qanday aks etganini izohlang. Shu vaziyatdagi ona ruhiyatini ta’riflang.
4. *«Shundan beri quvsa Hulkar qochar yetti tund qaroqchi»* misralari orqali nima deyilayotganini tushuntiring.

KO'KRAK OCHDIM SHAMOLLARGA

Ko'krak ochdim shamollarga,
Bisotimni sarf etdim.
Ular shirin xayollarga
Meni butkul g'arq etdi.

Shamollarga bitib sho'x kuy
Taklif etdim bog'imga.
Chamanlardan ular xushbo'y
Sepishdi dimog'imga.

Tunda uyqum qochib ketdi
Xushlab yellar ta'bini.
Ular tongda ochib ketdi
G'unchalarim labini.



Savol va topshiriqlar:

1. She'rda shamollarga «ko'krak och»gan orzumand lirik qahramon holati qanday tasvirlanganiga e'tibor qiling.
2. She'rning ikkinchi bandida shoir va shamol munosabati qanday aks etganini sharhlashga urining.
3. «*Chamanlardan ular xushbo'y Sepishdi dimog'imga*» satrlarida lirik qahramonning qanday kayfiyati aks etgan?
4. Shoirning: «*Ular tongda ochib ketdi G'unchalarim labini*» ifodasida norozilik aks etganmi yoki quvonch? Fikringizni asoslang.

YER VA TER

Men bilmayman yer kabi ulug‘
Tabiatning zo‘r tuhfasini.
Inson unga sohib don – urug‘
Topgan rizq-u nasibasini.

Buncha shirin bo‘lmas edi non,
Tandir lov-lov qo‘rin bermasa.
Nonday aziz bo‘lmasdi inson,
Yerga manglay terin bermasa.




Savol va topshiriqlar:

1. Shoirning yer va insonning rizq-u nasibasi borasidagi fikrlarini matnga tayanib, sharhlang.
2. Nonning lazizligiga tandirdagi olov sababchiligi bilan insonning azizligiga to‘kilgan manglay teri bois ekani borasidagi parallel tasvirlarning hayotiy va badiiy asoslariga to‘xtaling.



Ernest Seton-Tompson

(1860–1946)



zbek o'quvchilari Ernest Seton-Tompson ijodini yaxshi bilishadi. Yozuvchi 1860-yil avgustning 14-kunida Angliyada tug'ildi. Uning tomirida shotland qoni bor. Ernestning ajdodlari tog'liklar bo'lib, ular hamisha tabiat orasida, tabiat bilan hamnafas yashadi... Ernest olti yosh bo'lganda ularning oilasi Kanadaga ko'chib keldi. U shu yoshidan boshlab esini tanidi, ko'rgan-bilganlarini eslab qoladigan bo'ldi. Shu yil qishda maktabga bordi.

«Qish olis-olis bo'ldi. Nihoyat, martda chinakam ko'klam keldi, kun charaqlab ketdi, tevarakdagi qorlar eriy boshladi, osmon tiniqdan tiniq, zangori bo'ldi. Shunda, jajjigina bir qushcha uyimiz oldidagi terakka kelib qo'ndi-da, ohista-ohista sayradi. Bizdan kattaroq bir bola uni: «Bu – baxt qushi», – dedi. Xayolimda baxt qushining moviy yelkasini ko'rganday bo'ldim. Baxt qushi qayta-qayta sayrab, o'zining nafis qo'shig'ini kuyladi.

Nimagaligini o'zim ham bilmayman, shunda men birdan o'pkam to'lib, yig'lab yubordim. Baxt qushining qo'shig'idan ko'nglimning tub-tubigacha to'lqinlanib ketdim. Shundan

buyon men har yili bahor bilan moviy qushimni – baxt qushimni kutadigan bo‘ldim».

Iste’dodlar hamisha o‘jar bo‘ladi. Maktabdagi eng iste’dodli bola ham, eng o‘jar bola ham Ernest bo‘ldi.

«Bir kuni bir e‘lon o‘qib qolib, unda doktor Rossning «Kanada qushlari» kitobi chiqib, Piddington kitob magazinida sotilayotganini bilib oldim.

Ertasi kuni hayajondan qalt-qalt qaltirab, o‘sha yoqqa yo‘l oldim. Qarasam, kitob bir dollar turar ekan. Otamdan pul so‘rab bo‘lmaydi, u mening tabiat ilmi bilan qiziqishimga qarshi odam. O‘zimda bo‘lsa pul yo‘q. Shunda men ana shu yuz sentni halol mehnatim bilan topmoqchi bo‘ldim. Ikkita ajoyib quyonim bor edi, shularni bozorga solib, ellik sentga pulladim... Bir hafta o‘tib, bir ayolning o‘tinlarini ko‘chasidan hovlisiga tashib berdim. Ayol xizmat haqim uchun o‘n sent berdi. Jamg‘argan pulim jami oltmish sent bo‘ldi. Keyin bor mayda-mayda toshlarimni pullab, yana o‘n ikki sent topdim. Tag‘in ish izladim. Bisotimdagi narsalarimni jallob¹larga pulladim. Bir ingliz xonimga hasharot terib berdim. Bir-ikki hafta deganda jamg‘argan pulim to‘qson sent bo‘ldi. So‘ng, omadim kelmay, qolgan sentlarni topolmay qoldim... Ammo kitob magaziniga bormagan kunim qolmadi, har kuni Piddingtonga borib, kitob magazini tokchasidagi meni tabiatning bor sir-asroridan voqif etajak mo‘jizaviy kitobni ko‘rib kelib yurdim».

Keyin akasi Ernestga ish buyurib, haqiga bir galstuk uzatdi. Ernest galstukni emas, pulini oldi. Shunday qilib, puli yuz sent – bir dollar bo‘ldi. Nihoyat, magazindan orzu qilgan kitobini olib, murod-maqsadiga yetdi...

U avval-avval rasmlar chizdi. Rassom bo‘lmoqchi bo‘ldi. Qator-qator rasmlar chizdi. Rasmlari ko‘rgazmasi bo‘ldi...

U ajoyib animalist – jonivorlar tasvirini yaratuvchi rassom bo‘ldi. Ammo «baxt qushi»ni tabiatshunos olimlikdan, adiblikdan topdi...

Tabiat... uch olam (rassomlik, badiiy adabiyot va ilm) nuqtayi nazaridan kelib chiqib tasvirlandi. Aksariyat hollarda

¹ *Jallob* – dallol, olibsotar.

bu uch olam nuqtayi nazari, fikri bir-biriga to'g'ri kelmay qoldi. Rassomlar tabiati boshqa, yozuvchilar tabiati boshqa, olimlar tabiati boshqa bo'lib keldi. Seton-Tompson ana shu uch nuqtayi nazar, ana shu uch qarash – rassomlik, yozuvchilik, olimlikdan Seton-Tompson bo'ldi.

Seton-Tompson:

Jonivorlarga toza ko'ngil, toza ko'z bilan qaradi.

Jonivorlarning ichki dunyosini halol, xolisona ochib berdi.

Hayotga jonivorlar ko'zi bilan boqdi.

Jonivorlarga tushkun munosabatda bo'lmadi...

O'z boshidan kechirgan hayotni, o'z ko'zi bilan ko'rgan tabiatni, o'z qo'li bilan ushlagan jonivorlarni qanday bo'lsa shundayligicha badiiy asar qildi.

Seton-Tompson badiiy adabiyotda birinchi bo'lib jonivorlarni badiiy asarning bosh qahramoni qilib oldi. Hayvonlarni obraz qilib tasvirladi, hayvonlarni qahramon darajasiga ko'tardi. Jamiki tashqi muhit, eng ulug' zot bo'lmish insonni ham hayvonlar obrazini yaratish uchun xizmat qildirdi. «Men bilgan jonivorlar», «Quvg'indilar taqdiri», «Hayvonlar – qahramonlar», «Mitti yovvoyilar», «Rolf o'rmonda», «Kreg – kuteney qo'yi» kabi qator asarlar yaratib, ularda hayvonlarni bosh obraz qilib tasvirladi. Bu asarlar kitobxonlar qalbiga tez kirib bordi, kitobxonlarning mulki bo'lib qoldi.

«Jonivorlar haqida hikoyalar» kitobi esa Seton-Tompson nomini olamga yoydi. Kitob qo'lma-qo'l o'qildi, tik turib o'qildi, ovoz qo'yib o'qildi, kecha-yu kunduz o'qildi. Kitobni butun dunyo o'qidi.

Kitob bu qadar ommaviylashib, qo'lma-qo'l bo'lib ketish sabablaridan biri – uni bolalar ham, kattalar ham, keksalar ham birday o'qiydi. Kitob yetti yashar kitobxongayam, yetmish yashar kitobxongayam birday suyukli, birday ardoqlidir...

Seton-Tompson hayvonlar haqida shunday asarlar yaratdiki, bunday asarlar Seton-Tompsongacha yaratilmagan edi, undan keyin ham yaratilmadi. Tabiat, xususan, hayvonlar, jonivorlar haqida minglab asarlar yozildi, ammo hech kim Seton-Tompsondan oshib o'tolmadi.

Hech kim Seton-Tompson bo‘lolmadi.

Oqibat, o‘jiz adiblar, g‘arib adiblar kuyib ketdi... AQSH-ning o‘sha davrdagi mashhur adibi Jon Berrous «Atlantik Monsli» jurnalida Seton-Tompsonni urib chiqdi. Seton-Tompson maqolani ko‘rib-ko‘rmaslikka oldi, miq etmadi. Jurnal undan javob maqolasi so‘radi, u rad javobini berdi. Vaholanki, oqsoqol adib qo‘ygan ayblar tuhmatdan iborat edi.

Bir kuni bir boyvachcha nyu-yorklik ellikta adibni uyiga chaqirib, o‘tirish qilib berdi. Berrous chol Seton-Tompsonni ko‘rib-ko‘rmaslikka oldi, teskari qarab o‘tirdi. Seton-Tompson xonadon xo‘jasidan o‘zini Berrous bilan birga o‘tirg‘izishini so‘radi. Oqsoqol adib hayron bo‘ldi. Qizarib-bo‘zarib: «Haligi gaplarga xafa bo‘lmang, sizga shaxsiy g‘arazim yo‘q», – dedi. Seton-Tompson: «Qaysi gap? Eshitmagan ekanman», deya yelkasini qisdi. Berrous o‘zini qo‘yarga joy topolmay qoldi. Shunda Seton-Tompson ohista gap ochdi:

– Janob Berrous, umringizda biron marta bo‘rilar turish-turmushini kuzatganmisiz?

– Yo‘q.

– Biron marta bo‘ri oviga chiqqanmisiz?

– Yo‘q.

– Tirik bo‘rini rasmga tushirganmisiz yo unga qarab rasmini chizganmisiz?

– Yo‘q.

– Biron ta bo‘rining terisini shilib olganmisiz?

– Yo‘q.

– Biron marta ozod yurgan yovvoyi bo‘rini ko‘rganmisiz?

– Yo‘q.

– Unda ayting-chi, meni shunchalar yomonlashga nima haqqingiz bor?

Berrous qizarib, dedi:

– Umumiy biologiya qonunlari bor, bu qonunlar barcha hayvonlar uchun barobar.

Berrous iztirobga tushib, ko‘zlarida yosh qalqdi.

Ko‘p o‘tmadi, Berrous xuddi shu jurnalda Seton-Tompsonni ko‘klarga ko‘tarib maqtab chiqdi. Shundan keyin Seton-

Tompson Berrousga o‘zining shaxsiy muzeyini ko‘rsatdi. Muzeyda besh ming kitob, fotoapparatda o‘z qo‘li bilan rasmga tushirib tayyorlagan ikki yuzdan ziyod hayvonlar albomi, o‘zi chizgan hayvonlar bilan qushlarning mingdan ziyod rasmi, ikki mingdan ko‘proq hayvonlar, qushlar terisi bilan patlari hamda hayvonlar, qushlar hayotini kuzatib, to‘ldirib borgan o‘ttiz jilddan iborat qalin-qalin kundalik daftar bor edi.

Berrous lol bo‘lib qoldi.

AQSHning o‘sha vaqtdagi prezidenti Teodor Ruzvelt Seton-Tompson bilan Berrous o‘rtasida bo‘lgan gapni eshitib qolib, Seton-Tompsonga shunday maslahat berdi:

– Ana ko‘rdingizmi, qanday ulkan hayotiy manbalarga tayanib asar yaratganingizni hech kim bilmaydi. Endi shu manbalaringizni chiqaring.

Seton-Tompson ana shu hayotiy, ilmiy ishlarini yig‘ib, «Shimoliy hayvonlar hayoti» nomli ulkan-ulkan ikki jildlik kitob qildi. Kitob uchun «Alanga medali» oltin mukofotini oldi. O‘n yil o‘tib, «Yovvoyi hayvonlar hayoti» degan to‘rt jilddan iborat ilmiy ishini kitob qilib chiqardi. Bu safar Amerikada eng yaxshi ilmiy ishlar uchun beriladigan «Eliot» oliy darajali oltin medaliga sazovor bo‘ldi.

Seton-Tompson tabiatni ardoqladi, tabiat ham uni ardoqladi...

Seton-Tompson umr bo‘yi tabiat qo‘ynida yashadi, tabiatdan bor nasibasini oldi. Sakson olti yil umr ko‘rdi. Bir oshnasi unga: «Mabodo o‘lib qolsang qayerga ko‘mamiz?» – deya hazillashdi. Shunda Seton-Tompson: «Yerning nima farqi bor», – dedi, keyin: «Mana shu adirlikka ko‘minglar», – dedi.

Vasiyat bajo bo‘ldi.

Seton-Tompson asarlari davrimizning eng dolzarb muammosi bo‘lmish tabiatni asrash muammosini hal etishda dasturilamal bo‘ldi.

Tabiat omon ekan, Seton-Tompson asarlariyam omondir.

*Tog‘ay Murod, yozuvchi,
Seton-Tompson asarlarining tarjimoni.*

I

...Jo ham shu yerda bo‘lib, uning xayoliga, shu otni ushlab olsam ziyon qilmasdi, degan fikr keldi. Sharqiy shtatda yashovchi odamlar shunday niyat qilsa, ajablanmasayam bo‘ladi, ammo ot arzon G‘arbda yovvoyi otlarga hech kim e’tibor bermaydi. Avvalo, uni ushlash oson emas, bordiyu, ushlagan taqdirda ham yovvoyi ot umrining oxirigacha sarkash, besamar, yovvoyiligicha qoladi.

Ko‘p podachilar yovvoyi otlarni otadi. Boisi, ular nafaqat yaylovlarni tepkilab, bulg‘ab ketadi, yana tag‘in uy otlariniyam yo‘ldan urib, ergashtirib ketadi. Oqibat, uy otlariyam tez orada yovvoyilashib qoladi.

Jo Kalon otni, uning fe‘l-atvorini binoyiday biladi. U shunday deydi:

– Men haligacha yuvosh emas bo‘z otni ko‘rganim yo‘q. Asov emas to‘riqniyam ko‘rmadim. Agar qora to‘riqni yaxshilab minib o‘rgatsa, undan baraka topsa bo‘ladi. Ammo-lekin qora ot eshakday o‘jar, itday qahrli keladi. Qora otda tirnoq bo‘lsa, arslonniyam gumdon qiladi!

Demak, yovvoyi ot butunlay foydasiz hayvon, qora yovvoyi ot undan ham o‘n baravar foydasiz ekan.

Jo shu yili biron ishniyam amalga oshirilmadi. Boisi, u oddiy galachi bo‘lib, oyiga yigirma besh dollar olar, bekor vaqti juda oz edi.

U ko‘pgina kovboy o‘rtoqlari kabi qachondir ferma sotib olishni, shuningdek, o‘z xususiy galasi bo‘lishini orzu qilardi. Uning Sant Feda risolaga solingan tamg‘asi bor, u yakka-yu yagona qoramolining sag‘risiga bosilgan edi. Keyinchalik Jo o‘z tamg‘asini har qanday tamg‘asiz hayvonlarga bosish huquqiga musharraf bo‘ldi. Kuzda hisob-kitob qilib ko‘rib, «shaharni aylanish» istagidan o‘zini tiyolmadi. Shu boisdan ham uning bor-yo‘g‘i egar, to‘shak hamda qari sigirdan iborat bo‘lib qoldi. Biroq u tushkunlikka tushmadi, qachonlardir «biror narsani amalga oshirib», birdan boyib ketaman, deb

yurdi. Qora yo‘rg‘ani ko‘rgach, shu menga baxt keltiradi, deb o‘yladi, uni qo‘lga olish uchun qulayroq payt poyladi.

Biroq Jo Kanada daryosi bo‘ylab yo‘lida davom etib, kuzda Don Karlos do‘ngliklariga qaytib keldi. Garchi, yovvoyi yo‘rg‘a haqida ko‘p eshitib yursa-da, lekin o‘zini ko‘rmadi. Bu orada ikki yoshlik qora yo‘rg‘aning dong‘i o‘lkaga ketdi.

Jayron bulog‘i yuza yalanglikdadir. Buloq oqib borib, tevaragi qiyoq, o‘tlar bilan o‘ralgan maydagina ko‘lga aylanadi. Ko‘l suvi ozayganda gir aylanasi loyning tilim-tilim qop-qora, yirik tasmalari qoladi, ayrim yerlarida oppoq tuz dog‘lari yaltirab turadi, chuqur joyida esa oqmasa-da, ichsa bo‘ladigan toza suv qoladi. Yaqin atrofda shu hovuzdan boshqa suv yo‘q. Hamisha mollar hamda uy otlari o‘tlaydigan ana shu yalanglik qora toychoqning ko‘ngil qo‘ygan yayloviga aylandi. Yaylovda asosan «l, f» harflari ayqash tamg‘alangan mollar o‘tlaydi.

Ushbu ferma sohibi Foster juda uddaburon odam. U yaylovda zoti yaxshilangan uy hayvonlari boqilsa, kirim ko‘payishini yaxshi biladi. Uning qaramog‘ida o‘nlab ulkan, pishiq tanli, ohuko‘z chalazot baytallar bor. Serjun otlar ularning oldida g‘arib jonivorlar bo‘lib qoladi.

Ana shu xushqomat baytallarning birovni kundalik yumushlar uchun hamisha otxonada qoladi, qolgan to‘qqizi toychoqlarini emizib bo‘lib, o‘z erkida o‘tlay yuradi.

Ot hamisha sero‘t yaylovni topadi. To‘qqiz baytal ham o‘z fermalaridan yigirma mil janubdagi Jayron bulog‘ini topdilar. Yoz kelib, Foster bir o‘rtog‘i bilan baytallarni qidirib topdi. Baytallar orasida ko‘mirday qop-qora toy yurardi. Toy baytallarni gir aylanib, ularga homiylik qilar, ayni vaqtda hech qayoqqa ketgani qo‘ymasdi. Toyning qop-qora tani baytallarning oltinrang tanasidan keskin ajralib turardi.

Yuvosh fe‘lli baytallar egalaridan qo‘rqib, o‘z fermalariga qochib qolmoqchi bo‘ldi. Shunda, birdan qora toychoqning qahri keldi. U yovvoyi fe‘lini baytallarga ham yuqtirdi shekilli, baytallar fermadan kelgan beso‘naqay otlarni xiyla keyinda qoldirib, qora toyning ketidan chopib ketdi.

Bu voqea otliqlarning qonini qaynatib yubordi. Ular «la'nati toy»ni otib tashlaymiz, deya qo'llariga qurol oldi. Biroq to'qqiz baytal orasidan bitta toyning o'zini qanday qilib otib bo'ladi, o'q baytallarga tegib ketmaydimi?

Uzun kun besamar o'tdi. Yovvoyi yo'rg'a ha o'sha yo'rg'a o'z panohidagilarni qo'yib yubormadi, ular bilan janubiy qum tepaliklararo ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Ta'bi tirriq bo'lgan galachilar o'z omadsizliklari aybdoridan o'ch olishni ko'ngillariga tugib qo'yib, holdan toygan otlarida uylariga jo'nadi.

Ular, baytallar hademay xuddi o'sha toydek yovvoyilashib ketishini juda yaxshi bilardi.

Qop-qora yolli, ko'k ko'z ulkan qora ot butun o'lka bo'ylab zo'ravonlarcha kun kechirdi, turli-tuman joylardan baytal haydab kelib, o'z safini kuchaytirdi, galasini kam deganda yigirma boshga yetkazdi.

Yovvoyi yo'rg'aga ergashib kelgan baytallarning ko'pi g'arib, abgor bo'lib, zotli to'qqiz baytalgina o'zlarining bo'y-basti bilan alohida ajralib turadi.

Yovvoyi yo'rg'a galani shunday ishtiyoq hamda rashk bilan qo'riqladiki, galaga qo'shilgan har qanday baytal umrbod ketolmaydigan bo'lib qoldi. Galachilar o'z o'lkalariga kelib qolgan bu yovvoyi yo'rg'a hali ko'p ziyon-zahmatlar keltirajagini payqab qoldi.

II

Bu voqea 1893-yilning dekabrda bo'ldi. Fermaga kelib tushdim-u, yo'lovchi soyabon aravada Kanada daryosi bo'yidagi Pinyavetitosga jo'nadim.

Foster men bilan xayrlashayotib, shunday dedi:

– Menga qarang, bordi-yu, la'nati yo'rg'aga duch kelib qolsangiz, ayamay otib tashlang.

Yovvoyi yo'rg'a haqida ilk bor eshitgan gapim shu bo'ldi, yo'lda esa yo'lboshlovchim Bernsdan yo'rg'aning kechmishini bilib oldim. Dong'i ketgan yo'rg'ani juda-juda ko'rgim keldi,

ertasiga Jayron bulog'iga borib, hafsalam pir bo'ldi, sababi, u yerda yo'rg'aning ham, galaning ham daragi yo'q ekan.

Ammo ertasi kuni Alamoza daryosi orqali yana tepalikdor yalanglikka kelganimizda, oldinda borayotgan Jek Berns birdan otining bo'yniga engashib oldi, menga o'girilib, shivirladi:

– Qurolingizni oling! Ana ayg'ir!

Men qurolimni qo'limga olib, oldinga intildim. Pastdagi soylikda otlar galasi o'tlab yuribdi, ulkan qora yo'rg'a gala yonida turibdi.

Qora yo'rg'a bizning havomizni oldi shekilli, sergak tortdi. Avval boshini, keyin dumini ko'tardi, burun kataklari kengaydi.

Ko'zimga yo'rg'a otlarning oti, dashtlarda chopib yurgan jamiki otlarning sarasi bo'lib ko'rindi, shunday noyob jonivorni nobud qilib, bir to'da masalliqqa aylantirishga ko'nglim bormadi.

Jek hadeb vaqtni boy bermasdan tezroq otishimni tayinladi, men atayin imillab turaverdim.

Serjahl hamrohim imillayotganim uchun meni koyidi. Zardali to'ng'illab: «Bu yoqqa bering qurolni!» – deya uni tortib olmoqchi bo'ldi, men miltiqning og'zini osmonga qaratdim, u go'yo tasodif oqibatidek o'q yeb ketdi.

Gala bir seskanib tushdi. Qora yo'rg'a kishnadi, pishqirib, galani bir aylanib chopdi. Baytallar to'dalashib, chang-to'zonlar ichra ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Ayg'ir galaning goh u, goh bu yonidan chopib, baytallar keyinda qolib ketmasligini nazorat qildi.

Yo'rg'a ko'zdan g'oyib bo'lguncha undan ko'z uzmadim, uning yo'rg'a oyoqlari biron martayam chalkashmadi.

Turgan gap, Jek mening, qolaversa, miltig'imning, yo'rg'aning nomiga ko'p nordon gaplar aytdi, men uning gaplaridan zavq oldim, zo'r quvonch bilan qora yo'rg'aning chiroyi va qudrati haqida xayol surib qoldim.

Yo'q, qandaydir bir baytalni deb shunday yo'rg'aning yaltiroq terisiga dog' tushirgim kelmadi!

Yovvoyi otlarni ushlashning bir nechta xillari bor. Shulardan biri ot ustidan o‘q bo‘shatib, uni bir nafas gangitib qo‘yish, vaziyatdan foydalanib bo‘yniga sirtmoq solishdir. Buni «otni bo‘yin egdirib olish», deyдилar.

– Gapir-a! O‘q yegan yuzlab otlarni ko‘rdim, bari qir oshib qochib ketdi, birontayam «bo‘yin eggan» mustangni ko‘rmadim, – e‘tiroz bildirdi yovvoyi Jo.

Gohida, sharoit taqozo etganda galani qo‘raga haydasa ham bo‘ladi, agar otlar yaxshi bo‘lsa galani quvib yetsa ham bo‘ladi, ammo, bir qaraganda iloji yo‘qday tuyuladigan yana bir yo‘li bo‘lib, bu mustang «tinchidi» yo‘li, ya‘ni, uni holdan toyguncha quvib borish yo‘lidir.

Yo‘rg‘alaganda oyog‘i umuman adashmaydigan ayg‘irning dong‘i kun sayin oshdi. Uning epchilligi, yo‘rg‘asi, chayir tabiati xususida ko‘z ko‘rmagan sarguzashtlar gurungi bo‘ldi.

Uchburchak fermasidan bo‘lmish Montgomer chol Kleytondagi Uels qahvaxonasida ko‘pchilik oldida, agar shu gaplar chin bo‘lsa, unda, shu ayg‘irni kim aravaga bosib olib kelsa, ming dollar beraman, dedi. Buni eshitgan necha o‘nlab yosh kovboylar o‘z xo‘jayinlari bilan tuzgan shartnoma muddati tugab, qo‘l bo‘shadi deguncha, o‘z baxtlarini sinab ko‘rishga ahd qildi.

Yovvoyi Jo barchani dog‘da qoldirmoqchi bo‘ldi. Vaqtni boy bermay, xizmat muddati tugamagan bo‘lsa-da, tuni bilan ovga shaylandi.

Bir o‘rtog‘idan qarzga pul olib, yigirma bosh yaxshi otni, oshxonali aravani kerakli aslaha-anjomlar bilan ta‘minladi, o‘zi, o‘rtog‘i Charli hamda oshpazi uchun ikki haftalik oziq-ovqat jamladi.

Ular bu g‘aroyib, yengiloyoq yo‘rg‘ani «tinchitish»ni qat‘iy ahd qilib, Kleytondan jo‘nab ketdi. Safarlarining uchinchi kuni Jayron bulog‘iga yetib keldi, tushga yaqin galasi bilan suvlagani kelgan qora yo‘rg‘ani ko‘rib, ajablanmadilar ham.

Jo bekinib, gala suvlab bo‘lguncha qorasini ko‘rsatmadi,

sababi, suvsagan ot yaxshi chopishini, suvlab, og‘irlashib qolgani yomon chopishini yaxshi biladi.

Shundan keyingina Jo pistirmadan chiqib, oldinga yurdi. Buloqqa yarim milcha qolganda mustang sergak tortdi, galasini janubiy sharqdagi butazor tog‘ yonbag‘irlariga boshlab ketdi. Jo gala ketidan yalangoyoq bo‘lib chopib, ularni yana bir bor ko‘rdi, qaytib kelib, aravakashlik qiluvchi oshpaziga janubga, Alamozo daryosiga jo‘nashni buyurdi. O‘zi yana janubi sharqqa otlanib, gala izini oldi.

Ikki milcha yurib, yana galani ko‘rdi. Oyoq uchida otlarga yaqin bordi. Biroq ular yana hadik olib, qochib qoldi. Kun shunday o‘tdi.

Gala halqa bo‘lib janubga yurish qildi, kun ufqqa og‘ganda xuddi Jo kutganidek Alamozo daryosi yaqiniga kelib qoldi. Jo ularni yana bir marta hurkitib, aravasiga qaytib keldi, dam olayotgan o‘rtog‘i otda galani quvishda davom etdi.

Arava kechki ta’tildan keyin Alamozonek oldindan kelishilgan yuqori kechuvi bo‘ylab yurdi, Jo shu yerda tunash uchun joylashib oldi.

Charli bo‘lsa galani quvishda davom etdi. Yovvoyi otlar oldingidek uzilib qochmadi, chunki quvib kelayotganlarning hujum qilmasligiga fahmi yetdi, oqibat, bora-bora o‘z ta’qibchilariga ko‘nikib qoldi.

Qosh qorayganda galani poylash yanada qulay bo‘ldi, boisi, ular orasida bir oq baytal bo‘lib, u qorong‘ida oppoq bo‘y berib turardi.

Osmonda oy balqidi. Charli qaysi yo‘ldan yurishni oti ixtiyoriga qo‘yib berdi, o‘zi galani e’tibor bilan kuzatib bordi.

Oppoq baytal bo‘y berib yurdi.

Oxir-oqibat, zim-ziyo tunda hech nima ko‘rinmay qoldi. Shundan keyingina Charli otidan tushib, ustidan egarni oldi, otni o‘tlagani qo‘ydi, o‘zi adyolga o‘ranib, ko‘p o‘tmay uyquga ketdi.

Tong oqarishi bilan Charli yo‘lga ravona bo‘ldi, yarim milcha yo‘l bosib, g‘ira-shiradan oq baytalga, keyin galaga ko‘zi tushdi. Yo‘rg‘a Charlini ko‘rib shiddatli kishnadi, gala yana yelib ketdi.

Yo'rg'a birinchi duch kelgan dovonda oyoq ildi, tinimsiz ta'qib etayotgan kim ekanini bilish uchun ketiga burilib qaradi. Nima gapligini bildi, yana tolmas, ravon, yo'rg'a qadamlar otib olg'a talpindi, galani yo'lchi yulduz misol olg'a chorladi.

Otlar g'arbga yo'l oldi, yana ko'p qochish-quvishlar, yuzma-yuz kelishlar, yana qochishlardan keyin hindular poyloqchilik qiladigan tik do'nglikka kelib qoldi. Bu yerda ularni Jo poylayotgan edi.

Charli do'ngdan ko'kka o'rlagan uzun, ingichka tutundan dam ol, degan ishorani tushundi, u ham cho'ntak oynasini tutib, javob xabarini berdi. Jo dam olgan otlarda ta'qibni davom ettirdi, Charli tamaddi qilib, dam oldi, so'ng Alamoza oqimi bo'ylab yurdi.

Ertasi kuni Jo uzun kun galani ta'qib etdi. Ularni arava borayotgan ulkan yoyimda ushlashga urindi. Kunbotarda bir kechuvga yetib keldi, bu yerda Charli uni tetik otlar, tamaddilar tayyorlab kutib turgan ekan.

Jo kechi bilan, hatto kechasiyam bamaylixotir ta'qib etdi, aftidan, gala beozor ta'qibchilariga yanada o'rganib qoldi shekilli, ularni poylash juda oson bo'lib qoldi. Bundan tashqari, horg'inlik ham ta'sir qildi. Maza o'tli yaylovlar qayerlardadir qolib ketdi. Ular ta'qibchi otlar kabi somon yemadilar. Ustiga-ustak muntazam davom etayotgan asab tarangligi ham o'zini ko'rsatdi. Asabiy taranglik yovvoyi otlarning ishtahasini bo'g'ib qo'ydi, ammo tez-tez suvsay boshladilar.

Ta'qibchilar otlarga tez-tez, to'yib-to'yib suvlash erkin berdi. Boisi, suv ichgan ot chopishda qiynaladi, oyoqlari yog'ochday qotib qolib, nafas olishi qiyinlashadi. Buni yaxshi bilgan Jo otini sug'ormadi. Shu sababliyam holdan toygan gala yaqinida tunagani oyoq ilganlarida o'ziyam, otiyam hali ancha tetik edi.

Tong yorishganda Jo galani osongina qidirib topdi. Ular avval-avval qochdi, so'ng, odimlab yurdi. Ta'qibchilar deyarli g'olib keldi, chunki bunday olishuvda gala hali horimagan dastlabki ikki-uch kun ularni ko'zdan qochirmaslik kerak edi, poyloqchilar esa buning uddasidan chiqdi.

Jo ertalab galani ko‘zdan qochirmay, doimo ularning yaqinida bo‘ldi. Soat to‘qqizlarda Xoze tog‘ida Charli bilan o‘rin almashdi. Shu kuni gala bor-yo‘g‘i to‘rt milcha ilgarilab ketdi, qadamlarida oldingi g‘ayratdan asar ham qolmadi.

Kechqurun Charli dam olib yotgan otga minib quvishda davom etdi.

Ertasi kuni galaning boshi egilib qoldi, qora yo‘rg‘a, har qancha olg‘a chorlamasin, ta‘qib etib kelayotganlar bilan oralaridagi masofa ba‘zan yuz qadamgacha qisqarib qoldi.

To‘rtinchi-beshinchi kunlar ham shunday o‘tdi. Gala yana Jayron bulog‘iga yaqin keldi. Hammasi kutilganday bo‘ldi: gala keng doira yasaydi, ayg‘ir esa uning ichida yuradi.

Yovvoyi otlar buloqqa juda chanqab keladi, ovchilar bo‘lsa tetik otlarda, ko‘tarinki kayfiyat bilan keladi.

Shu kunlarda kechgacha galani suvga yo‘latmadi, so‘ng, Jayron bulog‘iga haydab, to‘yib suvlatdi. Ana endi ko‘pni ko‘rgan kovboylar tetik va to‘q otlarda yurib, sirtmoqni ishga soldi, chunki suv ichgan otlarni ushlab tushov solish oson bo‘ladi.

Ishlar haddan ziyod yaxshi ko‘chdi, faqat bir nima ularni tashvishga solib qo‘ydi: qora yo‘rg‘a hamon temirday mustahkam edi. Uning ravon yo‘rg‘asi aynimagan, dastlabki ta‘qib kunlari qanday bo‘lsa, hozir ham shunday edi. U hamishadagidek galasini matonat bilan boshqarar, kishnar, chopishda namuna ko‘rsatib, ularni olg‘a chorlardi. Ammo otlarning darmoni qurigan edi. Qari oq baytal, kechasi oppoq bo‘y berib yuradigan o‘sha baytal o‘lguday charchab, galadan soatlab keyinda qolib ketaverdi. Baytallar chavandozlardan hadiksiramay qo‘ydi. Ular hademay Joning qo‘liga tushishga shak-shubha qolmadi.

Barcha tashvishlar sababchisi bo‘lmish ayg‘ir esa hamon yetib bo‘lmas dovonligicha qolaverdi.

Joning jizzakiligini yaxshi bilgan o‘rtoqlari u achchiq ustida asov ayg‘irni otib qo‘yishi mumkin degan o‘yga bordi. Ammo Joning ko‘nglida bunday niyat yo‘q edi.

U aygʻirni haftalab quvib, uning biron martayam yoʻrgʻasidan adashib, oddiy qadamlar bosib yurganini koʻrmadi. Barcha yaxshi chavandozlar kabi Jo ham bu goʻzal otga boqib, undan zavq-shavq oldi. Zavqi yanada zoʻrayib, shunday noyob hayvonni otgandan koʻra, oʻzimning manavi otimni otgan maʼqul degan xulosaga keldi.

Aygʻirga qoʻyilgan mukofotni olish kerakmikan? Jo ikkilanib qoldi. Qoʻyilgan pul chakana emas. Lekin aygʻirning turgan turmushi xazina, u asl zotli zurriyot yaratishi mumkin.

Avvalo uni qoʻlga olish lozim. Ovni tamomlash vaqti ham keldi.

Jo oʻzining eng yaxshi otini egarladi. Bu ot tomirida janub qoni bor, ammo oʻzi choʻllarda katta boʻlgan baytal edi. Albatta, bir nimasi boʻlmasa Jo bunday ajoyib otni sotib olmas edi.

Bu yurtlarda loko degan zaharli oʻt oʻsadi. Odatda otlar bu oʻtni yemaydi, bordi-yu, bir tatib koʻrsa, uni yana izlab qoladi. Uning mazasi taryokning kayfiga oʻxshaydi, unga oʻch boʻlgan ot koʻp vaqt oʻzini yaxshi tutib yuradi, oxir-oqibat aqldan ozib oʻladi. Bundaylarni mahalliy xalq «lokoga muftalo boʻlgan mol», deydi.

Joning eng sara otlari koʻzi ham ajabtovur yovvoyilarcha yiltiradi. Sinchilarning aytishicha, bu hol kasallik nishonasi emish. Shu sababliyam Jo baytalni mindi. Baytal baquvvat ham tezkor ovning oxiri bop.

Jo galaga ot qoʻydi. Arqonni yerga tashladi, yoyish uchun ataylab sudradi, soʻng yana chap qoʻliga yaxshilab yigʻib oldi, ov davomida birinchi marta otini aygʻirga niqtab haydadi.

Aqlsiz chopa-chop boshlandi. Qoʻrqib qolgan baytallar yoʻlni boʻshatib, chor tarafga qarab qochdi.

Joning dadil baytali dasht boʻylab oddiy odimlar otib quvdi, aygʻir oʻzining dongʻi ketgan yoʻrgʻasidan adashmay, yoʻrgʻalab qochdi.

Aql bovar qilmaydigan manzara namoyon boʻldi. Jo ovozi hamda uzangilari bilan baytalini olgʻa chorladi. Baytali qushday uchdi, lekin aygʻir bilan oralaridagi masofa bir duym ham kamaymadi.

Qora aygʻir shu chopishida shiddat bilan tekislikdan oʻtdi, togʻ bagʻridagi butazorlardan oʻtdi, koʻzni aldaydigan serqum soyga tushib, bir oʻtloqqa chiqib oldi. U yerda uni bir sugʻur qarshi oldi. Jo uning izidan ot qoʻyib boraverdi. U koʻzlariga ishonmadi... nazarida, aygʻir bilan oralaridagi masofa kamayib emas, balki uzayib ketgandek boʻldi. U oʻzicha soʻkindi, otini niqtadi, chu-chulab haydadi, oxir-oqibat, bechorani asabiy holga olib keldi. Otning koʻzlari olma-kesak terdi, boshi u yoqdan bu yoqqa tebrandi, yerga qaray olmay qoldi, yoʻl tanlamay qoʻydi. Oyogʻi favqulodda boʻrsiqning iniga kirib qoldi. Ot agʻanab ketdi, ustidagi chavandozi yerga uchib tushdi. Jo lat yedi, bir amallab oyoqqa turib, dovdirab qolgan otini koʻtarib turgʻizmoqchi boʻldi. Ammo boʻlar ish boʻlgan, otning old oyogʻi singan edi.

Jo revolvorning bitta oʻqi bilan otning azoblariga barham berdi. Egarni olib lagerga koʻtarib ketdi.

Yoʻrgʻa hamon yelib, oxiri koʻzdan gʻoyib boʻldi.

Buni magʻlubiyat deb boʻlmaydi, chunki ular baytallarni qoʻlga oldi. Jo bilan Charli ularni qoʻraga haydab borib, egalaridan arzigulik inʼomlar talab qildi.

Jo uchun bu kifoya emas. U aygʻirni qoʻlga olishni orzu qildi. Jo aygʻirning bor fazilatlarini bilib oldi, endi u yangi-yangi rejalar oʻylay boshladi...

V

Yovvoyi Jo ustomon odam edi. U qanday qilib boʻlmasin yoʻrgʻani qoʻlga tushirish payida boʻldi, bunga boshqalar ham qoʻl urganini eshitib, tezda yangi rejalarini amalga oshirishga kirishdi. Jo aygʻirni ushlashda chiyaboʻrilar epchil quyonni, hindular jayronni ushlashda qoʻllaydigan usulni qoʻllab koʻrmoqchi boʻldi. Bu qadimgi usul «galma-gal ovlash» deb ataladi.

Yovvoyi yoʻrgʻa yurgan muzofot oltmish kvadrat milcha keladigan uchburchak shaklida boʻlib, janubi hamda shimolidan daryolar, gʻarbidan togʻlar bilan oʻraladi. Ular, yoʻrgʻa shu muzofotdan boshqa yoqqa ketmaydi, Jayron bulogʻi uning doimiy xonaki joyi boʻlib qoladi, deb oʻyladi.

Jo bu yerlarni yaxshi biladi. Uning barcha buloqlari, g'orlarigacha bilib oldi. Agar hozir uning ellikta oti bo'lga-nida edi, ularni jamiki muhim joylarga qo'ygan bo'lardi. Ixtiyorida esa bor-yo'g'i yigirmata oti bilan beshta yaxshi chavandozi bor, xolos.

U ov boshlangunga qadar otlarni ikki hafta somon berib boqdi. Shundan keyingina ularni ovga qo'ydi, chavandozlarga nima qilish kerakligini tushuntirdi. Ular ov boshlanishiga bir kun qoldi deganda o'z joylarini egalladi.

Tayin etilgan kun Jo aravada Jayron bulog'iga yo'l oldi, chetroqdagi torgina soylikda to'xtab, kuta boshladi.

Nihoyat, janubdagi adir tarafdin ko'mirday qop-qora ayg'ir ko'rindi, u odatdagidek buloqqa yolg'iz o'zi ena boshladi.

U avval g'animlarim bekinib poylamayotganmikin degan hadikda buloqni aylanib, is oldi. So'ng so'qmoqsiz yerlardan buloqqa qarab yurdi.

Jo ayg'irni poylab o'tirib, iloji bo'lsa uning ko'proq, bochka-lab suv ichishini istadi. Yo'rg'a tumshug'ini o'tga endi cho'zgan ham edi, Jo otini niqtab haydab qoldi. Yo'rg'a tuyuq tovushini eshitdi, chavandozni ko'rdi-da, yana ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Tekis yerga chiqib, janubga burildi, qum tepaliklar oralab bor kuchi bilan chopdi, ta'qibchisidan borgan sayin olisladi. Joning oti horib, qumda har qadamda yiqilib turaverdi, oqibat, borgan sayin keyinda qolaverdi.

Yana tekis yerga chiqqanlarida Joning oti oradagi ma-sofani ancha ozaytirishi mumkin edi, lekin enish boshlanib qolib, yana shashtidan qaytdi, oqibat, yana-da keyinda qola boshladi.

Ammo Jo yo'rg'ani quvishda davom etdi, xivichniyam, uzanginiyam ayamadi. Bir mil, ikki, uch... Arribi qirlari ko'zga chalinib qoldi.

Arribida yangi otlar bor. Jo buni biladi, shu sababli kuchiga kuch qo'shilib ot qo'yadi. Yo'rg'aning tunday qop-qora yollari esa shamollarda yoyilib-yoyilib olislab boradi.

Ana, nihoyat, Arribi darasiga doxil bo'ldi. G'orda qorovullik qilib turgan kovboy o'zini panaga oldi, yo'rg'a uning yonidan o'tib ketdi. Yo'rg'a shamolday pastga yeldi, so'ng nishab bo'ylab yuqoriladi.

Jo yangi otga minib, avval pastga, keyin yuqoriga ot soldi. Otini niqtab haydab chopaverdi, chopaverdi, lekin oradagi masofani kamaytirolmadi.

Dupur-dupur-dupur... tuyuq tovushlari. Bir soat, ikki, uch soat o'tdi, oldinda Alamoza ko'rindi, xuddi o'sha yerda yangi chavandoz kutyapti.

Jo baqirib, otini yanada tezladi. Qora ayg'ir mo'ljalidagi yerga qarab chopdi, ammo ikki milcha qolganda nimadandir hadik olganday chapga burildi. Jo yo'rg'a qutulib ketishini payqab, holdan toygan otiga yana qamchi bosdi, yo'rg'ani qanday qilib bo'lmasin, ko'zlangan tarafga burish yo'lini izladi.

Olishuv haddan ziyod qiyin bo'ldi. Joning nafasi qaytib qoldi. Ot har sapchiganda egar terisi g'ijirlayverdi.

Jo ko'ndalang yelib chiqib quvdi, yo'rg'ani hurkitish uchun revolverdan ustma-ust o'q uzdi, nihoyat, uni chapdagi kechuvga burishga muvaffaq bo'ldi.

Ular daryo bo'yiga keldi. Yo'rg'a yo'lidan qolmay yeldi. Jo otdan tushdi. Oti o'ttiz mil chopib darmoni quridi, Joyam holdan toydi. Ko'zlari changdan qizardi, garchi hech nimani ko'rmayotgan bo'lsa-da, Tomga qo'lini silkib: «Yo'rg'ani Alamoza orqali kechuvga haydab bor», – deya qichqirdi.

Yangi chavandoz tetik, chayir otda o'nqir-cho'nqir yoyilma bo'ylab qora ayg'ir ketidan chopdi. Ayg'ir oppoq terga botdi, biqini ko'tarilib-ko'tarilib og'ir nafas oldi, holi tang bo'ldi. Baribir chopishda davom etdi...

Tom oldiniga ayg'irga yaqinroq borganday bo'ldi, so'ng yana keyinida qoldi. Alamoza o'rnini yangi otliq egalladi.

Ayg'ir g'arbga burildi, sug'urlar makonini yonlab chopdi, kiyim yirtar kaktuslar, tikanli changalzorlar oralab chopdi. Ayg'ir ter bilan changdan ola-bula bo'lib ketdi, ammo yo'rg'asidan adashmadi. Yo'lida duch kelgan jardan sakrab o'tib ketdi. Izidan quvib kelayotgan yosh Kerington ham

otini sakratmoqchi bo'ldi. Ammo oti bilan qo'shilib pastga yumalab ketdi... yosh chavandoz bir amallab omon qoldi, ammo oti xarob bo'ldi.

Qora ayg'ir zafarli yo'rg'asida davom etdi...

Jo Gallego cholning fermasi yonida nafasini rostlab poylab turdi. Yarim soat o'tmay, u yana yo'rg'ani quvib ketdi.

G'arbda Karlos tog'lari ko'zga tashlandi. U yerda ham Joni odamlar yangi otlar bilan poylab turibdi. Buni bilgan tolmas chavandoz ayg'irni g'arbga burmoqchi bo'ldi. Ammo yo'rg'a qandaydir bir xayolga berildimi yo ko'ngli bir nimani sezdimi, har qalay, birdan shimolga qayrildi.

Jo bor san'atini ishlatdi, qichqirdi, o'q uzdi, bari bekor bo'ldi. Qora chaqmoq adir bo'ylab pastladi, Jo uning izidan borishga majbur bo'ldi.

Xuddi shu yerda olishuvning eng qiyin ham azob-uqubatli davri boshlandi. Jo yo'rg'aga berahm bo'ldi, o'zi bilan otiga esa undan beshbattar beshafqat bo'ldi. Kun ayovsiz kuydirdi, qizigan yoyilma uzra oftob tafti jimirladi. Joning ko'zlari yondi, lablari sho'r, betamiz changdan chirsilladi.

Olishuv davom etdi. Muvaffaqiyatga erishishning birdan bir yo'li yo'rg'ani Alamo zodan o'tadigan kechuvga qaytarish qoldi.

Olishuv boshlangandan buyon Jo birinchi marta qora yo'rg'ada tolginlik alomatlarini ko'rди. Dumi bilan yollari avvalgidek yoyilmay qo'ydi, oralaridagi yarim millik masofa yarimlab qoldi.

Yo'rg'a baribir olg'a talpindi, yana, yana yo'rg'alab, olg'a talpindi...

Soatlar ketidan soatlar o'tdi, yo'rg'a hamon olg'a yeldi. Ammo to'g'ri yo'ldan burildi. Yigirma milcha yo'l bosib, kechroq Alamo zodan o'tadigan kechuvga yetib keldi.

Jo yo'lda tayyor turgan otni minib, ayg'irni yana o'zi quvib ketdi.

Jo qoldirib ketgan ot entikib, o'zini suvga urdi, suv ichib-ichib, yumalab o'lib qoldi.

Jo, qora ayg'ir suv ichadi, degan umidda biroz sekinladi.

Ammo uning aytgani bo'lmadi! Ayg'ir bor-yo'g'i bir ho'pladi, tevarakka suv sachratib, narigi sohilga o'tib ketdi. Jo uning ketidan qadam-baqadam bordi. Kechuvda ularni kuzatib qolgan kovboy Jo ayg'irga xiyla yaqin kelib qolganini, hatto yetay-yetay deb qolganini ko'rdi...

Ertalab Jo lagerga piyoda keldi. Uning sarguzashti lo'nda bo'ldi: sakkiz ot nobud bo'ldi, besh odam butunlay holdan toydi, g'aroyib yovvoyi yo'rg'a esa hamon o'z erkida yuribdi...

– Endi bir nima qilish qiyin! Unga yetib bo'lmaydi. Joyi kelgan vaqtlari la'natining terisini teshib tashlamaganimga achinaman! – dedi Jo, so'ngra, yo'rg'ani quvishdan voz kechdi.

V

So'nggi safarda ham Kurka Iz oshpaz bo'ldi. U ham olishuvni boshqalar qatori qiziqish bilan kuzatib bordi, Joning omadi kelmaganda o'zicha kulimsirab qo'ydi, qozoniga qarab qo'yib, dimog'ida ming'irladi:

– Shu yo'rg'ani ushlab olmasam, odam emasman!

Yo'rg'a tinimsiz ta'qiblar oqibatida yanada yovvoyilashib ketdi. Baribir Jayron bulog'iga kelib ketaverdi. Buloq yalanglikdagi yakka-yu yagona suvloq bo'lib, bir mil tevarak-atrofdagi g'animdan bekinadigan pana joy yo'q edi. Shu sababliyam yo'rg'a yaqin-atrofdagi tushlarda paydo bo'lib, biron xavf-xatar yo'qligiga ishonch hosil qilgachgina buloqqa suv ichgani kelardi.

U galasidan ayrilib, butun qishni yolg'iz o'zi qishladi. Qari Kurka buni yaxshi bilib olib, rejalarini shunga mosladi. Bir o'rtog'ining to'riq baytali bor edi. Qari shu baytalga egar urdi, zanjir, belkurak, yana bir arqon hamda yo'g'on qoziq olib, buloqqa ravona bo'ldi.

Bir to'da jayron ulardan hayiqib, pana-panalarga g'oyib bo'ldi. Mollar o't uzra yoyilib yotadi, to'rg'aylar qo'shig'i jaranglaydi. Yerdan beg'ubor, qorsiz qish nafasi ko'tarilgan, ko'klam yaqin qolgan...

Tom ushoqqina to'riq baytalni arqonlab, o'tga qo'ydi, baytal tumshug'ini ko'kka tinimsiz cho'zib, olis-olis kishnadi.

Qari Kurka shamol qayoqdan esayotganini aniqladi, tevarak-atrofga nazar soldi. O'sha o'zi qazishib yuborgan o'ra haliyam bor ekan. O'ra ochiq, ichi to'la sassiq suv, sug'ur, sichqon o'liklari suzib yuribdi. Suvlagani kelgan hayvonlar o'ra chetidan yangi so'qmoq ochibdi.

Kurka ko'm-ko'k maysazor yonidagi quyuq qamishzorni ma'qul topib, shu yerga qoziq qoqdi, so'ng, pana bo'ladigan katta o'ra qazib, ichiga adyol to'shadi. Baytal olislab o'tlab ketmasin deb, arqonni yerga uzatib tashlab, bir uchini ustunga bog'lab qo'ydi, arqonni tuproq va o'tlar bilan bekitdi. Keyin o'zining xilvatgoh o'rasiga berkinib o'tirdi.

Tush vaqti-tush vaqti to'riq baytal yo'qlab kishnadi. Shunda... shunda, kunbotardagi adirdan javob kishnash keldi... mashhur yovvoyi yo'rg'a osmon fonida qop-qorayib bo'y berdi!

Yo'rg'a ravon, alp-alp yo'rg'aladi, oyoq ilib, tevarakka hadiksirab alangladi, pishqirib yo'rg'aladi. Baytalning yo'qlab kishnashi yo'rg'aning ko'nglida aks sado berdi. Yo'rg'a yaqinroq kelib, yana kishnadi, birdan sergaklandi, aylanib katta doira yasadi, burni bilan shubhali hid ovladi.

Shunda, to'riq baytal yana kishnadi. Yo'rg'a yana bir bor doira yasab, u ham kishnadi. Baytalning javob kishnashi yo'rg'aning ko'nglidagi bor hadiklarni yo'q qilib yubordi. Yo'rg'aning yuragi yonib ketdi!

Yo'rg'a gijingladi, to'riq baytal – Sollining oldiga keldi, burniga burnini tekkizdi. Xuddi shu payt orqa oyog'i sirtmoqni bosib oldi. Tom arqonni birdan tortdi, mustang sirtmoqqa ilindi. U vajohat bilan ko'kka sapchidi. Tom bundan foydalanib ayg'irning oyog'idan arqonni ilondek ikki aylantirib oldi.

Mash'um ko'rgilik ayg'irning kuchiga kuch qo'shdi. U yana sapchidi, ammo sirtmoqdan oyog'ini tortib ololmadi, yerga g'aribona, mag'lubona ag'anab tushdi.

Chuqurdan qari Tomning munkaygan xunuk jussasi ko'rindi. U tabiatning noyob molini tezroq qo'lga kiritish uchun shoshildi. Otning qudrati ushoqday zaif bir cholning aql va hunari oldida ojiz bo'lib qoldi. Yo'rg'a pishqirdi, ozodlik uchun jon-jahdi bilan olishdi, ammo besamar bo'ldi, sirtmoq oyoqlariga yopishib oldi.

Tom ayg'irning old oyoqlariga ham sirtmoq soldi. So'ng, arqon bilan ayg'irning to'rtta oyog'ini bitta qilib qo'shib tortdi. Darg'azab yo'rg'a, axtalangan cho'chqaday ojizona sulayib, yotib qoldi. Bechora so'nggi darmoni qolguncha tipirchiladi, o'pkasi to'lib keldi, o'ksik zarbidan a'zoyi badani zir-zir qaltiradi, yuzlaridan marjon-marjon yoshlar oqdi...

Tom ayg'irning holini ko'rib, ko'nglida g'alati bir nima paydo bo'ldi. Ilk bor sirtmoq bilan ho'kiz ushlaganida bo'lganidek, bosh-oyog'i zir titradi. Bir necha daqiqa joyidan qimirlay olmay, o'zining noyob bandisiga termilib qoldi.

Ko'p o'tmay cholning hayajoni so'ndi. O'ta mash'um ishni bajargan baytalga egar urdi, yangi arqon olib, yo'rg'aning bo'yniga soldi. Baytalni ayg'irning oldiga qo'ydi. Tom yo'rg'a endi ketolmasligini bilib, arqonni bo'sh qo'ymoqchi bo'ldi, shunda, xayoliga favqulodda bir fikr keldi. O'ylab qarasa, g'oyat zarur bir ish esidan chiqayozibdi. Garchi sharoit bo'lmasa-da, shu ishni bajarishga kirishdi.

G'arb odati bo'yicha yovvoyi yo'rg'aning badaniga kim birinchi bo'lib o'z tamg'asini bossa, yo'rg'a o'shaniki bo'ladi. Yaqin yigirma milda hayvonlarni tamg'alaydigan asbob topilmaydi, nima qilsa bo'ladi?

Qari Tom tadbirkor edi. U baytalning taqalarini birin-ketin qarab ko'rdi. Taqalarning birovi xiyla bo'shab qolgan edi. Tom shu taqani belkurak bilan qo'porib oldi.

Yoymani aylanib o'tin terib keldi. Ko'p o'tmay olov lovulladi. Tom taqani bir uchidan qo'lro'mol bilan o'rab ushlab, olovga toblab qizartdi. Keyin taqa qirrasini ayg'ir bechoraning chap yag'riniga uch marta bosib oldi, yag'rinda kurak iz misol dag'al tamg'a qoldi.

Yo'rg'a qizigan temir badaniga tekkanda seskanib ketdi. Ish ko'z ochib yumguncha bo'lib o'tdi. Shunday qilib, yovvoyi yo'rg'a insonga qaram bo'lib qoldi.

Endi yo'rg'ani uyga olib ketish qoldi. Tom sirtmoqni bo'shatdi. Yo'rg'a oyog'i bo'shaganini sezib, butunlay erkin bo'ldim deb o'yladi, joyidan sapchib turdi, talpindi, ammo yana ag'anab tushdi. Yo'rg'aning old oyoqlari qo'shib bog'lab qo'yilgan, u faqat sapchib-sapchib yurishi mumkin edi.

U qochishga ko'p intildi, ammo har safar qo'shaloq bog'loqliq oyoqlari xalaqit berib, yumalab tushaverdi. Tom baytalni minib, yo'rg'ani uyga olib jo'nadi. U yo'rg'ani yetakladi, chu-chulab haydadi, turli yo'llar qilib ko'rdi, ammo qaysar, badjahl, oppoq ter ko'piklarga botgan ayg'ir bo'yin egmadi. Ayg'ir yovvoyilarcha kishnadi, qahr bilan pishqirdi, ozodlik yo'lida telbalarcha to'lg'andi.

Olishuv shafqatsiz, olis davom etdi. Yovvoyi yo'rg'aning yarqiroq sag'rilar qon aralash terdan qorayib ketdi. Behisob yiqilib-turishlar, besamar olishuvlar yo'rg'aning tinka-madorini quritdi, u uzun kun davom etgan quvg'inda ham bunchalik horib tolmagan edi.

Ayg'ir goh u yoniga, goh bu yoniga tinimsiz talpindi, shiddatli sapchishlari borgan sayin zaiflashib bordi, burnidan otilayotgan ko'piklar qonga belandi.

Berahm, zo'ravon g'olib chol esa sokin bir kayfiyatda ayg'irni chu-chulab haydadi, yurishga majbur qildi.

Ayg'ir bilan chol har bir qadam uchun olishdi, nishab yerdan daraga endi, yana ham pastdagi daralarga eltadigan so'qmoqlar boshiga yetdi. Bir vaqtlar yo'rg'aga qaram bo'lmish yaylovning shimoliy chegarasi xuddi shu yerdan o'tardi. Olislardan to'siqlar hamda fermalar ko'zga tashlandi. Qari Tom tantana qildi.

Yovvoyi yo'rg'a qolgan bor kuchini yig'ib ozodlik yo'lida jon-jahdi bilan yonbag'ir bo'ylab yuqoriga talpindi. Yana, yana yuqoriladi, badaniga botayotgan arqonga ham, uni to'xtatib, iziga qaytarish uchun uzilgan o'q ovozigiga ham parvo qilmadi, u ozodlikka talpindi...

Yovvoyi yo‘rg‘a yana, yana yuqoriladi, ana, tik qoyaga ko‘tarildi. Qoyadan pastga – havoga sakradi, ikki yuz futcha uchib yurdi, yana, yana pastlab... toshga borib tushdi. U jonsiz sulayib qoldi, ammo... ozod bo‘lib qoldi!



Savol va topshiriqlar:

1. Adibning hayot yo‘lini o‘qing. Undagi iste’dod qirralari bolaligida qanday namoyon bo‘lganini so‘zlab bering.
2. Seton-Tompsonning muvaffaqiyati va mashhurligining boisi nimada deb bilasiz?
3. Yovvoyi otlarning, Jo Kalon aytganday, foydasiz, o‘jar, qahrli ekanligida ularning qanday xarakter xususiyatlari yashiringan?
4. Yovvoyi yo‘rg‘aning fermerlarning qo‘lga o‘rgatilgan baytallarini ergashtirib ketishining sababini tushuntiring.
5. 1893-yil dekabridagi voqeada tabiat va ov ishqibozi bo‘lgan yigit nima uchun qora ayg‘irni otib o‘ldirish imkoni bo‘la turib, undan foydalanmadi? Bu odam boshqalardan nimasi bilan farq qiladi?
6. Yovvoyi yo‘rg‘aning mashhur bo‘lib ketishi sababini hikoya matnidan kelib chiqib tushuntirib bering.
7. Uchinchi va beshinchi boblardagi ayg‘irni ovlash lavhalariga suyangen holda kovboy Jo hamda yo‘rg‘aga tavsif bering. Ular o‘rtasida o‘xshashlik bormi?
8. **«Ayg‘irga qo‘yilgan mukofotni olish kerakmikan? Jo ikkilanib qoldi. Qo‘yilgan pul chakana emas. Lekin ayg‘irning turgan turmushi xazina, u asl zotli zurriyot yaratishi mumkin»** jumalari Joga xos yana qaysi jihatlarni namoyon etmoqda?
9. Otlarni ovlash tadbiri va jarayoniga diqqat qarating. Bunda sizning e‘tiboringizni nima ko‘proq jalb qildi?
10. Yo‘rg‘aning Jo qo‘ygan tuzoqlarga tushmagani boisini izohlashga urining.
11. Kurka Iz ayg‘irni tutish uchun qanday tuzoq qo‘yganligiga e‘tibor bering. Bunda uning qaysi jihatlari namoyon bo‘lmoqda?

12. Qo‘lga tushgan yo‘rg‘a bilan olishuvda Kurka Izning otga munosabati orqali uning ichki olamini tasavvur qilish mumkinmi?
13. *«U jonsiz sulayib qoldi, ammo... ozod bo‘lib qoldi!»* jumlasining hikoya mavzusi va g‘oyasini nechog‘liq oydinlashtirayotganini izohlang.
14. Agar hikoyani boshqacha nomlash kerak bo‘lsa, siz unga qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lardingiz?

MUNDARIJA

Badiiy soʻz qudrati.....	3
---------------------------------	----------

KOʻZIM QAROGʻIDASAN, VATAN!

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY.....	12
Jonlarni jononi vatan.....	15
Dardiga darmon istamas.....	18
<i>Adabiyot tarbiya vositasi sifatida.....</i>	19
SAIDA ZUNNUNOVA.....	21
Sheʼrlar.....	24
SHUHRAT.....	27
Mardlik afsonasi.....	30
<i>Ballada.....</i>	36
RASUL HAMZATOV.....	37
Sheʼrlar.....	39

OʻYLARIMNING CHEKSIZ OSMONI

ASQAD MUXTOR.....	44
Sheʼrlar.....	47
<i>Sheʼr vaznlari.....</i>	51
MIRMUHSIN.....	55
Meʼmor.....	57
<i>Roman va uning turlari.....</i>	75
OʻLMAS UMARBЕКOV.....	77
Qiyomat qarz.....	80
CHINGIZ AYTMATOV.....	89
Oq kema.....	91
<i>Ramziy obrazlar.....</i>	123

OʻTMISHDAN SADOLAR

«Ravshan» dostoni.....	126
«Ravshan» dostoni haqida.....	154
<i>Badiiy obraz va mubolagʻali tasvir.....</i>	158
ALISHER NAVOIY.....	161
«Sabʼai sayyor» dostonidan.....	166
<i>Tashbih, tanosub, irsoli masal sanʼatlari.....</i>	213
TURDI FAROGʻIY.....	216
Sheʼrlar.....	217
<i>Millatni birlikka chorlagan shoir.....</i>	224

JAHON OTIN UVAYSIY	228
She'rlar.....	230
<i>Chiston haqida</i>	234
<i>Qofiya va radif</i>	236
ZAVQIY	238
She'rlar.....	241
MAXTUMQULI	247
She'rlar.....	251

YANGI DAVR NAFASI

ABDULLA QODIRIY	256
«Mehrobdan chayon» romanidan boblar.....	258
CHO'LPON	301
She'rlar.....	304
Ko'chim.....	310
ABDULLA QAHHOR	312
O'g'ri.....	313
Dahshat.....	317
MIRTEMIR	327
She'rlar.....	329
XAYRIDDIN SALOH	336
She'rlar.....	337
ERNEST SETON-TOMPSON	341
Yovvoyi yo'rg'a.....	346

O'quv nashri

**QOZOQBOY YO'LDOSHEV, BEGALI QOSIMOV,
VALIJON QODIROV, JALOLBEK YO'LDOSHBEKOV**

ADABIYOT

*Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
7-sinfı uchun darslik-majmua*

Qayta ishlangan 3-nashri

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent – 2013

Muharrir *R. Boyto'ra*
Badiiy muharrir *F. Basharova*
Texnik muharrir *L. Xijova*
Musahhihlar: *Sh. Xurramova, M. Ziyamuhamedova*
Sahifalovchi *L. Soy*

Nashr litsenziyasi AI № 201, 28.08.2011

Tayyor diapozitivdan bosishga ruxsat etildi 29.03.2013. Bichimi 60x90 $\frac{1}{16}$.
Ofset bosma. «Times New Roman» garniturası. Shartli bosma tabog'i 23,0.
Nashriyot-hisob tabog'i 23,92. Adadi 55720 nusxa. Buyurtma № 2850-A.

**«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,
100000, Toshkent shahri, «Buyuk Turon» ko'chasi, 41.**

Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

T/r	O'quvchi-ning ismi, familiyasi	O'quv yili	Darslik-ning olin-gandagi holati	Sinf rahba-rining imzosi	Darslik-ning top-shirilgan-dagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijaraga berilganda va o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning foydalanishga birinchi marotaba berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, u yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan, darslikni tiklab bo'l-maydi.